ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,1

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 15.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 15.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 15.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ULUQOV NOSIRJON MUHAMMADALIYEVICH,
SOLIXO‘JAYEVA HAVASXON ZOKIRJANOVNA
O‘zbek va turk bayramlarining leksik-semantik tasnifi hamda etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili 7

МАХМАРАИМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА
Биз нега сўкинамиз? (ёки ҳақоратнинг нейролингвистик табиати) 10

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi fors-tojikcha gidronimlarning semantik va funksional xususiyatlari 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH,
MARDONOVA SARVINOZ ORIPOVNA
O‘zbek tilshunosligida ravishga nisbat beriluvchi oraliq ma’no ifodali affikslar tadqiqi xususida 20

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida bolalar o‘yinlarining nomlari 24

BOTIROVA MAXLIYO
O‘zbek tilida reklama matnlarining morfologik xususiyati 28

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
O‘zbek lingvomadaniyatida «Intizorlik» frazeosemantik guruhi 33

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Kasb ohangi nutqda qanday jaranglaydi? 37

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI,
BABAYEVA SURAYYO ERGASHOVNA,
JUMAYEVA ANORXOL CHAMAN QIZI
O‘zbek tilshunosligida zamon kategoriyasining nazariy asoslari 39

TESHABOYEVA GULNOZA
O‘zbek tilida “Qora” rangini ifodalovchi sifatlarda mazmuniy sinkretizm 42

SAMIYEVA SURAYYO ORIPOVNA
Evfememik vositalarning funksional uslubiy xususiyatlari 47

PO‘LATXONOVA HILOLAXON SHUHRATXON QIZI
Neurolinguistic and linguocognitive features of speech manipulation in cyberspace 50

SOBIROVA FERUZA
Saylov targ‘ibot diskursida pragmatik belgilar 54

QURBONOVA MUHARRAM JURABEKOVNA
Xurshid Davron she’riyatida murojaat gaplarning qo‘llanilishi 58

ABDUG‘ANIYEVA ZEBUNISO
Ilmiy diskursning institutsional-kommunikativ tabiati 61

BADALOVA MUAZZAM
Kibermuloqotda nutq aktlari va etik me’yorlar: ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy tahlili 65

ERGASHOVA YASMINA,
XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Neologizmlar klassifikatsiyasi 67

МУНДАРИЖА

O‘ROZBOQOVA MAHLIYO IMOMNAZAR QIZI
Xalq og‘zaki ijodi namunalarida takrorlarning qo‘llanilishi 71

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Dostonlarda ornitonimlarning majoziy ma’no ifodasi 74

NURMATOVA SABRINA JAXONGIR QIZI
«Devonu lug‘otit turk» va «Qutadg‘u bilig» asarlarida qora rangning qo‘llanilishi 78

OCHILOVA MUXLISA ABDURAXMON QIZI
Badiiy diskursda kinoya nutqiy aktining pragmatik xusuiyatlari 81

РАХМАТУЛЛАЕВА БАРНО ЗАФАР КИЗИ
Экзотическая лексика как маркер культурной идентичности персонажей
(на материале романа Г. Яхиной «Зулейха открывает глаза») 85

RUSTAMOVA NIGORA RUSTAM QIZI
O‘zbek tilida duolar va olqishlarning lingvomadaniy talqini 89

ABDINAZAROVA GULISTON MUZAFFAR QIZI,
KHUJANOVA OZODA TOJIYEVNA
Conceptualization of love in uzbek and russian literary discourse:
a comparative cognitive-semantic and axiological analysis 93

O‘RMONOVA DURDONAXON TAVAKKALJON QIZI
Ingliz va o‘zbek tillarida “Tinchlik” konseptining o‘xshash va farqli jihatlari 97

ADABIYOTSHUNOSLIK

MUHIDDINOVA BADIA MUSLIHIDDINOVNA,
AXMEDOVA BAXTIGUL XAITMUROT QIZI
Qardosh xalqlar dostonlarida farzandsizlik motivi 101

RAXIMOVA NODIRA
Pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu’da intertekstual birliklarning
ifodalanish mexanizmlari va tipologik farqlari 104

MAMIROVA MAMLAKATXON ILHOMJON QIZI
Nasriy asarda ramziylik 111

КУЗИМУРОДОВА ЛОБАР МУРОТОВНА
Образ маленького человека в повести л.улицкой «Сонечка» 115

XOTIRA

Yuraklarda yashayotgan inson
Marhum tilshunos olim Ro‘ziqul Normurodovning
65-yillik porloq xotirasiga bag‘ishlanadi 119

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK VA TURK BAYRAMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI HAMDA ETNOLINGVISTIK, LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori

Solixo'jayeva Havasxon Zokirjanovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston o'ziga xos an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylagan milliy qadryatlar mamlakatdir. Bu zaminda azaldan nafaqat o'zbeklar, balki turli millat vakillari ham yashab kelgan. Mahalliy aholi hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo va chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu omillarning barchasi, albatta, o'zbek xalqi tarixi va madaniyatida, jumladan, o'ziga xos milliy bayram an'analarining shakllanishida ham o'z izini qoldirgan.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, fanlarning integratsiyasi, turli millatlar, xususan, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'naviy va turistik hamkorlik va sheriklik, shuningdek, turk va o'zbek xalqlari o'rtasidagi qardoshlik munosabatlari, xususan, lingvistik va ekstralingvistik omillar til, madaniyat, tarix va etnografiyani qiyosiy o'rganish ko'lamini taqozo etmoqda. Boisi, har bir xalqning bayramlari, ma'naviy-ma'rifiy festivallari, tadbirlari uning tarixi, yashash tarzi, etnografiyasi, diniy e'tiqodi, milliy-madaniyati haqida yorqin tasavvurlar beradi.

Onomastikaga oid terminologik lug'atlarda har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shunday marosim hamda tadbirlarning atoqli otlari *geortonim* (yun. *heortne* – georto + *onoma* – atoqli ot)lar deb yuritiladi[1].

Geortonimlarga nafaqat bayram nomlari va xuddi shunday semaga ega bo'lgan siyosiy, madaniy, san'at, sport tadbirlarining nomlari ham mansubdir.

O'zbek va turk geortonimlarini tarqalish arealiga ko'ra quyidagi tasnifiy guruhlarga ajratish mumkin (Heortonimlerin Yayılış alanına Göre Sınıflandırması):

I. Milliy geortonimlar (Milli/Ulusal Heortonimler). Ma'lum bir millatning tarixi, milliy qadriyatlari, an'analari bilan bog'liq muhim voqea-hodisalarni nishonlab o'tkaziladigan bayramlar milliy bayramlar sanaladi. Shunday bayramlar ham borki, ular bir necha millatlarning milliy bayrami sifatida shakllanib, taraqqiy etganligi bois umumga tegishli, ya'ni umumxalq va xalqaro bayramlar sifatida qadrlanadi. Masalan,»*Navro'z bayrami»,»Mustaqillik bayrami», Ramazon hayiti (Iyd-al-Fitr), Qurbon hayiti (Iyd-al-Adha), Yangi yil bayrami, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami* kabi. O'zbek tili zamonaviy geortonimlarining katta qismini madaniyat, sport, ilm-fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, xalq ijodi bayramlarining maxsus nomlari tashkil etadi.

Milliy geortonimlarni ham hududiy yoyilishi nuqtai nazaridan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Hududiy/mahalliy geortonimlar (Yerel / Mahalli Heortonimler): *Manisa quruq uzum bayrami (Manisa Kuru Üzüm Şenliği*), *Manisa mesir majunu* (Manisa shahrida yetishtiriladigan dorivor shirinlik) *festivali (Manisa Mesir Macunu Festivali), Manisa she'r oqshomlari festivali* (*Manisa Şiir İkindileri (*tushdan keyingi kechga yaqin vaqt) *Festivali), Manisa uzum festivali (Manisa Üzüm Festivali), Mug'la achchiq o't* (mahalliy yovvoyi o'tlar, ayniqsa achchiq ta'mli o'simliklar va ularning gastronomik, dorivor xususiyatlariga bag'ishlangan) *festivali (Muğla Acı Ot Festivali)* kabi.

2. Milliy geortonimlar (Ulusal) Heortonimler): *10-noyabr Otaturkni xotirlash kuni (10 Kasım Atatürk'ü Anma Günü),19-may Otaturkni xotirlash, yoshlik va sport bayrami (19 Mayıs Atatürk'ü Anma Gençlik ve Spor Bayramı), 23-aprel Milliy suverenitet va bolalar bayrami (23 Nisan Ulusal Egemenlik*

[1] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.24.

ve Çocuk Bayramı), 29-oktyabr Respublika bayrami (29 Ekim Cumhuriyet Bayramı), 30-avgust G'alaba bayrami (30 Ağustos Zafer Bayramı), Ozodlik tantanalari (Kurtuluş Şenlikleri) kabi.

I. Xalqaro geortonimlar (Uluslararası / Evrensel Heortonimler). Xalqaro geortonimlar turli xalqlar va etnoslarning birdamligi, totuvligi, hamdo'stligini ta'minlash vositasi sifatida millatlararo totuvlikni o'rnatish vazifasini bajaradi. Masalan, *Ramazon hayiti (Ramazan Bayramı), Navruz bayrami (Nevruz), Qurbon hayiti (Kurban Bayramı), Onalar kuni (Anneler Günü),Otalar kuni (Babalar Günü), Hidirellez (Hıdırellez), Yangi yil (Yılbaşı), 14-fevral Sevishganlar kuni (14 Şubat Sevgililer Günü)* kabi.

Geortonimlarni leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. An'anaviy-mavsumiy geortonimlar. Bunda bayramlarning muayyan davr taqozosiga ko'ra, ma'lum vaqt ichida muntazam tarzda o'tkazilishi e'tiborga olinadi. Bayramlarning bu guruhi, uzoq taraqqiyot jarayonida xalqning madaniy-ma'rifiy tafakkuri, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida shakllangan bo'lib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati jarayonida, atrof-muhit, tabiat, fasl, mehnat jarayoniga bog'liq tarzda avloddan-avlodga o'tish an'anasi orqali taraqqiy etgan. Mazkur bayramlar yillar davomida, ma'lum bir fasl, mavsum bilan bog'liq tarzda nishonlanganligi bois, ularni *mavsumiy-an'anaviy* bayramlar sifatida tasniflash o'rinlidir.

O'zbek xalqi bunday an'anaviy-mavsumiy bayramlarni ko'p nishonlaydi. Bunga qadim zamonlardan to hozirgi kungacha muhim o'rin tutgan *Angom hayiti (Suv sayli), Anor sayli, Arg'uvon guli, Asal sayli, Behi guli sayli, Bog' sayli, Boychechak sayli, Gul bayrami, Gulgardoni bulbulxon, Guli armug'on, Go'zallik malikasi bayrami, Do'lana sayli, Mehrjon, Qizil gul bayrami, Qizilgul sayli, Qovun sayli, Qum sayli, Lola sayli, Navro'z, Olma sayli, Palov sayli (Osh sayli), Sada //Olov bayrami, Sayli guli surx, Suv sayli, Sumalak sayli, Sunbula sayli, Tut sayli, Uzum sayli, O'rik sayli, Hosil bayrami, Chuchmoma sayli* kabi.

2. Tabiat bilan bog'liq geortonimlar. Bunday bayramlar xalqning tabiat bilan bog'liq diniy va dunyoviy qarashlarining mahsulidir. Ular yil fasllarining ma'lum bir oy va kunlari bilan bog'liq bo'lganligi bois, ayrim adabiyotlarda *fasliy, mavsumiy* bayramlar sifatida tasniflanadi. Keyingi yillarda tabiat bilan bog'liq yangi ekologik bayramlarning paydo bo'lishi, xalqning tabiat bayramlariga bo'lgan yuksak e'tibori, ona tabiatga bo'lgan beqiyos hurmatidan dalolatdir: «*Oltin kuz*» xalqaro san'at festivali (2016), «*Boysun bahori*» festivali (Surxondaryo, 2018, 28-29-aprel), «*Havo sharlari*» ekofestivali (2017), *Bog' sayli, Boychechak sayli, Gul bayrami, Mehrjon, Navro'z sayli, Sayli guli surx, Hosil bayrami* kabi.

3. Siyosiy geortonimlar. Xalqning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan ramziy bayramlari mavjud. Ular xalqning erki, huquq va majburiyatlarining asosi sifatida, millat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan muqaddas bayramlardir. Keyingi yillarda yurtimizda, yangicha mazmun, yangicha shakl an'analar qatori, siyosiy geortonimlar ham paydo bo'ldi. Ular xalq mustaqilligini mustahkamlash va sharaflashga qaratilgan, istiqlol bayramlari sifatida ham qadrlidir: «*Mustaqillik bayrami*», «*Konsitutsiya bayrami*», 14-yanvar – «Vatan *himoyachilari kuni*», «Yosh *vatandoshlar*» festivali (2018, Toshkent) kabi.

Har bir siyosiy bayram mamlakat, xalq ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Masalan, *Mustaqillik bayrami* – jahon mamlakatlarida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy jihatdan barcha masalalarni tashqaridan aralashuvsiz, o'z taqdirini o'zi belgilash, suverenitetni qo'lga kiritish orqali hal qilish haq-huquqiga erishilgan va rasmiy umumxalq, umumdavlat bayrami deb e'lon qilingan kun. Qator davlatlar yilning tegishli sanalarida o'z mustaqillik bayramlarini nishonlaydilar[1].

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi hujjatda respublika bundan buyon «O'zbekiston Respublikasi» deb atalib, 1-sentyabr «Mustaqillik kuni», umummilliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilingan.

Mustaqillik bayrami, Mustaqillik kuni geortonimiga «*erkin, ozod; tobe bo'lmagan, alohida*» ma'nolarini anglatuvchi arabcha *mustaqil* asosidan *-lik* affiksi vositasida yasalgan *mustaqillik* so'zi lug'aviy asos bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqillik so'zi «*mustaqil holat; bog'liq, qaram bo'lmagan holat; davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi*» ma'nosini anglatadi[2].

Mustaqillik so'zi xuddi shu ma'nosi bilan geortonimga lug'aviy asos bo'lgan. *Mustaqillik* deganda, an'anaviy ravishda davlat mustaqilligi tushuniladi.

Mustaqillik – xalqimizning irodasi, o'zbek millatining haq-huquqini, uni jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan va qo'shayotgan betakror hissasini jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi vositasi hamdir.

O'zbek xalqi endi mustaqillikning ma'nosi va mazmunini, uning ahamiyatini o'zlashtira boshladi. Mustaqillik bayrami umumxalq shodiyonasiga aylandi.

[1] Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Ф.Абдуллаева, Г.Абдураззоқова ва бошқ.; Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 478.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б.652.

4. Ma’rifiy geortonimlar. Xalqning tafakkuri, madaniyati, ma’naviy qiyofasi, mafkuraviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan bayramlar – ma’rifiy bayramlar sanaladi. Hozirgi globallashuv jarayonida mazkur bayramlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda bunday bayramlar an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Masalan, 21-oktyabr – *«O‘zbek tili bayrami*», «*Alifbe*» ana’naviy kitob bayrami*, «Urganch kitob festivali – 2019» «Bolalar kitobi*» an’anaviy respublika festivali (2018, Toshkent)*, «Ma’naviyat festivali*», «Internet. UZ» 1-milliy internet festivali (2017, Toshkent) kabi.

Yuqorida keltirilgan bayramlarning har biri o‘z lug‘aviy, nominatsion-motivatsion asosiga ega. Masalan*, Bilimlar kuni* – yangi o‘quv yilining boshlanish kuni.

Bilim so‘zi «*obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, harbiy va boshqa) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma’lumotlar, tushunchalar majmui*» lug‘aviy ma’nosini anglatadi[1]._*Bilimlar kuni* geortonimi tuzilishiga ko‘ra birikma shaklida bo‘lib, unga *bilim* so‘zining ko‘plik shakli yuqoridagi ma’nosi bilan lug‘aviy asos bo‘lgan. Geortonim *bilimlar* so‘zidan *kun* indikatori vositasida hosil qilingan.

Kitob bayrami insoniyat aqli va dahosi orqali yaratgan ma’naviy boylik va bebaho bilimlarga nisbatan hurmatni izhor qilish tadbiridir. Bu bayram kitobga muhabbati bor barcha kishilar, shuningdek, yozuvchilar, kitob nashr etuvchilar, sotuvchilar, kutubxonachilar va kitobsevarlarning o‘zaro hamkorligi va yakdilligi tantanasidir[2].

5. Madaniy geortonimlar. Mazkur geortonimlar mavzu ko‘lamining kengli bilan ajralib turadi. Ular bir qator ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga asoslangan holda, jamiyat rivoji, insonlar xulq-atvorini yuksaltirishga qaratilgandir. Masalan, «*Asrlar sadosi*» (2009) *an’anaviy madaniyat festivali, «Do‘stlik va madaniyat*» *festivali* (2014, Toshkent), *«Alla» respublika ijrochilari ko‘rik-tanlovi,* «*Kelajak ovozi*» *respublika ko‘rik-tanlovi, «Mustaqillik palitrasi*» *rasmlar ko‘rik-tanlovi, «Chashma» respublika folklor ko‘rik-tanlovi, «Yangi avlod*» *ko‘rik-tanlovi* kabi.

6. Diniy geortonimlar. Din o‘zining tantanali bayramlari, har xil marosimlari bilan kishilar ko‘nglida ko‘tarinki kayfiyat, xursandchilik, xushfe’llik, rahm-shafqat, sabr-toqat, qanoat, mehr-oqibat, hamdardlik, vijdoniy burch, poklik, odamgarchilik va shu kabi fazilatlarni shakllantiradi va kamol toptiradi[3].

Jamiyat hayotida din ma’lum ijtimoiy, ma’naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Har bir din o‘ziga xos bayram va marosimlarga ega. Diniy bayramlar xalqning e’tiqodi, tafakkur tarzi, dunyoqarashini ifodalovchi ko‘zgu sifatida, ezgulikka chorlovchi milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bunday bayramlar islom ta’limoti bilan bog‘liq bilim va tushunchalarning amaliy ifodasi, asrlar osha bezavol yashab kelayotgan diniy qadriyatlar majmuidir. Masalan, *Ramazon hayiti (Iyd-al-Fitr), Qurbon hayiti (Iyd-al-Adxa), Mavlidi sharif bayrami, Laylatulqadr* (Ramazon oyining 27-tuni), *Ashuro (*Muharram oyining o‘ninchi kuni) kabi.

7. Kasbiy geortonimlar. Bunda kasb egalarining ijodkorlik qobiliyati, yaratuvchanlik mahorati, ilmiy salohiyati va mashaqqatli mehnatini sharaflash ko‘zda tutiladi. Har qanday kasbiy jarayon, ma’lum bir mehnat turlari, fan-texnika sohalari doirasida amalga oshadi. Shu bois, kasbiy geortonimlarning mavzu ko‘lami turli sohalarga oid bo‘lib, eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha taraqqiy etgan. Masalan, «Vatan *himoyachilari kuni*» (14-yanvar), «*Chegarachilar kuni*» (28-may), «Temir *yo‘lchilar kuni*» (1-avgust), *«Soliqchilar kuni*» (12-avgust), «*Quruvchilar kuni*»(har yili avgust oyining ikkinchi yakshanbasida), *«O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni*» (25-oktyabr), «*Tibbiyot xodimlari kuni*» (14-noyabr), «*Buxoro hunarmandlari*» *festivali* (2017, Buxoro), «*Mardi maydon*» harbiylar festivali (2018, Toshkent), «*Shahrisabz – hunarmandlar shahri*» *festivali* (2018, Qashqadaryo), «*Kulollar festivali*» (2018, Farg‘ona viloyati Rishton tumani) kabi.

Kasbiy bayramlar uchun ma’lum bir maxsus kunni belgilanishi soha mutaxassislari, vakillari uchun ko‘rsatilgan yuksak hurmat va ehtirom belgisidir. Mazkur sana va bayram kunlarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan joriy etilgan: «*Mardlik*», «*Buyuk xizmatlari uchun*», «El-yurt *hurmati*», «*Mehnat shuhrati*», «*Fidokorona xizmatlari uchun*» kabi ordenlar; «*Jasorat*» (O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari, davlat xavfsizlik xizmatining va ichki ishlar organlarining xodimlariga), «Shuhrat» (Respublika iqtisodiyoti, fani va madaniyatini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy istiqlol va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishida o‘zining halol mehnati bilan katta yutuqlarga erishganlar uchun) kabi medallar mehnatsevar, fidokorona, jonkuyar xalq vakillari va kasb egalari uchun taqdim etiladi.

Istiqlol yillarida barcha kasb-hunar egalariga e’tiborni ortishi natijasida o‘zbek kasbiy bayramlarining doirasi kengaydi va miqdori ortdi. Masalan, Respublikada amalga oshirilayotgan qurilish va bunyodkorlik

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б.261.
[2] Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.121.
[3] Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 73.

ishlarini jadallashtirish, bugungi kunda sohada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib etish va sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni rag‘batlantirish maqsadida, 2017-yildan boshlab avgust oyining ikkinchi yakshanbasi «*O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuni*» deb e’lon qilindi.

Georgonimlar sirasiga mansub bayram nomlari ma’lum an’analarning bardavomligini ta’minlaydi. Bayram kunlari tadbirlar o‘tkaziladi, kasb sohiblarining yutuqlari e’tirof etiladi va mukofotlanadi, qadrlanadi, e’zozlanadi. Shu jihatdan kasb bayramlari ijtimoiy mohiyatga ega.

Rezyume. Maqolada o‘zbek va turk tili georgonimlarining leksik-semantik tasnifi berilgan hamda, lisoniy va motivatsion, etnolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan.

Resume. The article presents a lexical-semantic classification of Uzbek and Turkish georgonyms and highlights their linguistic-motivational, ethnolinguistic, and linguoculturological characteristics.

Резюме. В статье представлена лексико-семантическая классификация георгонимов узбекского и турецкого языков, а также освещены их лингво-мотивационные, этнолингвистические и лингвокультурологические особенности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

БИЗ НЕГА СЎКИНАМИЗ? (ёки ҳақоратнинг нейролингвистик табиати)

Махмараимова Шохиста Тухташевна,
Термиз давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Хорижда ва ўзимизда ҳақоратли лексика (profanities) «сўкиниш» (*swear words*), “ҳақорат”, «қарғиш» (*curse words*), “меъёрсиз лексика”, “цензурасиз лексика” ёки «F-ҳарфи билан бошланувчи сўзлар» (*F-words* – тўрт ҳарфдан иборат сўзлар) каби атамалар билан синоним сифатида ишлатилса[1], ўзгани обрўсизлантириш, ҳақоратга асосланган нутқ «ёмон тил», “шалоқ тил” атамаси билан фарқланади. Ҳақоратли лексика – бу инсонларнинг кучли қўзғатувчи ёхуд ғайриоддий нарсаларни кузатганда қўллайдиган спонтан (тўсатдан юзага келувчи) реакция шаклидир. Ҳолбуки, сўкинишдан тийилиш – танганинг бир томони, холос, зотан ҳақорат бир вақтнинг ўзида ҳам когнитив, ҳам баҳоловчи, ҳам декларатив вазифани бажаради. Коммуникатив функцияни эса мазкур вазифалар қаторининг энг қуйи бўғинига жойлаштириш мумкин, бу жиҳатдан сўкиниш – шахсий “мен”нинг “ўзга” гуруҳга мансублигини исботлаш воситаси ҳамдир.

Яшар Тўқайнинг фикрича, сўкинишлар – миллатларнинг ўтмишдаги ёки бугунги яшаш тарзи, фикрлари ва интилишлари ҳақида маълумот берувчи муҳим тил ҳужжатлари ҳисобланади. Яъни ...(сўкинч бирликларини – М.Ш.) йўқ деб ҳисоблаш тилнинг табиий оқимига ва яшаш тарзига қарши чиқишдан бошқа нарса эмас[2]. Агар бу унсурлар тилда яшаётган бўлса, уларни муайян бир маданиятдан ташқарида англаш мутлақо нотўғри бўлур эди. Сўкинишни билдирувчи сўзлар – ма-

[1] Andang K., and Bram B. Swear words and their implications for english language learning-teaching. LLT Journal: A Journal on Language and Language Teaching http://e-journal.usd.ac.id/index.php/LLT Sanata Dharma University, Yogyakarta, Indonesiae-ISSN 2579-9533, p-ISSN 1410-7201, Vol. 21, Suppl, June 2018. P. 43-44.

[2] Tokay Yaşar. Divanü Lugati’t-Türk’te Kızgınlık İfade Eden Kelimeler / Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 6/1 Winter 2011, p. 1851-1862

даниятларнинг теран қатламларида (структурасида) шаклланган ва қўлланиш доираси анча кенг бўлган тил унсурларидир. Хусусан, «Девону луғотит турк» (ДЛТ)да Маҳмуд Қошғарий томонидан ўз давридаёқ сўкиниш сифатида қайд этилган сўзлар ҳеч ҳам кам бўлмаганлигини кўриш мумкин: унда сўкиниш (ҳақорат) белгиси билан келган ўн битта сўз мавжуд: yođuġ, yođut, seŋregü, yiŋdegü, süprük, ḳaşaŋ, ḳuyar, sātır, ḳarıt, kötlük ва kötiç[1]. Бироқ луғатда ҳақорат семали бошқа бирликлар ҳам изоҳланиб, жумладан, 1) ҳақоратли ифоданинг ўзи (мас., экäк: экäк ішläр – фоҳиша хотинлар, эрсäк ішläр – бузуқ хотин; экäклік – юзсизлик, бузуқлик) ва 2) шу ҳақорат ифодасининг феълли шакли (экäкläді – ҳақоратлади, бузуққа нисбат берди; їтладї – ит деб сўкди, ит деб ҳақорат қилди) берилган ўринлар учрайди[2].

Г.Э. Галлахорн сўкинишга оид маълумотларини уч тоифага ажратади: «қарғиш сўзлар», «анал-эритрал (чиқариш тизими) атамалар» ва «генитал (жинсий) сўзлар»[3].

Ҳақорат ва *сўкиниш* атама сифатида фарқланади: ҳақоратнинг ифода шакллари хилма-хил (жумладан, предмет ёки чиқиндини намойишкорона беписанд улоқтириш, маърузачи ўқитувчи қаршисида соатга қараб қўйиш, жамиятда аморал ҳисобланган ҳаракатларни атайдан содир этиш ва ҳ.) бўлгани ҳолда, сўкиниш фақат ва фақат вербал кўринишда воқеланади. Ҳақоратли лексиканинг семантик майдони турли маданиятларда ўхшаш «резонаторлар» (жинс, дин, аъзолар) атрофида шаклланса-да, унинг эмоционал кучи ва ижтимоий функцияси бевосита когнитив контекст ва сўзловчининг прагматик мақсади билан белгиланади. Г.Хьюз таъкидлайдики, «Сўкиниш дин, жинсий алоқа, ақлдан озиш, экскреция (чиқариш аъзолари) ва миллат каби кучли ҳамда бир-бирига мос келмайдиган «резонаторларга» таянади ва фавқулодда хилма-хил муносабатларни ўз ичига олади»[4].

Р.Роуч сўкинишнинг нотўғри ёки тўғрилигини муҳокама қиларкан, асосий эътиборни сўкинишнинг ҳақоратлилик хусусиятига қаратади. Яъни сўкиниш нотўғри деб топилган ҳолатларда, бу нотўғрилик унинг одамларни (асосли равишда) хафа қилиши билан изоҳланади. Инсоннинг хафа бўлиши асосли деб топилиши учун сўзловчининг сўз танловида тингловчига нисбатан ҳурматсизлик намоён бўлиши керак. Шунга кўра, Р.Роуч агар сўкинишимиз бошқаларга нисбатан ҳурматсизлигимизни ифода этса, бу ахлоқий жиҳатдан нотўғри деган хулосага келади[5].

Де Врис сўкинишнинг ижобий таъсирларига – гипоалгезия (оғриқни камайтириш), «ижтимоий жипслашув», «комик ва кўнгилочар қиймат»-га эътибор қаратади. Унга кўра, евфемизмлар ҳақоратли сўзларнинг ўрнини боса олмайди, чунки одамлар барибир қайси асл сўз назарда тутилаётганини тушунишади. Агар мутлақо ўйлаб топилган (сунъий) сўзлар ишлатилса, улар табу (тақиқланган) бўлмай қолади ва натижада табу сўзларнинг афзалликларини (масалан, оғриқ қолдириш хусусиятини) йўқотади[6].

Француз тадқиқотчилари Ж.Матию ва М.Флорэанинг қайд этишича, ҳақорат (Insult) тўғридан-тўғри бирор шахсга йўналтирилган бўлади ва уни камситишга хизмат қилади. Сўкиниш (Swearing/Expletives) эса кўпинча шахсга эмас, балки вазиятга йўналтирилган бўлиб, сўзловчининг эмоционал ҳолатини (ғазаб, ҳайрат, оғриқ) ифодалаш учун хизмат қилади[7].

Сўкинишни ироданинг ожизлиги ёки маданиятсизлик деб баҳолаш илмий жиҳатдан етарли бўлмайди: социология, психология, нейролингвистика ва нейробиология бу ҳодисани эҳтимолларимизга қарши ўзгача асослайди. Жумладан, ҳиссий катарсис[8] нуқтайи назаридан сўкиниш ёхуд ҳақорат – ҳиссий босим ва юкламадан халос бўлиш усули. Нейробиологик талқинга кўра эса оғриқни камайтириш воситаси. Инсон ҳақорат билан кечадиган кучли ҳиссий қўзғалиш лаҳзаларида ташқи таъсирларга чидамли бўлади: қондаги адреналин миқдори ошиб, табиий оғриқсизлантириш жараёни бошланади. Т.Жей ва К.Яншевиц сўкинишга оид неврологик маълумотларни умумлаштириб, қуйидагиларни таъкидлайдилар[9]. Бодомсимон

[1] Tokay Yaşar. Divanü Lugati't-Türk'te Kızgınlık İfade Eden Kelimeler / Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 6/1 Winter 2011, p. 1851-1862

[2] Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 40.

[3] Gallahorn G.E. The use of taboo words by psychiatric ward personnel / Psychiatry, 34 (1971), pp. 309-321.

[4] Hughes G. Swearing: A Social History of Foul Language, Oaths, and Profanity in English, Blackwell, Oxford, 1991.

[5] Malik, A., Ryan, S. What's Wrong With Swearing? Acta Anal (2025). https://doi.org/10.1007/s12136-025-00652-4. Бунда қаранг: Roache, R. (2024). For F*ck's Sake. Why Swearing is Shocking, Rude, and Fun. Oxford University Press.

[6] Malik, A., Ryan, S. What's Wrong With Swearing? Acta Anal (2025). https://doi.org/10.1007/s12136-025-00652-4.

[7] Mathieu, J., & Florea, M. (2015). Les injures et les jurons: agressions verbales vs. jeux de langage. Diacronia, (2). https://doi.org/10.12681/diacronia.22346

[8] Руҳий енгиллашиш.

[9] Jay, T., & Janschewitz, K. (2008). The pragmatics of swearing. Journal of Politeness Research, 4, 267–288. https://doi.org/10.1515/JPLR.2008.013

тана (Amygdala[1]) фаоллиги: табу сўзларни дастлабки идрок этиш жараёнида миядаги қўзғалиш ва ҳиссиётлар маркази фаоллиги сезиларли даражада ошади. Бу эса инсон руҳиятини тезкорлик билан қўзғатиш табу сўзларнинг энг кучли хусусияти эканидан далолат беради[2]. Миянинг когнитив назорат (онгли бошқарув) учун масъул бўлган соҳалари шикастланганда, инсон тез-тез ва ихтиёрсиз сўкина бошлайди. Бу онгли тизим соғлом мияда сўкиниш истагини доимий равишда жиловлаб туришини англатади[3].

Фанда сўкиниш «нутқий стереотип» шакли деб ҳисобланади ва онгсиз (одатда ғазабланганда), ихтиёрсиз равишда, лингвистик маънога эга бўлган ёки бўлмаган ҳолда талаффуз қилинади[4]. Смит (Smith, 1966)нинг маълумот беришича, «E.C.» исмли беморнинг чап ярим шари олиб ташланганидан (гемисферектомия) кейин ҳам у *goddamit* каби сўкинишларни ёки қисқа, аниқ талаффуз қилинадиган ибораларни айта олган. Бу ўнг ярим шарда сўкиниш учун масъул алоҳида модуль мавжудлигига яққол далил бўлди[5].

Фанда афазия (инсультдан кейин нутқ йўқолиши) билан боғлиқ чап ярим шар (нутқ маркази) шикастланганда ҳам инсон сўкиниш қобилиятининг сақланиб қолиши, бу сўзларнинг мияда «автоматик тил» сифатида яшашини исботлайди[6]. Бу эса сўкинишни ижодкорлик (ўнг мия) билан боғлашга асос бўлади. Эмоционал хулқ-атвор ва мия ярим шарларининг шикастланиши ўртасидаги боғлиқликни ўрганган яна бир муҳим ҳисобот Гаиноттига (Gainotti, 1972) тегишли бўлиб, у 160 нафар афазик беморни таҳлил қилган; уларнинг ярмида чап (LH), ярмида эса ўнг ярим шар (RH) шикастланган эди. Чап ярим шари шикастланган (LBD) беморларда сўкинишлар, ҳақоратлар кўзга ташланиб турган. Сўкиниш Вернике типидаги афазиклар(нутқни тушунишда қийналадиганлар) да 57% ҳолатда учрайди, Брока типидаги афазикларда (равон гапиришда қийналадиганлар) эса бу кўрсаткич 47% ни ташкил этади. Ўнг ярим шари шикастланган беморлар эса «бепарволик реакцияси» (IR) ҳолатида бўлиб, уларда ўз руҳий/ҳиссий ҳолатига қизиқиш йўқолади. Бундай беморларнинг аксарияти (80 нафардан 70 таси) сўкинмайди ва метафорик (кўчма маънодаги) нутқдан фойдаланиш қобилиятини йўқотади. Англанадики, чап ярим шарнинг шикастланиши турли нутқий нуқсонларни келтириб чиқарса-да, сўкиниш қобилияти сақланиб қолишига асосли далил бўла олади[7]. Ван Ланкер «автоматик» нутқ кўринишлари турлича бўлгани ва улар кўпинча «ихтиёрий» равишда ишлатилгандек туюлгани сабабли, уларни «нопропозионал» (non-propositional) нутқ деб аташни мақсадга мувофиқ деб билади. Нопропозионал ифодалар (масалан, сўкинишлар) яхлит (холистик) ҳолда тушунилади, пропозионал ибораларнинг маъноси эса уларнинг таркибий қисмларини таҳлил қилиш асосида шаклланади[8].

Бундан ташқари Ван Ланкер ва Клейн афазия билан оғриган беморларда таниш исмларни таниш жараёнини кузатиб, бунинг ўнг ярим шар сўкинишига таъсирини ўргандилар[9]. Тажриба ўнг ярим шарнинг автобиографик маълумотларни қандай қайта ишлашини кўрсатиш учун мўлжалланган бўлса-да, у сўкинишнинг ўнг ярим шардаги ролини ҳам очиб берди. Чап ярим шари шикастланган (LBD) беморлар анъанавий лингвистик тестларда жуда паст натижа кўрсатадилар, бироқ ҳиссий ва шахсий маълумотлар (масалан, яқинларининг исми) ўнг ярим шар билан боғлиқ бўлгани учун уларни яхши эслайдилар. Масалан, оғир нутқий нуқсони бўлган бир бемор Рональд Рейганнинг суратини исми билан тўғри мослаштираётганда ҳақоратли сўзни (expletive) ишлатган. Яъни бу ерда салбий эмоционал баҳо (сўкиниш) Рейган ҳақидаги визуал маълумот билан бирга миянинг ўнг ярим шарида сақланганини кўриш мумкин[10]. Сўкинишнинг ўнг ярим шар билан боғлиқлиги ҳақидаги далиллар сўнгги йилларда янада мустаҳкамланди (1-жадвал).

[1] Amigdala miyaning chakka bo'lagida joylashgan.

[2] Malik, A., Ryan, S. What's Wrong With Swearing? Acta Anal (2025). https://doi.org/10.1007/s12136-025-00652-4

[3] Malik, A., Ryan, S. What's Wrong With Swearing? Acta Anal (2025). https://doi.org/10.1007/s12136-025-00652-4

[4] Bowers JS, Pleydell-Pearce CW (2011) Swearing, Euphemisms, and Linguistic Relativity. PLoS ONE 6(7): e22341. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0022341

[5] Bowers JS, Pleydell-Pearce CW (2011) Swearing, Euphemisms, and Linguistic Relativity. PLoS ONE 6(7): e22341. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0022341

[6] Van Lancker, D. (1994). Nonpropositional speech in aphasia.

[7] Bowers JS, Pleydell-Pearce CW (2011) Swearing, Euphemisms, and Linguistic Relativity. PLoS ONE 6(7): e22341. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0022341

[8] Van Lancker, D. (1994). Nonpropositional speech in aphasia.

[9] Diana Van Lancker Sidtis, Karen Klein. Preserved recognition of familiar personal names in global aphasia / Brain and Language. December 1990. 39(4):511-29.

[10] Van Lancker, D. (1994). Nonpropositional speech in aphasia.

1-жадвал[1]

Мия тузилмаси	Ҳақоратнинг когнитив-нейробиологик механизми
Basal Ganglia Базал ганглиялар	Сўкинишнинг «автоматик нутқ» (automatic speech) сифатида генерация қилинишини таъминлайди. Ирода назоратидан ташқари чиқадиган сўкинишни (масалан, Туретт синдроми ёки афазияда) содир этади
Amygdala Амигдала (бодомсимон тана)	Сўзнинг эмоционаллик даражаси ва ҳақоратли кучини белгилайди. У тажовузкорлик (агрессия) ва қўрқув маркази бўлиб, ҳақоратли ифоданинг ҳиссий резонатори вазифасини бажаради.
Hippocampus Гиппокамп	Сўз ва ибораларнинг контекстуал хотирасини сақлайди. Қайси вазиятда қайси сўз «табу» ёки «ҳақорат» экани ҳақидаги ижтимоий тажрибани қайта ишлайди.
Thalamus Таламус	Ҳиссий сигналларни (эшитилган ҳақорат ёки англанган тажовуз) саралаб, тегишли эмоционал марказларга йўналтиради.
Hypothalamus Гипоталамус	Ҳақорат қилиш ёки ҳақорат эшитиш пайтидаги физиологик реакциялар (адреналин чиқиши, юрак уришининг тезлашиши) учун жавоб беради.

1-жадвал. **Ҳақорат нейроанатомияси**

Одатда, сўкинадиган одамнинг сўз бойлиги кам деб ҳисобланади. Бу фанда «Poverty of Vocabulary» (POV) – “луғат қашшоқлиги” назарияси билан боғлиқ. Мазкур фараз моҳиятига кўра, сўкиниш – ақлий фаолияти суст, импульсив, кам маълумотли кишилар ҳаракати. Бироқ 2015 йилда Марист коллежида ўтказилган лингвистик тадқиқотлар ҳақоратли ифодаларни контекстуал тўғри қўллайдиган одамларнинг луғат заҳираси бой бўлишини кўрсатди[2]. Тарихга назар ташлаб, нуктадон кишиларнинг сўзни ўрнида қўллаш маҳоратига исбот кўрамиз: “Абулхайр Ҳабаший қ. т. с.[3] Шайх Аму ва Шайх Аббос анинг дийдориға фахр қилурлар эрмиш. Ул Маккада мужовир эрди. Бир кун бирав Масжиди Ҳарамға кирди ва деди: қаёндурлар аларким, аларни жавонмард атарлар? Ва суфийлар сари боқти ҳақорат била. Ва дедики, булар жавонмардлардурлар? Бир лаҳзадин сўнгра Шайх Абулхайр Ҳабашийни кўрдиларки, кулур эрди ҳайбат ва ғазаб била. Ул сўзни билиб эрдики, ул киши дер эрди. Деди: кимдурки, жавонмардларни сўрубдур? Жавонмард керакки, жавонмардни кўргай”[4].

Ҳақорат сўзлари ўзига хос табу саналади. Табунинг ўзи нима? Табу – мия томонидан тегишли ҳаракат, сўз, мавзу муҳокамаси, муносабатларга қўйилган маданий-эътиқодий[5], айрим ҳолларда эса ақидавий тақиқ: экстремал вазиятларда у тилнинг “эмоционал ричаги”ни ишга тушириб юборади. Бироқ бу ерда табуни сўкинишга нисбатан 2 маънода талқин қилган маъқул:

1) сўкинишнинг ўзи тақиқланган нутқий акт сифатида;

2) табулашган ҳақорат семасининг сўкиш шаклига айланиши. Масалан, турк тилидаги *gavat* ҳақорат сўзи Сосонийлар ҳукмдори Кавад (VI) номидан олинган[6]. Ёки ўзбек тилидаги *ланка* вульгар сўзи ҳам ҳақоратнинг бу жиҳатига мос келади: ушбу сўз хитойча «ляньцзя» (хит. 毽子, jiànzi – «цзяньцзи») ўйини номидан келиб чиққан деб

[1] Жадвал маълумотлари қуйидаги манбалар маълумотлари асосида генерацияланган: D Van Lancker, J.L Cummings c Expletives: neurolinguistic and neurobehavioral perspectives on swearing / Brain Research Reviews Volume 31, Issue 1, December 1999, Pages 83-104; Jay, T. (2000). Why We Curse: A Neuro-Psycho-Social Theory of Speech. John Benjamins Publishing; Pinker, S. (2007). The Stuff of Thought: Language as a Window into Human Nature. Penguin Books.

[2] Valdesolo P. Is Swearing a Sign of a Limited Vocabulary? New research challenges the idea that vulgar words are a sign of failurehttps://www.scientificamerican.com/article/is-swearing-a-sign-of-a-limited-vocabulary/

[3] Қ.т.с. – қаддасаллоҳу таоло сирраҳу – Аллоҳу таоло унинг сиррини муқаддас қилсин.

[4] Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 150-151.

[5] Oxford Online Dictionary Of English. 2010, p.11.

[6] “Ал Қомус ал-Муҳит” асари муаллифи Фирузабодий ушбу сўзнинг араб тилидан келиб чиққанлигини таъкидлайди. “al-Okyanus al-Basit fi Tarjamat al-Qamus al-Muhit” луғатида *el-kavvat* сўзи ‘чўпон’ маъносини англатиши қайд этилади. Бироқ манбаларда ҳақорат этимологияси милоддий 488–531 йилларда Сосонийлар империяси ҳукмдори Кавад I нинг ўз хотинини сиёсий хавфнинг олдини олиш мақсадида Маздакка тақдим этганлиги ҳақидаги тахминга бориб тақалади. Бу ҳақда қаранг: https://www.malumatfurus.org/gavat-kelimesinin-kokeni/

тахмин қилинади[1]. Хитой тилида 毽 (jiàn) – «палак», «титилган нарса» ёки «паровоз» маъноларини англатса-да, асосан патли ўйинчоққа нисбатан ишлатилади.

Сўкиниш ва ҳақоратли сўзларнинг қўлланиши прагматик (контекстуал) ўзгарувчилар таъсирида бўларкан, тилнинг мазкур сатҳ бирликлари ҳимоя механизми, ҳам эмоционал кучайтиргич, ҳам ижтимоий сигнал вазифасини ўтайди. Негаки кучли ҳиссий қўзғалиш вақтида онг, аввало, тақиқ (у хоҳ вербал хоҳ новербал шаклда бўлсин)қа эътиборни йўналтиради – мия аксар ҳолларда симметрик эмас, ассиметрик ҳолатларга сезгир бўлади.

Ҳақорат сўзлари «когнитив юклама» (cognitive imposition) сифатида одамлар миясини ҳақорат қилувчидан узатилаётган ҳиссий ахборотни қайта ишлашга мажбур қилади, шу ҳиссиётнинг йўналишини топишга ва унга мослашишга ундайди.

Когнитив иккиламчи жараёнлар назарияси(Dual Process Theory) асосида сўкинишнинг когнитив таъсири қуйидаги кўринишларда содир бўлади:

1-тизим: тезкор, автоматик, интуитив ва ҳиссиётларга бой. Бу тизим кутилмаган товушга ўгирилиш, «2+2» неччилигини дарров айтиш ёки инсон овозидаги ғазабни сезиш каби вазифаларни бажаради. У куч талаб қилмайди. Биринчи тизим эволюцион жиҳатдан анча қадимги, ҳайвонларда ҳам мавжуд бўлган эмоционал-инстинктив тизим (сўкиниш, ҳайқириқ ва ҳиссиётлар шу асосда юзага чиқади)[2].

2-тизим: секин, онгли, мантиқий ва таҳлилий[3]. Мураккаб математик мисолларни ечиш, матндаги «а» ҳарфларини санаш ёки иккита маиший техниканинг сифатини солиштиришда биз айнан шу тизимни ишлатамиз. Бу тизим катта энергия ва диққат талаб қилади. Бундан ҳақорат 1-тизимга кўра қабул қилинади, аммо 2-тизим орқали англанади, деб ҳисоблаш ўринли: бунда сўкиниш тингловчининг миясини «мантиқ» ҳолатидан «реакция» ҳолатига мажбурлаб ўтказади. Яъни сўкиниш – бу «когнитив мажбурлаш». Сўкинаётган одам ўз қаршисидаги одамнинг 2-когнитив тизимини мажбурлаб ишга туширади, натижада унинг тинч ва мустақил фикр юритиш ҳуқуқини бузади. Бу ўзгадан сўрамай, унинг диққатини ва онгини «ўғирлаш» демакдир[4]. Табиийки, ҳар бир миллий тилда 1-тизимни фаоллаштирувчи ҳақоратли ифодалар даражаси мавжуд, шунга қарамай, аксар тилларда ҳақоратнинг энг оғир даражаси *она* компонентли ҳақоратли жумлалар саналади.

Интеллект – бу фақат сўз бойлиги эмас, балки вазиятга қараб мулоқот услубини танлай олиш қобилиятидир. Сўкинаётган одам «даҳо» бўлмаслиги мумкин, лекин сўкинмайдиган одам ҳам доим «ақлли» бўлавермайди. Энг муҳими – инсоннинг ички дунёси ва бошқаларга бўлган муносабати[5]. Сўкинишлар алоҳида сўзлардан йиғилмайди, балки мияда бир бутун блок (лисоний моделлар) сифатида сақланади. Шунинг учун инсон ғазабланиб сўкинганида ҳеч қандай грамматик хатоларга йўл қўймайди, ҳақоратлар тезкор ва «автоматик» юзага чиқади. Рейган мисолида кўринганидек, инсоннинг маълум бир шахсга нисбатан муносабати (нафрати ёки ёқтирмаслиги) сўкиниш шаклида унинг визуал хотираси билан бир жойда сақланиши мумкин.

Фандан маълумки, автоматик ва нострагегик сўкиниш ўнг ярим шарнинг (RH) функциясидир. Шунингдек, ўнг ярим шар сўзловчи нутқидаги эмоционал оҳангни идрок этишда, ҳиссий кайфият ва юз ифодаларини танишда иштирок этади. NPS (нейропсихосоциологик) назарияга кўра, ўнг ярим шар салбий ҳиссиётларни (депрессияни) юзага келтиради ҳамда ҳиссий кайфиятни, ҳодисотларнинг эмоционал элементларини ва юз ифодаларидаги ҳиссиётларни назорат қилади.

Сўкиниш ҳатто бир ёшли болаларда ҳам пайдо бўлади[6]. Бу жараён маълум бир изчилликда юзага чиқади. Сўкиниш ўсмирлик даврида энг юқори нуқтасига чиқади, аммо кексаликда ҳам, ҳатто ақлий заифлашув (деменция) даврида ҳам сақланиб қолади. Демак, сўкиниш – бу нутқнинг периферик элементи эмас, балки инсон мулоқот тизимининг эволюцион ва нейробиологик жиҳатдан муҳим қисми бўлиб, уни ўрганиш нутқ генерациясининг янги қирраларини очиб беради.

[1] https://goeastmandarin.com/jianzi-chinas-traditional-shuttlecock-sport/

[2] Kahneman, D. (2012). Two systems in the mind. Bulletin of the American Academy of Arts and Sciences, 65(2), 55–59; Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. Allen Lane, 2011.

[3] Kahneman, D. (2012). Two systems in the mind. Bulletin of the American Academy of Arts and Sciences, 65(2), 55–59; Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. Allen Lane, 2011.

[4] Malik, A., Ryan, S. What's Wrong With Swearing? Acta Anal (2025). https://doi.org/10.1007/s12136-025-00652-4

[5] Is Cursing a Sign of Intelligence? https://health.clevelandclinic.org/swearing-and-intelligence.

[6] Jay T. Cursing in America (Not in series). John Benjamins Publishing Company, 1992.

Резюме. Ушбу мақола сўкиниш ҳодисасини инсон когнитив фаолияти ва нейролингвистик механизмлари нуқтаи назаридан тадқиқ этади. Тадқиқотда нутқнинг икки хил табиати – пропозиционал (онгли, мантиқий) ва нопропозиционал (автоматик, ҳиссий) нутқ турлари ўртасидаги диссоциация таҳлил қилинган. Нейролингвистик жиҳатдан сўкинишларнинг мия пўстлоқ ости тузилмалари (базал ганглиялар) ва лимбик тизим билан боғлиқлиги, шунингдек, уларнинг анъанавий нутқ марказлари (Брока ва Вернике соҳалари) шикастланганда ҳам сақланиб қолиш феномени ёритиб берилган. Когнитив жиҳатдан эса, Д. Канеманнинг «Тизим 1» (автоматик ва тезкор) концепцияси доирасида сўкинишнинг эмоционал экспрессивлиги ва когнитив импозиция хусусиятлари ўрганилган.

Resume. This article examines the phenomenon of swearing from the perspective of human cognitive activity and neurolinguistic mechanisms. The study analyzes the dissociation between two types of speech: propositional (conscious, logical) and non-propositional (automatic, emotional). From a neurolinguistic standpoint, it highlights the connection between expletives and subcortical structures (basal ganglia) and the limbic system, as well as the phenomenon of their preservation even when traditional language centers (Broca's and Wernicke's areas) are damaged. From a cognitive perspective, within the framework of D. Kahneman's «System 1» (automatic and fast) concept, the emotional expressivity and cognitive imposition properties of swearing are explored.

Резюме. Данная статья исследует феномен сквернословия с точки зрения когнитивной деятельности человека и нейролингвистических механизмов. В работе анализируется диссоциация между двумя типами речи – пропозициональной (сознательной, логической) и непропозициональной (автоматической, эмоциональной). С нейролингвистической стороны освещается связь обсценной лексики с подкорковыми структурами мозга (базальными ганглиями) и лимбической системой, а также феномен их сохранности при повреждении традиционных речевых центров (зон Брока и Вернике). С когнитивной точки зрения, в рамках концепции Д. Канемана «Система 1» (автоматическая и быстрая), изучаются эмоциональная экспрессивность и свойства когнитивной импозиции ругательств.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI FORS-TOJIKCHA GIDRONIMLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Alimova Zarifaxon Vaxobovna,
Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbek nomshunosligida toponimika sohasining o'rni katta bo'lib, u nafaqat tilning leksik va semantik qatlamini, balki madaniy, tarixiy va geografik jihatlarni ham o'rganish imkonini beradi. Toponimlar, ya'ni hudud, daryo, tog' va boshqa tabiiy hamda sun'iy obyekt nomlari, o'zbek tilining fonetik, morfologik va semantik xususiyatlarini aks ettirish bilan birga, xalqimizning tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'nalishda ko'plab olimlar sezilarli ilmiy xizmatlar qilgan. Xususan, S.Qorayevning toponimlar tipologiyasi va ularning semantik xususiyatlari bo'yicha izlanishlari[1], Q.Hakimovning toponimikaning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari[2], T.Nafasov va V.Nafasovaning o'zbek tilidagi toponimlar lug'atlarini shakllantirishdagi ishlari[3], shuningdek, Z.Madrahimovning tarixiy toponimlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan monografiyalari[4] va G.Jo'raboyevaning hududiy toponim tahlillari[5] ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Gidronimlar, ya'ni suv havzalariga berilgan nomlar, o'zbek mumtoz adabiyotida, xususan "Saddi Iskandariy" dostonida muhim lingvistik va badiiy rol o'ynaydi. Toponimika va gidronimika tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, doston matnida daryo, rud va boshqa suv nomlari nafaqat real geografik obyektlarni belgilashda, balki ramziy, metaforik va estetik ma'nolarni yaratishda keng qo'llanilgan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan gidronimlar, masalan, **daryo** (دریا) va rud (رود) leksikal birliklari, doston matnida turli kontekstlarda ishlatilgan bo'lib, ular real va metaforik ma'nolar qatlamini birlashtiradi.

دریا Daryo (dengiz, katta daryo)

Dostonda uchraydigan gidronimlar orasida "daryo" leksemasi alohida ilmiy tahlilni talab etadi. B.Bafoyev ta'kidlashicha, "**daryo** so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, eski tojik tilida **daryo** so'zi *dengiz* va *okean* ma'nolarini ifodalagan. Hozirgi tojik tilida *daryo*-1) daryo; 2) og'z.: dengiz; fors tilida daryo-1) dengiz; 2) katta daryo ma'nolarini ifodalaydi. *Daryo* so'zi "Avesto" tilida *zrayah*, qadimgi fors tilida *drayah* (Oranskiy, 1963, 46) variantida dengiz ma'nosida qo'llangan"[6].

Tahlil natijalariga ko'ra, dostonda **daryo** leksemasi **50 marotaba** qayd etilgan, **Daryo** leksemasi ishtirok etgan ayrim baytlar tahliliga e'tibor qaratamiz.

Tanobeki, bo'lg'ay necha ming qari,
Yeshilgan, kelur chog'da ***daryo*** *sari* (Saddi Iskandariy, 102-bet).

Keltirilgan baytda **"daryo"** leksemasining real ma'nosi suv oqimi sifatidagi tabiiy hodisa bo'lsa, majoziy ma'nosi vaqt oqimi, hayot yoki hodisalar ketma-ketligi ramzini ko'rsatishdan iborat. Struktur jihatdan "*Tanobeki, bo'lg'ay necha ming qari*" misrasi subyekt (necha ming qari) + predikat (bo'lg'ay). "Yeshilgan, kelur chog'da daryo sari" misrasi harakatni bildiruvchi predikat + yo'nalish (daryo sari). Badiiy struktur jihatdan bayt parallelizm va temporal bog'lanish orqali ritmik ohang hosil qiladi. So'zlar tartibi va urg'ular bayt ritmini mustahkamlaydi.

Quyidagi baytda *daryo* leksemasi takroriy qo'llanganiga guvoh bo'lish mumkin:

Bu yanglig' qilib cho'kti ***daryo*** *quyi,*
Ani qa'rig'a chekti ***daryo*** *suyi*
(Saddi Iskandariy, 102-bet).

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
[2] Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. – 368 b.
[3] Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 81b.
[4] Мадрахимов З. Тарихий топонимика. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 128 б.
[5] Жўрабоева Г. Фарғона водийси топонимларининг шаклланиш асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2022. –190 б.
[6] Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.84.

Mazkur baytadi *daryo quyi* va *daryo suyi* orqali suvning ikki jihati, ya'ni joylashuvi va oqimi aks ettiriladi. Bu baytga dinamiklik va visual obrazlilik beradi. Baytda *daryo* leksemasining takrorlanishi bayt ritmini mustahkamlaydi. Bayt tabiat hodisasini tasvirlash bilan birga, daryo oqimi orqali hayot va vaqtning davomiyligini ramziy qiladi.

Dostonda **daryo** leksemasi ishtirokidagi izofiy birliklar ham mavjudligi kuzatiladi. **Daryo** leksemasi asosi bilan hosil bo'lgan izofiy birliklar tahlil qulayligini ta'minlash maqsadida jadvalda ifodalandi.

№	Izofiy birlik	Qo'llanish soni	Semantik guruhi	Izoh
1	***daryoyi jarf*** **دریای جرف**	4	Majoziy-obrazli	Halokat, chuqurlik, xavf ramzi
2	***daryoyi xunxor*** **دریای خونخوار**	3	Majoziy-obrazli	Qonli, shafqatsiz holatni ifodalaydi
3	***daryoyi jud*** **دریای جود**	3	Majoziy-obrazli	
4	***daryoyi zohir*** **دریای ظاهر**	2	Majoziy-falsafiy	Ochiqlik, ayonlik ma'nosida
5	***daryoyi Chin*** **دریای چین**	1	Geografik (real)	
6	***daryoyi Nil*** **دریای نیل**	1	Geografik (real)	Real gidronim
7	***daryoyi Afrasiya*** **دریای افرسیه**	1	Afsonaviy/tarixiy	Mifologik-obrazli nom
8	***daryoyi ehson*** **دریای احسان**	1	Majoziy-axloqiy	Muruvvat, saxovat timsoli
9	***daryoyi rahmat*** **دریای رحمت**	1	Diniy-majoziy	Ilohiy marhamat ramzi
10	***daryoyi gard*** **دریای گرد**	1	Majoziy-obrazli	Chang, notinchlik timsoli
11	***daryoyi ofat*** **دریای آفت**	1	Majoziy-obrazli	Fojia, halokat, azob-uqubat ramzi

Yuqorida keltirilgan jadvalda berilgan izofiy birliklarning ayrimlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi:

Sanki ko'rguzub mavj ***daryoyi jud****,*

Sen aylab ayon korgohi vujud (Saddi Iskandariy, 1-bet).

Baytda qo'llangan ***daryoyi jud*** izofiy birikmasi saxovat va muruvvat daryosi ma'nosini anglatadi. Ushbu ***daryoyi jud*** obrazi orqali oddiy daryo emas, balki Xudoning cheksiz saxovati va marhamati nazarda tutiladi. Shoir ushbu badiiy timsol yordamida ilohiy mavjudlik va qudratning butun borliq bo'ylab namoyon bo'lganini madh etadi. Baytdagi "mavj daryoyi jud" birikmasida "daryoyi jud" izofiy birikma bo'lib, aniqlovchi–qaniqlanmish munosabatida kelgan. U "mavj" (to'lqin) so'zini aniqlab, butun holda murakkab aniqlovchi vazifasini bajaradi. Ya'ni, gap tarkibida aniqlovchi sifatida ishtirok etgan. Funksional jihatdan "daryoyi jud" badiiy-tasviriy vazifani bajarib, ramziy-majoziy obraz sifatida qo'llangan. Mazkur birikma orqali shoir ilohiy saxovat va muruvvatning cheksizligi tasvirlanadi. ANATILda **jud** leksemasi saxiylik, in'om, ehson kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan[1].

[1] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 595.

Bu yanglig‘ yeti bahri zaxxorni,
Yeti jarf ***daryoyi xunxorni***
(Saddi Iskandariy, 395-bet).

Baytda shoir xavf va dahshat manzarasini yaratadi. “Yetti bahri zaxxor” va “yetti daryoyi xunxor” obrazlari orqali cheksiz va vahshiy tabiat, insonni ojiz qoldiruvchi kuchlar ramziy tarzda ifodalanadi. “Yeti” soni esa bu dahshatni yanada kuchaytirib, mukammallik va ko‘lam timsoliga aylanadi. Arabiy z**axx-or** زاخر leksemasi *to‘lib toshgan, haddan tashqari* (переполненный; богатый (напр. об источнике)) to‘la ma’nosini[1], forsiy **xunxor** خونخوارesa *qonxo‘r, shafqatsiz, vahshiy* (кровожадный, жестокий, свирепый) kabi ma’nolarni ifodalaydi[2].

2. Rud (daryo) رود

Navoiy asrlarida **rud** so‘zi ham keng qo‘llangan leksemalardandir.

Alar yonida Movarannahr eli,
Iki ***rud*** *arosida o‘n shahr eli*
(Saddi Iskandariy,133-bet).

Bayt mazmunidan ularning yonida Movarounnahr xalqi istiqomat qilgani, mazkur hudud esa ikki daryo oralig‘ida joylashgan o‘n shahar aholisidan iborat ekanini anglash mumkin. Ushbu baytda Movarounnahrning geografik joylashuvi hamda madaniy-hududiy ko‘lami badiiy ifoda vositalari orqali yoritilgan. Xususan, “iki rud arosida” birikmasi Movarounnahrning Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hudud ekanini aniq ko‘rsatib, badiiy matnga ilmiy aniqlik va tarixiy ishonchlilik baxsh etadi. Forsiy **rud** leksemasi **daryo** ma’nosini ifodalaydi[3].

Shuningdek, baytda metonimiya san’ati qo‘llangan bo‘lib, “eli” (xalq) leksemasi orqali faqatgina aholi emas, balki butun hudud, undagi shaharlar va yuksak madaniy muhit nazarda tutiladi. Bu esa badiiy ifodada qism orqali butunni ifodalash usuli namunasidir.

Yana bir dog‘i keldi ***Murg‘ob rud***
Ki, sha’nida kavsardin o‘ldi durud
(Saddi Iskandariy, 186-bet).

Mazkur baytdagi ***Murg‘ob rud*** orqali Afg‘oniston va Turkmaniston hududidan oqib o‘tadigan daryo tushuniladi. Baytni *“Yana bir go‘zallik, ziynat bo‘lib Murg‘ob daryosi keldi, uning sharafiga Kavsar suvidan go‘yo duo (maqtov) yog‘ildi*” deya ifodalash mumkin. Ramziy ma’nosi shuki, unda inson bilan tabiat o‘rtasidagi kurash timsoli gavdalangan.

Dostonda **rud** leksemasi **11 marotaba** qayd etilgan. Ta’kidlash joizki, *“*Saddi Iskandariy*”* dostonida “rud” leksik birligi nafaqat gidronim sifatida[4], balki omonimik shaklda ham ishlatilgan bo‘lib, u musiqa asbobi ma’nosini bildiradi va doston matnida **13 marta** qo‘llangan. Ushbu holat doston tilida so‘zning ko‘p ma’noliligi va kontekstga qarab ma’no o‘zgarishini namoyon etadi, bu esa mumtoz adabiyotda lingvistik va badiiy qatlamlarning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Demak, **rud** *torli musiqa asbobi* ma’nosini ham ifodalashi lug‘atlarda qayd etilgan[5].

3. Daryocha دریاچه

Tuzub sharh aylarda debochae,
Yasab bahr ollinda ***daryochae*** (Saddi Iskandariy, 109-bet).

Dostonda daryocha leksemasi **1 marta** qo‘llangan. Baytning *Yasab bahr ollinda daryochae* misrasi orqali bahr (katta daryo) qirg‘oqlarida **daryocha** (kichik daryo) yaratib qo‘yilgani anglashiladi. Baytda **-cha** qo‘shimchasi orqali kichiklik, ozlik ma’nosi ifodalangan. Tasviriy vositalardan **metafora** qo‘llangan bo‘lib, suv yo‘llari va daryochalar shoir ijodida badiiy obraz sifatida ishlatiladi, u yerda tabiat va inson faoliyati uyg‘unligi aks ettiriladi. Ramziy ma’noda suv yo‘li va daryochalar ilm-fan, tafakkur va amaliyot timsoli sifatida qabul qilinadi. **Daryocha** leksemasi forsiy lug‘atlarda *ko‘l, hovuz, kichik suv ombori* (рус. озеро, пруд) ma’nolari bilan izohlangan[6].

2. Chashma (buloq) چشمه

Doston matnida *chashma* leksemasi **8 o‘rinda** qayd etilgan. O‘TELda bu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: “Bu ot asli teshik ma’nosini anglatadigan tojikcha **chashm** otiga **-a** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “yer ostida tabiiy ravishda qaynab chiqadigan suv” ma’nosini anglatadi”[7]. ANATILda mazkur leksema ishtirokida *chashmayi aynul yaqin* (aniqlik bulog‘i), *chashmayi dard* (g‘am-alam bulog‘i), *chashmayi zindagoniy* (hayot bulog‘i), *chashmayi mehr* (quyosh, oftob), *chashmayi hayot* (hayot bulog‘i), *chashmayi nur* (nur to‘lqini), *chashmayi hayvon* (tiriklik bulog‘i, obi hayot) kabi izofiy birikmalar

[1] Баранов Х. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1985. – С.327.
[2] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – Москва: Русский язык, 1983. – С.590.
[3] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. –Москва: Русский язык, 1983. – С.738.
[4] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 633.
[5] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 633.
[6] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – Москва: Русский язык, 1983. – С.626.
[7] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009. – С.253.

ham qayd etilgan[1].

*Hamul **chashma**din chun su bermak tuzub,*
Suxanvarlik o‘lgan tanin tirguzub
(Saddi Iskandariy, 34-bet).

3. **Jo‘ybor (sersuv yer, ariq)** جويبار

Doston matnida **2 marta** qo‘llangan **jo‘ybor** leksemasi *ariq, sersuv joy, soy* ma’nolarini ifodalashi lug‘atlarda qayd etilgan[2]. PRSda ***juybor*** tarzida ifodalanuvchi leksemaning ANATILda keltirilgan ma’nosi bilan birga og‘zaki nutqda *daryo qirg‘og‘i, daryo sohili* kabi ma’nolarini ham ifodalashi qayd etilgan[3].

*Sarobi fano **jo‘ybori** aning,*
Samumi balo lolazori aning
(Saddi Iskandariy, 202-bet).

Mazkur baytda shoir suv va bog‘ bilan bog‘liq *gidronimik* va *fitonimik* birliklarni qarama-qarshi semantik maydonda qo‘llab, tashqi go‘zallik ortidagi halokat va yo‘qotish g‘oyasini kuchaytiradi. Baytda *sarob–jo‘ybor* va *samum–lolazor* obrazlari orqali foniy dunyoning halokatli mohiyati ochiladi, ya’ni tashqi go‘zallik ichki mazmun jihatidan fojiali sifatda talqin etiladi. Bayt sintaktik va kompozitsion jihatdan **parallel qurilma** asosida tuzilgan bo‘lib, har ikki misrada metaforik birikmalar izchil ravishda o‘zaro muvofiqlashtirilgan va ma’no kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Dostonda ***Hirmand, Nimro‘d, Dirijaz, Chaxcharon*** kabi daryo nomlari keltirilgan bo‘lib, ular ***Xuroson*** mintaqasidagi suv havzalari va geografik landshaftni tasvirlashda badiiy kontekstda semantik funksiyani bajaradi.

Dostonda ***Ko‘hak*** daryosi ham tilga olinib, u Zarafshon daryosining qadimgi nomi sifatida geografik va tarixiy qiymatga ega ekanligi bilan matndagi badiiy-tasviriy qatlamni boyitadi:

*Ki, mansub erur anga **Ko‘hak** suyi,*
Nedinkim, erur jori andin quyi
(Saddi Iskandariy, 188-bet).

Xulosa qilib aytganda, “Saddi Iskandariy” dostonida gidronimlar tizimi badiiy va semantik jihatdan muhim o‘rin egallaydi hamda asar tilining obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiradi. ***Daryo, rud, daryocha, chashma*** *va* ***jo‘ybor*** kabi gidronimik leksemalar real geografik obyektlarni ifodalash bilan birga, ko‘pincha metaforik va ramziy ma’nolarda qo‘llanib, vaqt, hayot oqimi, ilohiy marhamat, xavf va sinov kabi tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan. Ayniqsa, ***daryo*** leksemasi va uning izofiy birikmalari (***daryoyi jud, daryoyi xunxor, daryoyi rahmat*** va boshqalar) dostonning lingvopoetik qatlamini boyitib, ilohiy, axloqiy va falsafiy g‘oyalarni yuksak poetik darajada ifodalagan. ***Rud*** leksemasining ham gidronim, ham musiqa asbobi ma’nosida qo‘llanishi doston tilida ko‘pma’nolilik va kontekstual semantikaning faol ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, gidronimlar Navoiy poetik tafakkurida tabiat, koinot va inson ruhiy olami o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Mazkur maqolada mumtoz o‘zbek epik asari “Saddi Iskandariy”da gidronimlar tizimi tahlil qilinadi. Matnda *daryo, rud, daryocha* (kichik daryo), *chashma* (manba), *jo‘ybor* (ariq, sug‘orish kanali) kabi suv havzalari nomlari uchraydi. Ular nafaqat real geografik obyektlarni ifodalaydi, balki metaforik, ramziy va badiiy unsurlar sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu gidronimlar orqali hayot va vaqt oqimi, ilohiy marhamat, xavf va sinov tushunchalari poetik tarzda ifodalanadi.

Daryo leksemasi va uning izofiy birikmalari (*daryoyi jud, daryoyi xunxor, daryoyi rahmat* va boshqalar) epik asarning lingvopoetik qatlamini boyitib, axloqiy, falsafiy va metaforik ma’nolarni yuqori badiiy darajada yetkazadi. *Rud* so‘zi esa ham daryo nomi, ham torli cholg‘u asbobi ma’nosida qo‘llanib, matnning ko‘p ma’noliligini va kontekstual semantikasini namoyon etadi. Tadqiqot gidronimlarning estetik, ramziy hamda tarixiy-geografik ahamiyatini ta’kidlab, o‘zbek tilshunosligida toponimika va gidronimikaning muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

Rezume. This article analyzes the system of hydronyms in the classical Uzbek epic “Saddi Iskandariy”. The text features names of water bodies such as *daryo* (river), *rud*, *daryocha* (small river), *chashma* (spring), and *joybor* (stream/irrigation canal), which function not only as designations of real geographic objects but also as metaphorical, symbolic, and artistic elements. Through these hydronyms, concepts of the flow of life and time, divine mercy, danger, and trials are poetically represented. The lexeme *daryo* and its attributive forms (*daryoyi jud*, *daryoyi xunxor*, *daryoyi rahmat*, etc.) enrich the text’s linguistic-poetic layer, conveying ethical, philosophical, and metaphorical meanings at a high artistic level. The word *rud* is used both as a river name and as a string musical instrument, demonstrating the text’s polysemy and contextual semantic dynam-

[1] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 457.
[2] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 602.
[3] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – Москва: Русский язык, 1983. – С.451.

ics. The study highlights the aesthetic, symbolic, and historical-geographical role of hydronyms, confirming the importance of toponymy and hydronymics in Uzbek linguistics.

Резюме. В данной статье анализируется система гидронимов в классическом узбекском эпосе «Садди Искандари». В тексте встречаются названия водных объектов, таких как *daryo* (река), *rud*, *daryocha* (маленькая река), *chashma* (источник), *joybor* (ручей/оросительный канал), которые функционируют не только как обозначения реальных географических объектов, но и как метафорические, символические и художественные элементы. Через эти гидронимы поэтически выражаются понятия течения жизни и времени, божественной милости, опасности и испытаний. Лексема *daryo* и её изофийные сочетания (*daryoyi jud*, *daryoyi xunxor*, *daryoyi rahmat* и др.) обогащают лингвопоэтический слой эпоса, передавая этические, философские и метафорические смыслы на высоком художественном уровне. Слово *rud* используется как название реки и как струнный музыкальный инструмент, что демонстрирует полисемантичность и контекстуальную семантику текста. Исследование подчёркивает эстетическую, символическую и историко-географическую роль гидронимов, подтверждая значимость топонимики и гидронимики в узбекской лингвистике.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISHGA NISBAT BERILUVCHI ORALIQ MA’NO IFODALI AFFIKSLAR TADQIQI XUSUSIDA

Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Mardonova Sarvinoz Oripovna,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Turkiy tillar tarixida ravishlar mustaqil so‘z turkumi sifatida eng yosh, kenjasi bo‘lib, qadimgi turkiy til davridan boshlab boshqa guruhdagi so‘zlar hisobidan shakllangan so‘z turkumi hisoblanadi. Aytish mumkinki, ravish so‘z turkumi nafaqat turkiy tillarda, balki jahon tillari, xususan, Sharq tilshunosligida ham nisbatan kenja so‘z turkumidir.

Ravish tarkiban murakkab so‘zlar guruhidir. Ravish so‘zlarning ma’no ifodasini sharhlashdan avval ularning tarkibiy tahlilidan boxabar bo‘lmoq lozim. Ravishning yasalishi hamda tarkibiga ko‘ra turlari, shuningdek, bu turlarning voqelanishida xizmat qiluvchi til birliklarini aniqlash mazkur so‘z turkumining semantik-grammatik tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

Ravishga xos grammatik shakllar – so‘z yasochi affikslar tadqiqi XX asr o‘rtalarida sifat va son jihatidan ancha oshdi. Bunga turkologlarning ravish haqidagi fikr-mulohazalari, tadqiqotlari asos bo‘lib ham xizmat qildi. Mazkur o‘rinda hozirgi o‘zbek adabiy tilida ravishga xos grammatik shakllar talqiniga to‘xtalish maqsad qilingan.

Ma’lumki, ravish yasovchi affikslar ravish turkumining umumiy masalalari tarkibiy qismi sanaladi. Ravish turkumining semantik-grammatik tabiati xususidagi dastlabki fundamental tadqiqotlar esa o‘tgan

asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, 1953-yil olim S.Fuzailov tomonidan ravish turkumi borasidagi monografik tadqiqoti asosida «O‘zbek tilida ravish» nomli risolasi nashr etildi.[1] Mazkur manbada ravish so‘z turkumi olimning nomzodlik dissertatsiyasi asosida yoritilgan. Unda ravish yasovchi affikslar haqida shunday yozilgan: «Yasovchi affikslar yordami bilan hosil bo‘lgan ravishlar formal ko‘rsatgichlarga ega bo‘gan bir necha turdagi ravishlarni tashkil etadi. Hozirgi zamon o‘zbek tilida ravish yasovchi bir necha mahsuldor affikslar mavjud: *-cha, -larcha, -chasiga, -day, -dek, -lab* kabi» Manbaning «ravishlarning yasalishi» bandida bu so‘z turkumining «morfologik», «morfologik-sintaktik», «sintaktik», «leksik-semantik» usullarda yasalishi ta’kidlanib, ravish morfologik usulda -cha, -larcha, -chasiga, -day/-dek, -ona, -lab, -an, -in/n, -lay/-layin, -ligicha kabilar bilan hosil bo‘lishi aytiladi. *Zimdan, birdan, surunkasiga, baravariga, ko‘tarasiga, yalpisiga* va h.k. kabi ravishlar (egalik, kelishik shakllari bilan bir butunda shakllangan ravishlar)ga ko‘ra yasalishning «morfologik-sintaktik» usuli tarzida baho beradi.

Ma’lumki, XX asr ikkinchi yarmi «o‘zbek tili so‘z yasalishi» borasida ravish va u bilan bog‘liq ma’lumotlarni yoritishda S. Fuzailov ishi asos qilib olindi. Shu bois 1957, 1965, 1975-yillarda nashr etilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsliklarida, akademnashrlarda ravish yasovchi affikslar deyarli bir xil mazmundagi ifodaga ega.

1960-yil A.Kononov muallifligida nashr bo‘lgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida ravish yasalishida «morfologik» va «sintaktik» usul yetakchilik qilishi aytiladi va *-cha, -chasiga (<cha+si+ga), -iga/-siga (<i+ga, si+ga), -gacha (< ga+cha), -lab (< la+b), -day/-dek, -lay/-layin(< la+ y+ in), -simon, -ona, -an, -namo* kabi affikslar ravish yasashda ishtirok etishi ta’kidlanadi.[2] Affikslar etimologiyasi haqida ma’lumot beriladi.

1965-yil nashr etilgan *«Hozirgi o‘zbek adabiy tili»* (–T: «O‘qituvchi»,1965.) kitobida (Manbaning morfologiya bo‘limi U.Tursunov va J.Muxtorovga tegishli) ravish yasovchi affilslar sifatida *-cha, -chasiga, -larcha, -lab, -dek, -day, -gacha, -ona, -iga, -siga, -an, -(i) n, -lay* kabilar izohlanadi, misollar bilan dalillanadi. Manbada ayrim kelishik shakllari bilan yuzaga kelgan ravish so‘zlar haqida shunday yozilgan: «Bunday so‘zlarda kelishik affiksi o‘z ma’nosini yo‘qotadi: *odatda, kunda, obdan, zimdan, qo‘qqisdan, chindan, jo‘rttaga* kabilar. Bunda kelishik affiksi turlanishni bildirmaydi, balki so‘zning leksik ma’no anglatuvchi qismiga kiradi[3]. Shuningdek, manbada ayrim fe’l shakllari (ravishdosh) chiqish kelishigi bilan birikib, bir butun holda ravishga aylanishi aytiladi. Misol tariqasida *shoshilmasdan, indamasdan, o‘ylamasdan, tinmasdan, charchamasdan* kabilar keltiriladi. Kitobning *«Ravishlarda forma yasalishi»* bandida ravish so‘zlarga birikib kelishi mumkin bo‘lgan shakllar, ya’ni *-roq, -gina* affikslarining mazkur so‘z turkumiga munosabati sharhlanadi, shuningdek, *eng, juda, g‘oyat, nihoyat* birliklari ravishga qo‘shimcha ma’no yuklay olishi bayon etiladi.

Bugungi kun tilshunoslik fani yutuqlariga tayanib ayta olamizki, *-roq* affiksi bilan birika olish imkoniyatiga ega so‘zlar *(tez, sekin, ko‘p , oz va b.)* aslida sifat turkumiga oidligi bilan belgilanadi. Ravish turkumiga oid so‘z morfologik darajalana olmasligi bilan sifatdan farqlanadi.[4]

Ravishga nisbat beriladigan *-gina, eng, juda, g‘oyat, nihoyat* kabilarni yuklamalar deya baholash aslida to‘g‘ri tasnif asosi bo‘la oladi. -gina affiksining ravish so‘zlarga birikish imkoniyati keng. Bu affiks yuklamani *boyagina, endigina, astagina, haligina, salgina, andakkina, anchagina, bemalolgina, birnavgina, birozgina, birpasgina, birrovgina, darrovgina, darholgina, jindaygina, zo‘rg‘agina, ildamgina, loqaydgina, ohistagina, pichagina, tezdagina, xiyolgina, xiylagina, qittakkina* kabi ravishlar tarkibida kuzatishimiz mumkin. *Eng, juda, g‘oyat, nihoyat(da)* kabi yuklamalarning ravishlar bilan birikib kelishi esa nisbatan cheklangan.

G‘.Abdurahmonov umumiy tahriri ostida nashr etilgan *«Hozirgi o‘zbek adabiy tili»* kitobida ravish yasalishi bo‘yicha shunday deyilgan: «Morfologik usul bilan ravish yasalishi o‘z navbatida yana ikki turga bo‘linadi: maxsus affikslar bilan ravish yasash va passiv kelishik formali ravishlar[5]« Manbada *-cha, -day, -dek, -lab, -ona, -an, -lay, -namo, -ligicha, -incha, -n (in), -iga(-siga), -gacha* kabi affikslar ravish yasovchi sifatida keltiriladi. Ushbu kitobda oldingi manbalarda uchramaydigan ayrim fikrlar o‘rin olgan. Buni quyidagilar bilan ifodalash mumkin: a) -cha affiksini olgan ot predmetning belgisini anglatib, sifat bo‘lib kelishi ham mumkin: *o‘zbekcha kitob* kabi; -cha affiksi egalik yoki ko‘plik qo‘shmchasini olgan otlarga qo‘shilsa, faqat ravish hosil bo‘ladi: *Bola o‘zining mushticha keladigan qandni oldi*; b) otlarga qo‘shilgan -cha urg‘uli bo‘lsa, otlarda kichraytirish, erkalash mazmunini anglatadi; agar urg‘u olmasa, ravish

[1] Фузаилов С. Ўзбек тилида равиш. – Тошкент: Фан, 1953.

[2] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. – С. 123.

[3] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (Морфология. Лексикология) –Тўшкент: Ўзбекистон, 1965. – Б. 97.

[4] Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Моногравия. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – Б. 108.

[5] Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-т ом. (Фонетика. Лексикология, Морфология.) – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 234.

yasab, -day, -dek affikslariga sinonim bo‘ladi; c) -larcha ot va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, o‘xshatish, payt ma’nosini ifodalovchi ravish yasaydi; d) -(i)ncha affiksi -in elementi va -cha ravish yasovchi affiksininig qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bu affiks kam qo‘llanilib, o‘g‘ri (ot), ko‘p (ravish), yashir (buyruq fe’li) kabi so‘zlardan harakatning ijro etilish jarayonini ifodalovchi ravish yasaydi. Manbada ayrim kelishik shaklidagi so‘z shakllari orqali hosil bo‘lgan ravishlar ham tizimli tarzda tahlil etilgan.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligi borasida mukammal tadqiqotardan biri 1975-yilda «O‘zbek tili grammatikasi» nomi ostida nashr etildi.[1] Manba ravish so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot berilgach, «Ravish yasalishi» haqidagi fikrlar bilan davom etadi. Ravish yasalishning affiksatsiya va kompozitsiya usullari nisbatan keng izohlanadi. Kitobda -cha, -larcha, -chasiga, -iiga/siga, -lab, -dek, -day kabilar unumli ravish yasovchi; -ona, -an, -n(-in), -lay, -simon affikslari unumsiz ravish yasovchilar keltiriladi. Mazkur manbada ravish yasovchi affikslar va ravishga xos shakllar borasida quyidagicha xarakterli jihatlarni kuzatish mumkin: 1) ravish yasovchi har bir affiks nisbatan keng izohlangan (529-532); 2) tuzulishi jihatdan ayrim ravishlar kelishik formasini olgan ot, olmosh, sifat, ravishdoshga o‘xshashi, biroq har bir hodisa alohida-alohida ekanligi ta’kidlangan (528-bet); 3) ko‘plik shakli -lar ravish tarkibida davomiylik va noaniq ma’nosini bildirishi (ilgarilari, avvallari) bayon etilgan.

1992-yil nashr etilgan *«Hozirgi o‘zbek adabiy tili»* kitobidagi ravish yasovchi affikslar tartibi va mazmuni 1965-yil yaratilgan manba («Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Morfologiya. Sintaksis). –T: 1965) materiallari bilan deyarli bir xilda. Biroq ravish yasovchi affikslar son va sifat jihatdan oz miqdorda berilgan. Aniqrog‘i, ravish yasovchi affikslarga ko‘ra e’tibor nisbatan sayozligi ko‘rinadi. Buni ravish yasovchi affikslarning alohida sharhlanmaganligida ham ko‘rish mumkin. Ravish yasovchi *-cha, -ona, -larcha, -lab* kabilar yo‘l-yo‘lakay aytib o‘tilgan xolos[2]. Shuningdek, manbada ravish so‘zlar bilan birikib kelishi mumkin bo‘lgan *-roq, eng, juda, g‘oyat, nihoyat* kabi daraja shakllari, ular qatnashgan misollar keltiriladi.

Ma’lumki, «O‘zbek tili morfem lug‘ati» kitobi[3] ilova (2-ilova) qismida so‘z va shakl yasovchi affikslar batafsil tasnif va tavsif etilgan. Mazkur bandda ravish so‘z turkumiga xos affikslar sifatida quyidagilar keltriladi:

1. ***-a*** mimemalardan ravish hosil qiladi: *tap-a, gupp-a, shartt-a, taqq-a(to‘xtadi).*

2.*-akam* ot va sifatlardan ravish va sifat hosil qiladi: *yolg‘on/d/akam, hazil/akam, chin/akam, rost/akam* kabi.

3. *-an* arab tilidan kirgan so‘z (ot)larda ravish yasovchi funksiyasida keladi: *asos/an, javob/an, shakl/an, umum/an* kabi.

4. *bar-* tojik tilidan kirgan otlarga qo‘shilib, shu ot ifodalagan ma’noga egalikni bildiruvchi sifat yoki ravish hosil qiladi: *bar/qaror, bar/taraf, bar/hayot* va h.k.

5.*be-* tojik tilidan kirgan otlardan shu ot ifodalagan predmetga ega emaslikni bildiruvchi sifat va ravish yasaydi: *be/ayb, be/baxt, be/vosita.*

6. *-ga* II ba’zan kelishik affiksi bilan qotgan holda ravishga o‘tadi: erta/ga, indin/ga, tekin/ga .. shuningdek, III shaxs egalik affiksi bilan birlikda kelib, sifat, ravish, ba’zan otdan ravish yasaydi: *yalpi-[si/ga], tikka[si/ga], aylan/a[si/ga], -ga* affiksi *behuda/ga, qayta/ga, jo‘rtta/ga, bekor/ga* kabi ravishlar tarkbida ham uchraydi.

7. *-gacha* (-ga+cha) qo‘shma affiksi ot, sifat, ravish, olmoshdan chegara ma’nosini bildiruvchi ravish yasaydi: *kech/gacha, kuz/gacha, uygacha*

8. *-da* II payt bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, ma’nosi o‘rin ravishiga to‘g‘ri keladi.

9. -dan II ot, sifat, ravish va sonlardan paradigmadan ajralib – qotib, boshqa turkumga ko‘chim yo‘li bilan ravish yasaydi: *qayta/dan, tub/dan, qasd/dan, atay/dan, chin/dan* va h k..

10. *-in* III holat, paytga munosabat bildiruvchi ravishlar yasaydi: *yoz/in-qish/in, old/in, bir/in-ket/in, och/in- to‘q/in, erta/n-kech/in.*

11. *-lab* turli xil so‘z turkumlaridan ravish yasaydi, harakatning bajarilish holatini, paytini va miqdorini bildiradi: *yaxshi/lab, oy/lab, yil/lab, atay/lab. -larcha (-lar+cha) -cha, -chasiga* affikslari kabi harakatning qay tarzda bajarilishi, harakat va belgining o‘xshashligi kabi ma’nolani anglatuvchi ravishlar hosil qiladi: *botir/larcha, do‘st/larcha, qadrdon/larcha* va b.

12. *-ona* I ot va sifatlardan holat bildiruvchi ravishlar yasaydigan unumsiz affiks: *mard/ona, shoir/ona, razil/ona, johil/ona, ayyor/ona. -ona* ravish tarkibida kelgada *-larcha, -chasiga* affiksi bilan sinonim xususiyatda boladi.

13. *-cha* II o‘xshatish, tarz kabi ma’nolar bilan bog‘langan ravishlar hosil qiladi: *yangi/cha, yevropa/cha, o‘zga/cha*

14. *-chasiga* (-cha+siga) ravish yasovchi bo‘lib, harakatning qanday bajarilishini, bu jihatdan o‘zakdan anglashilgan predmetga o‘xshatish ma’nosini bildiradi: harbiy/chasiga, soldat/chasiga, ochiq/chasiga. Bunda asl ma’noni *-cha* affiksi beradi. *-si+-*

[1] Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975.

[2] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 366.

[3] Ғуломов А. ва б. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

ga elementi esa shu ma'noni biroz kengaytiradi.

Umuman, manbada ravish bilan aloqador 14ta grammatik shakl haqida ma'lumot keltirilgan.

Prof. H.Nematov muharrirligi ostida tuzilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» Oliy ta'lim talabalari uchun nashr etilgan darslikda[1] ravish derivatsiyasi haqida quyidagi fikrlar aytiladi: «Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi – asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi… Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini tadqiqotchilar *-an, -ona* qo'shimchasining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashi, *-larcha, -chasiga, -lab* kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va *-iga/-siga, -chasiga* kabi so'zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydilar».

Ravish yasovchi affikslarni belgilashda (miqdori va sifati borasida) o'zbek tilshunosligida bo'lgani kabi boshqa turkiy tillarda ham yagona fikr mavjud emas. Ravish yasovchi affikslar barcha turkiy tillarda fonetik jihatidangina farqlanadi. Tadqiqotchi D.Saidrahimova ma'lumot berishicha, ravish yasovchi shakl sifatida baholanadigan affikslar uyg'ur tilida 15 ta, turkman tilida 18 ta, ozarbayjon tilida 11 ta, qozoq tilida 8 ta, tatar tilida 9 ta, boshqird tilida 4 tadan iborat[2].

Ravish yasovchi affikslar hozirgi o'zbek adabiy tiliga bag'ishlangan manbalarda ham turlicha talqin etilgani kuzatiladi. S.Fuzailov hisobi bo'yicha 10 ta, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (-T.»Fan», 1957) da 14 ta, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (-T.»Fan», 1966) da 12 ta, «O'zbek tili grammatikasi» (-T.»Fan», 1975) da 12 ta, «O'zbek tili morfem lug'ati» (-T.»O'qituvchi»,1977) 2-ilovasida 13 ta, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (-T., 2010) da 5 ta ravish yasovchi affiks haqida fikr yuritiladi.

Xulosa, ravishga xos grammatik shakllar (yasovchi affikslar) ning til nazariyasiga oid manbalarda turli miqdorda keltirilishi ravish va u bilan bog'liq grammatik shakllar borasida nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki ko'pgina turkiy tillarda ham bir to'xtamga kelinmagan qarashlar mavjud ekanligini ko'rsatib turadi. Mazkur masalada umumlashma fikrga kelinib ish tutish fanimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Rezyume. Mazkur maqolada ravish so'z turkumi, xususan, ravishning yasalishga munosabati, ravishga nisbat beriladigan turli ma'no-mazmundagi grammatik shakllar, ualarning ravishga munosabati haqida fikr yuritilgan. XX asrdagi turli ilmiy-nazariy manbalardagi ravish yasovchilar, ularning statistik ko'rsatkichi, ya'ni tadqiqotlar kesimidagi ulushi ko'rsatilgan, o'rni-o'rni bilan munosabat bildirilgan. Shuningdek, turkiy tillardagi ravish yasovchi affikslar, ularning soni ko'rsatib o'tilgan. Manbalarga tayanilgan holda ravish yasovchi sifatida belgilanadigan affikslarning nazariy jihatlari yoritilgan.

Resume. This article discusses the word family of adverbs, in particular, the relationship of adverbs to formation, grammatical forms with different meanings and contents attributed to adverbs, and the relationship of adverbs to adverbs. A list of adverbs from various scientific and theoretical sources in the 20th century, their statistical indicators, that is, their share in the research, and their relative positions are given. Also, adverb-forming affixes in Turkic languages, their number, are indicated. Based on the sources, the theoretical aspects of affixes defined as adverb-forming are highlighted.

Резюме. В данной статье рассматривается семейство наречий, в частности, связь наречий с образованием слов, грамматические формы с различными значениями и содержанием, приписываемые наречиям, а также взаимосвязь наречий друг с другом. Приводится список наречий из различных научных и теоретических источников XX века, их статистические показатели, то есть их доля в исследованиях, и их относительное положение. Также указаны наречиеобразующие аффиксы в тюркских языках, их количество. На основе источников освещаются теоретические аспекты аффиксов, определяемых как наречиеобразующие.

[1] Sayfullayeva R.va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar. 2010. – Б. 248.

[2] Сайидырахимова Д.С. Сўз туркумлари тизимида равишнинг ўрни. Монография. – Ўш, 2005. – Б. 32.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARIDA BOLALAR O'YINLARINING NOMLARI

Fayziyeva Xadicha Choriyevna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kaedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lib, O'zbekistonda ochiq va tadrijiy rivojlanuvchi yaxlit ijtimoiy tizim yaratildi. O'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy-ma'naviy madaniyatimiz, bebaho qadimiy tariximiz, urf-odat, an'ana va marosimlarimiz buning yaqqol isbotidir. Markaziy Osiyo aholisini qadimdan turli etnik urug'lar tashkil etib, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Surxondaryo etnografiyasining turli jabhalarini ilmiy-tarixiy jihatdan tadqiq etish hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uning manzarasini to'laroq yoritish imkonini beradi.

Jamiyatning barcha rivojlanish bosqichlarida va turli mintaqalarda etnografiya o'zining tarixan shakllangan jihatlariga bog'liq bo'lgan. Shu jihatdan etnografiyaning turli davrlardagi xususiyatlarini o'rganish har bir jamiyatda qay tarzda rivojlanganligi hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy, ijtimoiy va amaliy ahamiyatga egdir.

Surxon vohasi qadim tarixga ega yurt sanaladi. Aynan davlatchiligimiz asoslarining shakllanishida ham voha muhim o'rin egallaydi. Surxondaryo betakror tabiati, moddiy boyliklari hamda aholisining o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari va an'analarining lokal xususiyatlari bilan alohida mohiyat kasb etadi.

Jahon va o'zbek xalqi etnografiyasi fani rivojida taniqli etnograf olim I.Jabborovning[1] ham o'rni bor. Olimning tarixiy etnografik asarlarida o'zbek xalqining etnik tarixi va kelib chiqishi, joylashishi, madaniy-maishiy aloqalari, an'anaviy mashg'ulotlari, ijtimoiy va oilaviy turmushi kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston tarixi va etnografiyasini o'rganishda tarixchi-etnograf olim S.N.Tursunovning[2] yaratgan ilmiy asarlari muhim o'ringa ega bo'lib, xususan, Surxon vohasi etnografiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etib, olimning asarlari tarixiy, etnografik, arxeologik, numizmatik manbalar asosida yozilgan.

Xalq o'yinlari hamma zamonlarda yosh avlodni tarbiyalashda muhim pedagogik vosita vazifasida xizmat qilib kelgan. O'yinlar bolalarni yuksak insoniy fazilatlar sohibi qilib tarbiyalashda juda qulay vositadir. O'yinlar bolalarning hayotiy ehtiyojiga muvofiq ravishda tanlanadi va ularning kattagina qismi kattalar tomonidan bolalar uchun yaratilgan bo'ladi.

O'yin o'ynash bolalarga cheksiz rohat bag'ishlaydi. O'yinlar bolalarning mustaqil ijodkorligini o'stiradi, tashabbuskorligini shakllantiradi.

Bolalarni tarbiyalash maqsadida yaratilgan o'zbek xalq o'yinlari ularni jismoniy va ma'naviy yetuklikka chorlash bilan yaratilgan.

O'zbek bolalar o'yinlari juda serqirra. Ular pedagogik, psixologik, etnologik, tarixiy, fiziologik va folkloriy qirralarga ega bo'lib, o'zida shu bilimlarga oid ma'lum mezon va talablarni ifoda etadi.

Mamlakatimizning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, yosh avlod tafakkurini milliy qadriyat va umuminsoniy g'oyalar asosida shakllantirish, ularda jamiyatning o'zgaruvchan talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni qaror toptirish uchun ta'lim sharoitlarini yaxshilash va yuksak ma'naviy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilmoqda. Jumladan "bolalarning har tomonlama sog'lom turmush tarziga rioya etishi va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash"[3], ilg'or xorijiy tajribalar asosida umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

[1] Jabborov I. O'zbek xalqi etnogrfiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
[2] Турсунов С.Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти / Сурхондарё этнографияси. – Тошкент, 2006.–Б.246.
[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- Son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ||www. Google.uz.

O‘yin o‘ynash bolalarga cheksiz rohat bag‘ishlaydi. O‘yinlar bolalarning mustaqil ijodkorligini o‘stiradi, tashabbuskorligini shakllantiradi.

Xalqimizning tarixiy dunyoqarashi va ijtimoiy turmush tarzidan kelib chiqishi, yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash maqsadida yaratilgan o‘zbek xalq o‘yinlari bolalarni jismoniy va ma’naviy yetuklikka chorlash bilan birga katta avlodning yosh avlodga nisbatan e’tiborini, mehr-muhabbatini, g‘amxo‘rligini, orzu-istaklarini ham badiiy ifoda etadi.

O‘yinlarning kattagina qismi o‘tmishda yaratilgan bo‘lib ayrim an’anaviy o‘yinlar tarixi hatto ertaklardan ko‘ra qadimiyroqdir. Ularning kelib chiqishiga qadimgi insonlarning turli marosimlarni o‘tkazishlari ta’sir ko‘rsatgan

O‘yinlarda hamisha g‘olib kelishga intilish, o‘yinning g‘alaba bilan yakun topishi, bolalarninng jismoniy yoki aqliy kuchining sinovdan o‘tkazilishi, odatda, epik asarlarga xos an’anaviy motivlar doirasida yaratilganligi, ular o‘yin janrining qadimiyligidan va epik an’ana doirasida yaratilishidan dalolat berib turadi. O‘yinlar ikki bosqichda rivojlanib borgan. Birinchi bosqichda bolaning jismoniy kuch – qudratini sinash vositasi sifatida xizmat qiluvchi o‘yinlar turkumi vujudga kelgan. Ikkinchi bosqichda bolaning aql kuchini sinash vositasi bo‘lgan ma’naviy(so‘z) o‘yinlar shakllangan.

M.Aslanova o‘z tadqiqotlarida jismoniy o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganishini tavsiya etadi: ular ijodiy o‘yinlar va qoidali o‘yinlarga ajratgan[1].

O‘yinlar bolalarda burch va ma’suliyatni tarbiyalaydi, ularda huquqiy ong shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuning uchun o‘yinlar go‘yo turmush darsligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bolalar o‘yini vositasida hayotni taniy boshlaydilar. Shu jihatdan o‘yinlar yuksak etnopedagogik mohiyat kasb etadi va ko‘p vazifaviyligi bilan ajralib turadi. Epik an’analar zaminida yaratilganligi bilan diqqatni tortadi. Shunga qaramay, hozirgi kunda ham bu bebaho qadriyatlarimiz o‘z aslini yo‘qotmasdan bolalar tomonidan uzoq muddat davomida uzluksiz davom ettirilib kelinayapdi.

O‘yinlarning eng muhim asosiy xizmati ularning bolalarni fiziologik-jismoniy tarbiyalash vazifasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Suzish, yugurish, sakrash, uloqtirish, kurash tushish, qo‘l yoki oyoq kuchlarini sinash harakatlariga daxldor o‘yinlarni o‘ynaganda bolalarning organizmi chiniqadi va mustahkamlalanadi. Tana a’zolarining qon aylanishi va modda almashinuvi yaxshilanadi.

Bolalar o‘yinlarida qahramonlik, jasurlik, donolik ulug‘langan bo‘lib bu o‘yin turlarini, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga oid xalq dostonlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Kaykovusning “Qobusnoma” asarida merganlik, chavandozlik bilan bog‘liq ayrim oyinlarning qoidalari tarbiyaviy maqsadda tavsiflangan[2], Zayniddin Vosifiyning “Badoyeul-vaqoye” kitobida kurash tushishga aloqador o‘yinlarning mohiyati izohlangan[3]. Bu manbalarda kurash o‘yiniga harbiy chiniqtirish mashg‘uloti sifatida qaralganini ko‘ramiz.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari orasida o‘yinlar qadimiyligi, an’anaviyligi, bolalar o‘rtasida ommalashganligi mavzusi rang-barangligi jihatidan alohida mavqe egallaydi. Tarixiy asoslariga ko‘ra qadimgi miflar, marosim folklori hamda ertaklar syujeti bilan bog‘liq holda bolalarning o‘yinlari nomlari ham uzoq asrlar davomida shakllangan og‘zaki ijod an’analarining mahsulidir.

Bolalar o‘yin mavzulari mazmuniga va g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab qarindoshlik tuyg‘usini ifodalovchi: bobo, buvi,ona , oyi, amma,xola, tog‘a va boshqalar obrazlarini yoki kasb-hunar egalari: sotuvchi, dehqon, bog‘bon, mehnat qurollari nina, tesha, arra, hayvon va qushlar, mevalar, sabzavot va poliz ekinlari, daraxtlar, gullar, osmon yoritgichlari, trasport vositalari, yil fasllari, tabiat hodisalari, tabiat hodisalari, ertak qahramonlarini o‘z o‘yin faoliyatlarida obrazlantirib ko‘rsatadilar.

ǯašimmäčaq// dašimmäčaq (Boy.) – o‘yin turi, bekinmachoq. Qiyos. Би қилиб тарбиялашда жуда қулай воситадир. Болаларни юксак инсоний фазилатлар соҳи, Toshk. shevasida **bekinmäčāq**, Aravon shevasida **jäšintopalāq;** qashq. j**äšim mäčāy**ˣ (O‘zShL,217); qq. **ävälämä**n – bekinmachoq (bolalar o‘yini) (Qo‘sh, 75).

Iaŋkä (S-D) – 1. o‘yin turi. Qo‘y-echki terisining bir bo‘lakchasiga qo‘rg‘oshin yopishtirib, oyoq bilan tepib o‘ynaladigan o‘yin; 2. yomon yo‘lga yuradigan ayol.

qadämätäjax (Boy.) – bolalar o‘yinining bir turi. Buni ikki bola o‘ynaydi, boshqalar qarab turadi. yerga uchta doira va ular orasida kataklar chizilib, doiralar tutashtiriladi. “Galka” toshini bir oyoqlab tepib hamma xonalarga kiritish kerak. Agar tosh chiziqlar ustida to‘xtasa, u holda “qolgan” – yengilgan hisoblanadi va o‘yinni ikkinchi bola davom ettiradi. O‘ngacha sanaladi. Kim oldin o‘n marta aylanib chiqsa, u yutgan bo‘ladi.

[1] Aslonova M. Ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish(Boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida). Ped.f.n.dis. –Navoiy: 2009, – 153-b.

[2] Unsurul Maoliy Kaykovus. Qobusnoma.– Toshkent: O‘qituvchi. 1986.

[3] Zayniddin Vosifiy. Badoyeul-vaqoye. Forsiydan A. Norqulov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1979.

axsüjäk (Chor., Pad., Ink., Dasht., Sar., Jin., Bot.) – bolalar o‘yini ning bir turi. Bu o‘yin asosan kechasi o‘ynaladi. Bunda hamma bolalar ko‘zlarini do‘ppisi bilan yopib turadi. Bitta bola oppoq suyakni otadi, ko‘zini yopib turgan bolalar suyakni topish uchun chopib ketishadi. Agarda kim topsa, o‘sha bola yutgan hisoblanadi, belgilangan joyga kelib yana suyakni otadi va boshqalar topadi. Bu o‘yin bolalar charchagunlaricha davom etadi. Qiyos., qoz. **aksüjäk** – ǯastardï:n tünde ojnajtï:n ojï:nï:nï:ŋ atï:(Qtts, II, 26).

ǯüppätax (Boy., Sho‘r., Jar.) – juftmi toq. Bolalar o‘yinining bir turi. Bu o‘yinda bitta bola qo‘lida bir necha danakni yashiradi va sherigiga **ǯüppätax** deydi. Shunda u juft yoki toq deydi. Agar to‘g‘ri aytsa, shu miqdorda danak oladi yoki bir ochkoga ega bo‘ladi.

bābāltäkä (Boy.) – bolalar o‘yinining bir turi. Bolalar qator turishadi. Yashirilgan narsani topolmagan bola o‘yinni boshlab beradi. Qolgan bolalar har tomonga qochadilar. Topolmagan bola bir oyoqlab chopib, bittasini tepadi, agar tepa olsa, bir ochkoga ega bo‘ladi. Tepki yegan bola yana o‘yinni davom ettiradi. O‘yin 10 ochkogacha o‘ynaladi.

dürrä//paššäväzir (Boy., Sho‘r., Qum.) – bu o‘yinda bolalar davra qurib o‘tirib, gugurtni yerga tashlaydilar. Agar tik tushsa, o‘sha podsho, yonbosh tushsa vazir, gullik tomoni tushsa qozi, gulsiz tomoni tushsa o‘g‘ri bo‘ladi. Vazir podshohga o‘g‘rining gunohini aytadi. Shunda podshoh necha **durra** urish kerakligini qoziga aytadi va qozi ijro qiladi. (**durra** – ro‘mol yoki boshqa materialdan eshib tayyorlangan ip bo‘ladi).

tï:xmaq (Boy., Sho‘r.) – bolalar o‘yini. Bolalar ikki tomonga 10 tadan bo‘lib yerga qator o‘tirib oladi, keyin boshlovchi biron narsani yashiradi va ikki guruhning boshlig‘i uni topish kerak. Qaysi tomon yutib chiqsa, bir ochkoga ega bo‘ladi va navbat bilan do‘ppini oyog‘ining uchiga ilib yotib otadi. Do‘ppini ikkinchi guruh bolalari tutib olishi kerak bo‘ladi. Tutolmasa, o‘yin yana takrorlanadi, oxiri uzoq masofada qolgan guruh bolalari “züv-züv-v” deb ovoz chiqarib, marraga yetib kelishlari kerak. Ovoz uzilsa, yutqazgan hisoblanadi.

hädürsä (S-D) – bir yog‘ochni ikkinchi yog‘och ustiga ko‘ndalang qo‘yib (plyus tarzida), ikki uchiga ikki bola minib o‘ynaydigan bolalar o‘yini. Qiyos., Sam. **hädürsa//hadirsa** (SamDU, 52); Jiz. **halakačkä**.

hälginčäk (S-D) – daraxt shoxiga yoki uyning xarisiga arqon bog‘lab, uchib o‘ynaladigan bolalar o‘yini. Sol., Sam**. hangälčäk;** Toshk. **ärγimčāγ;** And. **häjinčäk** (Udm,II,259); Farg‘.**häjančäk**; Jiz. **halgänčaj**; Surxondaryoning ba’zi shevalarida **älgänčäk** (ǯl.yl.) deb belanchakka aytiladi **(Sr, 10).**

aššï:q (S-D) – bolalar o‘yinining turi: Qiyos., qq. **asï:q ojïn.**

čilik (Boy., Jar., Qum., Jar.) – chillak, o‘yin turi. Qiyos., f.-toj.: **čillakbāzi** – bolalar o‘yinining bir turi. Mongol tilida **čilek**; Surxondaryoning ba’zi shevalarida jimjaloqni **čilik** deb yuritiladi(Sr, 118).

kočmäk (Boy., Sho‘r.) – o‘yin turi.

hür//hit (S-D) – oshiq o‘yin turlari.

čarpäčaq dāldāl (S-D) – yong‘oq o‘yin turi.

züv-züv(Boy., Sho‘r., Jar.) – o‘yin turi. Bunda bolalar ikki guruhga bo‘linib turadilar va ulardan bittasi nafas olmasdan “zuv” deb chopadi, qaerda nafas olsa, boshqasi xuddi shu yerdan ovoz chiqarib chopadi. Belgilangan joyga qaysi guruh birinchi yetib kelsa, o‘sha yengib chiqqan bo‘ladi.

ǯun top (Boy.) – to‘pning bir turi. U qoramolning junidan yasaladi. Bahor faslida sigirning junidan yulib olib (o‘sha vaqtda sigirning juni o‘zi tusha boshlaydi), ikki qo‘lning orasida suvlab aylantiriladi va to‘p hosil bo‘ladi. Sol., qq. **ǯun top** (Qtds, 131)

uttï (Boy., Sho‘r., Qum.) – yutdi, yengib chiqdi. Qiyos., **utti** (DLT, I, 181).

urdi-qašti(S-D) – bolalarning doira shaklida turib, biri qochib, biri quvib o‘ynaydigan o‘yini. Qiyos., qq. **urdi-qačti**(Ber., Mang.) (Qo‘sh, 163).

Xullas, o‘yin xalq ijodiyotining betakror poetik namunasi bo‘lib, o‘zida xalqimizning bolaparvarlik va bolajonlik fazilatini badiiy ifoda etib turadi.

Xalq o‘yinlari asrlar davomida hayotiy va pedagogik tajribadan o‘tib kelgan estetik hamda pedagogik xususiyatga ega harakatlar bo‘lib, bolalarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim vositalaridan biridir.

SHARTLI QISQARTMALAR

DLT – Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” I- tom (Mutallibov S. tarjima qilgan). – Toshkent, 1960-1963.b.-181

SamDU – O’zbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (SamDU asarlari). – Samarqand, 1977.

O‘zSHL – O‘zbek shevalari leksikasi (to‘plam). – Toshkent, 1966. b.-217

Qo‘sh – Ishaev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1977. B.-75 va b.-163

Qtds – Qoraqalpoq tiliniң dialektologiyalьıq sozligi. – Nokis,1983.

SR – Rahimov S. O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetika, leksika), – Toshkent: Fan, 1985.– B.95 va b.-118

Qtds – Qoraqalpoq tilinің dialektologiyalıq sozligi. – Nokis, 1983.

II
And.- Andijon
Sam.- Samarqand
S-D.- Surxondaryo
Toshk. – Toshkent

III
Boy.-Boysun
Ber.- Beruniy
Dasht.- Dashtig‘oz
Mang. Mang‘it
Ink.- Inkobod
Jin.- Jindibuloq
Pad.-Padang
Qum.-Qumqo‘rg‘on
Sar.- Sarqamish
qq. - qq. qoraqalpoq tilida
f.toj.- fors-tojik

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili va shevalariga, o‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalaridagi kundalik iste’mol uchun tayyorlanadigan, to‘y, bayram va boshqa xalq marosimlari uchun maxsus tayyorlanadigan, mavsumiy, ya’ni yilning ma’lum fasllaridagina tayyorlanadigan, tayyorlash usuli unutilayotgan yoki masallig‘i noyob, ba’zi-ba’zidagina tayyorlanadigan, betob bo‘lganda yoki ishtahasi qirqilganda shifo bo‘ladigan taom nomlarini, shuningdek, shirinlik, qandolat va ichimlik nomlarini tadqiq etish o‘zbek tili lug‘at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o‘rganish uchun imkon yaratadi.

Resume. This article examines the names of dishes prepared for daily consumption, specially prepared for weddings, holidays and other folk ceremonies, seasonal, that is, prepared only at certain times of the year, whose preparation method is forgotten or whose ingredients are unique, prepared only occasionally, and used to cure illness or loss of appetite, as well as the names of sweets, confectionery and drinks in the Uzbek literary language and dialects, Uzbek dialects of the studied region, which provides an opportunity to study forgotten language elements of the Uzbek language vocabulary and ambiguous lexical-grammatical phenomena in the history of the language.

Резюме. В данной статье рассматриваются названия блюд, предназначенных для ежедневного употребления, специально приготовленных к свадьбам, праздникам и другим народным обрядам, сезонных, то есть приготовленных только в определенные времена года, способ приготовления которых забыт или ингредиенты которых уникальны, приготовленных лишь изредка и используемых для лечения болезней или потери аппетита, а также названия сладостей, кондитерских изделий и напитков на узбекском литературном языке и диалектах, узбекских диалектах изучаемого региона. Это дает возможность изучить забытые языковые элементы узбекской лексики и неоднозначные лексико-грамматические явления в истории языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA REKLAMA MATNLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATI

Botirova Maxliyo,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jahon va o‘zbek tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga tayangan holda reklama tilining grammatik xususiyatlarini o‘rganish reklama matnini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning ifodali vositalari reklama qilinayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochish uchun zarurdir.

Reklamada ko‘plab narsa-hodisalarning nomlari ishtirok etgani bois ularda asosan **ismlar** qo‘llaniladi. Har qanday reklama matni reklama qilingan tovarlar yoki xizmatlar, ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar to‘g‘risida ma'lumot beradi. Shuning uchun tegishli nomlardan foydalanish axborot funksiyasini amalga oshiradigan vosita hisoblanadi (tovarlarning nomlari, ishlab chiqaruvchilar, savdo markalari va boshqalar). Deyarli har qanday reklama matnida tegishli nomlar mavjud.

D.Y.Rozental ismni "...so‘zlarni obyektivlikning grammatik ma'nosi bilan birlashtiradigan nutqning bir qismi, bu jins, son, ish, jonli va jonsiz mustaqil toifalari yordamida ifodalanadi"[1] deb tushuntiradi. P.A.Lekant quyidagi ta'rifni beradi: "Ism – bu obyektni bildiradigan va jonli / jonsiz, jins, son va ishning ma'lum grammatik kategoriyalarida obyektivlikning kategorik ma'nosini ifodalaydigan nutq qismidir"[2]. Shunday qilib, nutqning bir qismi sifatida ismlar ma'lum narsalar (divan, poyabzal, halqa), moddalar (kislota, kumush), tirik mavjudotlar va organizmlar (sher, chivin), haqiqiy tabiat hodisalari (qor, bahor), mavhum fazilatlar va xususiyatlar (noziklik, oqlik), harakatlar va holatlar (ish, qadam), joy nomlari (Samarqand, Buxoro), shaxslar (chaqaloq, bola) kabilar. Barcha ismlar obyektivlikning mavhum grammatik ma'nosiga ega.

Umuman olganda, biz hissiyotdan oldin uning nomiga e'tibor berganimiz bois ot so‘z turkumi reklama matnlarida ijtimoiy til nuqtai nazaridan ko‘p ishlatiladi (3.1-jadvalga qarang). Reklamalarda ma'lum bir harakatlarga undash mavjud bo‘lganligi, ot so‘z turkumidagi so‘zlarning ko‘p qismini sifatlashish orqali nisbiy sifat shakliga kiritish mumkinligi bois sifatlar ham ot so‘z turkumining belgisi sifatida ahamiyatli. "Ot turkumidagi so‘zlar uslub talabiga ko‘ra oddiy so‘zlashuvda, badiiy nutqda boshqa turkum vazifasini bajaradi"[3]. Masalan, Oziq-ovqat mahsulotlari, Samarqand osh, Alpen Gold shokoladi, Palmolive sovuni kabi. Bu birikmalarda keltirilgan har ikkala so‘z ot so‘z turkumida, ammo sifat vazifasini bajarib kelgan.

Til birliklari asosida shakllantirilgan reklama matnlarida asosan yuqori emotsional - ekspressivlikka ega bo‘lgan sifat turkumiga oid so‘zlar qo‘llaniladi. Chunki reklama qilinayotgan xizmatlar, tovarlarning xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta'kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatish asosan sifat so‘z turkumi orqali amalga oshiriladi. Masalan, *xushbo‘y, nozik, shaffof, sof, asl, toza, haqiqiy, tabiiy, chin, arzon, ommabop, hammabop, yoqimli, ko‘rkam, yorqin, porloq, xushbichim, orasta, zebo* va hokazo. Reklama mahsulotining brendini ommaga taqdim qilishda raqobatchilar orasida asosan texnika vositalariga murojaat qilinadi. Sifatlarning yorqin ifodali xususiyatlari esa mazkur vazifani bajarishda yordam beradi.

Reklama matnlarida baholash mazmuniga ega bo‘lgan va eng ko‘p ishlatiladigan sifatlar qatoriga *issiq, shov-shuvli, hayratlanarli, zamonaviy, noyob, xayoliy, mukammal* so‘zlarini kiritish mumkin. Ushbu sifatlar reklama matnlarida ijobiy semantik ottenka ifodalashga xizmat qiladi. "Reklama tarkibidagi ma'lumotlar ishonchlilik mezonlariga javob berishi kerak, shu jumladan, iste'molchining mahsulot (xizmat), uning sifati, iste'molchi xususiyatlari haqidagi to‘g‘ri, haqqoniy g‘oyasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, reklama qilinayotgan obyektning boshqa tovarlar bilan taqqoslanadigan xususiyatlaridan foydalanish, masalan, "eng yaxshi", "birinchi", "birinchi raqam" so‘zlaridan foydalanib taqqoslash amalga oshirilganda

[1] http://hi-edu.ru/e-books/xbook107/01/about.htm.Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. - 6-е изд. – Москва: Логос, 2002. – 528 с.

[2] Лекант П.А., Гольцова Н.Г., Жуков В.П. и др. Современный русский литературный язык: Учебник/ Под ред. П.А. Леканта. – 5-е изд. – Москва: Высшая школа, 2001. – С.195.

[3] Тоҳиров З. Сўз туркумлари услубияти // Ўзбекистонда хорижий тиллар. –Тошкент, 2017. -№5-6. – Б.55.

obyektiv tasdiqlangan aniq mezon ko‘rsatilishi kerak”[1].

Yuqoridagi nazariy fikrlarga asoslanib xususiyat bildiruvchi *aqlli* sifatini qanday mezon asosida qo‘llanishini quyidagi reklama mazmunidan bilib olamiz:

Samsung yaxshi hayot uchun aqlli texnikalar taqdim etdi!

“Aqlli” maishiy texnika nafaqat zamonaviy ko‘rinishga **ega**, balki tez rivojlanayotgan XXI asrda barcha ishlarni **osonlashtiradigan** haqiqiy yordamchi hamdir. Telefon va televizorlar “aqlli” yordamchiga aylanib bo‘ldi, ularning ishlab chiqaruvchilari **esa** bu nuqtada to‘xtab qolmoqchi ham **emas**. Barchamizga ma’lum bo‘lganiday, mukammallikning cheki yo‘q. Maishiy texnika ham tinimsiz **o‘zgarib**, samaradorligi **oshmoqda**, sezdirmay ishlab, hayotimizga qo‘shimcha qulaylik taqdim **etayotgan** yangi vazifalarga **ega** bo‘lib bormoqda.

“Reklama matnida sifat bilan ifodalangan xususiyatlarni shartli ravishda xarakterlovchi va baholovchi deb ajratish mumkin”[2]. Reklamalardagi sifatlar mahsulotning haqiqiy xarakterli xususiyatiga, holatiga mos keladigan va bu mahsulotni iste’mol qilganda ana shunday xususiyatlarni his qilishga yordam beradigan so‘zlar sifatida tushuniladi. Misol uchun: *Bosh aylantiruvchi egilish.* Yangi flextencils. Ajoyib *uzun va jingalak kirpiklar.* Siz orzu qilgan kirpiklar: powershape mahkamlash majmuasi va eksklyuziv brushing cho‘tkasi kipriklaringizni *jingalak, uzun* va *nihoyatda yumshoq qilib,* ko‘zlaringizga ta’sirchanlik va o‘ziga xoslik baxsh etadi. Natija: ko‘z ochib yumguncha kipriklaringiz 30%ga uzayadi va egilish burchagi 30 ga etadi. Go‘zallikga ishoning. (Lancome)

Sifatlardagi daraja ko‘rsatkichlari obyektiv olam voqea-hodisalari va predmetlar tashqi ko‘rinishi va ichki xususiyatlarini tinglovchi /o‘quvchi/ga mumkin qadar to‘laroq yetkazish, shular yuzasidan aniqroq tasavvur hosil qilish maqsadlarini ko‘zda tutgan holda ishlatiladi. Daraja ko‘rsatkichli va intensiv formali sifatlar og‘zaki va badiiy nutq uslubiga xos bo‘lib, rasmiy, ilmiy nutq uslubida nisbatan kam ishlatiladi.

-roq affiksi qiyosiy darajadagi sifatlarga qo‘shilgan belgining normadan ortiqligini, ammo qiyosiy belgi darajasidan kamligini ifodalasa, qiyoslanmagan holatlarda belgining normadagidan kamligini aks ettiradi. Men seni qo‘ldan agar boy bersam, o‘lganim yaxshiroq. -roq affiksi reklamalarda ham qiyos ma’nosini ifodalashda ishtirok etadi. Masalan: *Ta’m ta’mliroq, dizayn zamonaviyroq, taassurotlar yorqinroq* (Ays tea), *Soch yanada kuchliroq* (Pantene shampuni), *Yorqin ta’m, yorqin ichimliklar. Fanta bilan yorqinroq bo‘l* (Fanta), *Boshqarish osonroq – natija yaxshiroq* (Samsung kir yuvish mashinasi), Yorqinroq, yupqaroq, sekinroq (Samsung Galaxy Tab S plansheti).

Sifatlar oldidan tag‘in, yana, yanada kabi ravishlar keltirish bilan belgi ortiqligi qiyosan ifodalanadi. Bunda qiyoslash “yashirin” bo‘ladi, ya’ni normadagi belgini ifodalovchi sifat oldingi gap /bu gap dialogik bo‘ladi/ da ishtirok etadi: -katta qovun oldimtag‘in ham kattaroq qovun olish kerak edi kabi. Ko‘rinadiki, bunday qo‘llanishlar ham aslida qiyosiy holatni aks ettiradi. Belgining ozligini ifodalash -sh, -ish, -mtir, -imtir orqali ham ifodalanadi. Lekin bu affikslar qo‘shilganda, o‘zak-negiz /sifat/ dan anglashilgan belgi emas, balki shunga o‘xshash: belgi mavjudligi ifoda etiladi. Shuning uchun ham qoramtir bilan qoraroq kabi va shu kabi so‘z-sifatlar o‘zaro sinonim bo‘la olmaydi. Fikr yuritilayotgan predmetlardan biriga diqqat jalb etilsa, uning belgisini maxsus ifodalash, yaqqol tasavvur qilish nazarda tutilsa, sifatlar oldidan eng, hammadan so‘zlari keltiriladi. Bunda so‘zlovchi nutq paytida fikr belgining boshqa har qanday belgidan muhim ekanligini alohida uqtirmoqchi bo‘ladi: U eng odobli bola edi kabi. Ma’no kuchaytirish sifatlar oldidan juda, g‘oyat, nihoyat, bag‘oyat kabi ravishlarni qo‘llash, bosh qismini takrorlash yo‘li bilan tuzilgan juft sifatlar orqali ham ifodalanadi. Masalan: *Bir lahzani to‘xtatish juda oson* (KODAK reklama kompaniyasi), *Hatto eng o‘jar dog‘larni ham olib tashlaydi* (Yangi Losk), *Mutlaqo sof va tabiiy* (Nestle suti), Ajoyib sifat va eng yuqori ishlash. Katta va yorqin bilan ko‘rsatish eng yuqori tasvir sifati. (Samsung Galaxy Ace 2), *Eng ishonchli tanlov* (Vinetki.uz), *Eng yaxshi xotiralar eng yaxshi smartfon bilan* (Iphone 14 pro max).

Reklama matnida mahsulot xususiyatini **ochib** berishda kerakli sifatdan foydalanish **orqali** sifat leksik-grammatik birlik darajasiga ko‘tariladi, matnni baholash tuzilmasini yaratishda qatnashadi, uning axborot qiymatining oshishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga mahsulot sifatini farqlashga ko‘mak berib, yangi semantik ma’nolarni ochib berishda xizmat qiladi.

Reklamada oz miqdorda olmosh so‘z turkumi ham qo‘llanadi. Olmosh turkumiga mansub so‘zlar obyektlarni, ularning belgilarini, miqdorini yoki sanash tartibini bildirmaydi, ularga faqat ishora qiladi, xolos. Reklamalarda qoida tariqasida “siz” adresatidan foydalaniladi. Reklamalarda “biz” deganda mahsulotni ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, bank mutaxassisi yoki reklama muallifi nazarda tutiladi. “Siz” deyilganda bevosita iste’mol-

[1] http://sovetreklama.org/2016/07/pravomernost-ispolzovaniya-v-reklame-slova-luchshij-trebuet-dokazatelstv // Правомерность использования в рекламе слова «лучший» требует доказательств.

[2] Ахмед Айад Ш. Лексико-грамматические средства представления товара в газетной рекламе: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – С.14.

chilarga murojaat qilinadi.

Olmoshning ma'no turlaridan kishilik olmoshlari reklama matnlarida keng qo'llaniladi. Kishilik olmoshlari shaxs bildiradi (siz, biz, ular, siz); o'zlik olmoshi belgi bilan shaxsning aloqasini bildiradi va shaxsga tegishli bo'lgan so'zlar o'rnida almashinib keladi (meniki, seniki, bizniki); ko'rsatish olmoshlari obyektlarni, ularning sifatini yoki miqdorini ko'rsatadi (bu, shuncha, bunday, shunday); so'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi (kim, nima, qanday) haqidagi savollarni o'z ichiga oladi; jamlovchi olmoshlar umumlashtirilgan xususiyatini bildiradi (barchasi, har biri, har xil); gumon olmoshlari noma'lum, noaniq shaxslarni, obyektlarni, ularning belgilarini (biror narsani, kimnidir, nimanidir) bildiradi; bo'lishsizlik olmoshlari shaxsning, narsaning mavjud emasligini yoki ularning belgisini bildiradi (hech narsa, hech kim, hech qanday). Reklamalarda olmoshlarning quyidagi ma'no turlarini ko'rishimiz mumkin:

Ko'rsatish olmoshi: *Uni qanchalik muhim va ahamiyatli ekanini his qilishingizni istaymiz. Onalik kaliti qo'lingizda* (Plan baby);

Kishilik olmoshi: *Sizning yuragingiz nafaqat siz uchun uradi* (Trombopol), *Muza bilan siz betakror pazandasiz* (Muza);

O'zlik olmoshi: *O'z ritmingni yoq* (Coca cola);

Bo'lishsizlik olmoshi: *Hech narsani yashirma* (Clear shampuni);

Belgilash olmoshi: *Har tomchida quyosh* (Lipton);

Birgalik olmoshi: *Hammasi yaxshilikka* (Nescafe), *Butun sayyora sizning ixtiyoringizda* ("Planet Earth" sayyohlik agentligi).

Reklama matnida olmoshlarni tanlab qo'llash bir qator omillarga, shu jumladan, mahsulot toifasiga va maqsadli auditoriyaga tegishli bo'lishiga bog'liq. Masalan, *"siz"* olmoshi ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi rasmiy munosabatni belgilaydi, muloqot natijasida hurmat va ikkinchisiga xizmat qilishga tayyorligi namoyon bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, kishilik olmoshlari tashqi reklama matnlarida tasvirlangan vaziyatda o'quvchining (iste'molchining) mavjudlik belgisini anglatadi, xaridorni reklama qilinayotgan mahsulot haqiqatan ham unga tegishli bo'lishini belgilaydi. Biroq, mahsulotni reklama matnlarini yaratishda shaxsiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik kerak (kimga murojaat qilayotgani aniq bo'lishi lozim). Masalan: "Ushbu mahsulot ayol tanasining holatini qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqarilgan..." degan jumla o'rniga, birinchi shaxsda iste'molchiga murojaat qilgan ma'qulroq: "Biz bu mahsulotni ayollar uchun maxsus yaratdik..." kabi.

Obyektiv olamni voqea-hodisasi yuzasidan axborot berish va olish, inson his-tuyg'ulari va borliqqa munosabatlari fe'l formalari orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham fe'l formalarining qo'llanishidagi oziga xoslikiar uslubiy jihatdan g'oyat muhimdir. Nutqda fe'l formalarining grammatik jihatdan to'g'ri qo'llanishi oddiy uslubiyatga xos bo'lib, fikrni to'g'ri va aniq bayon etishda asosiy vosita, mezon hisobianadi. Ularning fikran nozik ottenkalarini ifodalashga xizmat qilishi esa ekspressiv uslubiyatning asosi bo'lib, so'zlovchiga turli munosabatlarni bayon etish imkonini beradi.

Grammatik birliklar ichida reklamalarning sotsiolingvistik mohiyatini ochishda asosan imkoniyat, xohish, taklif ma'nosini ifodalovchi fe'llardan ham foydalaniladi. Fe'l so'z turkumini reklamalarda qo'llanilishi leksik-semantik, hissiy munosabat, istak, talabni ochiq ifoda etishga imkon beradi. Semantik xususiyatlar fe'llar orqali ogohlantirish (aldanib qolmang), da'vat etish (qabul qiling), taklif (maslahat beramiz) ifodalanadi.

Fe'lning matndagi ma'lum birliklarning harakat yoki holatini, semantikasini ochib berishda o'ziga xos vazifalar bajaradi. Mazkur vazifalar bilvosita nominatsiya bilan, metafora jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, *Sotib* oling *va* o'*zingizni ertakdagidek his qiling* kabi. Fe'lning grammatik kategoriyalari inson ongida real voqelikni aks ettiruvchi eng muhim mantiqiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutq samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Sintaktik ravishda reklama matnida fe'lning konstruktiv o'rni juda muhimdir.

L.Tenyer nazariyasiga asoslangan verbotsentrik konsepsiyaga ko'ra, fe'l gapning yadrosi bo'lib, qisqartirilgan shaklda vaziyatni o'z ichiga oladi.[1] Ammo shu kungacha reklama tilida ushbu leksik-grammatik birlikning tizimli tavsifi mavjud emas. Shuning uchun ham nutqni sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish, uni madaniy-tarixiy, ijtimoiy jihatdan tahlil qilish, matn muallifi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish reklama matnlari tadqiqida alohida ahamiyat kasb etadi.

Reklama matnlarida "qabul qilish", "undash" fe'llari leksik-semantik guruhda eng ko'p tarqalgan so'zlar hisoblanadi. Rus tadqiqotchisi Y.Dementyeva "Reklama matnlarida fe'l" deb nomlangan tadqiqot ishida bunday fe'llarni reklama matnlarining 25% tashkil qiladi deb yozadi.[2]

Reklama matnlarida, asosan, fe'lning buyruq shakli faol qo'llaniladi. Masalan: *O'zingizni quritib qo'ymang!*

[1] https://classes.ru/grammar /Л.Теньер и его структурный синтаксис.

[2] Дементьева Е. *Глагол* в рекламном тексте: Автореф. дис. …канд.филол.наук. – Краснодар, 2004. –С.12.

(Sprite), *Tanaffus qiling* va *Twix yeng!* (Twix), *Tabiatning kuchini oching.* (Timote shampuni) va h.k.

Ba'zi bir holatlarda fe'lning *bilinadigan yangilik, bilinmas narxga* (Coca cola) kabi shakllarini ham ko'rishimiz mumkin.

Reklamalarda butun matn turtki beruvchi fe'llar asosida tuzilishi mumkin. Bundan asosiy maqsad, iste'molchini mahsulotni sotib olishga undash hisoblanadi. Masalan: *Bir zum to'xtang.* Yangi NOKIA 7650 shunchaki telefon emas, chunki u o'rnatilgan raqamli kameraga ega. *Mavzuni tanlang, rangli displeydan* foydalaning, *suratga oling* va shu daqiqadan abadiy *zavqlaning! Tasvirni* ko'plab rasmlar uchun yetarli xotiraga ega fotoalbomga saqlang yoki *fotosuratni* do'stingizga yuboring.

Yuqoridagi holatni quyidagi misolda ham kuzatishimiz mumkin: *Londonning hayotga bo'lgan ishtiyoqini his eting!* Lipton choyi "ta'm" Londonning Lipton choyxonasining boy an'analarini davom ettirib, ularga yangi, hayajonli eslatmalarni kiritdi. Choyning tanlangan navlarining o›ziga xos kombinatsiyasidan yaratilgan *nozik, nafis ta'mi va sizga har kuni yengillik, quvnoqlik va samimiy zavq bag'ishlaydigan qiziqarli tetiklantiruvchi hidni qadrlang!* Lipton "London ta'mi" sizga eng mashhur choy madaniyatining eng yaxshi an'analari va uning zamonaviyligining hayajonli ritmlarini o'zida mujassam etgan ingliz choyining yangi ta'mini ochadi.

Son so'z turkumini zamonaviy reklama matnining ajralmas elementi deb hisoblash zarur, chunki raqamlar adresatni o'ziga jalb qiladi va reklamaning iste'molchilarga ta'sirini kuchaytiradi, shu bilan birga, ijtimoiy hayot voqealari haqida gapirishda raqamlar faktlardan ko'ra matnni ravshanroq ifoda etadi: O'*zbekistonda* ***birinchi*** *raqamli shokolad pastasi Chococream –* ***millionlar*** *tanlovi.* Reklama matnlarida son so'z turkumining ham o'ziga xos vazifasi va o'rni bor. "Ko'pincha reklama matnlarining tadqiqotchilari reklama matnining leksik, sintaktik va uslubiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, matnda qo'llanadigan raqamlardan foydalanishning pragmatik xususiyatlariga keraklicha e'tibor bermaydilar"[1].

Demak, reklama matnlarida qo'llangan sonlarning asosiy maqsadi obyektiv va xolis ma'lumotlarni aks ettirishdir. Shu bilan birga ijtimoiy muloqotda kommunikatorlarning (ularning hissiyotlari, qarashlari, munosabatlari, qadriyat yo'nalishlari va boshqalar) fon ma'lumotlari talqinini amalga oshirishda ma'lum bir kontekstdagi raqamlar nutqni ifodalash manbai bo'lib xizmat qiladi: *Samsung Galaxy S7 30 daqiqada t***o'***liq quvvat* **olish** *imkoniga* **ega** *b***o'***ladi.*

Son so'z turkumini ishlatish chastotasi reklama matnidagi barcha leksik birliklarning juda kam foizini tashkil qiladi. "Chunki sonlar yordamida amalga oshirilgan faktlar bilan matnni ortiqcha to'yinganligi o'quvchini charchatadi"[2]. Savdogarlar tilida keltirilgan reklamada taxminlar emas, keltirilgan miqdor isboti bilan namoyon bo'lishi kerak: E*ng yaxshi damlarni yo*'*tal sabab qo*'*ldan chiqarmang, Lozalvan – yo*'*talga qarshi* ***uch tomonlama*** *ta'sir: balg'amni suyultiradi, nafas yo*'*llarini tozalaydi va* o'*pkani himoya qiladi. Lazolvan –* eng *yaxshi damlar siz bilan.* Bu misoldagi ***uch tomonlama*** *ni* isboti sifatida*: balg'amni suyultiradi, nafas yo*'*llarini tozalaydi va* o'*pkani himoya qiladi* kabilar dalil qilib keltiriladi. Reklama xabari "bir xil turdagi xabarlar oqimida ajralib turishi kerak, shuning uchun juda tez-tez bu ma'lumotlarning miqdoriy jihati e'tiborga olinadi"[3].

Sonlardan foydalanish reklama matnida muallifining obyektiv va ishonchli ma'lumot berish, e'tiborni jalb qilish istagi bilan bog'liq raqamlardan foydalangan holda ma'lumotlar bo'yicha o'quvchi va reklama beruvchining marketing maqsadlariga erishishida yordam beradi. Masalan: *Durasel batareyalari: 10 baravar ko'proq ishlaydi! yoki "Rolton": 3 baravar arzon - 100 baravar mazali!*

Reklama matnlarida iqtisodiy jihatdan xadidor e'tiborini tortish uchun matn mualliflari va ishlab chiqaruvchilar tomonidan sonlar ishtirokida kichik "hiyla"lar ham qo'llaniladi. Bunga misol sifatida Korzinka supermarketlari reklamalari matnidagi quyidagini ko'rsatishimiz mumkin: *Korzinka do'konlarida 1 kg mol go'shti 69990 so'm.* Bu yerdagi iqtisodiy hiylani mahsulotning narxida ko'rishimiz mumkin. Bozorlarda 1 kg mol go'shti 70000 so'm.

Ravish. Nutq jarayonida ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan holat, o'rin, payt, sabab, maqsad va miqdor tushunchalari yuzasidan ma'lumot berish ko'zda tutilganda, ravishni u yoki bu turidan foydalaniladi. Reklama matnlarida ravishlar anchayin kam kuzatiladi. Masalan: *Doim dasturxonimizda – To'xtaniyoz ota!* (To'xtaniyoz ota kolbasalari), *Tez kunda, Yaks* (Yaks kir yuvish kukuni).

Endi *senga mumkin emas (Magniy B6 dori reklamasi)*

Tilshunos olima F.Galixanovaning fikricha, reklama matnlarida qo'llanish darajasiga ko'ra, ot va fe'llardan keyingi o'rinda sifatlar va ravishlar turadi. Aynan sifat va ravish bilan ifodalangan belgilariga retsipiyen (lot.

[1] Барышников Н.В. Профессиональная межкультурная коммуникация. – Пятигорск, 2010. – С.34-37.

[2] http://pgu.ru/upload/iblock/6b4/Pages-from-chast2_42.pdf / Павлова Ю.В. Функционирование имени числительного в рекламных текстах туристической направленности: прагматический аспект.

[3] Кара Мурза Е.С. Преподавание и изучение русской коммерческой рекламы в медиавузе // Медиалингвистика. 2018. Т. 5. № 1. – С. 97-109.

Recipiens – qabul qiluvchi) ning diqqati qaratilgan, ularda reklama qilinayotgan mahsulotning sifati jamlangan bo‘ladi[1]. Reklama matnlarida taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlarning tavsifi, belgilarini ifodalashda mazkur turkumlardan foydalanish smarali hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, reklama matnlarida qo‘llangan mavhum ismlar har xil holatlarni, predmetlarni va hodisalarni xarakterlash imkonini beradi. Nutqning eng chiroyli qismi reklama matnlarida qo‘llangan sifatlardir. Reklama matnlarida sifatlar estetik (bu tilning tasviriy va ifodali vositasi) va informatsion (mavzu ma’nosini belgilaydi) vazifa bajaradi. Reklamalar tilidagi fe’llar, sonlar, olmoshlar esa kam qo‘llanilsa-da, ammo yorqin ifoda manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan reklamalarda so‘z turkumlarini ifoda qilinishi bo‘yicha o‘z tahlillarimizga asoslanib uni qo‘llanilish foizlarini diagrammada ko’rsatib o‘tdik va bizgacha qilingan ilmiy tadqiqotchilar ishlari bilan taqqosladik.

Rezyume. Reklama matnlari ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida boshqa turdagi matnlar singari, muayyan maqsadga yo‘nalganlik va pragmatik xoslanganlik belgilarini namoyon etadi. Reklama matnining nutqiy samarasi undagi barcha: tasviriy, tovush, obrazli, so‘z qobig‘i singari komponentlari hisobiga amalga oshadi. Tilning ifodali vositalari reklama qilinayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochish uchun zarurdir. Maqolada o‘zbek tili reklama matnlarida so‘z turkumlari ifodasi va ularning uslubiy-diskursiv xususisaytalari tahlilga tortilgan.

Resume. Advertising texts, as products of speech activity, like other types of texts, exhibit signs of purposefulness and pragmatic character. The speech effect of an advertising text is realized due to all its components: visual, sound, figurative, vocabulary. Expressive means of language are necessary to reveal important aspects of the advertised product. The article analyzes the expression of word groups and their stylistic and discursive features in Uzbek advertising texts.

Резюме. Рекламные тексты, как продукты речевой деятельности, подобно другим видам текстов, обладают признаками целенаправленности и прагматического характера. Речевой эффект рекламного текста реализуется благодаря всем его компонентам: визуальным, звуковым, образным, лексическим. Выразительные средства языка необходимы для раскрытия важных аспектов рекламируемого продукта. В статье анализируется выразительность словосочетаний и их стилистические и дискурсивные особенности в узбекских рекламных текстах.

1 Галиханова Ф.У. Языковая моделируемость рекламных текстов (на материале русско-, англо- и турецкоязычных кинослоганов) Дисс. Канд.филол.наук – Казан, 2022. – С.175

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA «INTIZORLIK» FRAZEOSEMANTIK GURUHI

Vafoyeva Muxayyo Yuldoshevna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Frazeologiya til va madaniyatning o‘zaro aloqador sohasi sifatida xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Intizor bo‘lib kutish, sog‘inch, umid va intizorlik jarayonlari shaxslarning umumiy ruhiy holati bo‘lsa-da, ularning har bir tilda va madaniyatda o‘ziga xos ifodasi mavjud. Jumladan, o‘zbek tilida bu ma’noni ifodalashda «ko‘zi to‘rt bo‘ldi – ko‘zi yo‘lda bo‘ldi – ko‘zi yo‘liga intizor [bo‘ldi] – yo‘liga ko‘z tutmoq – yo‘liga ko‘z tikmoq – yo‘liga mahtal bo‘lmoq – ko‘zi yo‘liga muntazir [bo‘ldi] – ko‘zi teshildi» kabi iboralar keng qo‘llanilib, ular bir umumiy frazeo-semantik guruhni tashkil qiladi. Mazkur frazeologizmlarning barchasi uchun «intizor bo‘lmoq, kutmoq»[1] birlashtiruvchi asosiy sema sanaladi.

Inson kutayotgan paytda ko‘z orqali voqelikni nazorat qiladi. Bu frazemalarning ifoda planidagi «ko‘z» komponenti real ko‘rish jarayoni emas, balki idrok, diqqat, umid ramzi bo‘lib, shaxsning intizorlik ruhiy holatini obrazli, jonli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu frazeologik birliklar matn bilan bog‘liq ko‘p qatlamli semantik tuzilmalarga ega.

Adabiy tildagi «ko‘zi to‘rt bo‘ldi» frazemasi mavjud lingvistik lug‘atlarda «intizor bo‘lmoq»[2], «yo‘liga intizor»[3] deya izohlanadi. Bu frazema og‘zaki nutq va badiiy matnlarda keng qo‘llanadi: *Kenjasining yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘lib, unga xumorlikdan bag‘ri kabob bo‘lgan To‘xta ona bo‘yiga tortib, kuchga to‘lib, navqiron bo‘lgan o‘g‘lining oyog‘idan boshigacha sinchiklab boqdi-da, yana bag‘riga bosdi...* (I.Rahim) Berilgan matnda «ko‘zi to‘rt bo‘lib», «bag‘ri kabob bo‘lgan» emotiv frazeologizmlarining yonma-yon kelishi «iztirob chekib, sog‘inchdan kuyib yonish» ichki hissiyotini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Bu frazemaning «to‘rt ko‘z bilan kutmoq», «ikki ko‘zi yo‘lida to‘rt», «ko‘zi to‘rt» kabi variantlari ham mavjud bo‘lib, ular nutqda keng qo‘llanadi. Metaforik ko‘chim asosida yuzaga kelgan bu frazema hamda uning variantlari kuchli emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa egaligi bilan xarakterli.

«Ko‘zi to‘rt bo‘ldi» frazemasining ifoda planidagi «ko‘z» va «to‘rt» komponentlarining inversiyaga uchrashi tufayli «to‘rt ko‘z bilan kutmoq» varianti yuzaga kelgan. Bu ikki frazema bir-biridan ma’no anglatishdagi ekspressivligi bilan farqlanadi. Bunda «ko‘zi to‘rt bo‘ldi» frazemasiga nisbatan «to‘rt ko‘z bilan kutmoq» iborasida ekspressivlik kuchli ifodalanadi. Ushbu obrazli ibora «nihoyatda intizor bo‘lib kutmoq» semasiga ega. U og‘zaki va yozma nutqda birdek faol qo‘llaniladigan, umumlashgan okkazional frazeologik birlik sanaladi: *Bu ishning kengashiga emas, berilgan qarorni amalga oshirib berishlik uchun Yusufbek hojiga yigit yuborib, hozir uni to‘rt ko‘z bilan kutib o‘lturar edi.* (A.Qodiriy) Kontekstda shaxsning butun e’tibori kutilayotgan voqeaga qaratilganligi bilan bu frazema ajralib turadi

Mumtoz poeziyada oshiq kechinmalarining badiiy tasvir va ta’sirchanlik bilan ochib berilishida bu frazemaning «ikki ko‘zum yo‘lida to‘rt» shaklidan foydalanilganini ko‘rish mumkin:

Bobur, bo‘lub turur, ikki ko‘zum yo‘lida to‘rt,
Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango manga. (Bobur)

G‘azalda mubolag‘a hamda emotsional obrazlilik asosida yuzaga kelgan «ikki ko‘zum yo‘lida to‘rt» iborasi lirik qahramonning sog‘inch va intizorlikka to‘la ruhiy holatini badiiy aks ettirib bergan. Iboraning bunday ifoda shakli esa «badiiy uslub uchun kishilardagi, narsa-hodisalardagi xususiyat, xislat va

[1] O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022. – B. 274.
[2] O‘sha asar. 2022. – B. 263.
[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati II jild. Mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.1019.

fazilatlarni o‘rni kelganda me’yoridan ortiq qilib ifoda etish ham zaruriy vosita bo‘lishi mumkin»[1]ligini ko‘rsatadi.

Bu frazemaning ellipsisga uchragan «ko‘zi to‘rt» shakli so‘zlashuv uslubiga xoslangan bo‘lib, bunday qo‘llanish «ularning turg‘unlik xususiyatiga»[2], ma’nosiga ta’sir etmaydi. *Xayriyat, sog‘ayib ketibsiz. Sizga butun qishloqdan bir arava salom keltirdim. Hammalari sizga chin yurakdan sovg‘a-salom yo‘lladilar. Barchalari sog‘-salomat. Yo‘lingizga ko‘zlari to‘rt!* (I.Rahim)

Keltirilgan misollarda «ko‘zi to‘rt bo‘ldi» frazemasi hamda uning variantlari «sabrsizlik bilan kutish, intizorlik» kabi bir semantik invariant atrofida jamlaganini ko‘rsatadi. Bu frazemalar komponentidagi «to‘rt» soni aniq miqdorni emas, balki me’yorning ortishi, holatning kuchayishini ifodalovchi mubolag‘ali ramz sanaladi. «O‘zbek tili frazeologik lug‘ati»da … ko‘zning «to‘rtta» deb keltirilishi diqqat bilan qarashga ikkita ko‘zning kamlik qilishi, boshqa a’zolarning ham «ko‘zga aylanganini» ta’kidlash, uslubiy bo‘yoqdorlikni ifodalashga xizmat qilgan, – deya qayd etiladi[3].

Quyidagi misolning semantik strukturasida esa biroz o‘zgacha stilistik holat kuzatiladi: *Umr deganlari hovuchingga olgan suvdek gap – oqadi-ketadi. Farzand, faqat farzand! Qolgani – bekor, qolgani – bir pul!.. Lekin qanisan? Qayerlarda qolding! Nega kelmaysan? Ko‘zlarim yo‘llaringda to‘rt bo‘ldi-ku, nega hayallading, ey bolam… Kel endi, kel!.. Kelib meni, o‘ttizdan o‘tib, qirqqa yetmay qaddi dol bo‘lgan otang qaddini tik qil! Boshi egilib qolgan onangning boshini ko‘tar!..* (U.Hamdam)

Keltirilgan misoldagi kuchli emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan «ko‘zlarim yo‘llaringda to‘rt bo‘ldi» frazemasi personaj nutqida uning ichki o‘y-kechinmalari orqali berilganligi, ota qalbidagi sog‘inch va intizorlikni badiiy estetik jihatdan ta’sirchan ifodalanganligi kuzatiladi. Matndan ko‘rinadiki, bu frazemada «sabrsizlik bilan emas, aksincha sabr bilan juda uzoq vaqt intizor bo‘lib kutish, sog‘inch, ruhiy iztirob» kabi semantik qatlamlar mavjud.

«Ko‘zi yo‘liga intizor bo‘ldi» frazeologizmi ham adabiy tilga xos bo‘lib, kutish bilan bog‘liq ichki ruhiy holatni ifodalaydi. Arabcha intizor komponenti frazemaga uslubiy bo‘yoqdorlik bag‘ishlaydi va hissiy ta’sir kuchini oshiradi. Natijada ibora semantik strukturasida siljish yuz berib «kelishini sabrsizlik bilan kutmoq» semasi shakllanadi. Bu frazema badiiy matnlarda asosan «ko‘zi yo‘liga intizor», «yo‘liga intizor» kabi qisqargan variantlarda qo‘llanilishi bilan, xalq ongida shunday muhrlanganligi bilan xarakterli: *Alisher Navoiy! O‘pqonlikka qulab ketayotgan tog‘ni yolg‘iz u tutib qola biladi! Eng sovuqqon, eng mantiqli odamlar bu mo‘jizaga ishonardilar. Lekin bu falokatli daqiqalarda Alisher yo‘q edi. Hammaning ko‘zi Mashhad yo‘liga intizor edi*. (Oybek) Berilgan misolda muallif o‘quvchiga fikrni tezroq yetkazish maqsadida o‘z nutqida frazemaning fe’l komponenti (bo‘ldi) ni qisqartirib qo‘llaydi.

«Ko‘zi yo‘liga intizor bo‘ldi» frazemasidagi ot (ko‘zi) va fe’l (bo‘ldi) komponentning qisqaruvi ixchamlik va obrazlilik uchun xizmat qiladi. Poeziyada frazemalarning ellipsisga uchrashi she’riyat qonunlari bo‘lgan vazn, turoq, ohang talabi bilan amalga oshiriladi:

Bu yorug‘ dunyoda bormi, bilmayman,
O‘z o‘gli yo‘liga intizor menday... (M.Yusuf)

«O‘z o‘g‘li yo‘liga intizor bo‘lish» ota yoki onaning farzandini sog‘inib, umid bilan kutishi, umr bo‘yi davom etadigan ruhiy holatdir. Keltirilgan misoldagi lirik qahramon nutqida qo‘llangan «yo‘liga intizor» frazemasining semantikasida muhabbat, cheksiz sog‘inch va umidga to‘la hissiy holat semasi mavjud. Yuqorida keltirilgan «ko‘zi yo‘liga intizor», «yo‘liga intizor» qisqargan variantlari «ko‘zi yo‘liga intizor bo‘ldi» frazemasidagi ma’noni, emotsional-ekspressivlik xususiyatini o‘zida saqlaydi.

Badiiy matnlarda iboralarning an’anaviy shakli turli xil struktur-semantik o‘zgarishlarga uchraydi. Jumladan, umumtildagi «ko‘zi yo‘lda qoldi//bo‘ldi» frazemasining muloqot jarayonida fe’l komponenti qisqaruvga uchrab, «ko‘zi yo‘lda»[4] shaklidagi ijodiy qo‘llanilish holati kuzatiladi. Iboraning qisqargan varianti ham adabiy til me’yoriga mos keladi: *Bu yaltiroq olomon otda ikki qo‘nimlik masofani bosib, kechga yaqin xushhavo bir manzilga tushdi. Katta qozonlarda har xil taomlar pishirilib, kechani shu yerda o‘tkazishdi. Ertalab hammaning ko‘zi yo‘lda edi.* (Oybek) Misoldan ko‘rinadiki, «ko‘zi yo‘lda» iborasida kutish jarayoni umumiylik kasb etadi, ya’ni umumiy intizorlik va mushtoqlik holati ham badiiy, ham ta’sirchan ifodalangan.

Mazkur frazemaning okkazional qo‘llanilish holatini G‘afur G‘ulomning «Buyuk olamga salom» nomli she’rida kuzatishimiz mumkin. «Ko‘zimiz yo‘lingizga

[1] Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. –Б.37.

[2] Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. Монография. – Тошкент: Наврўз нашриёти. 2016. –Б. 139.

[3] O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2022. – B.12.

[4] O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2022. – B. 275.

muntazir» iborasining komponent tarkibidagi arabcha «muntazir» so‘zining ishtiroki frazema semantikasiga qo‘shimcha kamtarlik, ehtirom semalarini qo‘shgan, shu bilan birga iborani badiiy va publisistik uslubda qo‘llanishga xoslaydi. Natijada frazema mazmun planida hurmat, sog‘inch va sabr bilan kutish holati aks etadi:

«U»lar uchib keladi Yava, Madagaskardan,
Yo‘llariga poyandoz o‘zbekning aziz joni.
Ko‘zimiz yo‘lingizga muntazir ilk sahardan,
Ey hayot karvonining nurlar mingan mehmoni. (G‘.G‘ulom)

Ko‘rinadiki, bu frazeologik birlik she’riy matnda lirik qahramonning kutilayotgan shaxsga bo‘lgan sog‘inch, ehtirom va umidni birlashtirgan ruhiy holatini ifodalaydi.

Quyida keltirilgan «ko‘zlarimizni intizor qilarmusiz?» iborasi bevosita ketish, ayriliq bilan bog‘liq bo‘lib, yaqin insonning uzoq yo‘lga ketishidan xavotirni ifodalashga vosita bo‘lgan: Navoiy o‘tirgan hamon ulug‘ chol muloyim tabassum qilib, o‘ziga xos mayinlik bilan dedi:

– Endi ko‘zlarimizni Marv yo‘liga intizor qilarmusiz?

– Ne qilaylik, ketmoqdan o‘zga choramiz yo‘q. Janob oliylari bu ishdan xabardor edilarmi? (Oybek) Bu frazemada nutqiy vaziyat bilan bog‘liq «Bizni uzoq kutishga majbur qilasizmi?» «Yana ko‘zimiz yo‘lda bo‘ladimi?» degan xavotirli, yashirin ma’no mavjudligini kuzatish mumkin.

Umumtil qo‘llanishida frazemalarning ifoda va mazmun planida o‘zgarish kuzatilmaydi, lekin ijodkorlar o‘z asarlarida iboralarning ta’sirchanligini, uslubiy samaradorligini oshirish maqsadida ma’nosida, tuzilishida, komponent tarkibida yuz beradigan o‘zgarishlar bilan qo‘llaydi. Bunday o‘zgarishlarga uchragan frazemalar nutq hodisasi bo‘lib, til frazeologik tizimining taraqqiyot jarayonini o‘zida ifoda etadi. Nazar Eshonqulning «San’at**»** hikoyasida «ko‘zi yo‘lda bo‘ldi**»** frazemasi negizida «intizorlik, sog‘inch**»** ruhiy holatini ifodalash uchun «ko‘zlarim yo‘lingizda nogiron bo‘ldi**»** okkazional frazemasi hosil qilingan. Frazema strukturasiga «nogiron**»** komponentining kiritilishi voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo‘lishi bilan birga**,** «ibora orqali ifodalangan semantik obrazni «parchalash» vazifasini bajaradi. Bu bilan o‘sha matnda yaxlit obraz vujudga keladi, shu asosda uning konkretligi, tasviriyligi oshadi»[1], «qo‘shimcha emotsional ta’sir kuchini oshirish uchun xizmat qiladi**»**[2]: *Rassom o‘zi yaratgan ilohani ko‘rib, aqli-hushidan ayrilgan, u malikani ham, bergan va’dasini ham unutgandi; «Malikam, – dedi rassom, – men sizning muhabbatingizda yillar mashaqqat chekdim, yig‘ladim-siqtadim, qalbimni g‘am-anduh so‘ndirdi. Ko‘zlarim yo‘lingizda nogiron bo‘ldi, lekin siz shu yillarda hatto mendan biron marta ham hol so‘ramadingiz, aksincha, ustimdan kulib, meni telba, deya ovoza qildingiz*. (N. Eshonqul)

Badiiy uslubga xoslangan «ko‘zlarim yo‘lingizda nogiron bo‘ldi» okkazional frazeologizmi emotsional-ekspressiv ma’noni kuchli ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. Frazema komponentlaridan ko‘zlar, yo‘l kimnidir intiqlik bilan kutish va umid bog‘lash ramzi hisoblanadi. Frazemaning fe’l komponenti – «nogiron bo‘ldi» qo‘shma fe’lining ma’nosi metaforik usulda ko‘chgan bo‘lib, jismoniy holatni emas, balki umidning sinishi, ma’naviy azob, kutishdan holdan toyib nogironlik darajasigacha yetish holatini o‘ta bo‘rttirib ifodalashga xizmat qilgan. Shuningdek, uzoq, samarasiz kutish oqibatida yuzaga kelgan ruhiy jarohat, sadoqatning qadrsizlanishi va kuchli alamni ifodalovchi obrazli frazema sanaladi.

Ba’zan iboraning muayyan komponentlari sheriy nutqda qofiya hosil qilib, qo‘shimcha g‘oyaviy-badiiy vazifa bajarib keladi. Quyida keltirilgan «yo‘liga ko‘z tikmoq» frazemasi she’rning birinchi qatori bo‘lishi bilan birga uning «tikay» komponenti matnda ritmik-intonatsion yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qilgan:

Yo‘llaringga ko‘zim tikay,
Senga atab gullar ekay,
Lovullagan she’rlar bitay,
Jonim, meni unutmagin. (X.To‘xtaboyev)

Metafora asosiga qurilgan «yo‘liga ko‘z tikmoq» frazemasining mazmun planida «kelishini umid bilan kutmoq» semasi mavjud bo‘lib, pragmatik jihatdan samimiy sog‘inch, kutish jarayonining davomiyligi ifodalangan.

Badiiy uslubda mazkur frazemaning «yo‘liga ko‘z tutmoq» varianti qo‘llanilishi kuzatildi. Bu variant «yo‘liga ko‘z tikmoq» frazemasining «tikmoq» komponenti «tutmoq» fe’liga almashtirilishi bilan hosil qilingan: *Mingboshi yana o‘sha kulish bilan o‘tirgan joyida unga tomon evrildi:*

– Ha, xudo bexabar! Nima bu bemahal uyqu?? Namozshom paytida-ya!

– Ha, xo‘jayin, shunaqa... Sizni kutib o‘tirib, uxlab qolibman.

– Qachon kelib eding?

– Kech peshinda. Shundan beri yo‘lingizga ko‘z tutib o‘tiribman. (Cho‘lpon)

Matndagi «yo‘liga ko‘z tutmoq» frazemasi «intizorlik bilan kutmoq, sabr va umid bilan yo‘lga termul-

[1] Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. Монография. – Тошкент: Наврўз нашриёти. 2016. – Б.144.

[2] Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти. 2013. – Б.256.

moq» ma'nosini anglatadi. Ibora komponentlari qatorida ishtirok etayotgan «o'tiribman» ko'makchi fe'li frazema semantikasiga qo'shimcha «davomiylik va uzoq vaqt» semasini qo'shib kelgan

«Yo'liga mahtal bo'lmoq***», «***yo'liga mahtal qilmoq***», «***yo'liga mahtal turmoq» kabi variantdosh frazemalar poetik nutqda qo'llanishi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu frazemalardan nutqda qanday usulda foydalanish ijodkorning badiiy til sohasidagi mahoratidan dalolat beradi:

Xat yozmadim.
Xabar qilmadim,
Borolmadim, solib galga gal
Qanday ekan onam, bilmadim,
Yo'llarimga turgandir mahtal. (A.Oripov)

«Yo'llarimga turgandir mahtal**»** o'zbek poetik tafakkuriga xos obrazli ibora bo'lib, estetik ta'sirchanlikni oshirish maqsadida she'riyat talabi bilan inversiyaga uchragan. Bu frazema «umid uzmasdan uzoq kutish, ichki iztirob bilan yashash» semasini bo'rttirish vositasiga aylangan.

Adabiy tildagi «ko'zi teshilmoq» frazemasi ham o'ta kuchli mubolag'ali xarakterga ega. Bu iborada behad uzoq, azobli kutishning haddan tashqari cho'zilishi orqali charchoq ifodasi umidsizlikka yaqin ruhiy holat sifatida talqin qilinadi: Bir yarim yil deganda qishloqqa bor-yo'g'i to'rtta xat keldi. Yog'duning ko'zlari bir oyog'i tayoq pochtachining yo'lini qarayverib teshilib ketayozdi. (U.Hamdam).

Xulosa qilib aytganda, adabiy tilda frazemalarning taraqqiyoti va boyishi frazeologik neologizmlar, umumtil frazeologik birliklarining badiiy asarlarda semantik, grammatik va vazifaviy jihatdan o'zgarishi natijasida okkazional frazemalar hosil qilish, individual-muallif frazemalar yaratish bilan bevosita aloqador. Ijod ahli frazemalarning «imkoniyat zaxirasi»ni asar kontekstida namoyon qiladi.

O'zbek lingvomadaniyatidagi «intizorlik» semali sinonim va variantdosh frazemalar shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari, umid va intizorlik jarayonining ramzi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu iboralar bir frazeosemantik qatlamni tashkil etsa-da, ular emotsional-ekspressiv bo'yoqdoqligi, intensivlik darajasi va nutqiy vaziyatga xosligi bo'yicha farqlanadi, bu esa ularni nutqda o'zaro erkin almashtirib bo'lmasligini anglatadi.

Resume. This article presents a linguacultural analysis of phraseological units in the Uzbek language conveying the meanings «to look forward to» and «to wait impatiently». The research primarily highlights the semantic layers and the functions within literary texts of idioms containing the components «eye» and «road». Using examples from literary works, the study reveals the emotional-expressive coloring of these phrasemes, their occasional transformations, and their symbolic and hyperbolic characteristics in expressing a person's mental state.

Резюме. В данной статье проводится лингвокультурологический анализ фразеологических единиц узбекского языка со значениями «ждать с нетерпением, ожидать». В исследовании в основном освещаются семантические пласты и функции в художественном тексте выражений, включающих компоненты «глаз» и «дорога». На примерах из художественных произведений раскрываются эмоционально-экспрессивная окраска фразеологизмов, их окказиональные изменения, а также символические и гиперболические свойства при выражении психологического состояния человека.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KASB OHANGI NUTQDA QANDAY JARANGLAYDI?

Raximova Umida Djumayevna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi v.b.dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nutq inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, unda nafaqat axborot yetkazish, balki shaxsning ijtimoiy mavqeyi, kasbi va individual xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Kasb ohangi nutqning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u nutq jarayonida ma'lum bir kasb vakillariga xos intonatsion, leksik va uslubiy belgilar orqali ifodalanadi.

Har bir kasb egasining nutqi uning faoliyat sohasi, ish muhitidagi muloqot madaniyati hamda professional etikasi bilan bevosita bog'liqdir. Kasb ohangi deganda, muayyan kasb vakilining nutqida aks etadigan o'ziga xos ifoda uslubi, ohang, so'z tanlovi va muloqot tarzining yig'indisi tushuniladi.

Nutqda kasb ohangi nafaqat fikrni yetkazish vositasi, balki shaxsning kasbiy darajasi, tajribasi va madaniyatini ham namoyon etadi. Masalan, o'qituvchining nutqida tushuntirish va tarbiyaviy ohang ustun bo'lsa, shifokor nutqida aniqlik, xotirjamlik va ishonch hissi yetakchilik qiladi. Shu jihatdan kasb ohangi nutqning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiruvchi muhim omil sanaladi.

Ma'lumki, nutq – bu insonning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasining ifodasidir. Har bir shaxsning nutqi uning yashash muhiti, ta'lim darajasi, madaniyati bilan bir qatorda, eng avvalo, uning tanlagan kasb-kori yoki hunari bilan chambarchas bog'liqdir.

Kasb inson hayotining muhim qismi bo'lib, u nafaqat kundalik faoliyatni, balki nutqiy xususiyatlarni ham shakllantiradi. Masalan, o'qituvchining nutqi aniq, tushunarli va tarbiyaviy ruhda bo'ladi. Shifokor nutqida esa ehtiyotkorlik, muloyimlik va aniqlik ustunlik qiladi. Huquqshunoslar nutqida rasmiylik, mantiqiylik va dalillarga tayanish kuchli bo'ladi.Shuningdek, texnik kasb egalari nutqida ko'proq terminlar, qisqartmalar va aniq ifodalar qo'llaniladi. San'atkorlar yoki ijodkorlar nutqi esa obrazli, ta'sirchan va hissiy jihatdan boy bo'ladi. Demak, har bir kasb nutqning leksik, uslubiy va ohang jihatlariga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Kasb ohangi deganda muayyan kasb egalarining nutqida kuzatiladigan o'ziga xos ohang, talaffuz, terminologiya va nutq uslubi tushuniladi. Bu hodisa tilshunoslikning pragmatika va stilistika sohalari bilan chambarchas bog'liq.

Birinchidan, kasb ohangi intonatsiya orqali namoyon bo'ladi. Masalan, o'qituvchilar nutqida ohang odatda aniq, ravon va tushuntirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shifokorlar nutqida esa ohang ehtiyotkorlik, muloyimlik va ishonch uyg'otishga xizmat qiladi. Huquqshunoslar nutqida qat'iylik va rasmiylik ustunlik qiladi.

Ikkinchidan, kasb ohangi leksik birliklar orqali ham ifodalanadi. Har bir kasb egasi o'z sohasiga xos terminlardan foydalanadi. Masalan, pedagogik nutqda «metod», «didaktika», «kompetensiya» kabi atamalar keng qo'llaniladi. Tibbiyot xodimlari nutqida esa «diagnostika», «terapiya», «simptom» kabi terminlar ustunlik qiladi.

Uchinchidan, kasb ohangi nutqning uslubiy xususiyatlarida ham aks etadi. Rasmiy kasb egalari (masalan, davlat xizmatchilari) nutqida rasmiy uslub ustun bo'lsa, ijodiy kasb egalari (yozuvchi, jurnalist) nutqida obrazlilik va emotsionallik ko'proq seziladi.

Kasb ohangining yana bir muhim jihati – uning kommunikativ samaradorlikka ta'siridir. To'g'ri tanlangan ohang muloqot jarayonida tushunishni osonlashtiradi, ishonch uyg'otadi va axborotning aniq yetkazilishiga xizmat qiladi. Aksincha, noto'g'ri ohang muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, kasbiy muhit ham nutq rivojiga katta ta'sir qiladi. Inson kimlar bilan ko'proq muloqotda bo'lsa, ularning nutqiy uslubi asta-sekin o'z nutqiga ham singib boradi. Shu bois kasbiy muhit nutq madaniyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Ikki omil bevosita shaxsning o'z xohish-irodasiga bog'liq bo'ladi. Bular: ma'lumotlilik hamda muayyan kasb yoki hunar egasi bo'lish. Tabiiyki, ma'lumotlilik hamda muayyan kasb yoki hunar egasi bo'lish uning madaniyatlilik darajasini belgilaydi. Zero, insonning madaniyatlilik belgisi, avvalo, uning tilida, nutqida seziladi.

Zero ulg'lar aytganidek, Beruniy inson har tomon-

lama kamolga etishi uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi.

Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart[1]-, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshash insonlar kamdan kam bo‘ladi.

Yusuf Xos Hojibning o‘sha davrda kosib-hunarmandlarga naqadar xayrixohligi o‘z-o‘zidan emas edi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog‘liq edi. Zero, kasb-hunar ta’limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o‘lchov birligi sanalardi.Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o‘ringa ega bo‘lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o‘rnini yuqori baholaydi va ular mehnati eng ulug‘ va sharafli muqaddas ekanligini ta’riflaydi. Ko‘rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shgan har bir kasb-hunar egasini ulug‘laydi va ularni qadrlash zarurligini ta’kidlaydi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligini ta’kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim qiladur, nasl-nasab qila emas. Ismni senga ota va onang qo‘ymishlar, sen unga g‘arra bo‘lmagin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo‘lgil[2]». Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug‘lanadi. Kasb-hunar o‘rganishni bilim olish bilan qo‘shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o‘sha davrning ilg‘or qarashlaridan sanaladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr-mulohazalar keltiriladi. Aynan keltirilgan fikrlardan kasb-hunarning inson hayotidagi o‘rni mohiyati yuzasidan qarashlari ilgari surilgan. «Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, tikanli bo‘taning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli bo‘ta yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur. Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo‘lsa, ammo hunari bo‘lmasa xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo‘lur. Agar kishida ham nasab gavhari va hunar bezak bo‘lmasa undan battaroqdir. Jahd qilgil asl bo‘lsa unga g‘arra bo‘lmagil, nedinkim tan gavhari ziynati bilan ziynatlangan bo‘lmasa, u hech narsaga arzimagusidir. Andoqkim debdurlar: ulug‘lik aql va donishmandlik biladur, gavhar va nasab bila bo‘lmas[3]«.

Kishilar nutqida «bozorchidek qichqirmoq», «prokurorcha ton», «o‘zini raisday tutmoq», «baliqdek silliq», «ipakdek mayin», «yangi pishgan shirmoy nondek», «tishini sug‘urtirgan kabi», «chandirdek cho‘zilmoq», «to‘rt para dars o‘tgandek», «ma’ruza qilmoq», «poshnasini yedirib» kabi qator birliklarning ishlatilishi ham ularning kasb-kori, hunari bilan aloqadordir.

Kasb ohangi nutqda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. U nafaqat nutqning mazmunini boyitadi, balki nutq egasining kasbiy identifikatsiyasini ham namoyon etadi. Kasb ohangini to‘g‘ri qo‘llash muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va professional faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-kor yoki hunar shaxs nutqini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. U insonning so‘z tanlovi, gap qurilishi, ohangi va muloqot uslubiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun har bir mutaxassis o‘z kasbiga mos ravishda nutqini rivojlantirib borishi zarur.

Rezyume. Mazkur masala tilshunoslikning sotsiolingvistika va psixolingvistika sohalarida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu maqola shaxs nutqining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy omillar, xususan kasbiy faoliyatning rolini tahlil qilishga qaratilgan.

[1] Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent,1980.
[2] Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent, *2018.*
[3] Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent, *2018.*

Rezyume. This issue is the sociolinguistics and psycholinguistics of linguistics it occupies an important place in its fields. This article is aimed at analyzing the role of social factors, in particular professional activity, in the formation and development of personality speech.

Резюме. Данная проблема является предметом изучения социолингвистики и психолингвистического направления лингвистики и занимает важное место в ее областях. Данная статья направлена на анализ роли социальных факторов в формировании и развитии речи личности, в частности, профессиональной деятельности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ZAMON KATEGORIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Babayeva Surayyo Ergashovna,
Jumayeva Anorxol Chaman qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabalari

O‘zbek tilida zamon kategoriyasi tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Fe’l zamonlari orqali harakatning nutq momentiga munosabati ifodalanadi va bu hol tilning grammatik tizimida alohida o‘rin egallaydi. Zamon kategoriyasining o‘rganilishi qadimgi davrlardan boshlangan bo‘lib, bugungi kunda ham uning ayrim jihatlari yuzasidan turli qarashlar mavjud. Zamon ko‘rsatkichlarining morfologik tabiati, ularning shakllanishi va funksional xususiyatlari hali ham to‘liq yagona tizimga solinmagan. Ayniqsa, zamon shakllarining turlicha tasniflanishi ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek tilida zamon ko‘rsatkichlarining morfologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tarixiy shakllanishi va zamonaviy talqinlarini o‘rganish bugungi kun tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek tilida zamon kategoriyasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uning ifodalanish usullari tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu kategoriyaning tarixiy taraqqiyotini o‘rganish esa o‘zbek tilining umumiy grammatik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Turkiy tillarda mayl va zamon: ayniqsa, tarixiy jihatdan, shakl nuqtayi nazaridan o‘zaro aniq ajralmagan kategoriyalar hisoblanadi. Bu hol, avvalo, mayl va zamon kategoriyalarining har biri uchun alohida affikslarning mavjud emasligi, mayl va zamon ma’nolarini ifodalashda bir vaqtning o‘zida ikkita affiksning ketma-ket qo‘llanilmasligi, bitta affiksning ham mayl, ham zamon ma’nosini ifodalash vazifasini bajarishi bilan izohlanadi. Ya’ni bir shakl, bir tomondan, mayl ma’nosini anglatishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ish-harakatning vaqtga munosabatini ham ifodalashi mumkin. Masalan, aniqlik mayli guruhiga kiruvchi fe’llar ish-harakatning qaysi zamonga tegishli ekanini ko‘rsatishi asosida tasnif qilinadi.

O‘zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchraydi. U fe’l shakllarining yasalishida o‘tgan zamon va buyruq shakl-

larining asosiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi[1]. Koshg‘ariy qarashlarida zamon aniq uch turga ajratilmagan bo‘lsa-da, u asosan o‘tgan va kelasi zamon shakllari mavjudligini ko‘rsatadi hamda o‘tgan zamon *-di* qo‘shimchasi orqali, kelasi zamon *-r* qo‘shimchasi orqali ifodalanishini misollar yordamida izohlaydi.

XIII–XIV asrlarga oid “At-tuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya” asarida esa fe’llarda zamon kategoriyasi ancha aniq shakllangan holda beriladi. Ushbu manbada zamonlar uch turga ajratiladi: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon[2]. Bu asarda zamon kategoriyasining morfologik ko‘rsatkichlari aniq shakllangan holatda ko‘rsatib o‘tiladi.

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining morfologik tizimini ilmiy asosda o‘rganib, fe’llardagi zamonni 3 ga, shunga ko‘ra fe’llarni ham 3 ta turga – so‘nggi zamon fe’llari, hozirgi zamon fe’llari va o‘tgan zamon fe’llariga ajratadi[3]. Biroq u mayl va nisbat kategoriyalarini alohida kategoriya sifatida ajratmay, zamon kategoriyasiga qo‘shib tahlil qiladi[4]. Xususan, buyruq-istak va shart mayli shaklini olgan fe’llar kelasi zamon fe’li sifatida ko‘rsatiladi. Olimning o‘tgan va hozirgi zamon fe’llariga oid fikrlari bugungi tilshunoslikdagi qarashlarga mos keladi. Faqat hozirgi o‘zbek adabiy tilida eng faol qo‘shimcha *-yapti* haqida gapirilmaydi[5].

Keyingi davr tilshunoslaridan A.G‘ulomov zamon kategoriyasini yanada chuqur tahlil qilib, fe’llarni uch asosiy zamonga – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonga ajratadi, shu bilan birga har bir zamonning ichki turlari mavjudligini ta’kidlaydi. Masalan, o‘tgan zamon bir necha ko‘rinishlarga bo‘linadi: o‘tgan zamon aniqlik fe’li, tarixiy o‘tgan zamon fe’li, uzoq o‘tgan zamon fe’li, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon eshitilganlik fe’li, tugallanmagan o‘tgan zamon fe’li (o‘tgan zamon davom fe’li). Shuningdek, hozirgi zamon fe’llari – konkret hozirgi zamon fe’li va hozirgi-kelasi zamon fe’liga, kelasi zamon fe’llari – kelasi zamon davom fe’li va kelasi zamon gumon fe’li kabi turlarga bo‘lingan[6]. Bu yondashuv zamon kategoriyasining murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi.

A.Hojiyev ham zamon kategoriyasini nutq momentiga munosabat asosida izohlaydi va uni uch guruhga ajratadi: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va hozirgi-kelasi zamon[7]. A.Hojiyev fikricha, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zamon shakllarini bunday qat’iy uch guruhga ajratish har doim ham to‘g‘ri emas. Chunki ayrim fe’l shakllari faqat bitta zamonni emas, balki bir nechta zamon ma’nosini ifodalay oladi. Masalan, hozirgi-kelasi zamon shakli bir vaqtning o‘zida ham hozirgi, ham kelasi zamon ma’nosini beradi. Shu sababli uni faqat “hozirgi zamon” yoki faqat “kelasi zamon” guruhiga kiritib bo‘lmaydi.

Shuningdek, Sh.Rahmatullayev ham zamon kategoriyasini o‘rganishda turlicha talqin qiladi . Olimning qarashlariga ko‘ra, o‘zbek tilida zamon kategoriyasi fe’lning morfologik tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ish-harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. U zamonni fe’lning asosiy grammatik kategoriyalaridan biri sifatida baholab, o‘tgan zamon shakllarining aspektual-temporal xususiyatlarini hamda aniq kelasi zamon *-adi, -ydi* shakllarini tahlil etadi.

M.Sodiqova esa zamon kategoriyasini an’anaviy tarzda uch turga – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonga ajratadi, lekin formalar kontekstda ikki xil zamon ma’nosini ifodalay olish xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, ayrim olimlar ularni juft nomlar bilan nomlashini tanqid qiladi. 1962-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili” darsligida esa *“borsa edi”* shakli “o‘tgan-kelasi zamon fe’li”[8] deb tariflanganini keltirib, bir shaklda bir vaqtning o‘zida ham o‘tgan, ham kelasi zamon ma’nosining mavjud deb qaralishi esa mantiqan ziddiyatli holat ekanini aytib o‘tadi. M.Sodiqova fe‘l shakllariga faqat mantiqiy tasavvur yoki kontekstdagi imkoniyatlariga qarab nom berilsa, yuqoridagidek qarama-qarshiliklar va chalkashliklar paydo bo‘lishi tabiiy deb hisoblaydi. Buni misol yordamida tushuntiradi: *“uxlayapti”* fe’lida uyqu jarayoni o‘tgan zamonda boshlangan, hozir davom etmoqda va ehtimol kelasi zamonda ham davom etishi mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Shundan kelib chiqib, bu shaklni hatto “o‘tgan-hozirgi-kelasi zamon” deb atashga to‘g‘ri kelardi, ammo bunday nomlash mutlaqo asossiz ekanligini ta’kidlaydi. Buning sababi, mazkur forma grammatik jihatdan hozirgi zamonni bildirishida deb aytib o‘tadi[9]. Bundan tashaqari, asarda zamonlarning kontekstual va ma’no ko‘chish jihatlari bo‘yicha

[1] Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). 3 jildlik. 2-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. – B. 40-43.

[2] At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘otit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa). – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fan, 1968. – B. 120.

[3] Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild: Darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B. 154.

[4] Nurmonov. A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 199.

[5] Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi (Metodik qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 1997. – B. 29.

[6] Hozirgi zamon o‘zbek tili F.Kamol tahriri ostida. – Toshkent: O‘zSSR Fanlar akademiyasi, 1957. – B. 393-400.

[7] Hojiyev A. Fe’l. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 130.

[8] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 150.

[9] Sodiqova M. Fe’l stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 20-24.

ham izoh beriladi. Uning fikricha, zamon shakllarini ortiqcha mayda guruhlarga ajratish grammatik tizimni murakkablashtiradi.

R.Sayfullayeva ham zamon kategoriyasini uch asosiy turga ajratadi: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon[1]. U zamon shakllarining umumiy grammatik ma’nosiga e’tibor qaratib, ularni ortiqcha ichki tasniflarga ajratishga ehtiyoj yo‘qligini ta’kidlaydi. Misol uchun, o‘tgan zamon shakllarning umumiy grammatik ma’nosi harakatning o‘tgan zamonga oidligi ekanini aytib, qolgan ma’no farqlari zamonning o‘ziga emas, balki qo‘shimcha semantik xususiyatlarga bog‘liq ekanligini, shu sababli “o‘tgan zamon hikoya fe’li”, “o‘tgan zamon davom fe’li” kabi atamalarni ishlatishga zarurat yo‘q degan xulosaga keladi. Ayni shu tarzda hozirgi zamonni ham o‘z ichida guruhlarga bo‘linishiga qarshi chiqib, “davomiylik”, “tugallanmaganlik” kabi xususiyatlar hozirgi zamon kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosiga tegishli emasligini aytadi. Bunday atamalarni zamon kategoriyasini murakkablashtiruvchi hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq degan fikrni beradi.

Barcha tadqiqotchilar fe’llarda grammatik zamon uchta ekanini ko‘rsatadilar: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. Biroq zamon kategoriyasiga berilgan nomlar, har bir zamonning ichki turlarga bo‘linishi, bu turlar uchun qo‘llanadigan terminlar hamda shakllarning tasnifi juda xilma-xildir. Masalan, faqat o‘tgan zamonni ifodalash uchun ishlatiladigan terminlarning o‘zi o‘ndan ortiq: uzoq o‘tgan zamon, yaqin o‘tgan zamon, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon davom fe’li va boshqalar. A.X.Sulaymonovning nomzodlik dissertatsiyasida o‘tgan zamon formasi 22 ga yetadi . Bunday yondashuvda o‘tgan zamon doirasiga turli murakkab leksik va grammatik hodisalar ham kiritilib, ular mantiqiy va stilistik jihatlar bilan aralashtirilgan holda tahlil qilinadi. M.Sodiqova fikricha, bu usul grammatik tadqiqot mezonlariga to‘liq mos kelmaydi, chunki ekspressiv-emotsional, modal ma’nolar va nozik ma’no ottenkalarini ifodalovchi vositalar asosan stilistik yo‘sinda o‘rganilishi lozim deb hisoblaydi.

O‘zbek tilida zamon kategoriyasi tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, bugungi kunda uch asosiy tur – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon doirasida qaraladi. Turli davr olimlari ushbu kategoriyani turlicha talqin qilgan bo‘lsalar-da, ularning barchasida zamonning nutq momentiga munosabatni ifodalashi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim tilshunoslar zamon shakllarini ichki turlarga keng ajratgan bo‘lsa, boshqalari bunday tasnifni ortiqcha murakkablik deb hisoblaydi. Shu bilan birga, ba’zi fe’l shakllarining bir nechta zamon ma’nosini ifodalay olishi zamon kategoriyasining talqinida turli yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, zamon kategoriyasining tasnifi masalasida yagona yondashuv mavjud emas. Bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘zbek tilida zamon kategoriyasi tilning muhim grammatik vositasi bo‘lib, harakatning vaqtga munosabatini ifodalashda asosiy rol o‘ynaydi. Zamon kategoriyasining o‘rganilishi tilshunoslikda nafaqat grammatik, balki funksional va kommunikativ jihatdan ham muhimdir.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi yanada kengroq yondashuv asosida o‘rganilmoqda. U faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki funksional-semantik maydon sifatida ham talqin qilinadi. Bu yondashuvda zamon shakllarining matn va nutqdagi vazifasi ham tahlil qilinadi. Shuningdek, zamon kategoriyasi pragmatika va matn lingvistikasi bilan bog‘liq holda ham o‘rganilmoqda. Fe’l zamonlari shaxs-son va mayl kategoriyalari bilan uzviy aloqada ekanligi ta’kidlanadi. Umuman olganda, zamon kategoriyasi zamonaviy tilshunoslikda kompleks va tizimli obyekt sifatida qaralmoqda.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek tilida fe’l zamon kategoriyasining morfologik tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilshunosligida zamon kategoriyasining shakllanishi, rivojlanishi hamda ularning morfologik ko‘rsatkichlarini ilmiy manbalar asosida o‘rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tavsifiy hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida zamon kategoriyasi qadimdan mavjud bo‘lib, uning shakllari turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Xususan, zamon ko‘rsatkichlari sintetik va analitik usullar orqali ifodalanishi aniqlangan. Shuningdek, ayrim zamon shakllarining bir nechta zamon ma’nolarini ifodalash xususiyati mavjudligi qayd etildi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tilida zamon kategoriyasi murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, uning tasnifida yagona yondashuv hali to‘liq shakllanmagan.

Resume. This article analyzes the morphological nature of the tense category of verbs in the Uzbek language. The main objective of the study is to investigate the formation, development, and morphological markers of tense forms based on scientific sources. Historical-comparative, descriptive, and analytical methods

[1] Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 305

were used in the research. The results show that the tense category in Uzbek has existed since ancient times and has been interpreted differently across periods. It has been determined that tense markers are expressed through both synthetic and analytical means. In addition, some tense forms are capable of expressing multiple temporal meanings depending on context. In conclusion, the tense category in Uzbek is a complex and multi-layered system, and a unified approach to its classification has not yet been fully established.

Резюме. В данной статье анализируется морфологическая природа категории времени глагола в узбекском языке. Основной целью исследования является изучение формирования, развития и морфологических показателей временных форм на основе научных источников. В ходе исследования использовались историко-сравнительный, описательный и аналитический методы. Результаты показали, что категория времени в узбекском языке существует с древних времен и в разные периоды трактовалась по-разному. Установлено, что временные показатели выражаются синтетическими и аналитическими способами. Также отмечается, что некоторые формы времени могут выражать значения нескольких временных планов. В заключение можно сказать, что категория времени в узбекском языке представляет собой сложную и многоуровневую систему, и единый подход к ее классификации до сих пор окончательно не сформирован.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA “QORA” RANGINI IFODALOVCHI SIFATLARDA MAZMUNIY SINKRETIZM

Teshaboyeva Gulnoza,
Andijon davlat pedagogika instituti
boshlag‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi v.b dotsenti

Ma’lumki, rang ifodalovchi sifatlar dunyodagi barcha tillarda qadimiy so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, alohida, so‘zlar guruhini tashkil etadi. Ranglar orqali ob’ektlarni nomlash, bir xil tasvirni anglash mumkin, biroq turli til vakillarida ranglarni idrok etishi, tasavvur qilishi, his etishi turlicha voqelanadi.

Rang haqidagi tushunchalar insoniyat tajribasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning elementlaridan biri hisoblanadi. O‘tgan asrning boshlarida L.V.Sherba shunday yozgan edi: “...biz olamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajribalarimizdan kelib chiqib idrok etamiz. Olam manzarasi hamma joyda bir bo‘ladi, biroq turli tillarda turlicha tushuniladi,hattoki, ma’lum bir oilaga mansub so‘zlashuvchi xalqlar ham o‘z madaniyatlarini o‘ziga xos tarzda tushunadi”[1].

Tarixdan ma’lumki, qora so‘zi turkiy, jumladan, o‘zbek xalqida ham tubanlik, axloqsizlik, yomonlik, yovuzlik, shafqatsizlik singari belgilarni o‘zida mujassam etgan belgi sifatida ta’riflanadi. Boshqa turkiy xalqlar qatori o‘zbek xalq doston, ertak, afsona, topishmoq va maqollarida qora so‘zi bilan bog‘liq timsollar faqat yomon, yovuz, tuban shaxs obrazlari ifodalangan

Har bir millatning o‘ziga xos rang tanlovdagi assotsiatsiyasi mavjud. O‘zbek xalqida qora so‘zi bilan bog‘langan assotsiativ semantik maydoni oq so‘ziga nisbatan keng. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qora rangning semantik maydonini kengligi somatizm bilan bog‘liq frazelogizmlar, so‘z birikmalari ifodasida ham keng namoyon bo‘ladi. Bu semantik maydon millatning olam manzarasida qora ranga bo‘lgan munosabati milliy mentalitet, maishiy hayot va ma’daniyatni tilda yorqin ifoda etadi. Boshqacha aytganda, folklor va badiiy adabiyotlarda qora so‘zining semantik tuzil-

[1] Щерба Л.В.Избранные труды по языка и фонетике/Л.В.Щерба;отв.ред.М.И.Матусвич ; Ленингр.гост ун-т.А.А.Жданова.:1958.-Т.1.С.204.

ishi barqaror bo‘lgan atiributiv birikmani “sintagmatik” ko‘rinishini ifoda etadi. Qora so‘zining semantik maydonining kengligini tasodif deb bo‘lmaydi.

Qora so‘zi polisemantik so‘z hisoblanib, semantik strukturasida so‘zning ko‘chma ma’noga siljishi natijasida yuzaga keladi. G.X.Buxarovaning ta’kidlashicha: “Rang anglatuvchi leksemalarning yordamida nafaqat rang, shuningdek, qandaydir g‘oya, fikr, ma’lumotni ifodalash mumkin”[1]. Biror voqelik, xalq faraziga binoan, boshqa bir narsa yoki voqelikka aloqador deb o‘ylanish ham ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi, ya’ni polisemantik so‘z vujudga kelishi uchun ham sabab bo‘ladi. Qumuk tilida oq va qora so‘zlarning semantik strukturasini tahlil etgan D.A.Arslanbekovaning ta’kidlashicha: “Turkiy va mo‘g‘ul tillarida qora nomi turli salbiy munosabatni ifodalovchi leksik nomlanish: “baxtsizlik keltiruvchi”, “azob beradigan”, “zulmat”, “uqubat”, “axloqsizlik”, “yaramas”, “makkor”va boshqalarni anglatish uchun xizmat qilgan”[2].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da qora leksemasi ma’no turlarining o‘n uchtasining izohi ifodalanib, boshqa ma’nolariga birikmali holda ta’rif berilgan”[3]. Ma’lum bo‘ladiki, qora so‘zi salbiy ma’noda yomon, iflos, yaramas, tuban, ahloqsizlik belgisi sifatida qo‘llanilgan. O‘zbek xalq doston, ertak va afsonalari, topishmoq va maqollarida ham qora so‘zi bilan bog‘liq obrazlar tubanlik ifodachisi bo‘lgan. Biroq o‘rganilgan tarixiy manbalar, shuningdek, tahlillar asosida qora leksemasi nafaqat salbiy ma’no, balki ijobiy ma’no ifodalovchi semantik maydoni keng leksema ekanligini ko‘rsatadi. A.N.Kononovning ta’kidlashicha, turkiy tillari (ozarb.turkm.gara)da qora so‘zining quyidagi ma’nolarga egaligi ma’lum: 1)qora, qorong‘u, g‘amgin, qattiq, qayg‘uli, baxtsiz. 2) qora mol, olomon, xalq, armiya-qo‘shin. 3) quruqlik, yer. 4) tepalik, balandlik, baland tepalik. Ma’lum bo‘ladiki, qora leksemasining dastlabki davrlaridayoq semantik maydoni keng bo‘lgan, keyinchalik davrlar o‘tishi bilan bu maydon yanada kengaygan.

Ko‘rinadiki, turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida rang ifodalovchi so‘zlarning tarixan valentlik dinamikasini o‘rganish jarayonida aytish mumkinki, so‘zlarning leksik-semantik o‘zgarishlari so‘zlarning guruhlariga ham taalluqli ekanligini belgilaydi. Ob’ektiv borliqning nomlanishida bevosita ranglarning ishtiroki milliy mentalitetga xos bo‘lgan ma’nolarni ochib berishga xizmat qiladi. Rang ifodalovchi leksemalar azaldan o‘zining denotativ zonalaridan tashkil topgan bo‘lib aytib o‘tilgan tarixiy leksikologiyaga oid barcha tadqiqotlarda aks etgan. Biroq shuni ta’kidlash joizki,hali ham rang ifodalanishining leksik-semantik guruhlari tarixi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmaganligi masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda,rang ifodalovchi leksemalarning valentlikni yuzaga keltirishi tilda keng semantik munosabatlarni ochib berishi mumkin. Chunki, leksik valentliklarni bevosita yuzaga chiqishi so‘z birikmalarini hosil qiladi. Undagi semantik sinkretizni ochib berishga keng imkoniyat yaratadi.

Qora rang bilan ifodalayotgan tushunchalar konnotatsiya bilan bog‘liq yuzaga chiqadi. Konnotatsiya turli tushunchalar bilan bog‘liq hodisalarni qamrab oladi va qora so‘zining semantik strukturasida o‘ziga xos qirralarini ochib beradi. Allohida ta’kidlash joizki, tilda konnotatsiyaning mavjudligi, rang-barangligi, barqarorligi tilning nechog‘lik boyligining, qadimiy an’analarga sohibligining, ifoda imkoniyatlari sarhadsizligining, ta’sir va tasvir quvvati o‘tkirligining dalolatidir[4].

Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqida ham qora bilan birikmali tarzda ifodalanadigan shaxs nomlari hozirga qadar ham milliy ma’naviyat, urf-odatlar, diniy tushunchalar sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan, Qorako‘z, Qoratoy, Qorajon, Qoraxo‘ja, Qorasoch, Qorabosh, Qoraxon, Qorabola, Qorabotir, Qorachaxon singari. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bu shaxs nomlari o‘zi ifodalab kelgan ma’nolardan tashqari yashirin ma’nolariga ham ega bo‘ladi. So‘zlar etimologiyasini o‘rganish, tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, turli davrlarda turli xalqlarda rang belgilarida ma’no o‘zgarishi mumkin. Chunki vaqtlar o‘tishi bilan dastlabki o‘zak ma’no ichki tabiatiga ko‘ra boshqa ma’noni ifodalashi, ya’ni ma’no doirasini kengaytirishi mumkin bo‘ladi. Masalan, qora so‘zi tabiatan salbiy maqomga ega so‘z hisoblanadi. Biroq uning semantik maydonining kengligi ijobiylikni ham aks ettiradi (qora – yomon, iflos; qora – katta, ulug‘ singari). Bu matn tarkibida yorqin namoyon bo‘ladi.

Qorako‘z boshida o‘tgan og‘ir zarbalar tufayli o‘zini birmuncha yo‘qotib qo‘ydi, vaqt unga shifo ato etdi (M.Norboeva). Endi boyag‘ig‘a qaraganda bir oz yengillangansumon, jon olg‘vuchi **qora ko‘zlari** harakatlana boshlagan, bo‘riqqan qizil yuzlari ochilinqirag‘an edilar (A.Qodiriy). Rais to‘yga xursand bo‘lib, yaxshi ruh bilan kelgan edi, **Qoratoyni** ko‘rib yana ruhi tushib ketdi (M.Qoriev). Rahmatjon aka ne-

[1] Бухарова Г.Х.Башкирский народный эпос «Урал-Батыр»:когнативно -дискурсивный и концептуалный анализ:дисс….д. филол.н.Уфа,2009.С.207.

[2] Арсланбекова Д.А.Прилагательные къара”черный” и акъ “белый” в блогопожеланиях и проклятиях отемишского говора кумыкского языка.https://lib.herzen.spb.ru>arslanmekova_11_ 32_ 17_ 20

[3] Қаранг:Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш жилдлик.Бешинчи жилд.-Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедик Далат илмий нашриёти.2008.335-345-бетлар.

[4] Маҳмудов Н.Тил тилсими тадқиқи.-Тошкент,Mumtoz so’z.2017.-Б.22.

varasining xatna to‘yiga “**qora toy**” sovg‘a qilaman deb niyat qilgan edi (Gazetadan). **Qorasoch** nomahramlarga ro‘baro‘ kelmaslikka harakat qilmoq va o‘zini nazardan chetga olmoq niyatida edi (M.Osim). Mahbuba uzun **qora sochlarini** onasiga o‘rdirib, atlas ko‘ylagini kiyib, mehmonga borishga oshiqdi (A.Abdullaev). **Qorabosh** bog‘dagi mevalarni yig‘ishtirib, bozorga olib borib dadilroq pulga sotishni rejalashtirdi (M.Niyozov). Yolg‘iz **Qorabosh** sudralgancha Rangon tog‘ bag‘ridagi g‘ordan chiqib o‘zini taqdir hukmiga topshirmoqdan o‘zga iloji yo‘qligini fahmladi (Sh.Bo‘taev**).** Xalq tabobatida **qoraboshning** inson uchun foydali tomonlari hali aytilmagan (Gazetadan). **Qorabola** butun vujudi bilan bolalarini sog‘inganini endi his etdi (T.Ashurov). Otboqalarning ish-yumushlari hamisha boshlaridan oshib yotadi:xashak sol, otini tozala, qashla, sovit bularning barchasi **“qora bola**” zimmasida edi (M.Niyozov). **Qorabotir** Zuhraxonga yetmoq niyatida o‘z qabih niyatlari amalga oshirish uchun payt poyladi (Tohir va Zuhra dos). Ikkisi ham yaxshigina kayf qilishgan, og‘zidan bodi kirib shodi chiqadi.

- Hey, menga qara**, “Qora botiring**”ning miyasi achib qolibdi, kechagiga ham boplab qo‘l qo‘ydirib oldim (M.Qoriev).

Keltirilgan birinchi gapda Qorako‘z leksemasi shaxs ma’nosida qo‘llanilgan. Qorako‘z shaxs nomi ayol: Qorako‘z, Qorakoz (o‘zb.) ko‘zlari qora bola; go‘zal, ko‘rkam bola[1]. Ikkinchi gapda qora ko‘zlar birikmasi somatik ma’noni ifodalab, shaxsning ko‘rish a’zosidir. Chiroyli, insonni maftun etuvchi ma’nolarini ham o‘zida birlashtiradi. Tilshunos olim E.A.Begmatov “O‘zbek ismlari” nomli lug‘atida yuqoridagi gaplar tarkibida berilgan shaxs nomlarining ma’nolarini quyidagicha izohlaydi:

Qoratoy, Qoratoy(o‘zb) – qulun(1 yoshli toy)dek bola, ya’ni qullundek o‘ynoqlab, yayrab o‘ssin yoki qora +toy kuchli,qudratli va suyukli, erkatoy bola.

Qorasoch, Qorasoch (*.,o‘zb) – sochlari timqora, qo‘ng‘iroq sochli qiz.

Qorabosh, Qorabosh (o‘zb) – qul,cho‘ri yoki burgut yoxud timqora sochli bola.

Qorabola, Qorabola (o‘zb) – kuchli, qudratli bola yoki qora tusli (qorachadan kelgan) bola,keyingi holda laqab ismiga aylanib ketgan.

Qorabotir, Qorabotir (o‘zb) – kuchli, qudratli, bahodir; jasur bola[2].

“Devonu lug‘atit turk “asarida Qorabosh ismiga shunday ta’rif beriladi: Qarabosh – qullarga berilgan nom, erkak bo‘lsa ham,ayol bo‘lsa ham bir xilda aytila beradi. Qora bosh demakdir[3]. Keyingi gaplardagi “qora toy” qo‘lga o‘rgatilgan uy hayvoni, nabira va farzandlarning hatna to‘ylariga sovg‘a; “qora soch”, “qora bosh” somatik birikmalarda “qora soch” insonning bosh qismidagi tolasi; “qorabosh” birikmasi esa ikki ma’noni voqelantirmoqda, ya’ni yovoyi hayvon nomi ikkilamchi nomlanish va o‘simlik nomi uchinchi nomlanish. Qorabosh Qoramtir to‘pgulli, yo‘g‘on poyali qiyoq[4]. “Qora bola” va “Qora botiring” birikmalarida ijodiy kreativlik, okkazional ma’no mavjud. Anglashiladiki, “qora bola” doimo qora ishlarni bajaruvchisi, tinmaydigan shaxsning laqabi. “Qora botir” birikmasi o‘z manfatini xalq manfatidan yuqori qo‘yyadigan shaxslarga to‘g‘anoq bo‘luvchi shaxs laqab ma’nosida. Shuni ta’kidlash joizki, Qorabotir xalq og‘zaki ijodida yomonlik timsoli sifatida ham qo‘llanadi. Biroq har ikkala laqab ham shaxsning xarakter – xususiyati, jismoniy hamda aqlliy yetukligi bilan umumiylikni tashkil etadi. Ijodkor mahsuli hisoblanadi.

Ma’lum bo‘ladiki, belgilar turlicha talqin etiladigan, murakkab ma’no ifodalaydigan keng tushuncha bo‘lib, ulardagi ma’noning murakkabligi, ko‘p ma’noliligi, o‘zaro bir-biri bilan kesishish nuqtalarning mavjudligini ko‘rsatadi. Anglashiladiki, bu har bir xalqning milliy madaniyati, ma’naviyati, milliy mentalitetining ifodachisi bo‘lgan o‘sha millatning tilida aks etadi.

So‘zning tabiati doimo bir xil bo‘lmaydi,chunki umumlashtiruvchi so‘z davrlar o‘tishi bilan ob’ekt va hodisalarning bir qator belgilarini ifodalashi, ko‘p ma’nolarni anglatishi,bir tushuncha zaminida boshqa tushunchalarni voqelantira olish qudratiga ega bo‘ladi. Prof. N.Mahmudov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Er yuzida biror -bir til yo‘qki, uning turli birliklarida biror-bir ma’noviy siljish yuz bermagan bo‘lsin, aytish mumkinki, barcha birliklarining semantik strukturasi tamoman qotib qolgan, faqat va faqat bir ma’no ifodasi uchungina xoslangan birliklardangina iborat til mavjud emas[5].Dunyoning turli xalqlarida“Qora rang – motam, cheksizlik, qo‘rquv, o‘lim, mavhumlik ramzi bo‘lsa, qizil rang –g‘alaba, xursandchilik, shodlik, tiriklik, olov va qon timsoli” sifatida ifodalanishi e’tirof etiladi. Hamma zamonlarda ham insonlar qorong‘ulikdan qo‘rqib yashaganlar. Inson hayotining qiyin pallalari ham uning “qora kunlari” sifatida ta’kidlangan.

Qora rang tasvirida olam manzarasi qadimgi afsonalardagi “qora”, “soya”, “tun” bog‘lanishini tabiatida sinkretizm mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan,

[1] Қаранг :Бегматов Э.А.Ўзбек исмлари.546-бет.
[2] Яна қаранг:Шу муаллиф.Ўша луғат. 546-бет.
[3] Қошғарий М.Девону луғатит турк .Уч жилдлик,Учинчи жилд.-Т., Фан.1963.241-бет.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш жилдлик.Бешинчи жилд.337-бет.
[5] Маҳмудов Н.Зиддият ва маъно тараққиёти// Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,2014.-3-сон.-Б.19.
[43] Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б.19.

Yerning qora bilan bog‘lash, Osmonni ko‘k bilan bog‘lash insonni rangga bo‘lgan simvol tushunchasida aks etadi. Har qanday tilda rang semantik maydonining kengligi ijobiy va salbiy baho ma’nolarining mujassamiga ega. Adabiyotshunos olima D.Tojiboeva X.Davron ijodini kuzatar ekan shunday yozadi:”Xurshid Davron ijodida esa qora rang o‘zgacha ramziy ma’no kasb etadi. “Qo‘rqmay kir qora tunga” deb boshlanuvchi she’rida inson hayotining qiyin kunlari, og‘ir damlari, kurashlari va mashaqqatlari nazarda tutilsa qora rang qo‘rquv ma’nosini ifodalab kelmaydi:

Qo‘rqmay kir qora tunga,
Garchi o‘tmog‘ing qiyin,
Hech kim bas kelmas senga
Tundan o‘tgandan keyin .(X.Davron)

She’rda “qora tun”ga kirishga da’vat etilmoqda. “Qora tun” – kurash, qahramonlik, mardlik, jasorat yo‘li. “[1] Darhaqiqat,olima keltirgan fikrlarni rivojlantiradigan bo‘lsak,tilimizda qora leksemasining o‘zi bog‘lanib kelgan leksemalar bilan semantik maydonni kengaytiradi. Ko‘rinadiki,qora leksemasining o‘zida ichki zidlik yuzaga kelmoqda. “Qora tun“ birikmasiga shoir falsafiy urg‘u berib ijodiy kreativ yondashadi. Shoirning tomonidan qo‘llanilgan qora tun birikmasi okkazional ma’noni ifodalaydi. Qora va tun leksemalarining asl ma’nolari qorong‘ulik,zim-ziyo,ko‘rish holatining pastligi.Biroq tun leksemasida zamon ma’nosi ham mavjud. Demak,har ikkala leksema ham birikmali tarzda o‘zining denotativ ma’nolariga zid ma’nolarni yuzaga chiqarmoqda.Ish -harakat va holatning yuzaga chiqarish ijobiylikka sari.Bu ijobiylik konnotativ ma’noni yuzaga chiqarmoqda.

Rus olimi Ye.N.Panov shunday yozadi:”Til belgilarning murakkab tizimidan iborat.Bu tizimga kirgan belgilar real olamdagi narsa va hodisalarni cheklanmagan holatda ifodalay oladi.Barcha til belgilari birlashib turib shu til sohiblari yashaydigan va nimalarnidir yaratadigan alohida umumiy manzarani hosil qiladi.Aynan mana shu sababga ko‘ra insonlarning turmush tarzi va ijtimoiy holati rang-barang bo‘ladi.Hamda bir-birlaridan o‘zaro farqlanadi.”[2]

Boshqa sistemadagi tillar qatori turkiy tillar qatori,jumladan, o‘zbek tilida ham qora rang bilan bog‘liq konnotativ assotsiatsiyalashuvni kuzatishimiz mumkin. Masalan, 1.Bo‘taboy Mirsalim ota bilan doim hol-ahvol so‘rashganda otadagi dilkashlikdan xursand bo‘lardi. Biroq bir safar otaning Bo‘taboy yoshing o‘tgandan keyin oxiratni haqida boradigan joyimiz **qora yer** ekanligini o‘ylab, noilojlikni bo‘yniga olar ekansan degan so‘zini esladi (S.Anorboev). 2.Erni er qiladigan ham xotin, **Qora yer** qiladigan ham xotin (Maqol). Odam bolasini boqadigan, kiyintiradigan, ko‘tarib yuradigan ham shu **qora yer** bo‘tam (M.Qoriev).

Birinchi gapda qora yer birikmasi insonning so‘ngi manzili evfemik qabr ma’no semasini ifodalagan ,ikkinchi gapda er kishining erlik nafsoniyati, oriyati, boshqalar oldidagi ko‘ksini mag‘rur tutishini yo‘q qiluvchi semalarini umumlashtiruvchi leksema sifatida qo‘llangan. Uchinchi gapda qora yer birikmasi ijobiy baho munosabatini ifodalab, insonning hayoti, turmush tarzidagi barcha munosabatlarning asosi ekanligi ma’nosini anglatadi.Tilshunos A.Sobirov to‘g‘ri ta’kidlaganidek,olamdagi narsa-hodisalar o‘zlarining doimiy atributlari(ajralmas belgilari)ga ega bo‘lganligi bois inson o‘ziga berib qo‘yilgan qudratli qurol-ongidan foydalangan holda narsa va hodisalarni solishtiradi,taqoslaydi,ularning o‘rtasidagi alohidalik,xususiylik,hukm,xulosa chiqaradi.[3]

Anglashiladiki, qora yer rang ifodasi nafaqat atrofimizdagi olam haqidagi tasnifni, balki rang ifodasi orqali muallif jumlada adersantga o‘z munosabatini emotsional tarzda aks ettiradi. Sub’ktiv konnotatsiyaning imkoniyatlarining kengligi bir so‘zning qarama-qarshi ma’no ifodalashi jarayonida namoyon bo‘ladi. Konnotatsiya doimo matning pragmatik aspekti bilan bog‘liq bo‘ladi, unga ekspressiv tasvir berishni ifodalaydi.

Kechga yaqin otga minib xo‘jayin kelib qoldi. Xo‘jayinning qorasini ko‘rgandan keyin biz yana g‘ayratga minib ketdik (G‘.G‘ulom). Shu topda Mahvashning tamog‘iga mushtdek narsa kelib taqaldi. Xo‘rligi keldi. Yig‘lab yuborishga oz qoldi. Yuraktdagi “qorasi”ni ketkazish, barchasini unutish unga azob borar edi (T.Ashurov). Muzaffar Aminovichning ishlagan joyida “qorasi” bor ekanmi, boshqa joyga rahbarlikka lozim topilmadi (Gazetadan). Keltirilgan gaplarda qorasi so‘zi ko‘rganda, ketkazish so‘zlari bilan birikib turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Ya’ni, qorasini ko‘rganda birikmasi ot +fe’l tipida bo‘lib otlashib, egalik va kelishik qo‘shimchalarni olib shaxsning ko‘rinishi, ob’ektga yaqinlashuvi, sharpasi ma’nolarini anglatadi. M.Sodiqova bu haqda shunday yozadi, “Qora so‘zi otlashganda “qorachig‘”, “siluet”, “sharpa”, “odam”, ba’zan “mo‘ljal”, “orienterovka” ma’nolarida ham qo‘llanadi”[4].

Tahlillardan ko‘rinadiki, qora so‘zi otlashganda o‘zi birikib kelgan so‘z bilan “qora” so‘zining semantik maydonini kengaytirib, o‘z ma’nosidan tashqari

[1] Тожибоева Д.ХХ асрнинг сўнги чораги ўзбек шеъриятида поэтик услуб масаласи.-Т.:Mumtoz so’z.2019.
[2] Панов Е.Н.Знаки.Символи.Языки.-М.:Знание.1980.-С.38.
[3] Собиров А.Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш.--Т.:Маънавият.2004..69-бет.
[4] Содиқова М.Ҳозирги ўзбек тилида сифат.-Т.,ЎзССР ФАН.1974.56-б.

implitsit (yashirin) ma'nolarni ham ifodalay oladi. Demak, "qorasi"ni ketkazish birikmasi ham ijodkor tomonidan metaforik ma'noda qo'llanil

organizmi bilan bog'liq ko'z qorachig'i matn tarkibida sinkretik metonimiyani yuzaga keltiri ib, "qora o'tmish", "qora kunlar", "og'ir hayot"semalarini yuzaga chiqaradi. Keyingi gapda "qorasi" so'zi bor ekanmi to'liqsiz fe'li bilan birikkan holda "xatto", "o'zlashtirish" "axloqsizlik" va boshqalar haqidagi pragmatik ma'nolarni voqelantiradi .

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tildagi rang ifodalanishini o'rganish jarayonida uning o'ziga xos sistema ekanligi va bu sistemada, nafaqat, umumiy tilshunosligikda semantik maydon va mikrosistema, shuningdek, xususiy tilshunoslikda ham o'ziga xos bo'lgan semantik maydon va mikrosistemaning mavjudligini kuzatdik. Bir tomondan bu sistemaning markaziy "asosi"ni rang ifodalanishi tashkil etsa,ikkinchi tomondan rang ifodalovchi so'zning atrofidagi so'zlar turli ma'no farqlovchi ottenkalari bilan ko'p ma'nolikni ifodalab mazmuniy sinkretizmni voqelantiradi. Anglashiladiki, rang ifodalovchi oq va qora leksemalari ham ham o'ziga xos bir mikrosistemadan iborat bo'lib, o'z atrofida turli ma'nolarni ifodalovchi leksemalarning semantik maydonini tashkil etadi.

Rezyume. Maqolada, o'zbek tilida rang ifodalovchi sifatlar, xususan "qora" leksemasining semantik xususiyatlari va mazmuniy sinkretizmi lingvistik hamda lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Rang leksemalarining milliy mentalitet, madaniyat, urf-odat va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liqligi misollar asosida yoritiladi. "Qora" so'zining polisemantik tabiati, uning denotativ va konnotativ ma'nolari, turli kontekstlarda ijobiy va salbiy ma'no ifodalashi hamda semantik maydonining kengligi ochib beriladi.

Rezyume. This article analyzes the semantic features and syncretism of color-denoting adjectives in the Uzbek language, particularly the lexeme "qora" ("black"), from linguistic and linguocultural perspectives. It highlights, through examples, the close relationship between color lexemes and national mentality, culture, traditions, and social life. The study reveals the polysemantic nature of the word "qora," its denotative and connotative meanings, its ability to express both positive and negative meanings in different contexts, and the breadth of its semantic field.

Резюме. В данной статье, анализируются семантические особенности и синкретизм прилагательных, обозначающих цвет в узбекском языке, в частности лексемы «qora» («чёрный»), с лингвистической и лингвокультурологической точек зрения. На основе примеров освещается тесная связь цветообозначающих лексем с национальным менталитетом, культурой, традициями и социальной жизнью. Раскрывается полисемантическая природа слова «qora», его денотативные и коннотативные значения, способность выражать как положительные, так и отрицательные смыслы в различных контекстах, а также широта его семантического поля.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EVFEMEMIK VOSITALARNING FUNKSIONAL USLUBIY XUSUSIYATLARI

Samiyeva Surayyo Oripovna,
Termiz davlat universiteti
tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

Til – jamiyatning eng muhim kommunikativ vositasi bo'lib, u inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Har bir til o'zining ichki tizimi, uslubiy qatlamlari va ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, evfemizm hodisasi tilshunoslikda alohida o'rganiladigan muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Evfemizm – bu nutqda noqulay, qo'pol yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul deb hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq, muloyimroq shaklda ifodalash vositasidir.

O'zbek va tojik tillari tarixiy, urf-odatlari, madaniy va lingvistik jihatdan bir-biriga yaqin tillar hisoblanadi. O'zbek va tojik tili turli davrlar davomida o'zaro ta'sirda bo'lgan va bu ularning leksik, semantik hamda uslubiy tizimida aks etgan. O'zbek va tojik tillarida evfemizmlarning uslubiy vosita sifatidagi o'rni, ularning shakllanishi, qo'llanish xususiyatlari hamda funksional jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi[1].

Evfemizm (yunoncha *eu* – yaxshi, *phemi* – gapiraman) – bu til birliklari yordamida ma'lum bir noqulay yoki salbiy ma'noli tushunchani yumshatib ifodalash hodisasidir[2]. Evfemizmlar asosan ijtimoiy etik me'yorlar, madaniy qadriyatlar va nutq madaniyati bilan bog'liq holda shakllanadi.

Tilshunoslikda evfemizm quyidagi asosiy belgilar bilan tavsiflanadi va semantik yumshatish funksiyasi, ijtimoiy-madaniy motivatsiya, kontekstga bog'liqlik, stilistik maqsadlilik bilan ifodalanadi. Evfemizmlar ko'pincha quyidagi sohalarda qo'llanadi:

- o'lim va kasallik bilan bog'liq tushunchalar bilan bog'liq bo'lganda;
- jismoniy nuqsonlar bilan bog'liq efemizmlarda;
- iqtisodiy va siyosiy muammolar bilan bog'liq evfemizmlarda;
- axloqiy jihatdan nozik mavzularga oid evfemizmlarda.

O'zbek tilida evfemizmlar keng qo'llanilib, ular nutqning madaniyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, og'zaki nutqda hurmat, ehtirom, odob va andisha tamoyillari evfemizm qo'llanishini rag'batlantiradi. Masalan: «o'ldi» evfemizmi o'rniga «vafot etdi», «olamdan o'tdi» yumshatuvchi evfemizmlari ishlatiladi;

- «kar» o'rniga «eshitishida muammo bor» evfemizmi ishlatiladi.

- «kambag'al» o'rniga «moddiy jihatdan qiynalgan» evfemizmi ishlatiladi. Bu misollarda evfemizmlar semantik jihatdan yumshatish vazifasini bajaradi va nutqni estetik jihatdan boyitadi. O'zbek tilida evfemizmlar quyidagi usullar orqali hosil qilinadi: metafora (masalan, «ko'z yumdi»); perifrastik ifoda («hayotdan ko'z yumdi»); qiyosiy so'zlar orqali («invalid» o'rniga «nogironligi bo'lgan shaxs»)[3].

Tojik tilida ham evfemizm hodisasi keng rivojlangan bo'lib, u fors-tojik madaniyatining odob-axloq tamoyillari bilan chambarchas bog'liqligini ifodalaydi[4]. Masalan: «мурд» o'rniga «вафот кард», «камбағал» o'rniga «камдаромад», «девона» o'rniga «шахси номӯътадили рӯҳӣ» ё ки «шахси аз ақл бегона»[5].

Tojik tilida evfemizmlar ko'pincha arabcha va forscha so'zlar, iboraviy ifodalar yordamida va diniy terminlar orqali yasaladi. Bu holat tojik tilining tarixiy rivojlanishi va adabiy an'analari bilan bog'liq.

O'zbek va tojik tilini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar quyidagi umumiyliklarga ega: ijtimoiy-madaniy motivatsiya; nutqni yumshatish funksiyasi; odob-axloq me'yorlariga moslashuv.

Biroq ayrim farqlar ham mavjud: o'zbek tilida turkiy va arabiy ildizli evfemizmlar ko'proq uchrasa, tojik tilida forsiy va arabiy unsurlar ustun; tojik tilida diniy evfemizmlar nisbatan faolroq qo'llaniladi; o'zbek tilida zamonaviy ijtimoiy terminlar asosida yangi evfemizmlar tez shakllanmoqda. Evfemizmlar quyidagi

[1] Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал хусусиятлари: Филология фанлари номзоди. дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 12.
[2] Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. ЛГПИ.: Просвещение, 1988. – С. 80.
[3] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 146.
[4] Ҳусейнов Ҳ., Шукурова К. Луғати терминҳои забоншиносӣ. – Душанбе: Маориф, 1983. – С. 256.
[5] Муҳаммадиев М. Луғати мухтасари синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1975. – С. 92, 106.

uslubiy funksiyalarni bajaradi:

1. Yumshatish funksiyasi – salbiy ma'noni kamaytiradi.

2. Estetik funksiyasi – nutqni go'zallashtiradi.

3. Pragmatik funksiya – suhbatdoshga ta'sir ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy moslashuv funksiyasi – jamiyat talablariga moslashadi.

Masalan, rasmiy nutqda evfemizmlar ko'proq ishlatiladi, chunki ular xalqaro munosibatini ifoda vositasi hisoblanadi.

- Hozirgi davrda evfemizmlar bilan bog'liq ortiqcha evfemizatsiya natijasida ma'no noaniqligi, siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida qo'llanish, ommaviy axborot vositalarida sun'iy ifodalar ko'payishi kabi muammolar mavjud. Masalan, «ishdan bo'shatildi» o'rniga «kursisini topshirdi» kabi iboralar real holatni yashirishga xizmat qilishi mumkin.

Evfemizm hodisasini zamonaviy tilshunoslik doirasida chuqurroq tahlil qilish uning faqat uslubiy vosita emas, balki inson tafakkuri bilan bog'liq murakkab kognitiv jarayon ekanligini ko'rsatadi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, til birliklari inson ongidagi konseptual tizim bilan uzviy bog'liq bo'lib, evfemizmlar ushbu tizimda noqulay yoki salbiy tushunchalarni qayta talqin qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Inson tafakkuri hayotiy voqelikni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ma'lum konseptual modellar orqali qabul qiladi. Shu sababli ijtimoiy jihatdan nozik bo'lgan «o'lim», «kasallik», «nogironlik» kabi tushunchalar ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita ifodalanadi. Bu jarayon kognitiv lingvistikada «rekonseptualizatsiya» deb ataladi. Masalan, «o'lim» leksikasi ko'pincha «uyqu», «safar», «orom» kabi metaforik modellar orqali ifodalanadi: «ko'z yumdi», «olamdan o'tdi», «abadiy orom topdi» va hokazo[1].

Psixolingvistik nuqtai nazardan evfemizmlar nutq jarayonida emotsional zo'riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Nutq ishtirokchilari noqulay axborotni bevosita ifodalashdan qochib, ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladi. Bu esa kommunikativ strategiya sifatida evfemizmlarning muhimligini ko'rsatadi. Ayniqsa, rasmiy nutq, diplomatik muloqot va kundalik ijtimoiy munosabatlarda evfemizmlar psixologik qulaylik yaratadi.

Til tizimida evfemizm bilan bir qatorda unga qarama-qarshi bo'lgan disfemizm hodisasi ham mavjud. Disfemizm – bu oddiy yoki ijobiy ma'nodagi birlikni qo'pol, keskin yoki salbiy tusda ifodalashdir. Ushbu ikki hodisa o'zaro antonimik munosabatda bo'lib, nutqning ekspressivligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, o'zbek tilida «vafot etdi» (evfemizm) va «o'ldi» qo'pol variantlar (disfemizm) o'rtasida aniq stilistik farq mavjud. Tojik tilida ham «вафот кард» va «мурд» shakllari o'rtasidagi tafovut shunga o'xshashdir. Disfemizmlar ko'pincha quyidagi maqsadlarda qo'llanadi: salbiy baho berish, kinoya va istehzo ifodalash, emotsional ta'sirni kuchaytirish[2].

Badiiy matnlarda evfemizm va disfemizmning qarama-qarshi qo'llanishi obrazlilikni oshiradi va muallifning estetik maqsadini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy davrda evfemizmlar keng qo'llanilayotgan sohalardan biri siyosiy diskurs va ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Bu yerda evfemizmlar nafaqat nutqni yumshatish, balki ma'lumotni ma'lum darajada manipulyatsiya qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilida: «ishdan bo'shatildi» o'rniga «qisqartirildi»; «muammo» o'rniga «masala»; «inqiroz» o'rniga «murakkab vaziyat» kabi birliklar ishlatiladi.

Tojik tilida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: «бӯҳрон» o'rniga «вазъияти душвор»; «қимматшавӣ» o'rniga «тағйирёбии нархҳо»[3].

Bu kabi evfemizmlar auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish va rasmiy nutqning diplomatik xarakterini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ortiqcha evfemizatsiya real voqelikni noaniq ifodalashga olib kelishi mumkin.

Evfemizmlar har bir xalqning milliy madaniyati, urf-odatlari va mentaliteti bilan chambarchas bog'liq. O'zbek va tojik tillarida evfemizmlarning keng qo'llanishi sharqona odob-axloq me'yorlari bilan izohlanadi. Har ikkala madaniyatda quyidagi qadriyatlar muhim o'rin tutadi: kattalarga hurmat; hayo va andisha; diniy e'tiqodga sodiqlik va hokazo[4].

Masalan, o'lim bilan bog'liq evfemizmlarning xilma-xilligi bu mavzuga nisbatan ehtiyotkor va hurmatli munosabat mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, kasallik, jismoniy nuqson va ijtimoiy holatlarni ifodalashda ham yumshoq ifodalar ustunlik qiladi. Etnolingvistik jihatdan qaralganda, evfemizmlar xalqning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida ifodalanadi.

Xulosa, o'zbek va tojik tillarida evfema muhim uslubiy vosita sifatida nutq madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim rol o'ynaydi.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, evfemizm

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 5 жилд. 2006. – Б. 149.

[2] Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012. – B. 85.

[3] Акбаров А.А. Табу ва эвфемизм дар забони тоҷикӣ. – Хуҷанд, 2018. – С. 114.

[4] Qoraboyev Z.B. O'zbekiston va Tojikiston madaniy aloqalari. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. 2025. – B. 76.

o‘zbek va tojik tillarida ko‘p qirrali lingvistik hodisa bo‘lib, u nafaqat uslubiy, balki kognitiv, psixologik va madaniy omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Evfemizmlar orqali inson nutqida muloyimlik, hurmat va ijtimoiy muvozanat ta’minlanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til evfemizmlar tizimi jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning shakllanishida tarixiy va madaniy omillar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida turkiy asos kuchli bo‘lsa, tojik tilida forsiy va arabiy unsurlar ustunlik qiladi.

Zamonaviy jamiyatda evfemizmlar kommunikativ strategiya sifatida yanada faollashib bormoqda. Shu sababli ularni lingvistik, pragmatik va kognitiv jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek va tojik tillarida evfema-uslubiy vosita sifatidagi o‘rni ilmiy-nazariy asosda tahlil va tadqiq qilinadi. Evfemizmlarning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari yoritilib berib, ularning nutq madaniyatidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, har ikki tilda evfemizmlarning shakllanish usullari, qo‘llanish doiralari va funksional jihatlari qiyosiy aspektda o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va tojik tillarida evfemizmlar tizimining o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Резюме. В данной статье рассматриваются эвфемизмы как стилистическое средство в узбекском и таджикском языках на основе научно-теоретического анализа. Освещаются семантические, прагматические и стилистические особенности эвфемизмов, а также их роль в культуре речи. Кроме того, проводится сравнительный анализ способов образования, сфер употребления и функциональных характеристик эвфемизмов в обоих языках. Результаты исследования позволяют выявить сходства и различия в системе эвфемизмов узбекского и таджикского языков.

Rezyume. This article examines euphemisms as a stylistic device in the Uzbek and Tajik languages based on a scientific and theoretical approach. The semantic, pragmatic, and stylistic features of euphemisms are analyzed, and their role in speech culture is highlighted. In addition, a comparative study is conducted on the formation methods, spheres of usage, and functional characteristics of euphemisms in both languages. The results of the research help to identify similarities and differences in the system of euphemisms in Uzbek and Tajik.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEUROLINGUISTIC AND LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF SPEECH MANIPULATION IN CYBERSPACE

Po'latxonova Hilolaxon Shuhratxon qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi

In contemporary digital society, cyberspace has become one of the most influential domains of human communication. Social networks, online news platforms, blogs, messengers, and comment sections do not merely transmit information; they actively shape users' perceptions, emotional reactions, and patterns of social behaviour. In this context, speech manipulation has acquired a new communicative status. It is no longer limited to political speeches, advertising, or traditional media discourse; rather, it functions as a dynamic linguistic mechanism within digital interaction, where messages circulate rapidly and influence large audiences within a short period of time.

The relevance of this study is determined by the increasing role of manipulative language in online communication. In cyberspace, users are often exposed to emotionally charged headlines, metaphorically framed political statements, clickbait constructions, algorithmically reinforced narratives, and polarizing linguistic patterns. These forms of discourse influence not only what people know, but also how they interpret, evaluate, and emotionally respond to information. Therefore, speech manipulation in cyberspace should be examined not only as a rhetorical or pragmatic phenomenon, but also as a neurolinguistic and linguocognitive process.

The scientific problem of the present article lies in the fact that manipulative online discourse has often been studied within political communication, discourse analysis, media studies, and pragmatics, while its neurolinguistic and linguocognitive mechanisms remain insufficiently integrated into one analytical framework. In other words, it is necessary to explain how linguistic structures activate mental frames, emotional responses, conceptual metaphors, cognitive biases, and automatic patterns of interpretation.

Speech manipulation can be understood as a purposeful linguistic influence aimed at directing the recipient's thoughts, emotions or actions in a desired direction without always making this influence explicit. In cyberspace, such manipulation becomes especially effective because online communication is often fast, fragmented and emotionally saturated. Users usually do not analyse every message deeply; instead, they react to keywords, images, metaphors, slogans and emotional signals. This makes cyberspace a favourable environment for implicit influence.

Teun A. van Dijk considers manipulation as a form of discursive power and control. According to his approach, manipulation influences the mental models of recipients and makes them accept certain beliefs or attitudes in the interests of the manipulator[1]. This view is especially relevant to digital discourse, where users are frequently exposed to selectively framed information, ideological opposition, emotional appeals and simplified narratives. Manipulation in cyberspace often does not force the user directly; rather, it creates conditions in which the user begins to interpret information through a prepared cognitive frame.

The linguocognitive foundation of the present study is strongly connected with the theory of conceptual metaphor developed by George Lakoff and Mark Johnson. In *Metaphors We Live By*, they argue that metaphor is not only a stylistic device, but a basic mechanism of human thought and action[2]. This idea is very important for the analysis of cyber manipulation because many online messages influence users not through direct argument, but through metaphorical framing. For example, expressions such as *information war*, *attack on truth*, *defend our values*, *fight against fake news* and *viral threat* do not merely describe reality; they construct reality in a particular cognitive form.

[1] Van Dijk T. A. Discourse and manipulation // Discourse & society. – 2006. – Vol. 17. – № 3. – P. 359–383.
2 Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – P. 3–6.

Lakoff and Johnson's example ***Argument is war*** is especially applicable to cyberspace[1]. In online political discussions and social media debates, disagreement is frequently represented as conflict. Users "attack" an opponent's view, "defend" their position, "destroy" arguments or "win" debates. Such language frames communication as a battlefield rather than a space for dialogue. As a result, users may perceive alternative opinions not as possible interpretations, but as threats. This strengthens polarization and reduces the possibility of rational discussion.

Another important idea in Lakoff and Johnson's theory is that metaphors highlight some aspects of reality while hiding others[2].This mechanism is central to speech manipulation. When an online message describes a social or political situation as a "war", it highlights enemies, danger, struggle and victory. At the same time, it hides complexity, compromise, dialogue and verification. Thus, metaphor becomes not simply a figure of speech, but a cognitive instrument of manipulation.

Daniel Kahneman's theory of fast and slow thinking helps explain the neurolinguistic and psychological effectiveness of manipulative online discourse. His distinction between automatic, intuitive thinking and slow, analytical thinking shows why emotionally charged messages are powerful in cyberspace[3]. When users encounter phrases such as *shocking truth*, *hidden threat*, *urgent warning* or *they do not want you to know*, they may react quickly and emotionally before critically evaluating the information. In this sense, cyber manipulation often appeals to fast cognitive processing.

Norman Fairclough's approach to media discourse is also important for this study because it shows that language is not neutral: it participates in the construction of social reality[4]. In online environments, media discourse becomes even more complex because professional journalism, personal opinion, advertising, political propaganda and user-generated content often merge. Ruth Wodak's discourse-historical approach also helps explain how political meanings are shaped by context, ideology and repeated communicative strategies[5].

The problem of online manipulation is also related to the structure of digital platforms. Cass Sunstein's idea of digital fragmentation and echo chambers explains how users may become surrounded by information that confirms their existing beliefs[6]. Eli Pariser's concept of the filter bubble similarly shows that algorithmic personalization can limit users' exposure to alternative viewpoints[7]. This is significant for speech manipulation because repeated exposure to the same linguistic frames can normalize particular interpretations and make them appear natural.

Russian and Uzbek linguistic traditions also provide important theoretical support for this topic. E. S. Kubryakova's works on cognitive linguistics emphasise the connection between language, knowledge and mental representation[8]. This approach allows us to analyse cyber discourse as a system that not only transmits information, but also structures knowledge in the user's mind. E. I. Sheigal's research on political discourse is relevant because manipulative online messages often operate through ideological symbols, evaluative meanings and semiotic opposition[9]. In Uzbek linguistics, Sh. Safarov's pragmalinguistic approach is important for understanding speech influence, communicative intention and pragmatic meaning[10]. D. U. Ashurova and M. R. Galieva's work on cognitive linguistics can also be used to explain conceptualisation, categorisation and cognitive models in language[11].

The methodology of this article is based on a qualitative descriptive-analytical approach. The research uses discourse analysis, linguocognitive analysis, pragmalinguistic interpretation, neurolinguistic explanation and comparative analysis. The material for analysis consists of typical examples of online manipulative discourse, including social media headlines, political slogans, clickbait expressions and emotionally charged digital statements. These examples are selected according to the following criteria: presence of emotional vocabulary, metaphorical framing, implicit persuasive intention, possible influence on perception and relevance to cyberspace communication.

[1] Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – P. 4–6.
[2] Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – P. 10–13.
[3] Kahneman D. Thinking, fast and slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
4 Fairclough N. Media discourse. – London: Edward Arnold, 1995.
[5] Wodak R. The discourse of politics in action: Politics as usual. – London: Palgrave Macmillan, 2009.
[6] Sunstein C. R. Republic.com. – Princeton: Princeton University Press, 2001.
[7] Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet is hiding from you. – New York: Penguin Press, 2011.
[8] Кубрякова Е. С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопросы языкознания. – 1994. – № 4. – С. 34–47.
[9] Шейгал Е. И. Семиотика политического дискурса. – Москва: Гнозис, 2004.
[10] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
[11] Ashurova D. U., Galieva M. R. Cognitive linguistics. – Tashkent, 2018.

Discourse analysis is used to identify lexical choices, ideological oppositions, presuppositions and implicit meanings. Linguocognitive analysis is applied to reveal conceptual metaphors, frames and mental models. Pragmalinguistic analysis helps determine the speaker's communicative intention and hidden influence. Neurolinguistic interpretation explains how emotionally marked language may activate attention, fear, curiosity and automatic processing. Comparative analysis connects the results with the theoretical views of Lakoff and Johnson, van Dijk, Kahneman, Fairclough, Wodak, Kubryakova, Sheigal, Safarov and other scholars.

The analysis shows that one of the most common mechanisms of speech manipulation in cyberspace is emotional triggering. Online messages often contain words such as *shocking*, *dangerous*, *hidden*, *urgent*, *threat*, *enemy*, *betrayal* and *truth*. These words are designed to attract attention and create emotional tension. For example, the phrase *"This hidden threat is spreading faster than you think"* does not provide clear evidence, but it activates fear and urgency. The words *hidden*, *threat* and *spreading* construct a danger-based frame. From a neurolinguistic perspective, such language may intensify emotional attention and reduce critical distance.

A second important mechanism is metaphorical framing. The expression *"We are fighting an information war"* is a typical example. It frames cyberspace as a battlefield and transforms information exchange into conflict. In this frame, users are not simply readers or participants; they become fighters, defenders or victims. The metaphor encourages emotional involvement and creates a binary opposition between "us" and "them". This corresponds to Lakoff and Johnson's idea that metaphor structures human understanding and action[1].[14]

Another frequent strategy is the use of presupposition. For example, the sentence *"Even experts now admit that this is the only solution"* contains hidden assumptions. The word *even* presupposes that experts were previously against the idea, while *the only solution* excludes alternatives. The user is guided toward accepting the statement as already established. This strategy is manipulative because it presents a contested interpretation as a fact.

Pronoun polarization is also widely used in cyber manipulation. Expressions such as *we*, *they*, *our people*, *their agenda*, *those who are against us* create symbolic boundaries between groups. The phrase *"They do not want you to know the truth"* is especially powerful because the pronoun *they* is vague but emotionally effective. It creates an invisible enemy and activates suspicion. At the same time, the phrase *the truth* gives the user a sense of privileged knowledge. This strategy strengthens in-group identity and distrust toward others.

Clickbait constructions represent another manipulative mechanism. Phrases such as *"You will not believe what happened next"*, *"This fact will change your opinion"* or *"Read this before it is deleted"* create a curiosity gap. The user is not given complete information, but is pushed to click in order to resolve uncertainty. From a cognitive point of view, this strategy uses the human need for completion. From a neurolinguistic point of view, incomplete information captures attention automatically.

The following table summarises the main mechanisms identified in the analysis:

Manipulative strategy	Linguistic form	Linguocognitive effect	Neurolinguistic effect
Emotional triggering	*shocking, dangerous, urgent, hidden threat*	Activates fear and danger frames	Increases emotional alertness
War metaphor	*information war, attack, defend, fight*	Frames communication as conflict	Intensifies threat perception
Presupposition	*even experts admit, the only solution*	Presents assumptions as facts	Reduces critical questioning
Pronoun polarization	*we/they, our/their, those people*	Creates in-group/out-group opposition	Strengthens emotional identification
Clickbait	*you will not believe, read before deleted*	Creates curiosity gap	Captures automatic attention

The analysis confirms that speech manipulation in cyberspace operates simultaneously at several levels. At the linguistic level, it uses emotionally marked vocabulary, metaphor, presupposition, vague pronouns and incomplete structures. At the cognitive level, it activates frames such as danger, war, truth,

[1] Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – P. 4–13.

betrayal and protection. At the neurolinguistic level, it appeals to rapid emotional processing, attention capture and automatic interpretation. These levels are closely interconnected.

The results of the analysis correspond to van Dijk's idea that manipulation controls the recipient's mental models. In cyberspace, such control is often achieved not by direct commands, but by controlling the interpretive frame. The user is not told exactly what to think; rather, the message creates a linguistic environment in which a particular interpretation seems natural. Similarly, the findings support Kahneman's view that people often rely on fast and intuitive processing, especially when information is emotionally intense or rapidly presented.

The linguocognitive interpretation of the examples also confirms Lakoff and Johnson's theory. Cyber manipulation is effective because it does not simply give information; it organises information through conceptual metaphors. The metaphor *information is war* makes online communication appear as struggle. The metaphor *truth is a weapon* suggests that information must be used against an opponent. The metaphor *ideology is a virus* presents beliefs as contagious and dangerous. These metaphors simplify complex realities and direct users' emotional responses.

In comparison with traditional media manipulation, cyber manipulation has several specific features. First, it spreads faster because digital platforms allow immediate sharing. Second, it is more fragmented because short messages, comments and headlines often replace extended argumentation. Third, it is algorithmically reinforced because users repeatedly encounter similar content. Fourth, it is multimodal because text, image, emoji, meme and video can work together. Finally, it is interactive because users themselves participate in spreading manipulative frames.

The practical significance of the article lies in the fact that understanding speech manipulation in cyberspace can improve media literacy, critical thinking and digital communication ethics. Users should be trained to recognise emotional triggers, metaphorical framing, presuppositions and polarizing pronouns. Journalists and content creators should also be aware that language can influence cognition and emotion, and therefore digital communication requires ethical responsibility.

In conclusion, speech manipulation in cyberspace is a complex phenomenon that combines linguistic form, cognitive structure and emotional processing. The first research question concerned the linguistic mechanisms of manipulation. The study showed that cyber manipulation is realised through emotional vocabulary, metaphorical framing, presupposition, pronoun polarization and clickbait structures. The second research question focused on cognitive frames. The analysis demonstrated that online manipulative discourse activates frames of war, danger, hidden truth, enemy and protection. The third research question concerned neurolinguistic and linguocognitive explanation. The article showed that manipulative messages become effective because they activate automatic emotional responses, cognitive shortcuts and deeply rooted conceptual models.

Resume. The article examines the neurolinguistic and linguocognitive features of speech manipulation in cyberspace. It shows that online manipulation is realized through emotional triggers, metaphorical framing, presupposition, pronoun polarization and clickbait structures. The study concludes that manipulative digital discourse influences users' perception, emotions and decision-making.

Rezyume. Ushbu maqola kiber makonda nutq manipulyatsiyasining neyrolingvistik va lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qiladi. Unda onlayn manipulyatsiya hissiy triggerlar, metaforik ramkalash, presuppozitsiya, olmoshlar orqali qutblash va klikbeyt (e'tibor jalb qiluvchi sarlavha) tuzilmalari orqali amalga oshrilishi ko'rsatiladi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, manipulyativ raqamli diskurs foydalanuvchilarning idroki, hissiyotlari va qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Резюме. В статье рассматриваются нейролингвистические и лингвокогнитивные особенности речевой манипуляции в киберпространстве. Показано, что онлайн-манипуляция реализуется через эмоциональные триггеры, метафорический фрейминг, пресуппозицию, местоименную поляризацию и кликбейтные конструкции. Делается вывод, что манипулятивный цифровой дискурс влияет на восприятие, эмоции и принятие решений пользователей.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAYLOV TARG'IBOT DISKURSIDA PRAGMATIK BELGILAR

Sobirova Feruza,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Saylov targ'ibot diskursi zamonaviy tilshunoslikning eng faol tadqiq qilinayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Saylov kampaniyalari nomzodlar va siyosiy partiyalar saylovchilarni o'z tomoniga og'dirish, ularning siyosiy qarorlariga ta'sir ko'rsatish hamda dunyoqarashini shakllantirish uchun jadal kommunikativ faoliyat olib boradigan maxsus ijtimoiy hodisadir. Ushbu jarayonda til qurol vazifasini o'taydi. U shunchaki axborot uzatish kanali emas, balki manipulyatsiya, ishontirish va ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasidir.

Pragmatika tilni kontekstda, muloqot ishtirokchilari niyatlari va munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganuvchi fan sifatida saylov diskursini tahlil qilishning eng samarali usulini taqdim etadi. Zero, targ'ibot nutqi mazmuni so'zma-so'z ma'noda emas, balki kommunikativ kontekstda, muloqot ishtirokchilarining bilim va qadriyatlari fonida to'liq anglashiladi. Pragmatik tahlil so'zlovchining ochiq bildirmagan, ammo tinglovchi tomonidan tushunilishi mo'ljallangan niyatlarini, ishontirish sxemalarini va manipulyativ mexanizmlarni aniqlashga imkon beradi.

Saylov diskursini o'rganish nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Demokratik jamiyatda saylovchi siyosiy kommunikatsiyaning pragmatik mexanizmlarini anglagan holdagina mustaqil va ongli qaror qabul qila oladi. Shu sababli saylov nutqlaridagi pragmatik belgilarni tahlil qilish bu lingvistik tadqiqot bo'lishi bilan birga, demokratik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy mas'uliyatli ilmiy faoliyatdir.

Mazkur maqolada saylov targ'ibot diskursidagi pragmatik belgilarni quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilish maqsad qilib belgilandi: nutq aktlari nazariyasi asosida saylov nutqlarini tasniflash; presuppozitsiya va implikatura mexanizmlarini ko'rsatish; diskursiv strategiyalar va ularning ishontirish samaradorligini baholash; leksik-stilistik va pragmatik vositalarni tahlil qilish. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nutq aktlari nazariyasi, "Graysning kooperativ prinsipi", kognitiv lingvistika va tanqidiy diskurs tahlili usullari qo'llanildi.

Pragmatika fani til birliklarining kontekstda qanday ma'no kasb etishi, muloqot ishtirokchilarining niyat va talqinlari, nutq aktlari va ularning ijtimoiy oqibatlarini o'rganadi. Pragmatikaning asosiy tushunchalari qatoriga nutq akti (speech act), lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar, presuppozitsiya, implikatura, indeksallik va diskursiv marker kabi kategoriyalar kiradi.

J.L. Ostin nutq akti nazariyasini ishlab chiqib, har qanday nutq birligida uch qatlam mavjudligini asosladi: lokutiv akt – gap aytish fakti; illokutiv akt – aytish orqali amalga oshirilayotgan harakat (so'rash, buyurish, va'da berish va h.k.), perlokutiv akt – tinglovchiga qo'yilgan ta'sir.[1] J. Syorl esa Ostin nazariyasini rivojlantirdi va nutq aktlarini besh katta guruhga – assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlarga – tasnifladi. Ushbu taksonomiya bugungi kunda ham siyosiy diskursni o'rganishning asosiy metodologik vositasi bo'lib xizmat qiladi.

G.P. Grays muloqotda ishtirokchilar o'rtasida kooperatsiya prinsipi asosida ishlashini ta'kidladi. U to'rtta maksimani aniqladi: miqdor maksimasi (kerakli miqdorda axborot berish), sifat maksimasi (haqiqatga asoslanish), munosabat maksimasi (mavzuga daxllilik), uslub maksimasi (aniqlik va tartib).[2] Bu maksimalarning ataylab buzilishi konversatsion implikaturani – yashirin, ammo anglashiladigan ma'noni – hosil qiladi. Saylov diskursida implikatura keng qo'llaniladi: siyosatchi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri aytolmaydigan narsani implikatura orqali yetkazadi.

Zamonaviy siyosiy lingvistika T. van Deyk, P. Chilton, R. Vodak, N. Feyrklaf kabi olimlar tadqiqotlari asosida shakllangan. Van Deyk siyosiy diskursda ideologik tuzilmalar qanday aks etishini ko'rsatib, "biz va ular" (in-group/outgroup) qarama-qarshiligi siyosiy nutqning markaziy pragmatik belgisi ekanligini asosladi.[3] P. Chilton

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962.
[2] Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.
[3] Van Dijk T.A. Political Discourse and Political Cognition // Politics as Text and Talk. Amsterdam: John Benjamins, 2002. P. 203–237.

siyosiy nutqni uchta asosiy funksiya – nazorat (coercion), legitimatsiya va vakillik (representation) – nuqtai nazaridan tahlil qilib, siyosatchi doimo ikki vazifani bir vaqtda hal qilishi zarurligini ko‘rsatdi: o‘zini legitim vakil sifatida taqdim etish va tinglovchi xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish.

Direktivlar – so‘zlovchining tinglovchini biror harakatga undashga mo‘ljallangan nutq aktlari. Saylov diskursida direktivlar klassik buyruq shaklida emas, balki yashirin strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Birinchi strategiya – ritorik savol sifatidagi direktiv: “Bolalarimiz qanday kelajakni xohlaydi?” Ushbu gap savol shaklida, ammo yashirin harakat bilan yuklangan direktivdir. Ikkinchi strategiya – shart-oqibat tuzilmasidagi direktiv: “Agar biz birlashsak, hech narsa bizni to‘xtata olmaydi” – bu tuzilma tinglovchiga harakat erkinligi illuziyasini beradi. Uchinchi strategiya – narrativ direktiv, voqea yoki qahramonlar haqidagi hikoya orqali tinglovchi o‘zi harakat xulosasini chiqaradi.

Komissivlar – so‘zlovchi tomonidan kelajakdagi harakatga majburiyat qabul qilishni bildiruvchi nutq aktlari. Saylov kampaniyalarida va’dalar – eng ko‘p uchraydigan nutq akti turi.[1] Komissivlarning pragmatik kuchi bir nechta omilga bog‘liq. Birinchisi – spetsifiklik darajasi: “Men iqtisodiyotni yaxshilayman” kabi umumiy va’da bilan “Men hokimiyatga kelgach, birinchi yuz kunda minimal ish haqini 30% oshiraman” kabi aniq va’da o‘rtasida ishonchlilik nuqtai nazaridan katta farq bor. Aniq raqamlar, muddatlar va shartlar komissivning perlokutiv kuchini oshiradi. Ikkinchi omil – so‘zlovchining ishonchliligi: komissivning ta’sir kuchi so‘zlovchining o‘tmishdagi faoliyatiga ishonch bilan bevosita bog‘liq.

Ekspressivlar – so‘zlovchining hissiy holati, munosabati va baholashini ifodalovchi nutq aktlaridir. Aristotel ritorikasidagi “pathos” (hissiy ta’sir) tushunchasining zamonaviy lingvistik ifodasi sifatida ekspressivlar saylov diskursida alohida o‘rin tutadi.[2] Empatik ekspressivlar – so‘zlovchining tinglovchi bilan bir hissiy maydonda ekanligini ko‘rsatuvchi nutq aktlari – saylov nutqlarida eng keng tarqalgan turdir. “Men bu xalqning iztirobini o‘z ichimda his qilaman” kabi iboralar so‘zlovchini tinglovchi guruhiga kiritadi, uning “bizdan biri”ekanligini pragmatik jihatdan ko‘rsatadi. Ekspressivlarning ikkinchi turi – indignatsiya ekspressivlari so‘zlovchining adolatsizlikka qarshi hissiy munosabatini ifodalab, tinglovchini harakatga yo‘naltiradi.

Assertivlar – so‘zlovchining biror narsaning haqiqat yoki yolg‘on ekanligiga nisbatan kommunikativ majburiyatini ifodalovchi nutq aktlari. Saylov diskursida assertivlar statistika, tarixiy faktlar, ekspert baholashlarini keltirish orqali amalga oshiriladi.[3] Ammo ularning pragmatik xususiyati shundaki, assertiv sifatida qo‘llanilayotgan da’volar ko‘pincha selektiv, kontekstsiz yoki qisman to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Selektiv statistikadan foydalanish – ya’ni o‘z pozitsiyasini qo‘llovchi ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish va boshqalarini e’tiborsiz qoldirish – saylov diskursida keng tarqalgan manipulyatsiya strategiyasidir.

Presuppozitsiya – gapning haqiqat yoki yolg‘onligi aniqlanganda ham o‘zgarib qolmaydigan, fonli haqiqat sifatida qabul qilinadigan ma’lumotdir.[4] Saylov diskursida presuppozitsiyalar bir nechta strategik funksiyani bajaradi. Birinchidan, raqibni tanqid qilish vositasi: “Yangi rahbar eski xatolarni takrorlamaslik uchun keladi” jumlasida eski xatolar mavjudligi presuppozitsiya – bu haqiqat sifatida berilgan, bahs obyekti emas. Ikkinchidan, o‘z vakolatini tasdiqlash: “Men bu tizimni yillar davomida o‘rganib chiqdim” jumlasida bilim va tajriba presuppozitsiya sifatida shubhasiz fakt tarzida taqdim etiladi. Presuppozitsiyalarning asosiy pragmatik kuchi shundaki, ular bahsga qo‘yilmagan fond axborot sifatida taqdim etiladi.

Grays implikaturasi saylov diskursini tahlil qilishda juda muhim metodologik vositadir.[5] Ko‘pgina siyosiy bayonotlar aniq aytilmagan, ammo kontekst va Grays maksimasidan chetlanish orqali anglashiladigan yashirin ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Miqdor maksimasini buzish: agar so‘zlovchi kutilganidan kam axborot bersa, tinglovchi nima uchun ko‘proq aytilmayotganini so‘raydi. “Raqibimning moliyaviy manbalari haqida hozir gapirish vaqti emas” jumlasida implikatura – “moliyaviy manbalarda muammo bor” ma’nosini hosil qiladi. Implikatura va presuppozitsiyalarning umumiy pragmatik ahamiyati shundan iboratki, ular tinglovchi tomonidan faol ravishda “kashf etiladi” – o‘zi xulosaga kelgan tinglovchi bu xulosani o‘ziniki deb his qilib ko‘proq ishonadi.

Saylov targ‘ibot diskursining eng faol pragmatik belgilaridan biri – birinchi shaxs ko‘plik “biz” olmoshining strategik qo‘llanishidir. Lingvistikada bu hodisa inkluziv plural (inclusive plural) deb ataladi.[6] Saylov nutqlarida inkluziv pluralning bir necha ko‘rinishi mavjud: so‘zlovchi va tinglovchilar: “Biz bu masalani birgalikda hal qilamiz”; so‘zlovchi va butun xalq: “Biz – buyuk millatmiz”. Inkluziv pluralning asosiy pragmatik funksiyasi – guruhiy identifikatsiya hosil qilish: tinglovchini o‘z guruhiga kiritib, raqibni “ular” sifatida belgilaydi.

[1] Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
[2] Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. London: Routledge, 2004.
[3] Fairclough N. Language and Power. London: Longman, 1989.
[4] Levinson S.C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
[5] Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. Oxford: Blackwell, 1986.
[6] Lakoff G. Moral Politics. Chicago: University of Chicago Press, 1996.

Ko‘pgina saylov nutqlari klassik muammo-yechim diskursiv sxemasida quriladi. Bu narrativ tuzilma uch bosqichdan iborat: (1) muammoni tasvirlash va dramatizatsiya qilish; (2) muammoning sababi va mas’ulini ko‘rsatish; (3) nomzodning yechim sifatida taqdim etilishi. Ushbu sxemaning pragmatik kuchi shundaki, u tinglovchida kognitiv ehtiyoj va muammoni hal qilish zaruriyati uyg‘otadi va nomzodni shu ehtiyojning tabiiy yechimi sifatida joylashtiradi. Muammoni dramatizatsiya bosqichida aksiyologik leksika keng qo‘llaniladi: falokat, inqiroz, umidsizlik kabi so‘zlar muammoning og‘irligini oshiradi.

Siyosiy psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, saylovchi harakatini eng samarali uyg‘otuvchi omillar xavotir (anxiety) va umid (hope).[1] Ushbu ikki hissiy holatni strategik ravishda birlashtirish saylov diskursining eng kuchli pragmatik sxemalaridan biridir. Qo‘rqitish komponenti hozirgi vaziyat yoki raqib boshqaruvi olib kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning tasviri. Umid komponenti nomzod yechimi amalga oshganda yuzaga keladigan ijobiy kelajak tasviri. Ikki komponentni bir nutqda birlashtirish tinglovchida dinamik hissiy holat xavotirdan umidga o‘tish hosil qilib, nomzodni qutulish yo‘li sifatida tasvirlaydi.

Saylov diskursida aksiyologik leksika, ya’ni ijobiy yoki salbiy baholovchi ma’noni o‘zida mujassamlashtirgan so‘zlar pragmatik ta’sir ko‘rsatishning asosiy leksik vositasidir.[2] Saylov nutqlarida aksiyologik leksikaning asimmetrik taqsimoti kuzatiladi: nomzod o‘ziga nisbatan ijobiy aksiyologik so‘zlar (fidokor, halol, tajribali, xalqparvar), raqibga nisbatan esa salbiy aksiyologik so‘zlar (ishonchsiz, manfaatparast, g‘aflatda) qo‘llaydi. Bu asimmetriya bevosita tinglovchining qiyosiy baholash jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

G. Lakoff va M. Jonson metaforalar dunyoni idrok etishning kognitiv modeli ekanligini asosladi.[3] Saylov diskursida bir nechta metafora tizimi keng qo‘llaniladi. YO‘L metaforasi: “Biz to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatamiz”, “Yangi izdan borish vaqti keldi”. KEMA metaforasi: “Davlatimiz og‘ir to‘fonda” bu metafora vaziyatni dramatizatsiya qilib, kuchli qo‘l zaruriyatini implikatura sifatida hosil qiladi. KASALLIK metaforasi: “Biz bu yaralarni birgalikda davolaymiz” professional kompetensiya va g‘amxo‘rlikni bir vaqtda ifodalaydi. QURILISH metaforasi: “Yangi poydevor yaratamiz”, “Kelajakning binosini birgalikda quramiz” tinglovchiga ijobiy loyiha ishtirokchisi rolini beradi.

Evfemizm – ko‘ngilsiz narsalarni yumshatib ifodalashdir. Saylov diskursida evfemizm o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni yumshatish va noxush reallikni ijobiy tarzda qayta ifodalash uchun qo‘llaniladi.[4] Disfemizm, aksincha, narsani qo‘pol tarzda ifodalashdir. “Xalq manfaati oyoq osti qilindi”, “Yillar davomida talandi” kabi iboralar hissiy ta’siri yuqori disfemistik iboralardir. Evfemizm va disfemizm bir vaqtda birgalikda qo‘llanganda aksiyologik kontrast hosil qilib, tinglovchining qiyosiy idrokini belgilab beradi.

O‘zbek siyosiy diskursida pragmatik belgilarning namoyon bo‘lishi bir qator milliy madaniy xususiyatlar bilan belgilanadi.[5] Jamoa va oila qadriyatlarining ustuvorligi (xalq, yurt, avlod, ona zamin kabi o‘zak so‘zlar ko‘pligi), hurmat va muomala madaniyatiga bog‘liq bilvosita muloqot uslubi, tarixiy va diniy pretsedentlarga murojaat qilish an’anasi bularning hammasi o‘zbek saylov diskursining pragmatik o‘ziga xosligini belgilaydi. O‘zbek saylov nutqlarida inkluziv “biz” nafaqat saylov kampaniyasi, balki milliy va tarixiy birlik ma’nosini ham qamrab oladi.

Diniy va maqol iboralarga murojaat qilish o‘zbek siyosiy diskursining alohida pragmatik belgisidir. Xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanish nutqqa “xalq donoligi” avtoriteti beradi va so‘zlovchini milliy qadriyatlarning vakili sifatida taqdim etadi. Muammo-yechim sxemasi o‘zbek saylov diskursida ko‘pincha “o‘tmish ulug‘ligi hozirgi og‘irlik kelajak porloqligi” uch qismli tuzilmada quriladi. Bu tuzilma tinglovchining tarixiy xotirasiga murojaat qilib, o‘tmish va kelajak o‘rtasida ko‘prik o‘rnatadi.

Mazkur tadqiqot saylov targ‘ibot diskursida pragmatik belgilarning keng va ko‘p qatlamli tizim hosil qilishini ko‘rsatdi. Birinchidan, saylov diskursida Syorl taksonomiyasiga ko‘ra nutq aktlarining barcha turlari qo‘llaniladi, ammo direktivlar, komissivlar va ekspressivlar funksional jihatdan ustunlik qiladi. Direktivlar ko‘pincha yashirin shaklda namoyon bo‘ladi. Komissivlar spetsifiklik darajasiga qarab turli pragmatik kuchga ega. Ekspressivlar emotsional rezonans va guruhiy identifikatsiya funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, presuppozitsiya va konversatsion implikatura saylov diskursining eng kuchli yashirin pragmatik vositalari hisoblanadi. Ular tinglovchi tomonidan faol ravishda “kashf etilgan” xulosalar hosil qilganligi sababli ishontirish samaradorligi yuqori bo‘ladi. Uchinchidan, diskursiv strategiyalar inkluziv plural, muammo-yechim sxemasi, avtoritetga asoslangan argumentatsiya va qo‘rqitish-umid dialektikasi o‘zaro tizimli ravishda qo‘llaniladi. To‘rtinchidan, aksiyologik leksika, konseptual metafora tizimi, evfemizm va disfemizm

[1] Huddy L., Feldman S. Americans Respond Politically to 9/11 // American Psychologist. 2011. Vol. 66. P. 455–467.
[2] Van Dijk T.A. Ideology: A Multidisciplinary Approach. London: Sage, 1998.
[3] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
[4] Wodak R., Meyer M. Methods of Critical Discourse Analysis. London: Sage Publications, 2001.
[5] Yusupova Z.D. O‘zbek tilida siyosiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2018.

tinglovchining siyosiy reallikni talqin qilish usulini belgilaydi. Beshinchidan, o‘zbek saylov diskursida universal pragmatik belgilar milliy madaniy xususiyatlar bilan uyg‘unlashadi.

Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda o‘zbek tili materialida keng saylov nutqlari korpusini yaratish va qiyosiy tahlil o‘tkazish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.[1]

Rezyume. Mazkur maqolada saylov targ‘ibot diskursining pragmatik tabiati va uning lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura va diskursiv strategiyalar saylov nutqining asosiy pragmatik qurollari ekanligini ko‘rsatadi. Saylov diskursi nutq aktlari nazariyasi, Graysning kooperativ prinsipi va kognitiv lingvistika asosida tahlil qilinadi.

Resume. This article examines the pragmatic nature and linguistic features of electoral propaganda discourse. The findings demonstrate that speech acts, presupposition, implicature, and discursive strategies constitute the primary pragmatic tools of electoral speech. The discourse is analyzed through speech act theory, Grice’s cooperative principle, and cognitive linguistics.

Резюме. В данной статье анализируется прагматическая природа и лингвистические особенности электорального пропагандистского дискурса. Результаты исследования показывают, что речевые акты, пресуппозиция, импликатура и дискурсивные стратегии являются основными прагматическими инструментами предвыборной речи. Дискурс анализируется с опорой на теорию речевых актов, принцип кооперации Грайса и когнитивную лингвистику.

[1] Mamatov A.E. O‘zbek tilshunosligida pragmatika masalalari. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA MUROJAAT GAPLARNING QO'LLANILISHI

Qurbonova Muharram Jurabekovna,
Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

"Ritorik undovda ham, ritorik so'roqda ham baholash momenti mavjud va har ikkala hodisa o'ziga xos ohang bilan talaffuz qilinadi. Ritorik so'roq gapning baholash ottenkasi birmuncha chegaralanganligini kuzatish mumkin. Unda muallif faqat berilgan mazmunning aksiga qo'shiladi. O'z fikrining shu tartibda tasdiqlaydi. Ritorik murojaatda esa buning kengroq planda ekanligi seziladi. Muallif qanday munosabat bildirishidan qat'iy nazar, unga bab-baravar murojaat qilaverishi mumkin"[1]. Yoki navoiyshunos olim Yoqubjon Isoqovning mazkur san'at haqidagi fikrlariga murojaat qilsak: "Ritorik murojaat – qadimgi davrlarda (Yunon-Rim) notiqlik san'atining muhim jihatlaridan biri bo'lgan. Ritorik murojaat badiiy adabiyotda uslubning hissiyligini ta'minlovchi omillardan biriga aylangan"[2]. Ko'rinib turibdiki, ritorik murojaat she'riy matnning badiyatini belgilovchi san'at turi sifatida mumtoz adabiyotda xitob, nidoni vujudga keltirsa, zamonaviy adabiyotda apostrofa, tilshunoslikda sintaktik figura deb ataladi.

Xurshid Davronning "Bahordan bir kun oldin" she'riy to'plamida ritorik murojaat usulidagi she'rlar ko'p qo'llangan. Masalan, shoir "Kechqurun yo'l bosib" she'rida lirik qahramon oyga murojaat orqali o'z maqsadini, fikrini, kechinmalarini ifodalamoqda.

Ey, oshnam, yolg'iz oy, bormisan omon,
Seni sog'ingandim, seni deb keldim (23).

Yuqoridagi she'rda muallif oyga nisbatan, "ey, oshnam" undalmasini qo'llaydi. Bugunga qadar mumtoz she'r namunalarida "ul hilol, "ey hilol", "ey moh" tarzida oyga murojaat va ko'pincha oy so'zi orqali ko'chma ma'noda yorga murojaat qilingan bo'lsa, shoir oyga nisbatan yangicha undash turini qo'llaydi, ya'ni uni oshnam deb ataydi. Bu ritorik murojaat orqali shoir o'z qalb kechinmalarini, qadrdoniga aytib berayotgan kabi harakat qiladi. O'zining ham tunlari bedor ekanligini, ham bu bedor tunlarda tanho ekanligini isbotlash tarqiqasida oy bilan suhbatni matnga kiritadi.

Yoki "Biz sen bilan yashaymiz uzoq" she'rida uning yana bir o'ziga xos xitobini kuzatamiz:

Nastaringa deymiz: *Ey, ko'kat,*
Yashamoqni sen bizga o'rgat (25).

Shoir she'rlarida qo'llangan murojaat gaplarni tahlil qilar ekanmiz, yana bir okkazional ritorik murojaat gapga ko'zimiz tushadi. Ritorik murojaat gaplarning qo'llanilishi qadim adabiyot namunalariga borib taqalsa ham, ularning o'rganilish salmog'i yangi ahamiyat kasb etaveradi. Chunki zamon o'zgarar ekan, u bilan hamnafas yashagan kitobxon tilni sinxronik tarzda o'rgana boshlaydi. Bugungi kunning nafasini, hayot, turmush, xalqchillikni ochib berish uchun ham shoir chapani, o'ziga xos murojaatlarni qo'llay boshlaydi. Masalan, an'anaga ko'ra gulga "gul" deya murojaat etilmaydi, chunki gulning o'zi ko'chma ma'noda yor obrazini ifodalaydi. Agarda jonsiz predmetlarga, masalan, yuqoridagidek gulga murojaat etilganda "ey, gul", "ey, sunbul" va hokazo murojaatlar aytilishi mumkin edi. Ammo shoir real voqelikka murojaat etar ekan, "ey, ko'kat"ni tanlaydi. Nastarin guli umuman olganda, nafosat, samimiylik timsoli bo'lgani uchun va bugungi kun insonlari hatto shu o'simlikchalik ba'zi xislatlarga ega emasligini kinoya bilan ta'kidlash uchun ham o'quvchi diqqatini tortgan holda bu murojaat usulini ishlatadi.

"Hoji Abdulaziz haqida qo'shiq" she'rida:

O, Hoji bobo sasi,
Naqadar g'amgin, mahzun.
Bu ovozning nafasi
Hofiz umridan uzun.
O, Hoji bobo sasi –
Yovshangullar nafasi…(26).

Shoir yuqoridagi she'rda yana bir undalmani mahorat bilan qo'llaydi. U insonga emas, balki uning "sas"iga murojaat etadi.

Quyidagi "Kechir, asrim" she'rida esa asrga murojaat etmoqda. Bunda badiiy undalmaning Z.Akbarova ta'kidlaganidek, poetik salmog'i ortmoqda, undal-

[1] Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд, 1994. – Б.45.
[2] Rajabova B. Nedur ahvoling, ey zori g'aribim... yoxud Navoiyning "Farhod va shirin" dostonida norozilik notasi, bayonoti bitilgan ritorik murojaatlar qanday bo'lgan? //Yangi O'zbekiston. 2022. – №24.

maning polifunksionalligi (nomlash, tavsiflash, fikr sig‘imining kengayishi) ko‘rinmoqda, murojaat shakli poetik sintaksisning o‘ziga xos o‘tkir vositalariga aylanmoqda[1]. Xurshid Davron sintaktik birliklardan ana shunday mahorat bilan foydalana olgan ijodkorlardan biridir.

Kechir, asrim,
Senga inonmay
Sen toptagan dinga inondim (39).

Navoiyona uslubga xos bo‘lgan murojaat shakllari ham X.Davron ijodida uchraydi: *Tilim, ko‘zim oqi, ko‘zim qarosi…(63).*

Murojaat gaplarning sodda va murakkab shakllari mavjud bo‘lib, she’riy matnlarda murakkab shakli faol qo‘llaniladi. Chunki she’riy matnlar hajman kichik, mazmunan keng qamrovli bo‘lganligi sababli, har bir birlikdagi ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalikka e’tibor beriladi. Qo‘shimcha ravishda bir qancha vazifalarni bajaradigan birliklar she’riy matnlarda ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, ko‘p ma’noli so‘zlar, tag ma’no, ko‘chimlar bunga misol bo‘ladi. Sintaktik birliklardan ritorik so‘roq gaplar, kesim, aniqlovchi, atov gap, undalma kabilar bu vazifani bajaradi:

O, javzo quchoqlagan
Qorong‘i tun – sokin yurt! (22).

Yana bir jihatga e’tibor qaratish zarurki, murojaat birliklarning ham individual qo‘llanilish chegarasi, uslubi, davri mavjud. Shoir o‘z ruhiy kechinmasidan, yashash muhitidan kelib chiqib ma’no ifodalovchi birliklardan birini tanlab yoki ixtiro qilib qo‘llaydi. Shu bilan birga, murojaatning an’anaviy shakllari: olloh, yo Rab, falak, soqiy, mug‘anniy, sabo, shabboda, yel, nasim, yor, oshiq, ma’shuqa, raqib, Atorud (Utorid, Tir) kabi an’anaviy xarakterdagi ritorik murojaatlar ham mavjud. Yoki shoirning o‘ziga xos murojaatlari ham bo‘ladi: “Alisher Navoiy o‘zi yaratgan, ya’ni “oliy va navoiyona” uslubga xos bo‘lgan qaro ko‘zim, so‘z, qalam, kilk, siyohdon, dunyo, olam, jahon, gardun, nigoro, mahvasho, ko‘zyosh, ajal, g‘am, ishq, Navoiy, Foniy singari yangicha talqindagi poetik murojaatlarni qo‘llagan” – deya ta’kidlaydi B.Rajabova[2]. Shuningdek, Xurshid Davron she’riyatida ham individual murojaatlar uchraydi. Shoir o‘z ruhiy kechinmasidan, yashash muhitidan kelib chiqib ma’no ifodalovchi birliklardan birini tanlab yoki ixtiro qilib qo‘llaydi. Masalan, “ey, ko‘kat”, “ey, sas”, “hey, asr”, ko‘ksim asiri kabi murojaat ko‘rinishlari fikrimiz dalilidir:

Sen nimani tilaysan mendan,
Qodiriyning so‘nggi surati (7).
– Hey, ko‘ksim asiri, qushcha, aldanma**,**
Bu olov o‘zgadir (58).

Xulosa shuki, ritorik murojaat she’riyatda eng ko‘p qo‘llaniladigan stilistik vosita, sintaktik figuradir. Sintaktik birliklardan biri – undalmaning badiiy asarda qo‘llanilishi bo‘lib, lirik matnlarda vazifasi, mazmun maydoni yanada kengayadi. Nasriy, dramatik matnlardan farqli ravishda qahramon nafaqat shaxsga, balki barcha jonli va jonsiz narsaga, voqea-hodisalarga, mavhum tushunchalarga murojaat qilishi mumkin. Xurshid Davronning “Bahordan bir kun oldin” she’riy to‘plamida ham ritorik murojaat asosida shakllangan misralar, she’rlar ko‘p. Shoir lirik qahramon ruhiyatini, kechinmalarini ochib berish uchun an’anaviy va individual ritorik murojaatlardan foydalangan. Demak, mazkur she’riy san’at shoirning poetik mahoratidan darak beruvchi, tilimizning boyligini, uning birliklarini ko‘rsatuvchi xalqona uslubdagi muhim badiiy vositalardan biridir.

Tahlildan kelib chiqadiki, murojaat gaplarning quyidagi turlari uchraydi:

An’anaviy	**Okkazional**
– O, bolajon,bu sirni bilsang	*Hey, sen asr*
Men Bolani, do‘stim, tanidim	*Ey, ko‘kat* *Yashamoqni sen bizga o‘rgat*
	O, Hoji bobo sasi

Konnotativ	**Appelyativ**	**Emotiv**
Ey, oshnam, yolg‘iz oy, *bormisan omon*	*– O, bolajon,bu sirni bilsang*	*Hey, ko‘ksim asiri, qushcha,* *aldanma.*

“Darak, so‘roq, buyruq gaplar kuchli intonatsiya bilan talaffuz qilinishi va bu intonatsiyada so‘zlovchining his-hayajoni, ruhiy kechinmalari o‘z ifodasini topishi mumkin. Emotsional qimmat kasb etgan bunday gaplar undov gap ataladi. Mazmuniga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq gaplarga bo‘linadi”[3]. “O‘zbek


[1] Акбарова З. Тил ва мурожаат // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – №3. –Б.92-95.

[2] Rajabova B. Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim... yoxud Navoiyning “Farhod va shirin” dostonida norozilik notasi, bayonoti bitilgan ritorik murojaatlar qanday bo‘lgan?// **Yangi O‘zbekiston, 2022. –№24.**

[3] Абдураҳмонов Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.32.

tili stilistikasi”da undov gapning uslubiyati haqida so‘z yuritilganda quyidagi fikrlar keltiriladi: “Undov gaplarda zavqlanish, shodlik, hayratlanish, taajjub, achinish, g‘azab, nafrat kabi ichki kechinmalar ifodalanadi”[1].

Xurshid Davron she’riyatida undov gapning quyidagi ma’nolari bor:



Undov so‘zlar asosan undov gaplarda vazifasiga ko‘ra turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Bu ma’nolar Xurshid Davron she’riyatida ham shoir maqsadidan kelib chiqqan holda qo‘llanilgan. Masalan, quyidagi she’rda uning *afsus ma’nosiga* guvoh bo‘lamiz. Agar she’r tarkibida “eh” undov so‘zi tushib qolganda “baribir yozganim bilan tushunmaysiz” degan ma’no anglashilar edi:

Eh, baribir yozganim bilan
Tushunmaysiz u she’rni sizlar!..(50).

Ammo quyidagi parchada qanday so‘roq olmoshi ushbu ma’noni keltirib chiqarmoqda:

Chol shunday deb boshini egdi.
Dedi: “*Qanday* odamlar o‘tgan!”(84).

Ba’zan voqea-hodisani tasvirlash uchun shoir tomonidan undov gaplar ishlatilgan.

Mana manzil. Otlar bog‘lab
Qo‘yilmaydi. *Tez! Tezroq! (108).*

Demak, yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, shoir lirik qahramon hayajonini ifodalashda undov gap hosil qiluvchi barcha birliklardan unumli foydalangan.

Bizga ma’lumki, sintaksisda gapning voqelikka ko‘ra turi sifatida tasdiq va inkor gaplar o‘rganiladi. “Predmetga biror belgining mavjudligini yoki biror ish-harakatning yuzaga kelganligini, yuzaga kelishi mumkinligini anglatadigan gap – tasdiq gap deyiladi. Inkor gap predmetga biror belgining mavjud emasligini yoki biror ish-harakatning sodir bo‘lmaganligini, sodir bo‘lishi mo‘ljallanmaganligini anglatadi”[2]. Tasdiq va inkor gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari borasida alohida tadqiqot amalga oshirilgan[3]. She’riyatda ham kitobxon e’tiborini tortish uchun yoki ta’sir kuchini oshirish uchun, kutilmagan burilish hosil qilish uchun tasdiq va inkor gaplardan, ayniqsa, inkor gap shakllaridan unumli foydalaniladi. Xurshid Davronning bir she’rida tasdiq va inkor gaplarning bir-biri bilan yonma-yon kelishi natijasida o‘zaro zidlikni yuzaga keltirishi kuzatildi:

U aytmas: – Shayton, – deb,	U aytar: – Bayot.
U aytmas: – O‘lim, – deb,	U aytar: – Hayot.
U aytmas: – Kecham, – deb	U aytar: – Ertam.
U aytmas: – Bugunim.	Aytar: – Budunim!
– Xayr! – demas.	– Salom! – der(20).

Gaplar tarkibini tahlil qilganda o‘zaro juftlangan zidliklar hosil bo‘ladi. Bunga asosiy sabab, birinchi navbatda kesimlar tarkibidagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik yasovchi qo‘shimchalar bo‘lsa, unga yana ham kuchli zidlik ma’nosini yuklagan “o‘lim” – “hayot”, “kecha” – “erta”, “bugun” – “budun”, “salom” – “xayr” so‘zlari hisoblanadi. She’riy matnda tasdiq va inkor gaplarning qo‘llanilishi, ayniqsa, ularning bir she’rda misralarda zidlik hosil qilgan holda qo‘llanilishi ta’sirchanlikni oshiradi.

Rezyume. Mazkur maqolada she’riy matnlarda ritorik murojaatning stilistik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ritorik murojaatning badiiy nutqdagi o‘rni, uning hissiy-ekspressivlikni ta’minlashdagi roli hamda lirik qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati yoritiladi. Xususan, Xurshid Davron she’riyati misolida an’anaviy va individual murojaat shakllarining qo‘llanishi, ularning poetik funksiyalari va semantik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ritorik so‘roq, undov gaplar hamda tasdiq-inkor konstruktsiyalarining badiiy matndagi o‘ziga xosligi ko‘rsatib beriladi.

[1] Шомақсудов. А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983. – Б.178.
[2] Абдураҳмонов Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.36.
[3] Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол.фан.номз…дисс.автореф. – Тошкент, 1997. – 25 б.

Resume. This article examines the stylistic and syntactic features of rhetorical address in poetic texts. It highlights the role of rhetorical address in artistic speech, its function in creating emotional expressiveness, and its importance in revealing the inner world of the lyrical hero. Based on the poetry of Khurshid Davron, the study analyzes both traditional and individual forms of address, their poetic functions, and semantic potential. In addition, the specific features of rhetorical questions, exclamatory sentences, and affirmative-negative constructions in literary texts are explored.

Резюме. В данной статье анализируются стилистические и синтаксические особенности риторического обращения в поэтическом тексте. Рассматривается роль риторического обращения в художественной речи, его значение в создании эмоционально-экспрессивности и раскрытии внутреннего мира лирического героя. На материале поэзии Хуршида Даврона исследуется использование традиционных и индивидуальных форм обращения, их поэтические функции и семантические возможности. Также анализируются особенности риторических вопросов, восклицательных предложений и конструкций утверждения и отрицания в художественном тексте.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ILMIY DISKURSNING INSTITUTSIONAL-KOMMUNIKATIV TABIATI

Abdug'aniyeva Zebuniso,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti


Diskurs nazariyasining zamonaviy tilshunoslikdagi taraqqiyoti uning tipologiyasi masalasini ham muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Diskurs tushunchasining ta'rifi haqida qanchalik turli qarashlar mavjud bo'lsa, uning tipologiyasi ham shunchalik murakkab va turlicha talqinlarga ega. Tadqiqotchilarning bir guruhi diskursni faoliyat sohasi bo'yicha, ikkinchi guruhi muloqot vaziyati bo'yicha, uchinchi guruhi esa lingvomadaniy tipga ko'ra ajratadi. Bu xilma-xillik diskursning ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatidagi murakkab tabiatini aks ettiradi va har bir tasnifning o'ziga xos tadqiqot ufqlarini ochib beradi.

Taniqli rus tilshunosi V.I.Karasik tilshunoslikda diskurs tasnifining uch xil yondashuvi mavjudligini ko'rsatadi: sotsiolingvistik, dialogik va madaniy. Olim diskursni sotsiolingvistik nuqtayi nazardan ikki asosiy turga ajratadi: shaxsiy yo'naltirilgan diskurs (personal) va institutsional diskurs. Uning ta'kidlashicha, institutsional diskurs bu muayyan ijtimoiy institut doirasida kechadigan muloqot bo'lib, unda har bir ishtirokchi ma'lum bir ijtimoiy rolni bajaradi. V.I.Karasik institutsional diskursning quyidagi turlarini ajratadi: siyosiy, diplomatik, ma'muriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, mistik, tibbiy, ishbilarmonlik, reklama, sport, ilmiy, sahna va ommaviy axborot diskurslari. Olim bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin ekanligini chunki ijtimoiy institutlar o'rtasidagi farq katta va ularni bir xil hodisa deb qarash noto'gri ekanligini ta'kidlaydi (Qarang: 1.Rasm). Bu esa diskurs tipologiyasining ochiq tizim sifatidagi tabiatini ko'rsatadi: yangi ijtimoiy institutlar paydo bo'lishi yoki mavjudlarining qayta qurilishi tasniflarning ham yangilanishini taqozo etadi.

Yana bir rus tilshunosi M.L.Makarov tasnifiga ko'ra diskurs 2 turga bo'linadi: maishiy diskurs va institutsional diskurs.

Olim tasniflashda yo'nalish, nutqiy cheklovlar, kommunikativ rollarning o'zgarishi, tarkibiy tuzilish darajasi, to'g'ridan-to'g'ri matnga bog'liqlik darajasi hamda maqsadlarning soni va mohiyatini mezon qilib oladi. Olimning ta'kidlashicha, institutsional diskurs "maqom-rol munosabatlarining belgilangan doirasida amalga oshiril-

adigan muloqot bo‘lib, u boshqa diskurs turlaridan maqsadi va muloqot ishtirokchilari jihatidan farqlanadi”. Ushbu ta’rif asoslangan holda, ilmiy diskurs ham o‘zining aniq ishtirokchilari (olimlar va ilmiy hamjamiyat), maqsadi (ilmiy haqiqatni aniqlash va asoslash) bilan institutsional diskursning muayyan bir ko‘rinishi hisoblanadi.



1-rasm. **V.I.Karasik tasnifiga ko‘ra diskurs turlari**

Institutsional diskurs bir-birini tanish-tanimasligidan qat’iy nazar, ma’lum bir jamiyat me’yorlariga muvofiq muloqotni amalga oshiradigan odamlar o‘rtasidagi munosabatning maxsus ko‘rinishidir.

Aynan shu jihat institutsional diskursni shaxsiy yo‘naltirilgan muloqotdan ajratib turadi: bu yerda ishtirokchilar shaxsiy munosabatlar emas, balki institut tomonidan belgilangan rollar asosida aloqaga kirishadi. Ilmiy hamjamiyat a’zolari o‘zaro shaxsiy tanish bo‘lmagan holda ham yagona me’yorlar tizimida muloqot olib boradi.

Ilmiy diskurs boshqa diskurs turlaridan yana shu jihati bilan farqlanadiki, unda auditoriyaning tayyorgarlik darajasi muallifning tayyorgarlik darajasiga mos keladi. Muallif adresatni alohida qiziqtirishga majbur emas, chunki adresat o‘zining professional mansubligi tufayli ilmiy axborotni qabul qilishga oldindan tayyorlangan bo‘ladi. Bu xususiyat ilmiy diskursni reklama yoki ommaviy axborot diskurslaridan tubdan ajratadi. Chunki ushbu diskurs turlarida muallif e’tiborni jalb qilish uchun maxsus retorik vositalar qo‘llashga majbur bo‘ladi, ilmiy muloqotda esa tinglovchining e’tibori muloqot mavzusiga professional qiziqishi bilan oldindan ta’minlangan.

Ilmiy diskursning institutsional tabiati uning bir qator muhim belgilarida namoyon bo‘ladi. V.E.Chernyavskaya ta’kidlaganidek, ilmiy matn ham yozilganda, ham o‘qilganda ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan tartib-qoidalarga rioya qilinadi. K.Hyland ushbu fikrni davom ettirib, ilmiy matn muallifi ilmiy hamjamiyat a’zosi sifatida o‘zini ko‘rsatishi, oldingi tadqiqotlar bilan muloqot qilishi va o‘z pozitsiyasini turli vositalar orqali bildirishi lozimligini qayd etadi. Ushbu me’yorlar oddiy lingvistik talablar bilan cheklanmaydi: ular muallifning yangi bilim hosil qiluvchi sifatidagi mavqeini, dalil keltirish va asoslash


usullarini, qarama-qarshi fikrlarga munosabat tartibini ham qamrab oladi. Shu jihatdan ilmiy diskurs yagona lingvistik kod bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy kelishuvlar tizimi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ilmiy diskurs muallifining asosiy vazifasi tadqiqot obyektini bilish jarayonida o‘z nuqtayi nazarining haqiqatga mosligini namoyon etishdan iboratdir. Nutqiy bayonotni shakllantirish jarayonida muallif matn adresatini ishontirishi lozim, shu sababli ilmiy matnlarga xos xususiyatlardan biri polemik elementlarning mavjudligi hisoblanadi. I.P.Xutiz ushbu xususiyatni “ratsional dialogizm” deb ataydi va uni ilmiy matn arxitektonikasining tayanch belgisi sifatida ko‘rsatadi. Polemik elementlar muallifga o‘z qarashlarining haqiqatga muvofiqligini turli pozitsiyalar bilan qiyoslash orqali asoslash imkonini beradi. Bu jihatdan ilmiy diskurs har qanday hokimiyatga o‘xshash hukm yurituvchi nutq turidan farqlanadi: bu yerda dalil va asoslash birlamchi, mavqe esa ikkilamchi rol o‘ynaydi.

V.I.Karasik ilmiy diskurs tahlilida asosiy kategoriyalar sifatida quyidagilarni qayd etadi: matnni boshqa til birliklaridan ajratishga imkon beruvchi kategoriyalar, matnning janriy mansubligini tavsiflaydigan janriy-stilistik kategoriyalar, matn ma’nosini ochuvchi va muallif obrazi, modallik kabi semantik-pragmatik kategoriyalar, matnni tashkil etish usuliga oid rasmiy-tuzilmaviy kategoriyalar.

V.Bhatia yozma diskursni tahlil qilishda to‘rt qatlamli modelni taklif qiladi, bizningcha, ushbu modeldan ilmiy diskurs tahlilida ham foydalanish mumkin. Mazkur model to‘rtta asosiy qatlamdan tashkil topadi. Birinchi (eng quyi) qatlam matniy qatlamda diskurs matn sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu qatlamda tahlil til tuzilmasining shakily tomoni bo‘lmish fonetik, leksik-grammatik, stilistik jihatlar bilan cheklanadi. Ikkinchi qatlam taktik qatlam bo‘lib, unda diskurs janr sifatida tahlil qilinadi. Bu qatlamda matn nafaqat qanday qurilganligi, balki muayyan institutsional yo kasbiy kontekstlarda qanday talqin qilinishi, ishlatilishi va turli fan sohalarida qanday qo‘llanilishi o‘rganiladi. Uchinchi qatlam kasbiy (professional) qatlamda diskurs kasbiy amaliyot sifatida ko‘rib chiqilsa, to‘rtinchi ijtimoiy qatlamda diskurs ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qilinib, tahlil matniy mahsulotda ishtirokchilarga va ijtimoiy tuzilmaga qaratiladi.

Mohiyatan bu model pedagogik va ijtimoiy-tanqidiy yondashuvlar birligidan tashkil topgan bo‘lsada, olim uchinchi yondashuv ham borligini bildiradi. Bu janrga asoslangan diksurs tahlili bo‘lib, u ijtimoiy-kognitiv qatlam doirasida diskursga janr sifatida qaraydi. Bir tomondan til qo‘llanilishining matniy xususiyatlariga, xususan, leksik-grammatikaning muayyan xusisiyatlari va matnning tuzilishiga, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy amaliyotning ba’zi boshqa xususiyatlariga muayyan darajada e’tibor beradi. Bu yondashuvda diskurs matn sifatida ham tahlil qilinadi ammo uning shakliy belgilari tahlili chuqur kirishmasdan faqatgina zaruriyat doirasidagina e’tibor qaratiladi.



2-rasm. **Ilmiy diskurs janrlari**

Yuqoridagi rasmda ilmiy diskurs janrlarining ierarxiyasi V.Bhatianing yozma diskurslar iyerarsiyasiga oid nazariyasiga asoslangan holda aks ettirilgan[1] . Ushbu model ilmiy diskursni bir vaqtning o‘zida lingvistik, janriy, kasbiy va ijtimoiy darajalarda tahlil qilish uchun keng qamrovli metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Ma’lumki, ilmiy matn bu ilmiy axborot, ilmiy ma’lumotni ifodalash shakli va ilmiy faoliyatning mahsuli hisoblanadi[2]. N.Mahmudovning fikricha, ilmiy matnda aqliy-mantiqiy, kognitiv jarayonning boshlanishidan yakunigacha bo‘lgan murakkab va muntazam jarayonning barcha bosqichlari o‘z aksini topadi. Shunga qaramasdan, har bir ilmiy matnning asosiy maqsadi yangi bilimni ifodalash. Bu qismda faqatgina matn muallifigagina tegishli bo‘lgan yangi ilmiy xulosa va ilmiy natija o‘z aksini topadi. Agar matnda mana shu qism bo‘lmasa uning orginalligi yo‘qqa chiqadi. Faqatgina mavjud bilimlarning bayoni yoki tavsifidan iborat bo‘lgan matn ilmiylikka davo qilmasa ham bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy diskursning nazariy asoslari o‘zbek va ingliz tillaridagi ilmiy matnlarning lingvistik xususiyatlarini institutsional belgilar nuqtai nazaridan o‘rganish ikki tildagi ilmiy hamjamiyatning o‘ziga xos lingvomadaniy o‘ziga xosliklarini ochib berishga zamin yaratadi. Bunday belgilar qatoriga diskurs ishtirokchilari, hamjamiyat me’yorlari, janrlar ierarxiyasi va muallif pozitsiyasini bildirish vositalari kiradi. O‘zbek va ingliz ilmiy an’analari turli madaniy va tarixiy sharoitlarda shakllangan bo‘lganligi sababli, ulardagi muallif pozitsiyasi, dalil keltirish usullari, polemik strategiyalar va metadiskursiv vositalar o‘ziga xos tarzda ifodalanadi.

Rezyume. Maqolada ilmiy diskurs institutsional diskursning alohida turi sifatida o‘rganiladi va ilmiy diskurs ishtirokchilari, kommunikativ maqsadi, ilmiy hamjamiyat kelishuvlari hamda janr ierarxiyasi orqali namoyon bo‘luvchi institutsional tabiati ochib beriladi. Bayon etilgan nazariy asoslar o‘zbek va ingliz ilmiy diskurslarining qiyosiy tadqiqi uchun metodologik zamin yaratadi.

Resume. The article examines scientific discourse as a distinct type of institutional discourse and reveals its institutional nature through participants, communicative goal, community conventions, and genre hierarchy. The theoretical foundations outlined in the article create a methodological basis for the comparative study of Uzbek and English scientific discourse.

Резюме. В статье научный дискурс рассматривается как особый вид институционального дискурса, а его институциональная природа раскрывается через участников, коммуникативную цель, конвенции сообщества и иерархию жанров. Изложенные теоретические положения создают методологическую основу для сопоставительного исследования узбекского и английского научного дискурса.

[1] Bhatia V.K. Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. – London: Continuum, 2004. -P. 19.
[2] Маҳмудов Н. Илмий матнда шахс, даража ва замон // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019, №5 – 36 б.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KIBERMULOQOTDA NUTQ AKTLARI VA ETIK ME'YORLAR: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI

Badalova Muazzam,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti

XXI asrda raqamli texnologiyalar va internet kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va forumlar orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli – kibermuloqot tilshunoslikning yangi tadqiqot obyektiga aylandi. Bunday muloqotda nafaqat lingvistik birliklar, balki nutqning pragmatik jihatlari, xususan nutq aktlari va etik me'yorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq aktlari nazariyasi asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar bugungi kunda raqamli diskursga tatbiq etilmoqda. Kibermuloqot esa an'anaviy muloqotdan o'zining anonimligi, tezkorligi va multimodalligi bilan farq qiladi. Shu sababli undagi nutq aktlari va etik me'yorlar ham o'ziga xos transformatsiyaga uchraydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – ingliz va o'zbek tillarida kibermuloqotda qo'llaniladigan nutq aktlari va etik me'yorlarni qiyosiy lingvopragmatik tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda nutq aktlarining turlari, ularning ifodalanish vositalari, shuningdek, madaniy omillar ta'siri o'rganiladi.

1. Kibermuloqot va nutq aktlari nazariyasi. Nutq aktlari nazariyasi til orqali bajariladigan harakatlarni o'rganadi. Unga ko'ra, har bir nutq birligi nafaqat axborot yetkazadi, balki ma'lum kommunikativ vazifani ham bajaradi.

Asosiy nutq aktlari turlari quyidagilardan iborat: lokutiv akt (axborot berish),

illokutiv akt (maqsad ifodasi), perlokutiv akt (ta'sir ko'rsatish)[1].

Kibermuloqotda bu aktlar ko'pincha qisqartirilgan shaklda, emojilar, GIFlar va boshqa vizual vositalar bilan birgalikda ifodalanadi. Masalan: Ingliz tilida: «Thanks» – minnatdorchilik nutq akti + ijobiy emotsiya.

O'zbek tilida: «Rahmat» – o'xshash pragmatik yuklama. Bu yerda emoji illokutiv kuchni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

2. Ingliz va o'zbek kibermuloqotida nutq aktlarining ifodalanishi

2.1. So'rov (request) nutq aktlari

Ingliz tilida so'rovlar odatda yumshoq, indirekt shaklda ifodalanadi: «Could you help me?», «Would you mind sending the file?»

O'zbek tilida esa ikki xil tendensiya kuzatiladi: rasmiy/odobli: «Iltimos, yordam bera olasizmi?» norasmiy: «Yuborib yuborsangizchi». Bu yerda ingliz tilida muloyimlik strategiyalari ko'proq grammatik vositalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida leksik birliklar va intonatsiya muhim rol o'ynaydi.

2.2. Minnatdorchilik (gratitude) nutq aktlari. Ingliz tilida: «Thanks a lot!», «Much appreciated». O'zbek tilida: «Katta rahmat», «Rahmat sizga». O'zbek tilida hurmat kategoriyasi kuchliroq bo'lib, murojaat shakllari muhim ahamiyatga ega.

2.3. Kechirim (apology) nutq aktlari. Ingliz tilida: «Sorry for the delay». O'zbek tilida: «Kechirasiz, kech qoldim»

Kibermuloqotda qisqartmalar keng qo'llanadi: inglizcha: «sorry», o'zbekcha: «uzr».

3. Kibermuloqotda etik me'yorlar. Kibermuloqot etikasi – bu onlayn muloqotda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy normalar majmuidir[2].

3.1. Ingliz tilida etik me'yorlar. Ingliz tilida quyidagi tamoyillar muhim: muloyimlik (politeness), shaxsiy hududga hurmat, to'g'ridan-to'g'ri tanqiddan qochish. Masalan: «I might be wrong, but…», «Perhaps you could consider…»

3.2. O'zbek tilida etik me'yorlar. O'zbek kibermuloqotida: hurmat kategoriyasi, katta-kichik farqi, murojaat shakllari ustunlik qiladi. Masalan: «Sizga bir savolim bor edi», «Ustoz, yordam bera olasizmi?»

4. Madaniyatlararo farqlar va ularning lingvopragmatik talqini. Ingliz va o'zbek tillarida kibermuloqotdagi nutq aktlari va etik me'yorlarning shakllanishi bevosita madaniy omillar bilan bog'liq. Xususan,

[1] Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge, 1969.
[2] Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge, 1987.

ingliz kommunikativ madaniyati ko‘proq individualistik xususiyatga ega[1] bo‘lsa, o‘zbek kommunikativ modeli kollektivistik qadriyatlarga asoslanadi[2]. Ushbu farq lingvopragmatik darajada nutq aktlarining tanlanishi, ifodalanishi va interpretatsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

4.1. Individualizm va kollektivizmning nazariy asoslari. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasiga ko‘ra, individualistik jamiyatlarda shaxsning mustaqilligi, fikr erkinligi va individual manfaatlari ustuvor hisoblanadi. Kollektivistik jamiyatlarda esa guruh manfaatlari, ijtimoiy uyg‘unlik va o‘zaro hurmat muhim o‘rin tutadi[2].

Ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya) muloqotda: shaxsiy fikrni ochiq ifodalash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish, tenglik prinsipiga asoslanish ustun. O‘zbek kommunikativ madaniyatida esa: ijtimoiy ierarxiya, yosh va maqomga hurmat, bilvosita (indirekt) ifoda qilish keng tarqalgan.

4.2. So‘rov nutq aktlarida madaniy tafovutlar. Ingliz kibermuloqotida so‘rovlar ko‘pincha formal yumshoqlik orqali ifodalanadi: «Could you please send me the document?», «I was wondering if you could help me». Bu yerda grammatik vositalar (modal fe’llar, shart mayli) muloyimlikni ta’minlaydi. O‘zbek tilida esa so‘rovlar ko‘proq ijtimoiy munosabatga moslashadi: «Iltimos, hujjatni yuborib bera olasizmi?», «Agar iloji bo‘lsa, yordam bersangiz», «Ustoz, bir yordam kerak edi». Bu misollarda murojaat shakllari («ustoz», «aka», «opa») nutqning pragmatik yukini belgilaydi.

Ingliz tilida muloyimlik universal strategiyalar orqali ifodalansa, o‘zbek tilida u ijtimoiy rollar va kontekstga kuchli bog‘liq.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kibermuloqotda nutq aktlari va etik me’yorlar ingliz va o‘zbek tillarida umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ifodalanish usullari sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz tilida muloyimlik strategiyalari grammatik va indirekt vositalar orqali ifodalansa, o‘zbek tilida hurmat kategoriyasi va leksik vositalar ustunlik qiladi. Kibermuloqot esa ushbu farqlarni qisqartirgan holda, yangi aralash kommunikativ modelni shakllantirmoqda.

Resume. Mazkur maqolada kibermuloqotda nutq aktlari va etik me’yorlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida ikki til o‘rtasidagi madaniy va pragmatik farqlar aniqlandi.

Resume. This article analyzes speech acts and etiquette norms in cyber communication from a comparative linguopragmatic perspective based on English and Uzbek languages. The study reveals cultural and pragmatic differences in online discourse.

Резюме. В данной статье проводится сравнительный лингвопрагматический анализ речевых актов и норм этикета в киберкоммуникации на материале английского и узбекского языков. Выявлены культурные и прагматические различия.

1 Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford, 1962.

2 Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEOLOGIZMLAR KLASSIFIKATSIYASI

Ergashova Yasmina,
Termiz davlat universiteti
Lingvistika: o'zbek tili magistranti

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori


Ta'kidlash kerakki, asrlar davomida tillar bir-biridan so'z olib, so'z berib shakllanib kelmoqda. Bu ham bir imkoniyat. Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi. Jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy-ma'rifiy sohalardagi islohatlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z, sema va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda, ma'lum so'z-leksemaning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug'at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi nominativ birliklarni yuzaga keltiradi. Biroq tilga yangi so'zlar kirib kelib, turli sohalarda doirasida ishlatiladigan u neologizmlar semantik tahlilga ehtiyoj sezadi.

Darhaqiqat, semantik xususiyatiga ko'ra neologizmlarni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

Nominativ neologizmlar – yangi tushunchani nomlash uchun yaratilgan so'zlar. Bu jarayonda so'z ham, tushuncha ham yangi iste'molga kirgan bo'lib, o'z qatlamda ham, o'zlashma qatlamda ham sodir bo'lishi mumkin: *Dipfeyk* – inglizcha *«deepfake»* *(«deep» – chuqur, «fake» – yolg'on)* so'zining fonetik tamoyil asosida o'zlashgan shakli bo'lib, sun'iy tafakkur yordamida yaratilgan audio va videomateriallar bilan chinakamiga manipulyatsiya qilish, turli mazmundagi videomateriallarga taniqli odamlarning yuzini va ovozini ko'chirgan holda qalbaki kontent yaratish texnologiyasi va u asosida yaratilgan mahsulot.

Messenjer – inglizcha «*messenger»* (xabar keltiruvchi, xabarchi) so'zidan olingan bo'lib, zamonaviy muloqot vositasi hisoblanadi. Internet orqali real vaqt rejimida matnli xabarlar, audio, video va fayllarni tezkor almashish imkonini beruvchi ilova yoki dastur.

Interfeys **–** inglizcha so'z bo'lib, «Cambridge» lug'atida ko'p ma'noli so'z sifatida ikki xil ma'nosi keltirilgan. 1. Ikkita elektron uskuna, yoki inson va kompyuter o'rtasidagi aloqa; 2. Ikki narsa birlashadigan va bir-biriga ta'sir qiladigan vaziyat, usul, yoki joy.[1] O'zbek tiliga yuqoridagi ikki ma'nosi ham o'zlashgan: *Bu haydovchilarga haydash interfeysidan chiqmasdan turib, jadvalni boshqarish, xabarlarni qidirish va mashrutlarni rejalashtirish imkonini beradi*[2]. Interfeys so'zi o'zbek tilida turli kollokatsiyalar bilan birikib, arxisemasiga mutanosib ravishda shakllangan bir qancha differensial semalarni ifodalaydi:



Lakuna neologizmlar – milliy tilda tushuncha mavjud, ammo ifodalovchi maxsus so'z bo'lmagan vaziyatda, ushbu signifikantni anglatuvchi boshqa tildan qabul qilingan so'z. Masalan, *kriminogen* – ji-

[1] https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/interface#google_vignette
[2] https://qalampir.uz/news/duneda-ilk-bor-gemini-asosida-ishlaydigan-elektromobil-yaratildi-130778

noyat sodir etilishiga imkon beruvchi, sharoit yaratuvchi yoki bevosita jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi (omillar, vaziyat, muhit) degan ma'noni anglatuvchi huquqiy-kriminologik atama. Ushbu so'z anglatuvchi tushuncha o'zbek tilda mavjud edi va *«jinoyatga moyil», «jinoyatni keltirib chiqaruvchi», «jinoyatga sharoit yaratuvchi»* so'z birikmalari yordamida ifodalanar edi. Leksema shaklida ifodalash til foydalanuvchilari uchun qulay bo'lganligi sababli bu kabi neologizmlar tez ommalashadi.

Ifodaviy neologizmlar – tilda muqobili mavjud bo'la turib, boshqa tillardan yangi o'zlashgan, grammatik, semantik-stilistik xususiyatlari va kollokatsiyasiga ko'ra farqlanuvchi so'zlar: *Feyrverk* va *mushakbozlik*. Ushbu so'zlar har ikkisi ham denotativ jihatdan bir xil referentni, ya'ni havoda xilma-xil ranglar hosil qiladigan yorug'lik zarralari, uchqunlarini ifodalasa-da, bir-biridan farqli xususiyatlari mavjud. Feyrverk so'zi nemischa *«feurerwerk»* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, fonetik tamoyil asosida o'zlashgan neologizm hisoblanadi. Mushakbozlik so'zi esa fors-tojikcha o'zlashma «*mushak*» so'ziga shaxs oti yasovchi *-boz* va faoliyat-jarayon oti yasovchi *-lik* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilingan.


Ushbu so'zlar ifodasidagi farqlarni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz:

Farqlanayotgan xususiyat	Feyrvork (neologizm)	Mushakbozlik
Denotativ ma'no	Pirotexnik qurilmaning o'zini va uning fizik xossasini (nur, rang) ifodalaydi, ya'ni narsa oti ham, faoliyat-jarayon oti ham bo'la oladi: *Unda urbanist, arxitektura muhandisligi agentligi, feyrverk va yoritish jihozlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, muzeylarga sayyohlarni jalb qilishda immersiv loyihalar, bolalar va o'smirlar uchun muzeylarda inklyuziv yechimlar kabi yirik soha va loyihalar bilan Fransuz tadbirkorlari ishtirok etishdi*[1].	Jarayonni, inson omili ishtirokidagi tomoshani ifodalaydi, ya'ni har doim faoliyat-jarayon oti bo'la oladi: *«Yangi O'zbekiston» bog'ida bayramona mushakbozlik tashkil etildi, deb xabar bermoqda Sputnik muxbiri*[2].
Konnotativ ma'no	Neologizm sifatida ko'proq zamonaviy, rasmiy, xalqaro kontekstlarda ishlatilib, texnologik yutuq semasini tashiydi: *Pavilyonlarda chekish, ochiq olovdan (mash'ala, sham, kandelyabr va boshqalardan) foydalanish, yoyli projektorlar ishlatish hamda o'q otish, feyrverk va olovli effektlar tashkil etish qat'iyan taqiqlanadi*[3].	An'anaviylik, ko'tarinkilik, tantana va marosim ruhidagi kontekstlarda ishlatilib, bayramona sema tashiydi: *«Yashasin» hayqirig'i bilan tantanali mushakbozlik o'tkazildi va havo sharlari samoga uchirilib, Samchjiyon markazi osmonini bezadi*[4].
Stilistik ma'no	Ilmiy va rasmiy uslubga xoslangan.	Badiiy va publitsistik uslubga xoslangan.

Qatorni yana quyidagi so'zlar bilan davom ettirishimiz mumkin: premium – yuqori sifatli; ekskluziv – maxsus o'ziga xos; ekstremal – favqulodda, keskin; inflyunser – ta'sirlantiruvchi, fikr yetakchisi; kontent – axborot, mashrut – yo'nalish

Semantik neologizmlar – so'z ma'nosining kengayishi, ya'ni yangi ma'no ottenkasiga ega bo'lishi natijasida vujudga keladi. Xususan, *raqamli so'zi* – 1. Sonlar, raqamlar bilan ifodalangan, raqamga ega bo'lgan; 2. Tartib raqam qo'yilgan, nomerlangan[5] kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ammo bugungi kunda ushbu so'z siyosiy, iqtisodiy kontekstlarda, ma'lum soha, hudud, yo'nalish nomlari bilan birga kelgan hollarda «elektron, onlayn shaklga ega, virtual» ma'nolarini ham ifodalamoqda. Quyidagi sxemada «raqamli» so'zi birikib kelganda o'zining yangi ma'no ottenkasini voqelantiradigan kollokatsiyalari ro'yxati berilgan.

[1] https://t.me›poytaxt_uz
[2] https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search?q=mushakbozlik&pagesize=20&page=6
[3] https://lex.uz/uz/docs/-5056473?ONDATE=05.04.2022%2000
[4] https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search?q=mushakbozlik&pagesize=20&page=1
[5] O'zbek tilining izohli lug'ati. – 387-b.




Shuningdek, *an'anaviy* so'zi avloddan avlodga o'tib kelayotgan, tarixan qaror topgan urf-odatlar, tartib-qoidalar va qarashlarga asoslangan narsa yoki hodisa ma'nosini ifodalab, «urf-odatlarga asoslangan» semasi ustuvor ahamiyatga ega edi: Bugungi kunda ushbu so'z bir qancha yangi konnotativ semalarga ega bo'lib, ma'no kengayish jarayonidan o'tmoqda. Quyida yangi semalari bilan tanishib chiqamiz:

1. «Real va jismoniy mavjud» (oflayn) semasi - onlayn so'ziga zid ravishda, biron bir jarayonning real makon va vaqtda, bevosita ishtirok etish natijasida sodir bo'lishini bildiradi: *an'anaviy ta'lim (sinfxonadagi dars) va masofaviy. onlayn ta'lim (zoom platformasida, videochatda yoki boshqa raqamli texnologiyalar orqali dasr)*

2. «Qog'ozli, moddiy» semasi – e*lektron* yoki *raqamli* so'zlariga zid ravishda, ma'lumot tashuvchi vosita jismoniy mavjud ekanligini bildiradi: *an'anaviy kitob (qog'oz kitob), an'anaviy kutubxona (qog'oz kitoblar saqlanadigan kutubxona) va elektron kitob, elektron kutubxona*

3. «Klassik, eski model» semasi **–** yangi paydo bo'lgan muqobil variantlarga qarama-qarshi o'laroq, uzoq vaqt xizmat qilgan tizimni bildiradi: *an'anaviy bank (binosi mavjud bank), onlayn bank – internetda faoliyat yuritadigan, raqamli bank.*

4. «Tabiiy, sintetik bo'lmagan» semasi – texnologik o'zgarishlar fonida asliga sodiqlikni bildiradi: *«an'anaviy dehqonchilik» va «Gidroponika yoki laboratoriya sharoitidagi dehqonchilik».* Bu yangi semalar yangi, o'ziga xos antonimik juftliklar hosil qilmoqda:



Aqlli so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da quyidagicha ta'rif berilgan: 1. Aqli raso, miyali; 2. Fahm-farosatdan, bilimdonlikdan dalolat beradigan; 3. Ziyrak, hushyor. Lug'atlarda aks etmagan, bugungi yangi aktuallashgan semalari quyidagilar:


1. «Avtomatlashgan, masofadan boshqariladigan» semasi – inson aralashuvisiz qaror qabul qila

oladigan, yoki internetga ulangan qurilmalarni anglatadi: *aqlli uy* (chiroqlarni o‘zi yoqadigan, haroratni nazorat qiladigan tizimga ega va b.); *aqlli soat* – faqat vaqtni ko‘rsatmay, salomatlikni ham o‘lchaydigan yoki telefon aloqasi, internetga kirish imkoni kabi boshqa funksiyalari mavjud uskuna; *aqlli shahar* – yo‘l harakati va xavfsizligi raqamli boshqariladigan shahar modeli.

2. «Tejamkor va samarali» semasi – resurslarni (vaqt, pul, energiya) tahlil qilib, ularni eng minimal sarflash bilan maksimal foyda keltiradigan holatga keltirishni bildiradi: *aqlli sug‘orish* – yerning namligiga qarab o‘zi suv quyadigan tizim; *aqlli iqtisodiyot* – ma’lumotlar tahliliga asoslangan samarali boshqaruv.

3. «Sun’iy intellektga asoslangan» semasi – inson miyasiga xos bo‘lgan o‘rganish va tahlil qilish xususiyati berilgan dasturlarga nisbatan aytiladi: *aqlli qidiruv* – siz nima demoqchi ekanligingizni oldindan tushunadigan tizimlar; *aqlli botlar* – mijozlar bilan muloqot qiladigan dasturlar.

Yangi semalarning paydo bo‘lishi so‘zning lingvistik xususiyatlarida ham bir qator o‘zgarishlar kuzatilishiga sabab bo‘lmoqda. Quyidagi jadvalda «Aqlli» so‘zining lingvistik transformatsiyasini ko‘rib chiqamiz:



Terminologik neologizm – maxsus fan yoki soha doirasida yangi hosil bo‘lgan aniq foydalanilib, tor jamoada qo‘llanadigan so‘zlar: *kastratsiya* – (lotinchadan *castratio* – bichish) – bu odam yoki hayvonlarda ko‘payish va jinsiy gormonlar ishlab chiqarish funksiyasini to‘xtatishga qaratilgan tibbiy, yoki biologik amaliyotdir. Bu so‘z bugungi kunda tibbiyot, veterenariya va huquq sohada qo‘llanayotgan termin hisoblanadi:

Tibbiyot, veterenariyada qo‘llanilishi.		Huquqiy sohada qo‘llanilishi.
«Davolash, tibbiy chora» semasi bilan farqlanadi: *gormonal kastratsiya, laktatsion kastratsiya*	Kastratsiya	«Jazo» semasi bilan farqlanadi: *Qirg‘izistonda pedofillarga nisbatan o‘lim jazosi joriy etilishi mumkin, Qozog‘istonda esa ular kimyoviy kastratsiya qilinadi*[1].

Resume. This article, based on a semantic analysis of neologisms, recognizes that any new nuance of meaning does not exist outside of collocation. It is established that identifying and analyzing such semantic nuances requires scientifically grounded expertise using corpus-based, cognitive, and pragmatic methods.

Резюме. В данной статье, основанной на семантическом анализе неологизмов, признается, что любые новые смысловые нюансы не существуют вне контекста коллокаций. Установлено, что выявление и анализ таких семантических нюансов требует научно обоснованной экспертизы с использованием корпусных, когнитивных и прагматических методов.

[1] https://qalampir.uz/uz/news/kastratsiya-umrbod-k-amok-ulim-zhazosi-pedofillarni-nima-k-ilsa-buladi

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA TAKRORLARNING QO'LLANILISHI

O'rozboqova Mahliyo Imomnazar qizi,
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Ritorika va stilistika yo'nalishidagi tadqiqotlarda takror hodisasi sintaktik-stilistik vositalar tizimining muhim tarkibiy unsurlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Sintaktik-stilistik figuralarning turli ko'rinishlarini maxsus o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, ularda mazkur hodisaning struktur-semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, M.Astafeva hamda K.B.Bochanlarning tadqiqotlarida sintaktik takrorning nazariy asoslari va amaliy namoyon bo'lish shakllari yoritilgan[1]. Shu bilan birga, sintaktik takror masalasi o'zbek tilshunosligida alohida, tizimli va kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmaganini qayd etish lozim. Bu esa mazkur hodisani lingvistik, uslubiy hamda matnshunoslik nuqtayi nazaridan chuqurroq tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Takror hodisasi badiiy nutqning sintaktik-stilistik vositalari tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. U til yoki nutq birliklarining muayyan kommunikativ maqsad asosida ataylab qayta qo'llanishi natijasida yuzaga keladi va matnda semantik urg'uni kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni faollashtirish hamda ifoda ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Takror vositasida muallif tasvirlanayotgan voqelik yoki obrazga nisbatan o'z subyektiv munosabatini ifodalaydi, baholash komponentini kuchaytiradi hamda o'quvchi yoki tinglovchi e'tiborini muhim mazmuniy nuqtalarga yo'naltiradi. Badiiy adabiyot tarixida keng qo'llanib kelgan mazkur usul matnning ritmik tuzilishini shakllantirish, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash va ma'no qatlamlarini chuqurlashtirishda ham faol ishtirok etadi. Shu jihatdan takror oddiy lisoniy takrorlanish emas, balki badiiy matnning mazmuniy-strukturaviy tashkilida muhim funksional yuklamaga ega bo'lgan stilistik mexanizm sifatida baholanadi.

Rus tilshunos olimlari Y.M.Galkina-Fedoruk, I.M.Astafeva, N.T.Golovkina, Y.A.Ivanchikovalar takrorni sintaksisning hissiy-ekspressiv ta'sir vositasi deb aytib o'tadilar[2]. Takrorlar haqida tilshunoslar turlicha qarashlarni bayon qiladilar. Xususan, I.V.Arnoldning qarashlariga ko'ra, "Takrorlar muallifning maqsadini amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq holda bir so'zni takrorlash vosita hisoblanadi"[3]. J.Vandries esa: "Takror effektiv tildan kelib chiqqan vositalardan biridir. Uning kelib chiqishi insonning psixologik, ruhiy holati bilan bog'liq, ya'ni ushbu vosita kuchli hayajonlanish natijasida paydo bo'ladi"[4] degan qarashlarni bayon qiladi. Bu haqida R.Normurodov esa ushbu fikrlarni aytadi: "Takrorlar tilshunoslikda parallel holatni yuzaga keltiruvchi nutqiy tushuncha bo'lib, uni nutq jarayonida yuzaga keluvchi lingvistik hodisa sifatida o'rganish zarur"[5]. A.Abdullayev "takrorlash – bu qayta-qayta uqtirish demakdir. Bu tushuncha orttirish, kuchaytirish kabi tushunchalar bilan bog'liq. Shunga ko'ra, har qanday takror zaminida emotsionallik, ekspressivlik yotadi", – deya ko'rsatib o'tadi.

Bizning nazarimizda, takror sintaksisning ekspressiv imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan biridir. U kitobxonga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga, muayyan fikrni ajratib ko'rsatish, uni ta'kidlash hamda nutqning hissiy-ekspressiv qatlamini faollashtirish vazifasini bajaradi. Takror qo'llanilganda matnda mazmuniy markazlashuv yuzaga keladi va kommunikativ jihatdan ahamiyatli bo'lgan birliklar alohida urg'u bilan beriladi. Shu bois so'zlovchi yoki muallif o'zi uchun asosiy deb hisoblangan nutqiy komponentlarni ongli

[1] Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стили чес кое использования (на материале «временного английског о языка) – М., 1964; Бочан К.Б. О повторяемости слов и лексических синонимов. – Иркутск, 1965.

[2] Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сб. ст. по языкознанию. – М.: Изд-воМГУ, 1958. – С. 107.; Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование в произведениях Ч. Диккенса: Автореф. дис.. канд. филолог.наук. – М., 1962. – 20 с.; Головкина Н.Т. Повтор как стилистическое средство в различных видах и жанрах речи (на материале современного немецкого языка): Дис...канд. филол. наук . – М.: 1-гг. МГПИИЯ, 1964. – 340 с.; Иванчикова Е.А.Лексический повтор как экспрессивный приём синтаксического распространения // Мысли о современном языке. – М., 1969. – С. 133.

[3] Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – М.: Наука, 2006. – 384 с.

[4] Вандриес Ж. Язык. – М.: Соцэкгиз, 1937. – С. 147.

[5] Нормуродов Р. Кўрсатилган асар. – Б. 66.

ravishda bir necha bor qo‘llaydi, natijada ifodaning ta’sirchanligi kuchayadi va qabul qiluvchining e’tibori yetakchi g‘oyaga yo‘naltiriladi.

A.Mamajonov va G.Roziqovalar “Sintaktik stilistika” qo‘llanmalarida takrorni sintaktik konstruksiyadagi o‘rniga qarab, quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkinligini aytib o‘tadilar:

1.Anaforik takror
2.Epiforik takror
3.Inforik takror
4.Aralash(doiraviy) takror[1].

Sintaktik-stilistik vositalar ichida grammatik funksiyasining kengligi, ifodaliligi va ta’sirchanligi, qulayligi hamda ravonligi bilan ajralib turuvchi figura anaforadir[2]. Anaforalar qo‘llanilish doirasi jihatidan ko‘proq poetik asarlar tilida uchrashi tufayli, ularni an’anaga ko‘ra, ko‘pincha, poetik sintaksis masalalaridan biri sifatida tahlil qilinadi.

Anafora sintaktik konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar (sodda gaplar)ning bir xil grammatik forma bilan boshlanish usulidir. Aynan bir tushunchaning ma’nosini yoki fikrning mazmunini kengroq yoritish, unga urg‘u berish, bo‘rttirish, tinglovchining diqqatini ana shu tushunchaga yoki fikrga alohida jalb qilish lozim bo‘lsa, anaforalardan foydalaniladi[3]. Og‘zaki ijodda kuylash va ijro jarayoni muhim bo‘lgani uchun anafora misra yoki band boshida takrorlanib, musiqiy oqimni mustahkamlaydi. Bu xalq qo‘shiqlari va dostonlarda ohangning monotonligini oldini olib, hayajon va emotsional kuchayishni ta’minlaydi.

***U nimadir**, havodagi do‘langan?*
***U nimadir**, yer yuzini suv olgan?*
***U nimadir**, orqasida og‘zi bor?*
***U nimadir**, o‘rtasida mag‘zi bor?*
***U nimadir**, suv ichida joni bor?*
Bulut bo‘lar havodagi do‘langan,
Yomg‘ir bo‘lar yer yuzini suv olgan,
Tegirmondir, orqasida og‘zi bor,
Bug‘doy bo‘lar o‘rtasida mag‘zi bor,
Baliq bo‘lar suv ichida joni bor.

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Ushbu o‘zbek xalq topishmog‘i (yoki topishmoqlar zanjiri) klassik folklor namunasi bo‘lib, unda anafora asosiy stilistik vosita sifatida ishlatilgan. Anafora – bu bir xil so‘z yoki iboraning ketma-ket jumlalar boshida takrorlanishi (bu yerda “U nimadir” iborasi 5 marta qaytariladi). Ushbu topishmoqdagi anaforalar oddiy grammatik takror emas, balki lingvopoetik vosita sifatida matnni ritmik, emotsional va estetik jihatdan boyitadi. U og‘zaki adabiyotning asosiy tamoyillarini – eslab qolish qulayligi, mantiqiy simmetriya va tinglovchini faollashtirishni – mukammal aks ettiradi. Anaforasiz bu matn oddiy savollar to‘plamiga aylangan bo‘lardi; anafora bilan esa haqiqiy xalq she’riyati namunasi bo‘lib qolgan. Bu o‘zbek tilining poetik imkoniyatlaridan biri sifatida lingvistika va adabiyotshunoslikda alohida o‘rganilishi mumkin.

***Bug‘doy** noning bo‘lmasin,*
***Bug‘doy** so‘zing bo‘lsin.*

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Bu maqol o‘zbek xalq donoligining ixcham, ammo chuqur namunalaridan. Unda “Bug‘doy” so‘zi ikki qator boshida takrorlanib, klassik anafora hosil qiladi. Bu takror nafaqat shaklni bog‘laydi, balki ma’noni o‘tkirlashtiradi. “Bug‘doy” birinchi qatorda real oziq-ovqat manbayi (non hosil qiluvchi don) sifatida keladi. Ikkinchi qatorda esa ramz, qimmatbaho, “to‘yimli”, mazmunli narsaning o‘lchovi bo‘lib chiqadi. Anafora shu o‘tishni bir zumda amalga oshiradi: bitta so‘z orqali moddiy yetishmovchilikni ma’naviy boylik ustunligi bilan solishtirib, qarama-qarshilikni keskinlashtiradi.

***Qirq yigiting** o‘zingdan ham ziyoda,*
***Qirq yigiting** qulluq bo‘lsin, Yusufjon.*

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Xalq dostonlaridan olingan ushbu parchada “Qirq yigiting” birikmasi ikki misra boshida takrorlanib, qahramonning lashkari qudrati va sadoqatini kuchaytiradi. Bu dostonning jangnoma qismida vatanparvarlik va kuch ramzini yorqinlashtiradi.

***Sen – Go‘ro‘g‘lisan**, men – posbonman,*
***Sen – Go‘ro‘g‘lisan**, men – yordamchiman...*

Anaforaning lingvopoetik vazifasi (maqolada tahlil qilinganidek): “Sen – Go‘ro‘g‘lisan” iborasi ketma-ket misralar boshida takrorlanib, qahramonning qudrati va sadoqat munosabatini kuchaytiradi, ritm hosil qiladi va tinglovchini emotsional jihatdan jalb qiladi.

***Kel endi bahor**, gul ochilsin,*
***Kel endi bahor**, quvonch kelsin...*

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Xalq termalariga oid ushbu parchada “Kel endi bahor***”*** jumlasi takrorlanib, tilak va chaqiriqni kuchaytiradi. Bu folklor namunalarida emotsional ta’sir va ritmik oqim yaratadi.

O‘zbek tilshunosligida epifora sintaktik takrorning muhim turlaridan biri sifatida qaraladi va u anaforaga teskari hodisa deb ta’riflanadi. Epifora jumla, misra yoki parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida bir xil so‘z, so‘z birikmasi yoki tovushlarning takrorlanishi orqali amalga oshiriladi. Bu usul takrorlangan elementning ma’nosini kuchaytirish, emotsional ta’sirni oshirish, xulosa chiqarish yoki ta’kidni kuchaytirish-

[1] Mamajonov A., Roziqova G. Sintaktik stilistika. – Farg‘ona, 2018. – 7 b.
[2] Mamajonov A., Roziqova G. Sintaktik stilistika. – Farg‘ona, 2018. – 9 b.
[3] Mamajonov A., Roziqova G. Sintaktik stilistika. – Farg‘ona, 2018. – 9 b.

ga xizmat qiladi. Epifora, asosan, yozma nutqda faol qo‘llaniladi va anaforaga nisbatan kamroq uchraydi, lekin ta’sirchanligi jihatidan muhim o‘rin tutadi. O‘zbek she’riyatida epifora va anafora qiyosiy ravishda o‘rganilganda, anafora (gap yoki misra boshidagi takror) qo‘llanish chastotasi nuqtayi nazaridan birinchi o‘rinda turadi. Anafora og‘zaki va yozma nutqda keng tarqalgan bo‘lib, ritm, ohang va ta’kidni kuchaytirishda ustunlik qiladi. Epifora esa ikkinchi o‘rinda joylashadi – u ko‘pincha she’riy matn oxirida xulosa yoki kuchli emotsional yakun berish uchun ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda (masalan, Qurbonova M.J., Xudoyqulova D.S. va boshqa tadqiqotlarda) ta’kidlanishicha, takrorning sintaktik turlari ichida anafora va epifora eng faol figuralar bo‘lib, lekin chastota bo‘yicha anafora epiforadan oldinda turadi. Epifora individual uslub kasb etuvchi sintaktik figura sifatida ma’no kuchaytirish va hissiy ta’sirni oshirishda muhim rol o‘ynaydi, ammo umumiy statistik qo‘llanishda ikkinchi o‘rinda qoladi.

Epiforik takror ko‘proq yozma nutq mahsuli sifatida yuzaga chiqadi. Epifora nutqning ifoda vositasi sifatida reklama matnlarida, sarlavhalarda, xalqaro nutq matnlarida qo‘llanadi. Epifora og‘zaki nutq materiallarida ham uchrab turadi va , ko‘pincha, xalq maqollarida bo‘ladi[1]:

Aql ko‘pga ***yetkazar,***
Hunar ko‘kka ***yetkazar.***

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Epiforalar nafaqat bir so‘z ko‘rinishida, balki birikma yoki gap holida ham kelishi mumkin. Masalan:

Havodagi bir tup g‘oz-e, ***endi mani yor o‘ldirsa, yor o‘ldirsin,***
Pastlab-pastlab o‘tinglar-e, ***endi mani yor o‘ldirsa, yor o‘ldirsin,***
Man yonimni yitirdim-e, ***endi mani yor o‘ldirsa, yor o‘ldirsin,***
So‘rog‘ida bo‘linglar-e, ***endi mani yor o‘ldirsa, yor o‘ldirsin.***

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Xalq qo‘shig‘ida epifora radif (takroriy qofiya yoki refren) vazifasini bajarib, har bir misrani ohangdor yakunlaydi. Bu misra oxiridagi ritmik bo‘lakni kuchaytirib, kuylashda oson eslab qolinishini ta’minlaydi. Folklor darsliklarida ta’kidlanishicha, bunday takror to‘rtlik tarzida qofiyalangan bo‘lsa-da, qofiyasiz satrda ham ikkinchi ritmik bo‘lakni hosil qiladi. Lingvopoetik jihatdan bu matnning estetik butunligini oshiradi va ijro jarayonida (qarsak, usul bilan) emotsional ta’sirni kuchaytiradi. Epifora misralarni bir butun qilib, har bir satrni “xulosa” bilan yakunlaydi. Bu folklor poetikasida supersintaktik butunlik hosil qiladi: matnning semantik va stilistik yaxlitligini ta’minlaydi. Pragmatik jihatdan esa tinglovchiga (yoki kuylovchiga) kuchli ta’sir qiladi – azob va muhabbat tuyg‘usini chuqurlashtirib, “yor o‘ldirsin” degan xulosani ongda mustahkamlaydi. Xalq og‘zaki ijodida bunday epifora anonimlik va variantlilik xususiyatlari bilan birga matnning og‘zaki tarqalishini osonlashtiradi.

Mayda dedim, xo‘p deding, ***mayda-yo mayda****,*
Xo‘pga maylim yo‘q deding, ***mayda-yo mayda****,*
Galagovga qo‘shganda, ho, ***mayda-yo mayda****,*
Ko‘rgiligim ko‘p deding, ***mayda-yo mayda****.*

(O.Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”)

Mazkur to‘rtlik o‘zbek xalq og‘zaki ijodining hazil va kinoya bilan yo‘g‘rilgan lirik janriga mansub bo‘lib, xalq qo‘shiqlarining og‘zaki variantlarida keng tarqalgan namunadir. Har bir misra oxirida takrorlanuvchi “mayda-yo mayda” sintaktik birikmasi klassik epifora shaklida namoyon bo‘lib, matnning badiiy qurilishida markaziy o‘rin egallaydi. Zamonaviy o‘zbek lingvopoetikasi tadqiqotlarida (masalan, “Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi”, 2021) bunday oxirgi takrorlar badiiy matnning supersintaktik yaxlitligini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida baholanadi. Epifora bu yerda birinchi navbatda qo‘shiqning musiqiy-ritmik asosini mustahkamlaydi. “Mayda-yo mayda” iborasidagi assonans va undoshlarning jarangdorligi kuylash jarayonida refren vazifasini bajarib, ohangni uzluksiz davom ettiradi va tinglovchining qulog‘ida doimiy aks-sado hosil qiladi. Xalq qo‘shiqlarining lingvokulturologik tahlillarida (Xorazm xalq qo‘shiqlariga bag‘ishlangan ishlar, 2025) shu kabi takrorlar matnni jonli ijro muhitiga moslashtirib, og‘zaki tarqalishni osonlashtiradi va estetik ta’sirchanlikni oshiradi. Semantik jihatdan epifora kinoyaviy norozilikni chuqurlashtiruvchi kuchaytirgich vazifasini o‘taydi. “Mayda dedim, xo‘p deding… ko‘rgiligim ko‘p deding” kabi satrlardagi muloqotdagi e’tiborsizlik va o‘zini kichik his qilish tuyg‘usi har safar “mayda-yo mayda” bilan yakunlanib, ironiyani kulminatsiyaga yetkazadi. Matn lingvistikasi tadqiqotlarida (Saparniyozova va boshqalar) epifora shu tarzda fikr va his-tuyg‘ularning emotsional zichligini ta’minlab, folklor poetikasining o‘ziga xos “hazil orqali yengish” uslubini yaratadi. Kompozitsion nuqtayi nazardan bu takror to‘rtlikni bitta yaxlit supersintaktik birlikka aylantiradi, har bir misrani “xulosa” bilan bog‘lab, og‘zaki variantlilikni saqlaydi. Pragmatik jihatdan esa tinglovchiga (yoki ijrochiga) kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatib, nochorlik va kinoyali achchiqlikni miyada mustahkamlaydi. Natijada, oddiy so‘z o‘yini emas, balki xalqning ijtimoiy-psixologik holatini aks ettiruvchi lingvopoetik vosita paydo bo‘ladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “mayda-yo mayda” epiforasi o‘zbek folklor qo‘shiqlarining estetik qudratini yaqqol ko‘rsat-

[1] Mamajonov A., Roziqova G. Sintaktik stilistika. – Farg‘ona, 2018. – 13 b.

uvchi misol bo‘lib, nafaqat ritm va ma’no kuchaytirish, balki madaniy merosning jonli saqlanish mexanizmini ham ifodalaydi. Bu hodisa lingvopoetika fanida xalq og‘zaki ijodining badiiy individualligini ochuvchi muhim kalitdir va zamonaviy tadqiqotlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Xulosa qilib aytganda, anafora va epifora o‘zbek badiiy nutqining eng mahsuldor sintaktik figuralaridan biri bo‘lib, matnning estetik va emotsional qudratini belgilaydi. U zamonaviy stilistika va lingvopoetika tadqiqotlarida ham faol o‘rganilmoqda va xalq og‘zaki ijodining jonli tabiatini ochib beruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Rezyume. Maqolada takrorlarning, xususan, anafora va epiforaning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan.

Resume. The article analyzes the linguopoetic features of repetition, particularly anaphora and epiphora.

Резюме. В статье анализируются лингвопоэтические особенности повтора, в частности анафоры и эпифоры.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DOSTONLARDA ORNITONIMLARNING MAJOZIY MA’NO IFODASI

Murodqulova Iroda Sharofiddinovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

O‘zbek xalq dostonlari tilida ornitonimlar nafaqat nominativ birlik, balki xalqning ko‘p asrlik mifologik tasavvurlari, estetik ideallari va lingvomadaniy dunyoqarashini mujassamlashtirgan murakkab semantik strukturalar sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonlarning badiiy matn qurilishida qush nomlari personajlar xarakterini modellashtirish, qahramonning ruhiy-psixologik holatini vizuallashtirish va epik syujet dinamikasini ta’minlashda muhim lingvopoetik funksiyani bajaradi. Xususan, ornitonimlar an’anaviy obrazlar tizimida denotativ ma’no doirasidan chiqib, barqaror konnotativ semalarni o‘zlashtirishi natijasida semantik transformatsiyaga uchraydi. Qushlarning ko‘kka parvoz qilish qobiliyati Sharq xalqlari mifologiyasida juda keng qo‘llanilgan hodisalardan biridir.Bu o‘rinda ins-jins va ruhlarning olamshumul sayohatlarini qulaylashtirish uchun ularning ayrim qushlarga o‘xshatilgan qiyofalarini eslash kifoya. Ko‘rinadiki qushlar ruhning ramzi bo‘lib kelgan[1]. Masalan, ***burgut*** obrazi orqali matnda jasorat, yuksaklik va yengilmas kuch kabi konseptual tushunchalar ifodalanadi. Shu bois o‘zbek dostonlaridagi ornitonimlarning lingvistik tabiati va ularning badiiy matndagi majoziy interpretatsiyasi xalq og‘zaki ijodining milliy-madaniy kognitiv xususiyatlarini ochib beruvchi muhim obyekt sanaladi. Masalan:

*Men **kabutar** bo‘lsam, ul bir **burgutdir,***
Men mushtipar bo‘lsa ul bir yigitdir. («Malikayi ayyor»).

Ushbu parchada kabutar va burgut ornitonimlarining o‘zaro zidlanishi an’anaviy lisoniy simvolizmdan badiiy psixologizm usuliga o‘tishning yorqin namunasi bo‘lib, matnda personajlarning ijtimoiy-psixologik statusini modellashtirishga xizmat qiladi. Adresantning o‘zini kabutar bilan qiyoslashi kontekstual semantikada ojizlik, ijtimoiy subordinatsiya (bo‘ysunish) va himoyaga muhtojlik kabi konnotativ ma’nolarni faollashtirsa, burgut obrazi ushbu munosabatning qutbiy muqobili sifatida mutlaq qudrat, mardlik va yuksaklikni ifodalovchi lingvokulturema

[1] Usmanova Sh. Lingvokultrologiya. – Toshkent: 2019. – B. 155.

vazifasini o‘taydi. Bu yerda ornitonimik antiteza *«kabutar – mushtipar»* va *«burgut – yigit»* zanjiri orqali parallelizm hosil qilib, qahramon xarakteridagi irodaviy va ijtimoiy tafovutni maksimal darajada kontrastlashtiradi, natijada qush nomlari nominativ ma’no qobig‘idan chiqib, insoniy xislatlarni tipizatsiyalashgan holda ifodalovchi murakkab kognitiv metaforalarga aylanadi va boshqa ko‘pgina xalqlarda kabutarlar ruh bilan birlashtiruvchi[1] qush ramzini ifodalaydi.

O‘zbek xalq dostonlarida bulbul ornitonimi estetik ideal va lirik kechinmalarning semantik markazi bo‘lib xizmat qiladi. Matnda ishqiy-psixologik holatlarni simvollashtiruvchi asosiy lingvokulturema vazifasini bajaradi. Epik tasvirlarda bulbul obrazi o‘zining an’anaviy biologik nominatsiyasidan transsendent (g‘ayritabiiy) darajaga ko‘tarilib, oshiqning ruhiy iztiroblari, sadoqati va hissiy nafosatini ifodalovchi antropomorfik metaforaga aylanadi. Xalq tafakkuridagi mifik-estetik qarashlar natijasida ushbu qush nomi badiiy matnda lirik qahramonning ichki dunyosini ochib beruvchi kognitiv vosita sifatida barqarorlashgan bo‘lib, u doston poetikasida go‘zallik va ilohiy ishq konseptlarini umumlashtiruvchi ma’naviy-semantik yukni tashishga xizmat qiladi.

Tuyg‘unday surating, lochin yurakli,
Sherdayin hayqirgan, arslon bilakli.
Ot chopilar baland tog‘ning pastidan… («Kuntug‘mish», 15-b.)

Kuntug‘mish dostonidan olingan ushbu parchada ornitonimlardan mohirona foydalangan holda majoziy ma’no ifodalangan. «Tuyg‘unday sur’ating» misrasida qahramonning harakati yirtqich qush – tuyg‘un bilan qiyoslanib, uning nihoyatda tezkor, epchil, va ziyrak chaqqon ekani ta’kidlanadi. Bu o‘xshatish oddiy tezlikni emas, balki tabiiy instinktga asoslangan chaqqonlikni ham anglatadi. Keyingi «lochin yurakli» ifodasida esa lochin obrazi orqali qahramonning ichki dunyosi, ya’ni yuragi ochib beriladi. Lochin – jasorat, qo‘rqmaslik va balandparvozlik timsoli bo‘lgani uchun bu yerda qahramonning mard, dovyurak va qat’iyatli ekani ramziy tarzda ifodalanadi. Shu tariqa, ornitonimlar nafaqat tashqi harakatni, balki ichki ruhiy holatni ham ochib berishga xizmat qiladi.

Burgut turkiy xalqlarda umumlashma mental xarakter kasb etib, ko‘k turklar davrida va uyg‘urlarda hukmdor va beklarning himoyachi ruhi va huquqiy ramzi hisoblangan. O‘zbek xalq dostonlarida ham hukmdor (podsho)lar uchun ruh va huquq ramzini ifodalovchi o‘rinlar mavjud. Burgutlarning mif va afsonalarda ko‘plab uchrashi o‘rganilgan. Burgut – yirtqich qush. Uni lochin ham deyishadi. U yirtqich qush bo‘lsa-da, xalq ertak va afsonalarida, dostonlarda ko‘proq mardlik, jasurlik va ulug‘vorlik timsollarida epik qahramonga homiy hamroh ko‘rinishida gavdalantiriladi. O‘zbek xalqining lisoniy manzarasida burgut erk, ozodlik timsoli hisoblanadi[2].

O‘zing sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni o‘moqli,
Qarchig‘ay kelbatli, burgut gaboqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli, («Kuntug‘mish», 14- b.)

Ushbu parchada «Qarchig‘ay kelbatli» degan ifodada qahramonning tashqi ko‘rinishi qarchig‘ayga qiyoslanadi. Bilamizki, ***Qarchig‘ay*** yirtqich, hushyor va chaqqon qush sifatida ifodalanadi.Shu bois tanilganligi sababli, bu o‘xshatish orqali qahramonning sergakligi, har qanday vaziyatga tez moslasha olishi va epchil tabiati qahramonga o‘xshatilgan. Bu yerda kelbat faqat tashqi ko‘rinishni emas, balki umumiy salobat va harakatdagi uyg‘unlikni ham anglatadi. Bundan tashqari «burgut gaboqli» birikmasi ham mavjud .Unda esa burgut obrazi yanada chuqurroq majoziy ma’no kasb etadi***. Burgut*** – balandparvozlik, qudrat, hukmronlik va uzoqni ko‘ra bilish timsoli. «Gaboq» (qosh, nigoh) bilan bog‘langan holda ushbu o‘xshatish qahramonning nigohi o‘tkir, fikri teran, irodasi mustahkam ekanini ifodalaydi. U nafaqat jismonan kuchli, balki aqlan ham yetuk, vaziyatni oldindan ko‘ra oladigan yetakchi sifatida tasvirlanadi. Parchaning umumiy mazmuniga qaraganimizda ornitonimlar qahramonning sardorlik fazilatlarini ochishga yordam bergan. U oddiy jangchi emas, balki o‘z xalqiga kerakli bo‘lgan, el-yurtni og‘ir vaziyatga tushganda tayanch bo‘ladigan shaxs sifatida gavdalantirilgan. ***Qarchig‘ay*** va ***burgut*** obrazlari orqali uning hushyorligi, jasorati, uzoqni ko‘ra bilishi va yetakchilik qobiliyati uyg‘un holda ifodalanib, epik qahramonning mukammal siymosi yaratiladi. Demak, bu o‘rinda ornitonimlar qahramonning tashqi ko‘rinishi bilan birga ichki salohiyatini ham ochib beruvchi muhim majoziy ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan.

Qirgin qizi gulday jaynab,
Hammasi suqsurday bo‘ylab*,*
O‘z zulfiman o‘zi o‘ynab,
Xolbeka chiqdi ko‘shkiga. («Kuntug‘mish», 28- b.)

Quyidagi misralar orqali unda ornitonimlar ayol go‘zalligini ifodalashda muhim badiiy vosita sifatida bo‘lib kelgan. «Hammasi suqsurday bo‘ylab» misrasida qizlarning qaddi-qomati suqsur qushiga qiyoslanadi. ***Suqsur –*** odatda nozik, chiroyli va o‘ziga xos nazokat bilan ajralib turadigan qush sifatida tasvirlanadi. Ushu o‘xshatish orqali qizlarning bo‘yi

[1] Мифы народов мира. Энциклопедия. Электронное издание. Советская Энциклопедия. – М.: 2008. – С.367.
[2] Бахронова Д.К. Олам манзарасияинг миллий-маданий ва лингвокогнитив категорияланиши. – Т.: Turon iqbol, 2021. – Б. 176.

kelishgan, qaddi tik, harakati esa latofatga boy ekani majoziy tarzda gavdalantirilgan. Bu yerda ornitonim tashqi go‘zallikni tasvirlash bilan bir qatorda umumiy estetik ko‘rinishni ham bergan. «Qirgin qizi gulday jaynab» birikmalari orqali yanada tasvir vositasi, suqsur obrazi orqali doston tilida ayol go‘zalligi ideal darajaga ko‘tarilib, poetik tasvirning nafisligi va badiiy ta’sir kuchini kuchaytirib bergan.

O‘zi sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni o‘moqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,
Qarchig‘ay kelbatli, burgut gaboqli,
Yigitning lochinin ko‘rdim, buvushim. («Kuntug‘mish», 30-b.)

Ushbu parchada esa qahramon siymosi epik ruhda yuksak darajada ideallashtirilib, ayniqsa ornitonimlar orqali uning jismoniy va ruhiy fazilatlari chuqur majoziy ma’noda ochib beriladi. «***Qarchig‘ay kelbatli***» ifodasida yigitning tashqi qiyofasi qarchig‘ayga qiyoslanib, uning sergak, epchil va har qanday vaziyatga tayyor turadigan tabiatini anglatadi. Bu o‘xshatish orqali qahramonning nafaqat ko‘rinishi, balki ichki hushyorligi va jangovar shayligi ham sezdiriladi. «Burgut gaboqli» birikmasida esa burgut obrazi orqali uning nigohi o‘tkir, qarashi salobatli va fikri teran ekani ifodalanadi. Burgut timsoli bu yerda hukmronlik, qudrat va baland maqom ramzi sifatida xizmat qilib, qahramonni oddiy inson darajasidan yuqoriga ko‘taradi.Eng muhim jihatlardan biri «yigitning lochini» iborasida mujassam. Bu yerda lochin bevosita qush nomi sifatida emas, balki yigitning eng yaqin, ishonchli, jasur va suyukli timsoli sifatida qo‘llangan. O‘zbek epik an’analarida «lochin» ko‘pincha mard yigitga yoki uning sodiq yoriga nisbatan ishlatiladi, shu sababli bu ifoda qahramonning qadrli, el orasida tan olingan va alohida e’tiborga loyiq shaxs ekanini bildiradi. Shu tariqa, lochin obrazi orqali uning jasorati bilan birga qadr-qimmati va yaqinligi ham ifodalanadi.

Go‘ro‘g‘libek tutab ketdi. Avazxonga arab: – Turabor haromi, sen qayerda ***lochin bo‘lding****, Hasan-xon anday qilib* ***quzg‘un bo‘lib qoldi****? Sen Hasandan ortiq emassan-ku! Hali Hasanxon sendan kam bo‘ldimi? – deb Go‘ro‘g‘libekning shomurti shopday, har urti bir katta qopday bo‘lib, qovog‘ini uyib,o‘g‘lidan ko‘ngli qolib, Avazxonning ko‘nglini oldirib: - Gap shunday bo‘larmi? Bizning sovchi bo‘lganimiz ayb bo‘libdimi?* («Kuntug‘mish», 171-b.)

Ushbu parchada ornitonimlar orqali obrazlar o‘rtasidagi keskinlik, baho va munosabatlar juda ta’sirchan tarzda ifodalangan. Go‘ro‘g‘libekning Avazxonga qarata aytgan gaplarida «lochin» va «quzg‘un» obrazlari qarama-qarshi qo‘yilib, ular orqali ikki xil xarakter va maqom ochib beriladi. Lochin odatda epik an’analarda jasorat, mardlik, balandparvozlik va saralanganlik timsoli hisoblanadi. Shu sababli «sen qayerda lochin bo‘lding» degan kinoyali savol orqali Avazxonning o‘zini yuqori tutishi, o‘zini ortiqcha baholashi tanqid qilinadi. Ya’ni u hali lochinga xos darajaga yetmagan, degan ma’no yashirin tarzda ifodalanadi.Bunga qarama-qarshi tarzda «Hasanxon anday qilib quzg‘un bo‘lib qoldi» deyilishi yanada chuqurroq majoziy mazmun kasb etadi. Quzg‘un obrazi odatda pastlik, ojizlik yoki nojo‘ya holat ramzi sifatida qo‘llanadi. Bu yerda Hasanxonning ahvoli og‘irlashgani, uning qadri tushgandek tasvirlanadi va shu orqali Avazxon bilan solishtirish kuchaytiriladi. Natijada lochin va quzg‘un obrazlari o‘rtasidagi keskin kontrast qahramonlarning ijtimoiy va axloqiy bahosini aniq ko‘rsatib beradi.Parchada ornitonimlar nafaqat tashqi sifatlarni, balki ichki holat va ijtimoiy mavqeni ham ifodalashga xizmat qilgan. Go‘ro‘g‘libekning g‘azabi, ranjishi va noroziligi aynan shu ramziy obrazlar orqali kuchaytiriladi. U o‘g‘lining harakatidan ko‘ngli qolganini oddiy so‘z bilan emas, balki obrazli, keskir va ta’sirchan til orqali bildiradi. Shu tariqa, lochin va quzg‘un ornitonimlari doston tilida qahramonlarga baho berish, ularning darajasini solishtirish va dramatik vaziyatni kuchaytirishda muhim majoziy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Dostonlarda ornitonimlar matnning emotsional-ekspressiv sathini shakllantiruvchi va personajlarning ruhiy-psixologik holatini vizuallashtiruvchi murakkab simvolik apparat hisoblanadi. Epik matn qurilishida qushlar dunyosi inson ichki olamining proyeksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, ***bulbul*** ornitonimi lirik qahramonning ishqiy iztiroblari, evristik sog‘inchi va visolga intilish kabi kechinmalarini ifodalovchi asosiy lingvokulturema bo‘lib xizmat qilsa, uning semantik antitezi sifatida keluvchi ***boyqush (yapaloqqush)*** obrazi vayronalik, ekzistensial yolg‘izlik va tushkunlik kabi salbiy konnotativ semalarni o‘zlashtirgan holda matnning fojiaviy tonalligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ***qaldirg‘och*** ornitonimi xalqning mifik-poetik tafakkurida yangilanish, umid va hayotiy davomiylikni simvollashtiruvchi arxetipik obraz sifatida qatnashib, qahramonning kelajakka bo‘lgan ishonchini va ruhiy tiklanish jarayonlarini «bahor elchisi» tushunchasi orqali badiiy kodlashtiradi. Bunday ornitonimik metaforalar dostonlar tilida qahramonning ruhiy holatini statik tavsiflashdan qochib, uni dinamik, ta’sirchan va xalqning milliy-estetik qarashlariga mos ravishda interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Dostonlarda ornitonimlarning ramziy (simvolik) ma’nosi ham alohida ahamiyatga ega. Ayrim qushlar xalq og‘zaki ijodida qadimdan muayyan tushunchalarning ramzi sifatida shakllangan. Masalan, humo qushi baxt va omad timsoli sifatida talqin etiladi. U kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha inson saodat-

ga erishadi, degan xalqona qarash mavjud. Shuningdek, semurg‘ obrazi ilohiylik, donolik va yetuklik ramzi sifatida qo‘llanadi. Turna esa ayriliq, hijrat va sog‘inchni ifodalovchi obraz sifatida dostonlarda tez-tez uchraydi. Bu ramziy ma’nolar doston matnining mazmunini yanada boyitadi. Ornitonimlar ma’nosiga ko‘ra ijobiy va salbiy guruhlarga ajratilishi ham mumkin. Ijobiy ma’no ega bo‘lgan qushlarga *burgut, humo, bulbul* kabi obrazlar kiradi. Ular asosan *kuch, go‘zallik, baxt* va muhabbatni ifodalaydi. Salbiy ma’noga ega bo‘lgan ornitonimlarga esa qarg‘a va boyqush kabi qushlarni misol qilish mumkin. Ular ko‘pincha yomon xabar, g‘am yoki vayronalikni anglatadi. Bunday qarama-qarshiliklar doston matnida kontrast hosil qilib, badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, ornitonimlarning ma’nosi har doim ham bir xil bo‘lib qolmaydi. Ularning talqini kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan, *boyqush* odatda salbiy ma’noda qo‘llansa-da, ayrim holatlarda u donishmandlik yoki hushyorlik ramzi sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Bu esa doston tilining boyligi va ko‘p qatlamliligidan dalolat beradi.

Ornitonimlar tematik, ya’ni bir mavzuga aloqador bo‘lgan birliklar guruhini ifodalaydi. Har xalqning o‘z madaniyatida qadrlanadigan va o‘sha xalqning lingvomadaniyatida alohida ahamiyat kasb etadigan o‘z qushlari mavjud. O‘zbekistonda eng ko‘p uchraydigan qushlar tabiiyki yaratilayotgan asarlarda dostonlarda o‘z aksini topadi. Xususan, dostonlarda eng ko‘p uchraydigan qushlarimizdan *bulbul, qarg‘a laylak, turna mayna, boyqush,to‘ti,qirg‘ovul, tovuq suqsur,qarchig‘ay* va hokazolarni misol keltirishimiz mumkin. Ornitonimlarni tushuncha sifatida ifoda etishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud: ularning konseptual xususiyatlariga mos keladigan qush nomlari va ularning belgilari, lug‘atlardagi ma’nolaridan kelib chiqqan holda majoziy va estetik xususiyatlarga bo‘lamiz. Bularning barchasi ramziy ma’nodan kelib chiqadi. Mashhur rus tadqiqotchilardan biri Ma Lishining fikriga ko‘ra «Ramz jismoniy va ma’naviy olamlar o‘rtasidagi bo‘shliqni lingvistik belgilar orqali,ya’ni leksik majoziy ma’nolar orqali ko‘prik qiladi»[1].

Dostonlardagi qushlar obrazini ikki guruh asosida tahlil qilish ma’lum samara beradi:

1. Tashqi ko‘rinish.
2. Xulq atvor.

Tashqi ko‘rinishi bu rangi, hajmi va ularning qismlari bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlari hisoblanadi. Ya’ni qushlarining ranglari ham turli xil ma’nolarni anglatadi. Oq, qora, sariq, qizil, ko‘k va boshqalar. ***Oq patli qushlarga*** *oqqush, kaptar, laylak, turna* kabi ijobiy baholanuvchi ma’noga ega bo‘lib rangi orqali soflik bag‘rikenglikni anglatadi. Qora rangdagi qushlar boyo‘g‘li, qarg‘a, boyqush esa qora rangda bo‘lib salbiy baholovchi ma’noga ega. Yorqin ranglardagi qushlar xo‘roz, tovuq, tovush ,qirg‘ovullar esa ko‘pincha takabburlik ma’nolarida kelishi mumkin. Chunki turli xilda kiyingan insonlarni ushbu qushlarga o‘xshatish xalqimiz orasida ko‘plab uchraydi.

Xulq atvor xususiyatlari ularning faoliyati va turmush tarzi ya’ni yakka yoki jamoa bilan yashashi kabi ma’nolarni tushunishimiz mumkin. Qushlarning majoziy tushunchalaridagi har bir guruh o‘zining qadriyatlarga asoslangan xususiyatlariga ega, ular o‘zbek xalqining dunyoqarashining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Masalan, humo qushi baxt davlat ramzi hisoblanib afsonaviy va sehrli kuchga ega deya dostonlarda tasvirlangan yoki samandar qushi haqida turli xil afsonalar mavjud. Ushbu qush vaqti soati kelganda yonib kulga aylanadi va o‘z kulidan qayta tirilishi haqidagi rivoyatlardan boxabarmiz. Shuningdek, oqqushlar sevgi va muhabbat, yaxshilik va poklik ramzi sifatida ifodalanib keladi. Qushlarning hajmi ham ularning xususiyatlardan biridir. Turli qushlar qushlarning o‘ziga xos parvoz xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular turli xil ramziy ma’nolarni ham anglatadi. Masalan, katta qushlar ,kichik qushlar, baland uchadigan qushlar, past uchadigan qushlar. Kichik qushlar – mayna,chumchuq, zog‘cha, bulbul bu kabi ornitonimlar katta qushlar singari baland ucha olmaydi,ammo juda tez ucha oladi. Katta qushlar – qarg‘a, boyo‘g‘li, burgutlar baland uchish xususiyatiga ega. Bu kabi xususiyatlar ornitonimlarda ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qushlar obrazining majoziy ma’nosi va xususiyatlari tadqiq etilgan. Qushlar obrazining xalq dostonlari syujetidagi o‘rni va ularning mifopoetik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek xalqining qadimiy mifologik tasavvurlarini hamda epik an’analarini anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, bir qancha dostonlardan olingan misollar tahlilga tortilgan bo‘lib ularning ramziy ma’nolari yoritilgan.

Resume. This article examines the metaphorical meaning and characteristics of the image of birds in the oral creativity of the Uzbek people. Studying the role of the bird image in the plots of folk epics and their mythopoetic characteristics serves to understand the ancient mythological concepts and epic traditions of the

[1] Ма Лиши. Символизация орнитологических образов в русской лингвокультуре в русской лингвокультур. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М.: 2022. – С. 6.

Uzbek people. Additionally, several examples taken from various epics have been analyzed, illuminating their symbolic meanings.

Резюме. В данной статье исследуется метафорическое значение и особенности образа птиц в устном народном творчестве узбекского народа. Изучение места образа птиц в сюжетах народных эпосов и их мифопоэтических характеристик способствует пониманию древних мифологических представлений узбекского народа и его эпических традиций. Кроме того, примеры, взятые из нескольких эпосов, подвергнуты анализу и раскрыты их символические значения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG'OTIT TURK» VA «QUTADG'U BILIG» ASARLARIDA QORA RANGNING QO'LLANILISHI

Nurmatova Sabrina Jaxongir qizi,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti magistranti

O'zbek tili qadimiy va boy tillardan biri bo'lib, uning shakllanish ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Buning sababi shundaki, u turkiy tillar tarkibiga mansub bo'lib, eramizdan oldingi asrlardayoq muomalada bo'lgan hamda tarixiy yozma yodgorliklar tili sifatida saqlanib qolgan. Til nafaqat ijtimoiy aloqa vositasi, balki xalqning milliy o'zligini, tarixini, urf-odat va an'analarini namoyon qiluvchi birlik sifatida ham qadrli va o'ziga xosdir.

Koloristika rang bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, unda ranglar simvolikasi, mohiyati, tarix va hozirgi kundagi ahamiyati kabi muammolar ko'rib chiqiladi. Tilda rang ifodalovchi so'zlar, jumladan, qora ham nafaqat badiiy asarlar, balki ilmiy asarlar tarkibida ham tilga olingan. Bunday asarlardan dastlabkisi sifatida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobini keltirish mumkin. Asarda ranglar turli xil holatlarni ifodalash uchun qo'llanilgan. Jumladan, qora rang «qara» shaklida keltirilgan bo'lib, she'riy misralar hamda nasriy birliklar tarkibidan o'rin olgan[1]. «Devonu lug'otit turk»da ranglar semantikasi» nomli maqolada esa, asarda berilgan ranglar 17 turga bo'linib, tasnif etilgan. Binobarin, asarda «rang»ning sinonimlari sifatida «o'z» va «menzi» so'zlaridan foydalan»ilgani haqida ham ma'lumot keltirilgan. «O'ngimoq» «rangi ketmoq» ma'nosida hozirgi kunda ham iste'molda bo'lib, asosan, kiyim-kechaklarga nisbatan qo'llaniladi. Asarda «rangsizlanmoq» tushunchasi «anin menzi ag'di» – «uning rangi o'zgardi» tarzida ishlatilgan[2]. Asarda «juvut» so'zi ham rang tushunchasini anglatgan. Bu so'z ranglarning hammasi uchun umumiy nom hisoblanadi. Shu tufayli ba'zi rang ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, birikma holida qo'llanilgan: «qizil juvut – qizil rang», «qara juvut – qora rang», «jashil juvut – yashil rang», «al juvut – malla rang» kabi. Qadimgi turkiy tilda «tu» so'zi ham rangga nisbatan ishlatilgan bo'lib, «tudash» so'zi «rangdosh», «rangi bir xil» ma'nolarini bildirgan[3]. «Devonu lug'otit turk» orqali ajdodlarimiz qanday ranglardan foydalangani haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Masalan, «aj» (to'q sariq rang), «jinkil» (arg'uvon rang), «bo'z» (kulrang), «bajin» (to'q qizil), «qara» (qora), «jashil» (yashil) kabi ranglar belgi-xususiyatni ifodalash uchun qo'llanilgan. Asar orqali, shuningdek, ranglarning darajalanish xususiyatlari haqida, ayniqsa, orttirma daraja faol

[1] Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. III tomlik. I tom. –Toshkent: Fan, 1960. – 138 b.
[2] Ro'ziyeva M.Y. "Devonu lug'otit turk"da ranglar semantikasi// Ilm vaqti jurnali. Volume:4. Issue:4/1. – 69 b.
[3] Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. III tomlik. II tom. –Toshkent: Fan, 1961. – 258 b.

iste'molda bo‘lgani haqida ham bilib olish mumkin. «O‘p//up» – orttirma nisbat belgisi bo‘lib, masalan, «up-o‘roq», ya'ni «juda oq, oppoq» tarzida foydalanilgan. Turkiy tillarda orttirma daraja turli xil usullar bilan yasalgani ma'lum. Bir qancha turkiy tillarda rang bildiruvchi so‘zlarning bosh harfini olib, «b» qo‘shilishi orqali orttirma darajadagi so‘z hosil qilinsa, o‘g‘uzlarda «m»ning qo‘shilishi tufayli orttirma daraja yasalishi misollar orqali bayon etilgan. Masalan, «ko‘m-ko‘k», «sam-sariq» kabi. «To‘m» so‘zi esa, hayvonlar rangini ifodalashda «to‘q» ma'nosini berish uchun so‘zning old tarafidan qo‘shib, birikma holida qo‘llanilgan, masalan, «to‘m qara ot» – «tim qora ot» shaklida[1]. Asarda, shuningdek, she'riy misralar tarkibida ham ranglardan foydalanilgan bo‘lib, ular, asosan, shaxsning tashqi ko‘rinishini tasvirlash uchun ishlatilgan:

Bulnar meni ulas ko‘z,
Qara meniz, qizil jo‘z,
Andin taslar tuka tuz,
Bulnar jana ol qacha[2].

Mazmuni: Suzilgan ko‘zli, qizil yuzida qora xoli bor go‘zal yor lablaridan shirinlik tomayotgandek meni o‘ziga asir qildi.

Qadimgi turkiy xalqlarda oddiy aholi «qara bodun», ya'ni «qora xalq» deyilgan. Erkak va ayol qullarga nisbatan «qaraboshlar» leksemasidan foydalanilgan. Xoqon, ya'ni qabila yoki yurt boshliqlari hamda urug‘ning nomlari bilan birgalikda «qara»ning qo‘llanilishi ismga «buyuk», «ulug‘« ma'nolarini yuklagan, masalan, «qara jig‘ach urug‘i», «Bug‘ra qara xoqon» kabi. «Qora bosmoq» iborasi esa, «bosinqirash, yomon tush ko‘rish» ma'nolarida qo‘llanilgan. Bunday ibora «Kuntug‘mish» dostoni tarkibida ham uchraydi[3].

Oziq-ovqatlar nomlanishida ham ranglardan foydalanilgan bo‘lib, masalan, nonning bir turi «qara etmak» deb nomlangan[4]. Shuningdek, hayvon nomlari, qush nomlari, hasharotlar, daraxt va o‘simlik nomlari, meva nomlari, geografik nomlar, osmon jismlari, qazilma boyliklari, tabiat tasviri va davlat ramzlari nomlanishida ham ranglardan unumli foydalanilgan. Jumladan, «qara orun» «qabr» degani bo‘lib, nomning asl ma'nosi «qorong‘u joy» demakdir. Neftga nisbatan asarda «qara jag‘«, ya'ni «qora yog‘« terminidan foydalanilgan[5]. Hozir ham ushbu yerosti boyligiga nisbatan «qora oltin» deyiladi, bu esa uning rangidan kelib chiqib nomlangan tasviriy ifodadir.

Keldi esin esnaju,
Qasqa tugal usnaju,
Kirdi buzun qasnaju,
Qara bulut ko‘krashur[6].

Ushbu to‘rtlikda tabiat hodisasi tasvirlangan bo‘lib, shovqin-suron bilan kirib kelgan bo‘ron hamda osmonni qora bulut qoplash tasviri berilgan. Dehqon va chorvadorlar esa bundan qayg‘uga tushgan, boisi bunday ob-havo ekinlarga ziyon yetkazishi mumkin. «Qora bulut» tasviri keyinchalik g‘am-tashvish, kulfat ma'nolariga ega bo‘lgan metaforaga aylangan. Shoir va adiblar ham ushbu metaforadan unumli foydalangan: «Shahar osmonida aylangan qora bulutlar tarqab, baayni quyosh chiqadi. Qon, dahshat isi kelib turgan shaharda to‘y-tomosha boshlanib ketadi»[7]. Keltirilgan misolda «qora bulut» metaforik ma'no anglatgan. «Devonu lug‘otit turk»da ham ushbu metaforaga izoh berilgan bo‘lib, uni quyidagi maqoldan anglab olish mumkin:

Qara bulutig‘ jer achar,
Urunch bila yel achar[8].

Maqolda osmonni qoplab olgan qora bulutni faqatgina shamol ketkiza olganidek, amaldorlarga ishi tushgan oddiy xalqning tashvishi arishi uchun pora berish kerakligi kinoya bilan tasvirlangan.

Japatti jashil jash,
Savurdi oruq qash,
Tezildi qara qush,
Tun kun uza jurkanur[9].

Ushbu to‘rtlikda ham tabiat hodisalari ko‘chma ma'noda ranglar orqali tasvirlangan. Alloh osmonni ko‘k rangda qilib yaratdi. Ma'lumki, ko‘k rangi qadimgi turkiy tilda yashil ma'nosida ham kelgan. Shu tufayli parchada «jashil», ya'ni yashil rang osmonning aniqlovchisi sifatida qo‘llangan. Shu osmonni yulduzlar bilan bezadi, ular qora qushlardek tizilib turibdi. Kecha bilan kunduz bir-birining o‘rnini egallaydi. Ko‘rinadiki, oq va qora ranglari kecha va kunduzni anglatib kelgan hamda tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Umuman olganda, asarda rang va uning turlari qadimgi turkiy tilda mufassal bayon etilgan hamda qadimdanoq turkiy xalqlarda ranglarning ahamiyati ancha yuqori bo‘lganligini isbotlaydi. Rang va u bilan

[1] Ro‘ziyeva M.Y. “Devonu lug‘otit turk”da ranglar semantikasi// Ilm vaqti jurnali. Volume: 4. Issue:4/1. -70 b.
[2] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. I tom. – Toshkent: Fan, 1960. -378 b.
[3] Kuntug‘mish. https://mutolaa.com
[4] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. I tom. –Toshkent: Fan, 1960. -366 b.
[5] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. II tom. – Toshkent: Fan, 1960. -386 b.
[6] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. I tom. – Toshkent: Fan, 1960. -276 b.
[7] Xomirzayev Sh. Qil ko‘prik. 57-bet. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. -246 b.
[8] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. II tom. - Toshkent: Fan, 1961. -123b.
[9] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. I tom. - Toshkent: Fan, 1960. -379b.

bog‘liq tushunchalar turli xil so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanilib, o‘ziga xos badiiylik yarata olgan. Ranglarning ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishiga esa, qush va hayvon nomlarining rang terminlari orqali farqlanishi misol bo‘la oladi.

«Qutadg‘u bilig» asari esa ayni shu davrda yaratilgan «Devonu lug‘otit turk»dan farqli o‘laroq, badiiy asar hisoblanadi. Shu sababli unda rang va uning turini anglatuvchi leksemalar, asosan, obrazli shaklda, ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Asar Tavg‘ach Qora Bug‘raxonga bag‘ishlangan. Yuqorida ham ta’kidlab o‘tildiki, antroposentrizmlarga «qora»ning qo‘shib ishlatilishi shaxsning ulug‘lik, buyuklik sifatlariga ega ekaniga ishora qiladi. Ammo asarda «qora» leksemasi, asosan, badiiy tasvir vositasi sifatida xizmat qilgan:

Qo‘shiq aytdi go‘zal kaklik tog‘ ora,
Qizil og‘zi qondek, qoshi qop-qora[1].

Qora rangi mumtoz adabiyotda go‘zallik ramzi sifatida keltiriluvchi qosh, xol, ko‘z kabi leksemalarning aniqlovchisi sifatida xizmat qilgan. Buni XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek shoiralaridan biri hisoblangan Anbar Otin o‘zining ayollarga bag‘ishlangan «Qarolar falsafasi» asarida go‘zallikka ta’rif berib, «Husn bobida eng muqaddam omillar qaroliqdirlarki, go‘zal siymoni asosi qaro qosh-u qaro soch va qaro xol bo‘lur» jumlasini ta’kidlab o‘tadi[2]. Berilgan baytda ham xuddi shu vazifani bajarmoqda.

Tirik oxir o‘lar qora yer quchib,
Nom ezgu esa-chi, ketarmi o‘chib[3]?!

«Qora yer» salbiylik ottenkasiga ega bo‘lgan metafora hisoblanadi. Uning ma’nosi «O‘TIL»da ham izohlangan, «O‘TFL»da esa «qora yer bo‘lmoq», «qora yerga kirmoq» shakllari izohlangan bo‘lib, bular harakat lug‘aviy ma’nosini, ya’ni «o‘lmoq» leksemasini atab keladi[4]. Parchada jamiki tirik jon borki, baribir o‘ladi, agar u yaxshilik bilan nom qoldirgan bo‘lsa, jismoniy jihatdan o‘lik bo‘lsa-da, ma’naviy tomondan tiriklar qatorida eslanishi ta’kidlangan.

Qora boshga yovuz yovdir qizil til,
Ne-ne boshni yedi, yana yegay, bil[5].

Berilgan parchada «qora» va «qizil» ranglari antonim munosabatda bo‘lib, tazodni yuzaga chiqarmoqda. «Qora bosh» birikmasi butun bir shaxsga ishora qilib, snekdoxa usuli orqali ko‘chgan. Adib «qora bosh», ya’ni insonning dushmani uning tilidir, demoqchi.

Tilingdan chiqarma bu yolg‘on so‘zing,
Bu yolg‘on tufayli qoradir yuzing.

«Yuzi qora bo‘lmoq» frazema hisoblanib, uyatli holatda qolmoq, el-yurt ichida sharmanda bo‘lmoq ma’nolarini bildiradi. «O‘TFL»da «nojo‘ya hatti-harakatlari bilan izzat-obro‘sini yo‘qotgan, el-yurt dashnomiga uchragan», deb izohlangan[6]. Ibora parchada yolg‘on gapiruvchi shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, qofiya talabi bilan inversiyaga uchragan.

«Oyto‘ldining dardi og‘irlashdi. Uning o‘limi yaqinlashmoqda. Bu – hammaga ayon. Ammo bu yoqda qolayotgan ko‘zining oq-u qorasi – yakka-yu yagona farzandi haqidagi o‘ylar ota qalbini kemirmoqda». Berilgan parchada ham «qora» leksemasi frazema tarkibida qo‘llanilgan.

Qora tun, yorug‘ kun – bir-biridan yiroq,
Yashil suvga qizil o‘t bo‘lmas qo‘noq[7].

Tunga nisbatan qora deyishlik normal holat hisoblanadi. Ta’kidlanganidek, asar badiiy bo‘lganligi tufayli ranglar, asosan, otlarga qo‘shilib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajargan.

G‘iybat qilishmasin seni xalq ora,
Yaxshi bilgin, noming bo‘lmasin qora[8].

«Nomi qora bo‘lmoq» ham ibora hisoblanib, parchada inversiyaga uchragan holda qo‘llanilgan.

Bulardan bo‘lagi avomdir qora,
Ularga yaxshilik ko‘zi-la qara[9].

«Qora avom» «qora xalq» ma’nosida ishlatiladigan birikma bo‘lib, oddiy, ishsiz va ko‘p hollarda kambag‘al bo‘lgan aholiga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu birikma «Devonu lug‘otit turk»da «qara bodun» shaklida uchraganligini ko‘rib o‘tdik.

«Qora» leksemasi asarda yer, ko‘z, qush, quzg‘un, bosh, osmon, tuman, tun, soch kabilarga qo‘shilib, belgi-xususiyat anglatgan. Bundan tashqari qizil, sariq, oq kabi ranglar ham «Qutadg‘u bilig»da faol qo‘llangan. Asar qadimgi turkiy tilda ranglar mazmuni va ularning milliy-madaniy xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Rang ahamiyatining buyukligini isbotlaydi.

Rezyume. Maqolada «Devonu lug‘otit turk» hamda «Qutadg‘u bilig» asarlarida keltirilgan nomlar atroflicha o‘rganilgan. Ilk turkiy ilmiy asar sifatida baholangan «Devonu lug‘otit turk» asarida keltirilgan ranglar

[1] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -14 b.
[2] Nurmatova S. Qora rang talqini haqida // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya. Ilmiy jurnal. – Toshkent, 2022. №2. – B. 74-78.
[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -20 b.
[4] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologizmlar lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1978. -234 b.
[5] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -37 b.
[6] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologizmlar lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1978. -98 b.
[7] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -79 b.
[8] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -134 b.
[9] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -157 b.

guruhlarga bo‘linib tasnif etilgan. Rang va u bilan bog‘liq atamalar qadimgi turkiy tilda qay tarzda qo‘llanilgani bayon etilgan. «Qutadg‘u bilig» badiiy asar bo‘lgani sababli unda ranglar, asosan, sifatlash yoki metafora hosil qilish uchun qo‘llanganligi misollar orqali asoslab berilgan.

Resume. The article thoroughly examines the names presented in the works «Devonu lug‘otit turk» and «Qutadg‘u bilig». In «Devonu lug‘otit turk», which is regarded as the earliest Turkic scientific work, the colors mentioned are classified into groups. The study explains how colors and related terms were used in the ancient Turkic language. Since «Qutadg‘u bilig» is a literary work, it is demonstrated through examples that colors are mainly used for description or to create metaphors.

Резюме. В статье подробно исследованы названия, приведённые в произведениях «Девону луготит турк» и «Кутадгу билиг». В произведении «Девону луготит турк», которое считается первым тюркским научным трудом, цвета классифицированы по группам. Объясняется, каким образом цвета и связанные с ними термины использовались в древнетюркском языке. Поскольку «Кутадгу билиг» является художественным произведением, на примерах показано, что цвета в нём в основном используются для характеристики или создания метафор.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY DISKURSDA KINOYA NUTQIY AKTINING PRAGMATIK XUSUIYATLARI

Ochilova Muxlisa Abduraxmon qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitet
Lingvistika yo‘nalishi magistranti

Tilga semiotik yondashuvning shakllanishi natijasida tilshunoslikda yangi bir soha pragmalingvistika fani paydo bo‘ldi. «Pragmatika» termini yunoncha so‘z bo‘lib «amaliy ish», «faoliyat» ma’nolarini bildiradi, bu termin fanga semiotika sohasi asoschilari Ch.Morris va S.Pirs tomonidan kiritilgan. Ular lingvosemiotikani 3 ga bo‘lishadi: semantika, sintaktika va pragmatika. Pragmatika – bu lisoniy belgilarning so‘zlovchi tomonidan nutqqa olib kirilishi va undan foydalanish mahoratidir. Pragmalingvistika fani til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanishi, real muloqot vaziyatida ularga yuklanuvchi turli xil ma’nolar, umuman olganda, verbal va noverbal vositalar orqali ifodalangan ma’no va mazmunni tadqiq qiladi.[1]

Pragmalingvistika fanining asosiy o‘rganish obyektlaridan biri nutq aktlari muammolaridir. «Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati»da nutqiy aktga quyidagicha ta’rif beriladi:

«Nutq akti – muloqot jarayonida bajariladigan ijtimoiy funksiyalarga ega bo‘lgan nutq birliklaridir. Ya’ni odamlar so‘zlash orqali nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki iltimos qiladi, salom beradi, ogohlantiradi, maslahat beradi, shikoyat qiladi yoki biror narsaga majbur qiladi.»[2]

O‘zbek tilshunos olimi M.Hakimov esa nutqiy aktga: «So‘zlashuvchilarning nutq vaziyati bilan bog‘liq o‘zaro aloqa-aralashuv jarayonidagi verbal muloqoti»[3], – deya ta’rif beradi.

Demak, nutqiy akt nutq hodisasi bo‘lib, u muloqot jarayonida so‘zlovchi, tinglovchi va nutq vaziyati orqali hosil bo‘ladi. Nutqiy aktlar gap va undan katta birliklar orqali ifodalanadi, uning shakllanishida ver-

[1] Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2020. – B. 6.
[2] Yuldosheva M. Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – N.: 2025. – B. 64.
[3] Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2020. – B. 20.

bal va noverbal vositalar muhim o‘rin tutadi.

Nutqiy aktlar turli xil – tahdid, xabar, buyruq, tabrik, kinoya, maqtov, duo, tilak, qarg‘ish, iltimos, va’da, minnatdorlik, erkalash kabi mazmunlarni ifodalaydi va nutqiy aktga xos eng muhim xususiyatlardan biri – unda mazmunning implitsit shaklda ifodalanishidir. Nutq vaziyati va intonatsiyaga ko‘ra mazmun o‘zgarishi mumkin. Umuman olganda, nutqiy aktlar ifodasi bir tomondan kontekstga, ikkinchi tomondan muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqaga, ularning sotsial maqomiga bog‘liq. Nutqiy aktlarning yuzaga chiqishi uchun muloqotning dialogik va polilogik turlari muhim sanaladi.[1]

Nutqiy akt muammolariga oid dastlabki nazariyalar tilshunos olimlar – V.Gumboldt, Sh.Balli, L.Yakubinskiy, M.Baxtin, E.Benvenist tomonidan ilgari surilgan. J.Ostin va J.Syorl nutqiy akt muammolari bilan alohida shug‘ullanib, nutqiy aktlar nazariyasining asosini yaratdi, nutqiy aktlarni turlarga bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy akt muammolari bilan shug‘ullanish, asosan, Yevropa olimlari ta’sirida XX asrning 90-yillaridan boshlandi. Bu sohada M.Hakimovning «O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini» dissertatsiyasi va «Nutqiy aktlar nazariyasi» o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, M.Qurbonovaning «O‘zbek bolalari nutqining pragmatik xususiyatlari» dissertatsiyasi, M.Nasriddinovning «Buyruq aktining lingvopragmatik xususiyatlari», S.Mo‘minovning «O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari», N.Mahmudovning «Nutqiy aktlar va tilshunoslik: ijtimoiy va madaniy kontekst», N.Qazaqovaning «G‘afur G‘ulom asarlarining pragmalingvistik tadqiqi» kabi ilmiy ishlarini namuna qilib keltirish mumkin.

Nutqiy aktlar so‘zlovchining kommunikativ maqsad yoki niyatini nutqda to‘la aks ettiruvchi hodisadir. Shunday nutqiy aktlardan biri – kinoya. O‘zbek tilida kinoya termini jahon va rus tilidagi ironiya terminiga sinonim tarzda qo‘llaniladi. Avvalo, kinoyaga manbalarda berilgan ta’riflar bilan tanishib chiqamiz. To‘xta Boboyev «Adabiyotshunoslik asoslari» darsligida kinoyaga shunday ta’rif beradi:

«*Kinoya (yunon. eironeia – bilib bilmaslikka olish) – inkorning bir ko‘rinishi bo‘lib, tasvir obyekti ustidan kesatish, qochiriq yo‘li bilan yashirin kulish, piching*»[2].

Professor B.Sarimsoqov va N.Hotamovlarning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati»da ironiyaga quyidagicha ta’rif beriladi:

«*Ironiya (gr. eironeia – bilib bilmaganga olish so‘zidan) – kinoya, qochirim, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’nosi bo‘lishida, haqiqiy ma’no aytilgan so‘z yoki gapning teskari ma’nosi orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi*»[3].

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, ironiya termini bevosita kinoya terminiga sinonim tarzda qo‘llanilgan. Demak, kinoyada ma’no implitsit – yashirin tarzda, nutqda so‘zlarni yoki gaplarni teskari ma’noda qo‘llash orqali ifodalanadi. Kinoyadan asosiy maqsad biror shaxs yoki voqea-hodisa ustidan kulish, tanqid qilish, kesatiq va zaharxanda qilishdir. Kinoya so‘zlashuv va badiiy uslubda keng, publitsistik uslubda nisbatan kamroq qo‘llanadi. Kinoya adresantning dunyoqarashi, bilim darajasi va saviyasini ko‘rsatishda muhim hisoblanadi. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» asarida keltirilgan ushbu jumlalarga diqqat qaratamiz:

«*Kundoshlik orqasida yuz bergan bu jinoyat zamonning nozikligi orqasida olovga tashlangan jizzadek bo‘ldi. Kichkinagina uyezd shahrining kichkina va tor miyali amaldorlari – hammasi askardan yetishgan «azamatlar» – kelishmagan bir tasodifning to‘rt chaqaga arzimagan bu qurbonini zamonning zo‘r qahramoni darajasiga ko‘tarib yubordilar*»[4]. Ushbu nutqiy akt kinoyaviy xarakterda bo‘lib, parchada qo‘llanilgan «azamatlar» so‘zi orqali kinoya mazmuni ifodalanmoqda. «Azamat» so‘ziga «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da quyidagicha ta’rif beriladi:

«Katta *kuch-quvvatga ega; qudratli; Jismonan yetuk; zabardast; G‘ayrat-shijoatli; bahodir, botir*»[5]

Lekin asardan olingan nutqiy parchada bu so‘z butunlay teskari ma’noda qo‘llanmoqda. Buni kontekstdan anglash mumkin, ya’ni so‘zlovchi dastlab amaldorlarni «kichkina va tor miyali» deb ataydi va bunga qo‘shimcha ravishda «hammasi askardan yetishgan «azamatlar» tarzida izoh beradi. Ma’lumki, amaldor inson o‘qimishli, ma’lumotli va aql-farosatli bo‘lishi kerak, chunki u jamiyat hayotida muhim bo‘lgan vazifalarni bajaradi. Lekin bu kichkina uyezd shahrining amaldorlari buning mutlaqo teskarisi – hammasi askarlikdan amaldorlikka o‘tgan, o‘qimagan, tor miyali shaxslar bo‘lib, tasodif tufayli vafot etgan Akbarali voqeasiga siyosiy tus berib, uni zamon qahramoni darajasiga ko‘tarib yuborishadi, vaholanki, o‘limidan bir kun oldin Akbaralining ustidan shikoyat tushib, uni ishdan bo‘shatish masalasi

[1] Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2020. – B. 11.

[2] Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 350.

[3] Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 128.

[4] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 288.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 1-jild. –B. 208.

ko‘rilayotgan edi. Yozuvchi esa mana shu vaziyatni kinoya orqali ifodalab, ularni «azamatlar» deb kesatadi. Kinoya nutqning ta’sirchanligini, emotsional-ekspressivligini ham ta’minlamoqda.

Kinoya masalalari G‘arb ilm-fanida nisbatan keng o‘rganilgan bo‘lib, unga antik davrlardan qiziqish boshlangan. Jumladan, kinoya ilk bor Platon asarlarida qo‘llangan.

Kinoya diskursni shakllantirishda faol qatnashib, subyektning shaxsiy munosabatini ifodalagani tufayli pragmatik yuk hamda stilistik ma’no tashiydi. U diskursda ifoda shakli va ifoda qilinayotgan ma’no o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalash maqsadida ma’noni ko‘chirish yoki so‘zlarni o‘z lug‘aviy ma’nosiga teskari mazmunda qo‘llash orqali yaratiladi.

«*Shunqor Hobil dardga to‘la yuragiga malham izlaganday paypaslanib, qip-qizil sigaret qutisini yana qo‘lga oldi. Shoshilmay chekishdan bir donasini lablariga qistirdi. Otam va Qalqonov muallim bahsni tezroq yakunlashga undaganday ketma-ket, uzun-qisqa homuza tortishdi.*

– Demak, adabiyotning og‘ir yo‘lidan ketibsiz-da, – deb qo‘ydi Ulash aka og‘ziga bir dona sho‘rdanakni tashlab, qars-qurs chaqar ekan».[1]

Luqmon Bo‘rixonning «Jaziramadagi odamlar» romanidan olingan yuqoridagi nutqiy aktda qo‘llangan kinoyaning mazmuni shundan iboratki, Shunqor Hobil o‘zini adabiyotning fidoyisi, buyuk yozuvchi, dunyoda undan boshqa iste’dodli adib yo‘q, boshqa yozuvchilar oson yo‘lni tanlashgan, u esa og‘ir mavzularda ijod qiladi deb hisoblaydi. Uning o‘zini maqtashini eshitaverib ensasi qotgan tinglovchilardan Ulash aka «Demak, adabiyotning og‘ir yo‘lidan ketibsiz-da», - deb kinoya qiladi. Ushbu jumlada kinoyani yuzaga chiqishini ta’minlagan unsur bu – «og‘ir yo‘l» so‘z birikmasi bo‘lib, metaforik ma’no ko‘chish yo‘li orqali kinoyaviy mazmun ifodalanmoqda. Shuningdek, keltirilgan nutqiy vaziyatda noverbal vositalar – og‘ziga bir dona sho‘rdanakni tashlab, qars-qurs chaqishi – adresantga nisbatan e’tiborsizlik, hurmatsizlik, salbiy munosabatni ifodalamoqda va kommunikativ maqsadning amalga oshishiga xizmat qilmoqda. Quyida yuqorida keltirilgan nutqiy vaziyatning davomini ko‘rib chiqamiz:

Shunqor Hobil «ko‘rib turibsiz-ku» deganday yelka qisib, peshona tirishtirdi. – Shuytib... qo‘ldan kelganicha yozayapmiz, – dedi u birozdan so‘ng chala chekilgan sigaretini tag‘in kuldon piyolaga bosib. – Lekin mashaqqatlarim o‘z mevasini berayapti. Adabiyotimizda urush psixologiyasi yaratildi. Umuman dunyo adabiyotida urush psixologiyasini yarata olgan uchta adib bor, Xeminguey, Tolstoy va men.

– Xayriyat-e, – beixtiyor og‘zidan otilib chiqdi otamning. – Insofi bor jiyanning, anovi ikki dardisarni sherik qilibdi.

Shunqor Hobil mezbonning qochirmasini tuzukroq eshitmay qoldi, shekilli, parishonlik bilan g‘udrandi:

– Ha, shunday, shunday...

Qalqonov muallim va Ulash aka taajjub to‘la ko‘zlari bilan bir-biriga baqraygancha qarab qolishdi. Hatto agronom-shoir hammalarini hang-u-mang qilib tashlagan buyuk da’volar mehmonning og‘zidan chiqqaniga shubhalanganday kishi bilmas xontaxta ostiga ko‘z tashladi.[2]

Yozuvchi o‘ta maqtanchoq: o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib urush psixologiyasini yaratdim deb g‘ururlanadi va o‘zini Tolstoy, Xemingueylar bilan bir qatorga qo‘yadi. Adabiyotga doir bu kabi buyuk da’volarni eshitib turgan adresatlar uning yana ikki adibni sanab o‘tganini eshitib «xayriyat-e, insofi bor jiyanning, anovi ikki dardisarni sherik qilibdi» deya kinoya qiladi. Ya’ni faqat o‘zini maqtamasdan yana ikki kishini qo‘shibdi deb piching qiladi. Vaholanki, u o‘zi bilan bir qatorda sanayotgan adiblar jahon adabiyotining eng mahoratli yozuvchilari bo‘lib, Shunqor Hobilga ularga tenglashishga yo‘l bo‘lsin.

Kulaman qotib-qotib, so‘ng qitmirlik qilaman.

–Sizdan iltimos, domla, Navoiyni uylantiring. Bir qilmagan ishingiz shu qoldi. Tushunaman, tirikchilik, Navoiy ijodi allaqachon tijoratga aylandi. Ammo insof ham qolmabdi sizlarda, shuncha navoiyshunos bo‘lsa-yu, uylantira olmasanglar, bir yetim kabi bilib, bu nima degani? Qanday jamiyatda yashayapmiz? Bir so‘mdan yig‘salaring ham, million bo‘ladi.

Domla o‘ylanib qoladi. Qonagan burnini silaydi. Menga sergak, ko‘z ostidan qarab qo‘yadi. Keyin g‘alati ovozda kulib yuboradi.

–Yo‘q… ha… yo‘q… ha.. ha… to‘g‘ri aytding, shu masalani rektorga aytaman, u ham qarab turmas. Axir bitta katta institutni yeb yotibdi.[3]

J.Jovliyevning «Qo‘rqma» romanida kinoyalar qahramon xarakterini va individual xususiyatlarini, qahramonlar o‘rtasidagi konfliktni ochib berishga xizmat qiladi. Yuqoridagi nutqiy aktda adresant Navoiyning hayotini va ijodini daromad manbayiga aylantirib olgan «domla»siga «Navoiyni uylantiring» deb kinoya qiladi. So‘zlovchi bu gaplarini kulib turib, xuddi xayrixohlik ohangida aytsa-da, uning ostida achchiq zaharxanda yotibdi. Chunki domla va unga o‘xshagan «olim»lar Navoiy hayoti va ijodini tijoratga aylantirib yuborishadi, uni o‘zlari xohlagancha zamonga va mafkuraga moslab talqin qilishadi, hayotini, tarixiy

[1] Luqmon B. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – B. 300.
[2] Luqmon B. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – B. 300.
[3] Jovliyev J. Qo‘rqma. – Toshkent: Asaxiybooks, 2020. – B. 169.

ma’lumotlarni o‘zgartirishadi. Bundan jahli chiqqan so‘zlovchi hech qachon uylanmagan Navoiyni sizlar uylantirib ham qo‘ya olasizlar deb achchiq kinoya qiladi. Ushbu diskursiv vaziyatda kinoya adresantning kommunikativ intensiyasi – yashirin tanqid qilishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida tahlil qilingan parchalardan ko‘rinib turibdiki, kinoya diskursda so‘zlovchining o‘z niyatini implitsit shaklda ifodalashga yordam beradi, nutqning emotsional-ekspressivligini ta’minlaydi. Agar so‘zlovchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrini kinoya qilmasdan oddiy shaklda ifodalasa, undagi ta’sirchanlik, emotsional-ekspressivlik yo‘qolgan bo‘lardi. Shuningdek, kinoya kommunikativ intensiyani amalga oshirishda qo‘llaniladigan nutqiy taktikalardan biri bo‘lib ham xizmat qiladi. Ya’ni nutqiy muloqotda kimnidir ochiqdan ochiq tanqid qilish, aybini aytishdan ko‘ra buni yashirin tarzda kinoya qilib aytish samaraliroq va muloqot ishtirokchilari o‘rtasida konflikt yuzaga kelishini oldini oladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kinoya nutqiy akti so‘zlovching o‘z fikrlarini va shaxsiy munosabatini ifodalashda eng maqbul va samarali vositalardan biri, uni o‘rganish esa shu til egasining dunyoqarashi, fikrlash tarzini o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Resume. This article talks about speech acts, the history and types of their study, calculated from the main objects of pragmalinguistics; the ironic act of speech, which expresses human feelings and personal attitude, its expressive and discursive properties, and the communicative function of irony in artistic discourse.

Резюме. В данной статье рассматриваются речевые акты, история и виды их изучения, исчисляемые из основных объектов прагмалингвистической науки; иронический речевой акт, выражающий человеческие чувства и личностные установки, его выразительные и дискурсивные особенности, а также коммуникативная функция иронии в художественном дискурсе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЭКЗОТИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА КАК МАРКЕР КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ПЕРСОНАЖЕЙ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА Г. ЯХИНОЙ «ЗУЛЕЙХА ОТКРЫВАЕТ ГЛАЗА»)

Рахматуллаева Барно Зафар кизи,
магистрант Ургенчского государственного университета

В современной русскоязычной прозе XXI века наблюдается устойчивый интерес к репрезентации национально-культурной специфики художественного мира, что обусловлено усилением процессов межкультурного взаимодействия и переосмыслением категории идентичности в гуманитарных науках. В этих условиях особую значимость приобретают языковые средства, позволяющие автору передать уникальные черты этнической картины мира, в том числе через систему лексических единиц, маркированных культурной семантикой.

Одним из таких средств выступает экзотическая лексика, под которой понимаются слова и выражения, заимствованные из иной культурно-языковой среды и сохраняющие в структуре художественного текста признаки национальной специфики. Данные единицы выполняют не только номинативную функцию, но и служат важным инструментом актуализации культурных смыслов, способствуя формированию у читателя представления о ценностных установках, традициях и нормах поведения персонажей[1].

Особый интерес представляет функционирование экзотизмов в произведениях современной литературы, где они становятся частью авторской стратегии создания аутентичного художественного пространства. В этом отношении показателен роман *«Зулейха открывает глаза»,* в котором языковая ткань текста насыщена лексемами, отражающими особенности татарской культуры, религиозных представлений и повседневного быта. Использование подобных единиц позволяет не только реконструировать историко-культурный контекст, но и раскрыть внутренний мир героев, их систему ценностей и модели поведения.

Следует отметить, что в современной лингвистике проблема соотношения языка и культуры рассматривается в рамках лингвокультурологического подхода, согласно которому язык выступает как средство хранения и передачи культурной информации[2]. В этом аспекте экзотическая лексика может рассматриваться как один из наиболее ярких маркеров культурной идентичности, поскольку она непосредственно связана с реалиями жизни определённого народа и сохраняет в себе элементы национального мировосприятия.

В связи с этим представляется актуальным обращение к анализу экзотической лексики в художественном тексте с целью выявления её функционально-семантических особенностей и определения её роли в формировании культурной идентичности персонажей.

Продолжая рассмотрение роли языковых средств в репрезентации культурной специфики художественного текста, следует подчеркнуть, что экзотическая лексика в структуре произведения выполняет не только описательную, но и концептуально значимую функцию. Она формирует особое семантическое пространство, в рамках которого происходит осмысление культурной принадлежности персонажей и их включённости в определённую систему традиций и ценностей.

В этой связи представляется целесообразным обратиться к анализу конкретных лексических единиц, функционирующих в тексте романа *«Зулейха открывает глаза»,* с целью выявления их семантической структуры, особенностей употребления и роли в формировании культурной идентичности героев.

К числу таких единиц можно отнести слова: *аул, мулла, никах, сабантуй, тюбетейка, кумыс* и др. Указанные лексемы охватывают различные сферы жизни персонажей – пространственную организацию *(аул)*, религиозную практику *(мулла, никах)*, элементы традиционной культуры *(сабан-*

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 45–47.
[2] Елена Самойловна Кубрякова Е. С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический факультет МГУ, 1996. – С. 90–93.

туй), а также предметно-бытовую сферу *(тюбетейка, кумыс)*. Их функционирование в тексте позволяет реконструировать целостную картину национального мира, представленную через призму индивидуального восприятия героев.

Следует отметить, что данные единицы обладают ярко выраженной культурной маркированностью и, как правило, не имеют точных эквивалентов в русском языке, что обусловливает необходимость их интерпретации в контексте художественного произведения[1]. В этом аспекте экзотизмы выступают в качестве своеобразных «носителей культуры», передающих специфические реалии жизни народа и закрепляющих их в языковом сознании читателя.

Кроме того, использование экзотической лексики способствует созданию эффекта аутентичности и усиливает выразительность художественного текста. Как отмечает В. Н. Телия, культурно маркированные единицы языка выполняют функцию «свернутых текстов культуры», в которых концентрируется коллективный опыт и ценностные представления народа[2]. В связи с этим анализ экзотизмов позволяет выйти за рамки чисто лексического описания и перейти к интерпретации более глубоких смысловых и культурных структур.

Таким образом, обращение к конкретным лексическим единицам в рамках данного исследования обусловлено необходимостью выявления их функциональной нагрузки в художественном тексте и определения их роли в репрезентации культурной идентичности персонажей, что и составляет основную задачу дальнейшего анализа.

Лексема аул относится к числу экзотизмов, широко представленных в русскоязычной художественной прозе, и обозначает тип традиционного сельского поселения, характерного для тюркских народов. В тексте романа Г. Яхиной «Зулейха открывает глаза» данная единица используется не только в своём прямом номинативном значении, но и приобретает расширенную семантическую нагрузку. В контексте произведения аул Юлбаш выступает как базовая пространственная категория – замкнутый, архаичный хронотоп, в рамках которого жестко детерминировано мировоззрение героев.

Аул предстает не просто как географический объект, но как символ физической и психологической изоляции традиционного мира, подчинённого строгим социальным иерархиям. В начале романа пространство аула предстает перед читателем глухим, утопающим в зимних снегах, где вся жизнь главной героини сводится к обслуживанию жестокого патриархального уклада: угождению мужу Муртазе и деспотичной свекрови Упырихе. Семантический объём слова расширяется: лексема вбирает в себя такие концептуальные признаки, как «покорность», «замкнутость», «несвобода» и «цикличность тяжелого быта». В этом смысле аул выступает в роли концептуального ядра, через которое раскрывается исходная, подавленная идентичность Зулейхи.

Включение лексемы аул в русскоязычный текст актуализирует прагматический аспект: читатель сталкивается с эффектом культурной дистанции, погружаясь во вторичную языковую картину мира (по В. Г. Костомарову). Таким образом, экзотизм аул выполняет важнейшую характерологическую функцию – он фиксирует начальную точку в эволюции героини. Лишь насильственное разрушение этого пространственного микрокосма (в ходе раскулачивания) парадоксальным образом позволяет Зулейхе выйти за пределы «аульной» парадигмы мышления и начать трудный путь к обретению подлинной личностной идентичности.

Лексема *мулла* относится к религиозно маркированной экзотической лексике и обозначает духовное лицо в мусульманской традиции. В романе Г. Яхиной «Зулейха открывает глаза» данная единица функционирует не просто как номинация социального статуса, а как важнейший маркер сакральной сферы и жесткой системы предписаний, организующей жизнь татарской крестьянки. В сознании главной героини образ *муллы* неразрывно связан с патриархальным давлением и страхом нарушить религиозные догмы.

Интересно, что в художественном мире романа исламская традиция, официальным носителем которой выступает *мулла*, в сознании Зулейхи причудливо переплетается с архаичными языческими верованиями (страхом перед духами, хозяином кладбища и т.д.). Использование лексемы *мулла* актуализирует религиозный компонент культурной идентичности: для ранней Зулейхи мир четко поделен на дозволенное и греховное (харам) именно через призму авторитета духовного лица. Таким образом, этот экзотизм подчеркивает изначальный фатализм героини и её тотальную зависимость от традиционных норм. Это делает её последующую духовную трансформацию в условиях сибирской ссылки – где старые религиозные авторитеты теряют свою власть, а *мулла* остается лишь воспоминанием о прошлой

[1] Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С. 112–115.
[2] Виктор Николаевич Телия В. Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 215–217.

жизни – еще более контрастной и значимой для раскрытия эволюции персонажа.

Лексема *никах* обозначает религиозный обряд заключения брака и выступает в романе важным маркером семейно-бытовой идентичности. Однако в художественном контексте произведения семантика этого экзотизма лишена романтического или праздничного ореола. *Никах* с Муртазой осмысляется в тексте как точка отсчета женской несвободы Зулейхи, закрепляющая её статус бесправной жены и покорной работницы. Семантическая структура слова выходит за пределы обозначения конкретного ритуала: экзотизм символизирует суровую традицию, непререкаемую норму и тяжелое социальное обязательство. Употребление лексемы *никах* позволяет автору показать, как традиционные патриархальные установки изначально нивелируют индивидуальность героини, сводя её идентичность исключительно к функции обслуживания семьи.

В качестве смыслового контраста в романе функционирует лексема сабантуй. Данное слово относится к сфере народной культуры, обозначая традиционный праздник аграрного цикла, и репрезентует светлую, витальную сторону татарского мироощущения. В тексте Г. Яхиной *сабантуй* выступает не просто как этнографическая деталь, а как мощный маркер коллективной культурной памяти. На фоне мрачных событий раскулачивания, долгого пути в теплушках и выживания в суровой сибирской тайге концепт сабантуя (и воспоминания о нем) становится для героев способом сохранения своей этнической принадлежности. Семантические компоненты «общность», «корни» и «праздничность» обретают особую ценность в условиях изгнания.

Таким образом, лексема выполняет функцию актуализации коллективной идентичности, помогая оторванным от родной земли персонажам реконструировать утраченное национальное пространство хотя бы на уровне языка и памяти.

Проведённый анализ экзотической лексики в романе *«Зулейха открывает глаза»* позволяет выявить ряд существенных закономерностей, характеризующих её функционирование в художественном тексте и роль в репрезентации культурной идентичности персонажей.

Прежде всего следует отметить, что экзотизмы в структуре произведения выступают не как изолированные лексические элементы, а как системно организованный пласт, формирующий особое культурно маркированное пространство текста. Каждая из рассмотренных единиц *(аул, мулла, никах, сабантуй и др.)* соотносится с определённой сферой жизни – пространственной, религиозной, семейно-бытовой или культурно-обрядовой, – что позволяет говорить о комплексной репрезентации национальной картины мира.

Во-вторых, данные лексемы характеризуются расширенным семантическим потенциалом. В художественном контексте они выходят за пределы своих словарных значений и приобретают дополнительные смысловые компоненты, связанные с традициями, нормами поведения и ценностными установками. В этом аспекте экзотическая лексика функционирует как носитель культурной информации, обеспечивая связь между языком и системой мировосприятия персонажей[1].

В-третьих, важной особенностью является прагматическая направленность экзотизмов. Их использование способствует созданию эффекта аутентичности, усиливает выразительность текста и формирует у читателя представление о специфике иной культурной среды. Как подчёркивает Ю. С. Степанов, культурно значимые языковые единицы выступают в роли «констант культуры», через которые осуществляется передача коллективного опыта и исторической памяти[2].

Кроме того, анализ показал, что экзотическая лексика выполняет важнейшую функцию динамической индивидуализации персонажа. Через употребление культурно маркированных слов раскрывается не только исходная патриархальная парадигма мышления главной героини, но и прослеживается эволюция её идентичности. Экзотизмы в тексте служат маркерами перехода от тотальной зависимости (где аул, *мулла* и *никах* выступают символами несвободы) к обретению личностной автономии и сохранению коллективной памяти в условиях травматического опыта изгнания (концепт сабантуя).

Таким образом, экзотическая лексика в романе «Зулейха открывает глаза» выполняет многоплановую функцию, объединяя номинативный, семантический и культурологический уровни текста. Она выступает не только средством обозначения татарских реалий, но и ключевым инструментом психологического анализа, обеспечивая глубину и достоверность художественного изображения эволюции личности.

В целом, проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что экзотическая лексика занимает концептуально значимое место в системе художественных средств современной

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 52–55.

[2] Юрий Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 40–42.

русскоязычной прозы. Рассмотренные единицы демонстрируют высокую степень семантической вариативности: от фиксации жестких социальных норм до актуализации спасительной культурной памяти.

Перспективы дальнейшего исследования могут быть связаны с расширением корпуса анализируемых произведений, а также с сопоставительным изучением экзотической лексики в текстах разных авторов и культурных традиций, что позволит углубить понимание механизмов взаимодействия языка и культуры в художественном дискурсе.

Rezyume. Maqolada badiiy matnda qahramonlarning madaniy identitetini ifodalovchi muhim vosita sifatida ekzotik leksika tahlil qilinadi. G. Yaxinaning *«Zulayho ko‘zini ochadi»* romani materialida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi leksik birliklar, jumladan, maishiy hayot, diniy qarashlar va an’analar bilan bog‘liq so‘zlar o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, ekzotizmlar nafaqat nominativ, balki semantik va lingvokulturologik funksiyalarni ham bajaradi hamda qahramonlar dunyoqarashi va identiteti tadrijini ochib berishga xizmat qiladi.

Resume. The article examines exotic vocabulary as an important means of representing the cultural identity of characters in a literary text. Based on Guzel Yakhina’s novel “*Zuleikha Opens Her Eyes*”, the study analyzes lexical units reflecting national and cultural specificity, including elements of everyday life, religious beliefs, and traditions. It is established that exoticisms perform not only nominative, but also semantic and linguocultural functions, contributing to the depiction of the characters’ worldview evolution and the creation of an authentic artistic space.

Резюме. В статье рассматривается экзотическая лексика как важное средство репрезентации культурной идентичности персонажей в художественном тексте. На материале романа Г. Яхиной *«Зулейха открывает глаза»* анализируются лексические единицы, отражающие национально-культурную специфику, включая элементы быта, религиозных представлений и традиций. Установлено, что экзотизмы выполняют не только номинативную, но и семантическую и культурологическую функции, способствуя созданию аутентичного художественного пространства и раскрытию эволюции мировоззрения героев.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA DUOLAR VA OLQISHLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Rustamova Nigora Rustam qizi,
Samarqand davlat universiteti magistranti

Bugungi kunda tilshunoslikka antroposentrik paradigma asosida yondashish tufayli lingvokulturologiya, pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi bir qancha yo'nalishlar tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda va shaxs omili masalasi tadqiqot obyektining markazini tashkil qilmoqda. Ushbu sohalardan biri bo'lgan lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro aloqasidan kelib chiqib, XX asrning oxirlarida alohida fan sifatida shakllana boshladi. Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi[1]. Xalqning milliy xarakteri, mentaliteti, hayot tarzi, dunyoqarashi yaqqol aks etib turuvchi biriklardan biri duolar va olqishlardir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida olqishlar haqida dastlab B.Sarimsoqov so'zning jodu qudratiga asoslangan o'zbek marosim folklori haqida fikr yuritganda ularni uch guruhga bo'lib, shundan uchinchi guruh «Keng ommaviy ijro etiluvchi janrlar»ga olqishlar va qarg'ishlarni kiritadi[2]. Q.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarovlarning «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi» kitobida «olqish» so'zining kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: «…sharaflamoq, yuksaklikka ko'tarmoq, maqtamoq ma'nolarini anglatuvchi qadimgi turkiy «al» fe'li o'zagiga -qi buyruq mayli hamda -(a)sh harakat nomi qo'shimchalarining qo'shilishidan yasalgan»[3]. Oxunjon Safarov o'zining «O'zbek xalq og'zaki ijodi» kitobida olqishlar kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, sog'liq tilash maqsadida aytilishini va shuning uchun janr nomi turkiy tillarda «maqtash», «sarflash», «yaxshi istaklar bildirish» kabi ma'nolarni anglatuvchi qadimgi turkcha «ol» fe'li o'zagiga -»qo'« buyruq mayli hamda -»a(sh)» harakat nomi yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishidan hosil bo'lganligini ta'kidlaydi[4].

Duo arabcha so'zdan olingan bo'lib, iltijo, chaqiriq, da'vat degan ma'noni bildiradi. Duo so'zining semantik ma'nosiga kelsak, 1. Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash; 2. Fotihada o'qiladigan Qur'ondagi sura; 3. Kishining sog'lig'i, o'limi, baxtsizligiga sababchi deb hisoblanuvchi turli yovuz kuchlar, ins-jinslarni qaytarish, kimsani kimsaga isitish va sh.k. uchun azayimxonlar, duoxonlar tomonidan o'qiladigan yoki tumor va sh.k. ga yozib beriladigan matn, xat, [5] yoki Xudoga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar uchun uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarishni so'rash, bunda duo qiluvchi ma'lum bir xatti-harakatni ado etadi(masalan, musulmonlarda ikki qo'lini yuziga tortib fotiha qiladi)[6] kabi ma'nolarga ega. Olqishlar esa: 1.Yaxshilik tilab aytilgan, aytiladigan so'zlar, maqtov, duo. 2. Mamnunlik, tahsin bildiruvchi qarsaklar [7] ma'nosini bildiradi.

O'zbek tilida duolar va olqishlarning turli jihatlari tadqiq qilingan bo'lib, ular quyidagilar: Bazarova M.M. «O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar asosida)», Mirzayeva S.R. «O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati», Niyazova M.X. «Ingliz va o'zbek adabiyotida olqishlarning badiiy-estetik vazifalari tipologiyasi», Qo'chqorov N.N. «O'zbek xalq olqishlarining janr xususiyatlari va badiiyati». Ko'rib turganimizdek, duolar va olqishlar asosan adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, ularni lingvomadaniy jihatdan talqin qilish o'zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biridir. Duolar va olqishlar o'zbek xalqi nutqida eng ko'p qo'llaniluvchi birliklardan bo'lib, ularni dasturxon boshiga o'tirganda, taom tanavvul

[1] Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B, 6
[2] Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – B, 144
[3] Imomov Q., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B, 109
[4] Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B, 156
[5] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME. – B, 665
[6] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME, 2005. – 492 b.
[7] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME. – B, 120

qilib bo‘lingach, xayrli ish boshlashdan oldin, to‘ylarda, marosimlarda, uzoq safarga ketishdan oldin asosan kattalar nutqidan eshitamiz.

O’zbek milliy mentalitetini duo va olqishlarsiz tasavvur etish qiyin. O’zbek madaniyatining har jabhasida duo insonga yo‘ldosh, najot yo‘li, Xudoga ishonish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bularning yaqqol timsoli sifatida o‘zbek to‘y marosimlarini olaylik, sovchi kutishdan tortib to beshik to‘yiga qadar barchasida ikki yoshga baxt tilash, ezgu niyatlar bildirib duo qilish o‘zbek duo madaniyatining naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Sovchi kutish jarayoni qiz tarafning roziligi bilan yakunlansa, ikki yoshning baxt-saodatini tilab duo qilishadi: *Ikki yoshning muhabbatlik, uvalik-juvalik bo‘lishlarig‘a duo qiling‘ach sovchilarg‘a zarrin to‘nlar kiydirildi. Hasanali qutidorga o‘zining minnatdorchiligini aytib tugata olmas, so‘z oralarida uni duolar bilan g‘arq etmakda edi.* (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 25).

Unashtirish, non sindirish kabi marosimlarda ham duo asosiy o‘rin tutadi: *Qani, ilohi omin, ikki yosh qo‘sha qarisin, Ollohu akbar! Yangasi qiz onasi o‘rnida fotiha o‘qidi. Non sindirildi.* (Murod T. Oydinda yurgan odamlar. –B. 10).

O‘zbek madaniyatida kelinni ota uyidan kuzatish marosimi ham alohida ahamiyatga molik. Bunda kelinning otasi yoki yoshi ulug‘ otaxonlar duo berib kelinni kuzatadilar: *Masalan, Mirzakarimboy hayajonli, titroq tovush bilan qiziga fotiha berib, soqolini siladi. Nurini ayollar o‘rtaga olib, boshlariga katta qimmatbaho palak tutdilar.* (Oybek. Qutlug‘ qon.–B. 108);

Kelin to‘ng‘ich jiyan mingashdi. O‘zga bolalar yig‘lab qoldi. Og‘ayni-jamoa hovli yuziga chiqdi. Yoppasiga oq fotiha berdi. Kelin o‘ng taraf hamsoyasi ot yetakladi. (Murod T. Oydinda yurgan odamlar. – B. 27).

Nikoh o‘qilish jarayonida va boshqa to‘y marosimlarida yosh-u qari birday ezgu niyatlar bilan duoga qo‘l ochadi: *Domla alhamdulilloh, alhamdulilloh... bilan nikoh-ni tugatib majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlarig‘a duo boshlanadir, hamma duog‘a qo‘l ko‘tarib, hatto tomdag‘i tomoshachi xotinlarg‘acha «omin»ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonag‘a olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.*(Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 32);

Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da, – deb tevaragiga qarab kulindi va qo‘lini duog‘a ochdi. – Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliqlaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarg‘a tinch va barakatlik umr bersin. Ilohim, taqabbul duo... Hamma duog‘a yuz siypashdilar. (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 180).

Shuningdek, farzand tug‘ilganda, unga atab o‘tkaziladigan udumlarda farzandning baxt-u istiqboli uchun duolar qilinadi: *Hoji kulimsirab qo‘lidag‘i uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi – «Tangalarni o‘zing ol, tillani doyachaga ber!» dedi. Hasanali so‘yinchisini topshirg‘andan so‘ng duog‘a qo‘l ochdi: «Olloh taolo umri bilan bergan bo‘lsin». Shundan keyin xotirjam bo‘lg‘an holda xuftanga ketdilar.* (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B.214);

Lazakat xola oyoq-qo‘llarini pitirlatib yig‘layotgan ukamni chaqqonlik bilan beshikka bog‘ladi-da, duo qildi. – Iloyo umring uzoq bo‘lsin. Baxtli bo‘lgin! Insofli- tovfiqli bo‘l. Mehnatkash bo‘l. (Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – B. 195).

O‘zbek milliy madaniyatida uzoq safarga yo‘l olishdan avval albatta duoga qo‘l ochib safarning bexatar bo‘lishini tilab duolar qilinadi. Bu odatga azaldan safar boshlanishining asosiy qismlaridan biri sifatida qarab kelinadi va ushbu duolar insonlarga safar oldi xotirjamlikni yana ham oshirishga yordam beradi. Quyidagi misollardan buni aniqroq guvohi bo‘lamiz: *Mehri xola xol-xol dog‘ bosgan qo‘lini siltab imo qildi. – Qani, omin! - dedi duoga qo‘l ochib. –Bolamni sizga, sizni Xudoga topshirdim. Oyborib, omon kelinglar. Safarlaring bexatar bo‘lsin, do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin. Iloyo tuproq olsanglar oltin bo‘lsin. Iloyo..* (Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – B. 237);

Qutidor ham ko‘chadan yo‘lakka kirib qizining manglayidan o‘pdi: – Ko‘rishkuncha, qizim. – Xayr, otajon. Yo‘lakka Yusufbek hoji yuzlanib umumiy duog‘a qo‘l ko‘tarildi. Duodan so‘ng Otabek to‘riq yo‘rg‘ani chiqarib qutidorg‘a tutdi … Otabek ham aravaga, Oftob oyim yonig‘a chiqib o‘lturgach, umumiy «Ollohu akbar!» dan so‘ng Hasanali otni yo‘lg‘a soldi. (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 205);

Ikki yarim yil avval mehribon ona uni shaharga uzatadi. Ko‘z yoshlarini quyib, qo‘l ochib duo qilgandan so‘ng, eshikka qadar uzatib qolmaydi, boshiga yaktak yopinib sokin qishloq ko‘chasida uning orqasidan yuradi, go‘yo uning qalbi o‘g‘il bilan birga ketishga intiladi, katta yo‘lgacha kuzatadi, muhabbat bilan, ko‘z yoshlari bilan... (Oybek. Qutlug‘ qon. – B. 200).

Bundan tashqari, kishining vafoti bilan bog‘liq o‘rinlarda duolarning alohida o‘ringa ega ekanligi madaniyatimizning tilda yaqqol aks etib turishidan dalolat beradi. O‘zbek madaniyatida kimsaning vafotini eshitgan inson, hatto uni tanimasa ham, shu zahotiyoq qo‘ilni duoga ochib tilovat qiladi yoki «Oxirati obod bo‘lsin», «Joylari jannatdan bo‘lsin», «Olloh rahmatiga olgan bo‘lsin» deya yuzini siypalaydi. Kishi vafot etganda o‘tkaziladigan marosimlar ham marhumga bag‘ishlangan duolarsiz o‘tmaydi: *Yo‘lchi yoshlikda onasidan o‘rgangan qisqa bir surani o‘z bilganicha qiroat bilan o‘qidi. Hamma qo‘l ochib marhumaning ruhiga bag‘ishladi.* (Oybek. Qutlug‘ qon. – B. 55);

– Dadam o‘lgan, ikki yildan oshdi, chamasi. Mirzakarimboy qo‘llari bilan soqolini yengilgina siypab, marhumga fotiha o‘qigan bo‘ldi. (Oybek. Qutlug‘ qon. – B. 7);

Bismillohu rahmonir rahim, –deb ovozimni Ahmadqul bobomnikiga o‘xshatib chiqardim, – alhamdu lillohi rabbil olamin ar rahmonir rahim, moliki yovmidin, iyoka na’budu va iyoka nasta’in, ixdinas sirotal mustaqima sirotal lazina an amta alayhim g‘aril mag‘zubi alayhiy va lazzolin omin... bismillohir rahmonir rahim, qulhu oblohu ahad, oblohu somad, lam yalid valam yuvlad, valam yakunlahu kufuhan ahad... Buni bir marta o‘qisayam bo‘ladi, enajonim shunday degan. Subiho nika rabbika rabbil izzati ammo yasifun va salomin alar mursalima valhamdullilohu rabbil olamina, oblohu akbar... o‘qigan duomning savobini o‘tgan hamma bobolarimga, hamma enalarimga, otishmada o‘lgan tog‘alarimga, rahmatli otamga bag‘ishladim. Iloyo otamning go‘ri yop-yorug‘ bo‘lsin, tezroq tirilib, uyimizga kelsin, iloyo buvim endi hecham ketib qolmasin, iloyo hammamiz birga yashaylik, oblohu akbar... (To‘xtaboyev X. Jannati odamlar. – B. 101).

Duolar kishilarga ezguliklar tilash bilan bir qatorda yomon niyatdagi kimsalar uchun kishilarning baxtsizligiga ham sababchi bo‘lib qolishi mumkin. Bunda insonlar birovga o‘lim tilab, baxtsizlik tilab yoki kimsani kimsaga isitish, sovutish maqsadida yovuz niyatda duolarni ishlatadilar: *Nikoh kuni Otabekning kiyimlarini juhud domladan o‘qutishlar, marg‘ilonliqdan sovitib toshkandlikka isitishlar – barchasi ham hozir o‘z ajzlarini unga iqror qilar edilar. Keyingi «beshbosh» domlaning bergan tutatqi, ezib ichki, duo va tumorlari ham negadir ta’sir asarini sezdirmadilar...* (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 89);

Oy to‘lmasdan Marg‘ilon qatnab turg‘uchi o‘g‘lini endi uch oylab qo‘zg‘almay qolishi uchun O‘zbek oyim eskicha yana quvonib ketdi. «Keyingi qildirg‘an issig‘-sovug‘im kor qildi shekillik, birato‘lasig‘a Marg‘ilonni tiliga olmayoq qo‘ydi. Endi xotinig‘a isib, mehmonxo-nada yotishni ham barham bersa... har nuchukda duodan qolmayliq», deb *Zaynabni domlanikiga qistar edi.* (Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – B. 162).

Xalqimiz e’tiqodiga ko‘ra, duo inson hayotiga baraka va omad olib keladi, shu sababli duo olish savob hisoblanadi. Bunda ota-ona duosini olish, kattalarning duosini olish, bolalarning duosini olish, beva-bechoralar duosini olish – barchasi o‘ziga xos lingvomadaniy ahamiyatga ega. Shuning uchun xalqimizda yosh-u qarining birday o‘zgalar duosini olishga harakati doimo ko‘rinib turadi: *Beva-bechoralar qo‘liga uch so‘m-uch so‘mdan hayitlik berdi. Otamiz beva-bechoralar duosini oldi. Bekatlarda o‘tirmish xokisor bandalami qutladi, uch so‘m- uch so‘mdan hayitlik berdi. Otamiz xokisorlar duosini oldi. Hovuz bo‘yida g‘uj bo‘lib turmish bolalami ko‘rdi. Bolalar nisholda tevaragida uymalandi. Bildi, bolalaming tangasi yo‘q, bo‘lsa, nisholda olib yeyar edi. Otamiz bolalarga bitta-bittadan nisholda olib berdi. Bolalar nisholda yalay-yalay tarqaldi, otamizga qaray-qaray tarqaldi. Otamiz bolalar duosini oldi*» (Murod T. Oydinda yurgan odamlar. – B. 139);

Murodxonga shuni aytib, jon o‘rtoq, bedanalarni qo‘yib yuboraylik, onalarining oldiga borishsin, bizni duo qilishadi, keyin ikkovimiz ham jannati bo‘lamiz, o‘sha yerda qo‘rg‘oshin quyilgan oshiqlar ham ko‘p bo‘larkan, birga o‘ynab yuramiz degandim, darrov rozi bo‘lib, uylaridan katta qaychi olib chiqdi.» (Jannati odamlar); «Yo‘q, bo‘talog‘im, hammasini ekib ketganim yaxshi. Katta bo‘lsa, meva qiladi, mevasini odamlar yeb sen bilan meni duo qilishadi. – Duo qilishsa nima bo‘ladi? – Savob bo‘ladi-da, buncha ezmalik qilding. (To‘xtaboyev X. Jannati odamlar. – B. 155).

Lingvomadaniy jihatdan olqishlar xalqning dunyoqarashi, urf-odati, qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Xalq og‘zaki ijodida olqishlar ikkiga bo‘lib o‘rganiladi: 1. Kundalik maishiy olqishlar. 2. An’anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlar. Kundalik maishiy olqishlar o‘z ichida yana bir-necha turlarga bo‘linadi: 1. Uchrashuv olqishlari. 2. Dasturxon olqishlari. 3. Biror ish yoki tadbir boshlanishida aytiluvchi olqishlar. Uchrashuv olqishlari insonlar bir-biri bilan ko‘rishganda aytiladigan ezgu tilaklardan iborat bo‘lib, bu olqishlar o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, hurmat va samimiy munosabat kabi qadriyatlarni ifodalaydi: *Nurining qaynanasi goh-goh kelib, Gulnorga boqishar va uni maqtar edi. -Qop-qop oltin-kumush to‘kib olsa, arziydigan qizsan. Ilohim baxtli bo‘l! Onangga, otangga rahmat, senga ish o‘rgayishipti...* (Oybek. Qutlug‘ qon. – B. 177);

Niyat qilgandim, – dedi oyim otin xolaga qarab. – Shuni niyat qilib qo‘yuvdim. – Shunday dedi-yu sekin egilib, kelinning peshonasidan o‘pdi. –Iloyo qo‘sha qaringlar! (Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – B. 172);

Oyimning rangi quv o‘chib ketdi. – Jon ukam, – dedi yalinib. – Iloyo martabangiz bundan ham ulug‘ bo‘lsin. (Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – B. 222).

Dasturxon atrofida aytiladigan olqishlar o‘zbek milliy madaniyatida non-tuzga hurmat, baraka, shukronalik tushunchalarini ifodalaydi va odatda dasturxon boshiga yig‘ilganda va ovqat tugagach kattalar tomonidan aytiladi: *Oxirida Ermon buva dasturxonga fotiha o‘qiydi. - Yaratgan ne’matingga shukr! - deydi ingichka ovozda. - Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bolsin, u dunyo-yu bu dunyo qirg‘inbarot bo‘lmasin, Ollohu akbar* (Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – B. 69).

Biror ish yoki tadbir boshlanishida aytiluvchi olqishlar yaxshi niyat, omad tilash, kelajakdan umid qilish ifodasidir: *Yo‘g‘-e, chollar bor-ku. Qani, Mirza bova! – Qani, ilohi omin, yurtimiz hamisha tinch, obod bo‘lsin, polvonlarimizning beliga quvvat bersin, sochilgan rizq-ro‘zimizni terib yeb, yanagi davralargacha o‘ynab-kulib yuraylik, ollohu akbar!* (Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. – B. 55). Olqishlar insonga faqat yaxshilik tilashdan iborat ulug‘vor, insonparvarlikka targ‘ib va tashviq etuvchi janrdir[1]. Shuningdek, kundalik maishiy olqishlardan tashqari aytim-olqishlar bo‘lib, ular asosan she’riy shaklda bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida qo‘llaniladigan duo va olqishlar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, milliy an’analari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim nutqiy birliklar hisoblanadi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib duolar va olqishlarning xalq turmushida naqadar keng qo‘lanilishini va o‘zida milliy madaniyatimizni namoyon qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan qaralganda, bu birliklar til va madaniyatning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi. Ular turli marosimlar, kundalik muloqot va ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanilib, insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, duo va olqishlar xalqning diniy e’tiqodlari, urf-odatlari hamda milliy mentaliteti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular milliy madaniyatning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvomadaniy tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, duo va olqishlar nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma’naviy merosini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida ham alohida ahamiyatga molik.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan duo va olqishlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada duo va olqishlarning xalq hayotidagi kommunikativ vazifasi, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o‘rni va til birliklari sifatidagi semantik, pragmatik hamda madaniy jihatlari o‘rganiladi. Lingvomadaniy yondashuv asosida bu birliklarning milliy-madaniyat, urf-odat va an’analar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, ularning uchrashuv, dasturxon, marosim va turli ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanishi misollar asosida izohlanadi.

Resume. This article analyzes the linguocultural characteristics of the widely used dua and alqish in the Uzbek language. The article studies the communicative function of dua and alqish in folk life, their role in strengthening social relations between people, and their semantic, pragmatic, and cultural aspects as language units. Based on the linguocultural approach, the inextricable connection of these units with national culture, customs, and traditions is revealed. Also, their use in meetings, dinners, ceremonies, and various social situations is explained based on examples.

Резюме. В данной статье анализируются лингвокультурные характеристики широко используемых дуа и алкиша в узбекском языке. Изучается коммуникативная функция дуа и алкиша в народной жизни, их роль в укреплении социальных связей между людьми, а также их семантические, прагматические и культурные аспекты как языковых единиц. На основе лингвокультурного подхода раскрывается неразрывная связь этих единиц с национальной культурой, обычаями и традициями. Также на примерах объясняется их использование на собраниях, обедах, церемониях и в различных социальных ситуациях.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, olqish, duo, miliy mentalitet, marosim.
Keywords: linguoculturology, alqish, dua, national mentality, ceremony.
Ключевые слова: лингвокультурология, алкиш, дуа, национальная ментальность, церемония.

[1] Qo‘chqorov N. O‘zbek xalq olqishlarining janr xususiyatlari va badiiyati. Nomzodlik dissertatsiyasi, 1994. –B, 11

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

CONCEPTUALIZATION OF LOVE IN UZBEK AND RUSSIAN LITERARY DISCOURSE: A COMPARATIVE COGNITIVE-SEMANTIC AND AXIOLOGICAL ANALYSIS

Abdinazarova Guliston Muzaffar qizi,
Master's student of the Department of Russian and World Literature at Termez State University

Khujanova Ozoda Tojiyevna,
Head of the Department of Russian and World Literature at Termez State University

In modern philology, particularly in cognitive linguistics, linguoculturology, literary conceptology, and comparative literary studies, the study of concepts is regarded as one of the important scholarly directions. A concept is a complex mental unit formed at the intersection of human thought, language, culture, and artistic consciousness. It is not limited to ordinary lexical meaning; rather, it embodies national memory, historical experience, moral criteria, religious-philosophical views, social norms, and systems of aesthetic evaluation. Therefore, concepts in literary works serve as an important source for identifying a nation's worldview, hierarchy of values, and perceptions of the human being[1]. The concept of «love» is considered one of the oldest and most actively functioning concepts in human culture. It is interpreted differently across cultures as a personal experience, spiritual need, moral choice, social relationship, religious-philosophical quest, and aesthetic ideal. In literary works, the theme of love is not limited merely to the depiction of romantic relationships. Through this concept, a writer reveals a person's place in society, moral character, psychological conflicts, attitude toward social norms, and life choices[2]. In recent years, research on conceptual metaphor, emotional vocabulary, axiological connotation, and the cognitive analysis of literary discourse has become increasingly active. This tendency strengthens the need to analyze the concept of «love» not only as a theme or motif, but also as a complex structure consisting of semantic, cognitive, emotional, and value-related layers. Uzbek and Russian literatures provide rich material for observing different artistic models of the concept of «love». In the Uzbek literary tradition, love is often associated with values such as fidelity, devotion, patience, honor, family duty, and spiritual purity. In Russian literature, however, love is more frequently represented in the context of personal freedom, inner suffering, passion, choice, and conflict with society. A comparative study of these two traditions makes it possible to identify both the universal and national features of the concept of love.

The study employs the methods of conceptual analysis, comparative-typological analysis, cognitive-semantic analysis, axiological analysis, and literary text interpretation. Through conceptual analysis, the semantic core, peripheral semes, and associative field of the concept of «love» are identified. The comparative-typological method is used to reveal the common and distinctive features of Uzbek and Russian literary traditions. The cognitive-semantic approach makes it possible to determine the mental structure of the concept, while the axiological approach helps to identify its place within the system of values[3]. Methodologically, the article is structured in three stages. At the first stage, the theoretical foundations of the concept of «love», as well as its emotional, semantic, and axiological components, are examined. At the second stage, the main literary sources from Uzbek and Russian literature are inter-

[1] Lomas T. Etymologies of wellbeing: Exploring the non-English roots of English words used in positive psychology. The Journal of Positive Psychology, 2019. - P. 63.

[2] Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Second edition 2007, 898 p.

[3] National Encyclopedia of Uzbekistan Letter M State Scientific Publishing. – Tashkent: House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2000-2006. – 907 p.

preted from the perspective of the conceptual model. At the third stage, the models of the two literary traditions are systematized through a comparative table and generalizing conclusions. The works of Alisher Navoi and Abdulla Qodiriy's novel *Days Gone By* from Uzbek literature, as well as Alexander Pushkin's novel *Eugene Onegin* and Leo Tolstoy's novel *Anna Karenina* from Russian literature, were selected as the research material. These works were not chosen randomly: they serve as key literary sources demonstrating how the concept of love is interpreted at different historical and aesthetic stages in both literary traditions[1].

The Concept and Its Interpretation in Literary Discourse. In modern humanities, the concept is regarded as one of the main culturally shaped units of human thought. It expresses the complex relationship between language, consciousness, and culture. A concept does not merely denote an object or phenomenon; rather, it embodies its semantic field, evaluation, associative connections, and cultural significance in human consciousness. In literary discourse, the concept appears in an even more complex form. This is because, in a literary text, a concept is revealed not only through words but also through imagery, plot, conflict, composition, the author's position, and the psychology of characters. Therefore, in studying the concept of «love», it is not sufficient to analyze only such lexical units as «love», «affection», «passion», «loyalty», «devotion», «desire», and «suffering». It is also necessary to examine how love is interpreted as a value in artistic reality, what function it performs in the lives of characters, and how it interacts with social norms. The cognitive-semantic approach helps to identify the semantic structure of a concept. Within this approach, a concept is interpreted as a complex structure consisting of central and peripheral semes. The central core of the concept of «love» includes such semes as affection, closeness, tenderness, aspiration, loyalty, and self-sacrifice. Its peripheral layer includes meanings such as separation, jealousy, suffering, social barriers, moral choice, tragedy, and spiritual purification. The axiological approach reveals the value-related aspects of a concept. Love is interpreted in every culture according to certain evaluative criteria. In one literary and cultural system, it may be associated with patience, loyalty, and social responsibility, while in another system, it may be connected with personal freedom, inner passion, and the right to choose. Thus, the concept of «love» has its own specific axiological field in each literary tradition.

The Semantic and Axiological Structure of the Concept of «Love». The concept of «love» is a multilayered semantic unit. Its main semantic core consists of a person's strong affection and aspiration toward another person, divine truth, homeland, family, or a spiritual ideal. In literature, this concept is often manifested through emotional experience, moral trial, life choice, and social conflict. In Uzbek literary thought, the concept of «love» is closely connected with such values as *ishq* (*love)* - passionate or spiritual love, loyalty, devotion, patience, purity, honesty, honor, dignity, and spiritual perfection. In this system, love is interpreted as a force that elevates a person and purifies them spiritually. In classical literature, especially, *love* acquires divine and spiritual meaning. The suffering of the lover is not presented as ordinary personal pain, but as a path toward spiritual perfection. In Russian literary thought, the concept of «love» is associated with such semantic units as *stradaniye* – suffering, *svoboda* – freedom, *vybor* – choice, *strast* – passion, *vina* - guilt, *konflikt* – conflict, and *lichnost* – personality[2]. In Russian literature, love is often depicted as a phenomenon that sharply reveals a person's inner world and places them before psychological and moral choices[3]. In this respect, love acquires an individual-psychological and dramatic character. Thus, although the concept of «love» has a universal human meaning in both literary traditions, its place within the system of values differs. In Uzbek literature, it is more oriented toward moral balance, loyalty, and social responsibility, whereas in Russian literature, it is directed toward personal choice, inner conflict, and psychological suffering.

The Normative-Axiological Model of the Concept of «Love» in Uzbek Literature. In Uzbek literature, the concept of love has a long historical development. In classical literature, the theme of *love* is one of the central artistic and philosophical notions. It is interpreted not merely as human love, but also as a symbol of striving for divine truth, spiritual perfection, and moral purification. This tradition reached a high artistic and philosophical level in the works of Alisher Navoi. In Alisher Navoi's works, *love* is interpreted

[1] Pavenkov O.S. Contemporary linguistic analysis of the concept "love". – ISSN 2308-8079. Studia Humanitatis. 2014. № 4. www.st-hum.ru

[2] Rakhmatullaev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language, Volume 1. University Press. – Tashkent, 2000. – P. 599.

[3] Mamayev Z. et al. Kazakh-Uzbek Literary Relations: History and Specificity of Literary Translation //International Journal of Society, Culture & Language. 2021. – T. 9. – No. 2 (Themed Issue on Modern Realities of National Languages of CIS Countries). -pp. 114-122.

as a spiritual force that elevates a person and frees them from egoism, selfish desire, and the limitations of the material world. In Navoi's interpretation, true love purifies a person, teaches patience, and leads them toward perfection. The image of the lover is often associated with suffering; however, this suffering is not spiritual destruction, but a means of moral and spiritual elevation[1]. Therefore, in Navoi's works, the concept of love is enriched with ethical and philosophical meaning. In Navoi's tradition, the main semantic components of love include *love*, loyalty, patience, self-sacrifice, purity, spiritual aspiration, and perfection. In this approach, love does not remain within the boundaries of personal desire. It becomes a key criterion that defines a person's spiritual character. Thus, in Uzbek classical literature, love is formed on the basis of a normative-axiological model. The main feature of this model is that love, while being an individual feeling, is interpreted in harmony with social and moral norms[2]. The lover's loyalty, patience, and self-sacrifice are evaluated as positive values. Love is not shown as a force that removes a person from social order, but as a force that morally regulates and perfects them. In Uzbek Jadid literature and modern Uzbek literature, the concept of love becomes enriched with social meaning. This feature is clearly observed in the works of Abdulla Qodiriy. In the novel *Days Gone By*, the relationship between Otabek and Kumush presents love at the intersection of personal feeling, family relations, social customs, and historical environment. In this work, love is not merely a personal relationship between two young people, but a complex phenomenon connected with the moral norms, family decisions, and social pressure of traditional society. In Abdulla Qodiriy's interpretation, love reveals the conflict between the desire for personal happiness and social norms. However, this conflict does not appear in the form of sharp individual rebellion, as is often seen in Russian literature; rather, it unfolds within a socio-moral environment. The love of Otabek and Kumush is associated with purity, loyalty, and family values. Their tragic fate shows that personal feeling cannot exist completely apart from the social environment.

The Individual-Psychological and Conflict-Based Model of the Concept of «Love» in Russian Literature. In Russian literature, the concept of «love» is more often interpreted through a person's inner world, psychological experiences, freedom of choice, and conflict with the social environment. In Russian classical literature, love is one of the main factors that deeply reveals human psychology and subjects the character to moral and psychological trials. In the works of Alexander Pushkin, love appears as a multifaceted phenomenon. In the novel *Eugene Onegin*, Tatyana's love is distinguished by sincerity, psychological depth, and moral stability. Tatyana openly expresses her feelings for Onegin, but later she makes a choice between personal feelings and moral duty[3]. Here, love is depicted in connection with inner experience and moral decision-making. In Pushkin's interpretation, love becomes a means of revealing a person's psychological maturity[4]. Through the image of Tatyana, love is shown not merely as passion, but as a complex feeling connected with moral responsibility. Nevertheless, even in this model, love remains at the center as a psychological phenomenon that reveals the inner world of the individual. One of the most intense and dramatic representations of the concept of love in Russian literature can be observed in Leo Tolstoy's novel *Anna Karenina*. In the work, the relationship between Anna and Vronsky reveals the complex nature of love, which is connected with personal passion, social norms, family duty, and inner suffering. Although Anna's love is associated with her desire for personal freedom, this feeling comes into sharp conflict with social norms. In *Anna Karenina*, love is not represented as a stabilizing force, but as a factor that intensifies conflict. Anna cannot hide her feelings, while society does not accept her choice. As a result, love destroys the character's inner psychological balance and leads her to loneliness, guilt, jealousy, and suffering. In this case, love is conceptualized on the basis of an individual-psychological and tragic model[5].

Comparative Analysis of the Concept of «Love» in Uzbek and Russian Literature. A comparative analysis of the concept of «love» in Uzbek and Russian literature makes it possible to identify their common and distinctive features. The common feature is that, in both literary traditions, love is interpreted as an important spiritual and psychological phenomenon in human life. It reveals the characters' personalities, influences the development of the plot, and

[1] The Merriam-Webster dictionary, Newest Edition, 2016 copyright, 425 p. 11. www.etymonline.com

[2] Sobol V. Febris erotica: lovesickness in the Russian literary imagination. – University of Washington Press, 2011.

[3] Rancour-Laferriere D. (ed.). Russian literature and psychoanalysis. – John Benjamins Publishing Company, 2011.

[4] Brankova AM Being a Woman and Russian National Identity: Discourses and Representations Through the Lenses of Russian Conservative and Nationalist Organizations //Post-Soviet Women: New Challenges and Ways to Empowerment. - Cham: Springer International Publishing, 2023. - pp. 159-179.

[5] Scherr BP Discourses of Regulation and Resistance: Censoring Translation in the Stalin and Khrushchev Era Soviet Union. - 2016.

shapes the main ideological and aesthetic content of the work. However, the functional orientation of love differs in the two literatures[1]. In Uzbek literature, love is more closely associated with moral purity, loyalty, patience, and social harmony. In Russian literature, it is expressed through psychological conflict, personal choice, passion, and confrontation with society. In Uzbek literary discourse, the main axiological center of love is formed around the notions of «loyalty» and «devotion.» Here, the value of love is determined by its continuity, purity, and conformity to socio-moral norms. In Russian literary discourse, however, the axiological center of love is more closely connected with the notions of «choice», «suffering», and «personal truth.» In this context, love reveals the individual's inner freedom and psychological complexity[2].

The comparative cognitive-semantic and axiological analysis shows that the concept of «love» functions as an important artistic and cognitive unit in both Uzbek and Russian literary discourse. In Uzbek literature, love is mainly associated with spiritual purity, loyalty, patience, family values, and social responsibility, forming a normative-axiological model. In Russian literature, love is more often represented through inner conflict, personal choice, psychological tension, and confrontation with society, forming an individual-psychological and conflict-based model. Thus, although love is a universal human feeling, its semantic structure and value orientation differ according to national-cultural and literary traditions.

Rezyume: Maqolada o'zbek va rus adabiyotida muhabbat konseptining semantik, kognitiv va aksiologik xususiyatlari qiyosan tahlil qilinadi.

Resume: The article analyzes the semantic, cognitive, and axiological features of love in Uzbek and Russian literature comparatively.

Резюме: В статье сравнительно анализируются семантические, когнитивные и аксиологические особенности любви в узбекской и русской литературе.

[1] Napolitano M. et al. Is a Homosexual (Poet) a Good Citizen? Queer Discourses in Russian Literature and New "Civic Poetry" // Genere, Soggettività, Diritti. – 2023. – T. 9. – P. 71-92.

[2] Sadirova KK, Nauryzbaikyzy G. National Features of Family Discourse: A Comparison of Kazakh, Russian, and English Languages //International Journal of Society, Culture & Language. – 2023. – T. 11. – No. 1. – pp. 61-75.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "TINCHLIK" KONSEPTINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

O'rmonova Durdonaxon Tavakkaljon qizi
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
55-umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi
e-mail: durdonakhonurmonova@gmail.com

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "tinchlik" konsepti lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. "Tinchlik" tushunchasining semantik maydoni, kognitiv modeli hamda emotsional-ekspressiv xususiyatlari o'zbek va ingliz tillari misolida solishtiriladi. Tadqiqot natijasida mazkur konseptning universal va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi.

"Tinchlik" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi talqini insoniyatning eng qadimiy intilishlaridan biri osoyishtalik, barqarorlik va uyg'unlikka bo'lgan ehtiyojning turli madaniyatlarda qanday shakl olishini ko'rsatib beradi. Har ikki tilda bu konsept ijobiy aksiologik mazmunga ega bo'lsa-da, ularning semantik strukturalari, konseptual asoslari, madaniy kodlari va kognitiv metaforalari sezilarli darajada farqlanadi. Tinchlik ingliz madaniyatida ko'proq inson faoliyati natijasi, muvozanatni yaratish yoki saqlab turish jarayoni sifatida idrok etilsa, o'zbek dunyoqarashida u tabiiy holat, Yaratganning in'omi, ruhiy osoyishtalik va ijtimoiy barqarorlikning o'zaro uyg'unligini ifodalab beradi.

"Tinchlik" konseptini o'rganishda muhim jihatlardan biri uning vaqt (temporal) o'lchami bilan bog'liqligi hisoblanadi. Mazkur konsept shu vaqtga qadar turli davrlarda turlicha talqin qilinib kelgan. Masalan, tarixiy jarayonlarda "tinchlik" ko'proq urushning yo'qligi sifatida idrok etilgan bo'lsa, zamonaviy jamiyatda u kengroq ma'noga ega bo'lib, inson huquqlari, psixologik farovonlik va ijtimoiy barqarorlik kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.[1] Bu esa konseptning evolyutsion rivojlanishini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, "tinchlik" pragmatik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida ushbu konsept kommunikativ maqsadga qarab turlicha vazifalarni bajarib keladi. Masalan, siyosiy nutqlarda "tinchlik" auditoriyani ishontirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi. Kundalik muloqotda esa u insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni ifodalash, konfliktlarni yumshatish va ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "tinchlik" interkultural kommunikatsiya jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Turli madaniyat vakillari ushbu tushunchani turlicha qabul qilganligi sababli, muloqot jarayonida noto'g'ri talqinlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois mazkur konseptni chuqur o'rganish madaniyatlararo tushunishni yaxshilashga xizmat qiladi.[2]

"Tinchlik" konseptining yana bir muhim jihati uning verbal va noverbal ifodalanishi hisoblanadi. Til birliklari orqali ifodalangan "tinchlik" tushunchasi bilan bir qatorda, inson xulq-atvori, mimika va ijtimoiy harakatlar orqali ham mazkur konsept aks ettiriladi. Masalan, sokin ohangda gapirish, konfliktlardan qochish, murosaga intilish kabi holatlar ham "tinchlik" konseptining amaliy ko'rinishlari hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda "tinchlik" konsepti global diskurslar doirasida ham keng o'rganilmoqda. Xalqaro siyosiy va ijtimoiy kontekstda bu tushuncha nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatida qaraladi. Bu esa konseptning global miqyosda umumlashgan semantik yadrosi mavjudligini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida konsept tushunchasi inson tafakkuri va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishda muhim o'rin tutadi.[3] Har bir til o'z egalarining dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, "tinchlik" konsepti nafaqat leksik birlik sifatida, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik mazmunni o'zida mujassam etgan murakkab hodisa hisoblanadi. Shuningdek mazkur maqolada ingliz tilidagi "peace" va o'zbek tilidagi "tinchlik" konseptlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) qiyosiy-tahliliy metod:

[1] Coleman, P.T., & Deutsch, M. (2012). The Handbook of Conflict Resolution: Theory and Practice. 3rd ed. San Francisco: Jossey-Bass, 45–48.

[2] Hall, E.T. (1976). Beyond Culture. Garden City, NY: Anchor Press, 60–65.

[3] Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004. – С. 40–45.

2) semantik tahlil:

3) konseptual modellashtirish:

4) lingvomadaniy yondashuv.

“Tinchlik” va “peace” konseptlarining mazmunini aniqlashda aniq til birliklari asosida tahlil o‘tkazildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur konseptlar turli kontekstlarda turlicha semantik yuklama bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *“yurt tinch bo‘lsa – el farovon”* iborasida “tinchlik” konsepti jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Ushbu misolda tinchlik — bu farovonlikka olib keluvchi ijtimoiy holat. Demak, o‘zbek tilida konseptning asosiy semantik markazi jamiyat va jamoaviy barqarorlik bilan bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Ingliz tilidagi *“peace of mind is essential for a happy life”* misolida esa “peace” tushunchasi insonning ichki ruhiy holati bilan bog‘lanadi. Bu yerda konsept tashqi muhit emas, balki shaxsning psixologik muvozanati bilan izohlanadi. Natijada ingliz tilida “peace” konsepti individual-kognitiv xarakterga ega ekanligi kuzatiladi.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi *“oilada tinchlik bo‘lsa, hayot barakali bo‘ladi”* jumlasini ko‘rib chiqamiz. Bu yerda “tinchlik” oilaviy munosabatlarning uyg‘unligi orqali ifodalanib, konseptning mikroijtimoiy darajada ham jamoaviy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa *“find inner peace”* birikmasi orqali konsept shaxsning ichki kechinmalari bilan bog‘lanadi va bu uning introspektiv mohiyatini ochib beradi. O‘zbek tilida “tinchlik” konsepti ko‘proq tashqi ijtimoiy muhit, jamiyat va oila bilan bog‘liq holda konseptuallashadi, ingliz tilida esa “peace” konsepti, asosan, ichki psixologik holat va individual tajriba bilan bog‘liq tarzda shakllanadi.

Natijaviy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har ikki konseptning yadroviy ma’nosi umumiy bo‘lsa-da, ularning real nutqdagi qo‘llanishi va semantik kengayishi milliy-madaniy tafakkur farqlari bilan belgilanadi.

O‘zbek tilida “tinchlik” konsepti *tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, barqarorlik, urushsiz hayot* kabi semantik birliklari orqali ifodalanadi. Bu semantik birliklar ko‘proq ijtimoiy uyg‘unlik va jamiyatdagi muvozanatni ifodalaydi. Ingliz tilida esa “peace” konsepti quyidagi birliklar orqali kengayadi: *peace, harmony, calmness, tranquility, absence of war.* Bu yerda individual psixologik holat (inner peace) ham muhim o‘rin tutadi.

“Tinchlik” konsepti o‘zbek va ingliz til vakillari ongida turlicha modellashtiriladi va quyidagicha tasniflanadi. Umumiy (universal) komponentlar urushning yo‘qligi, xavfsizlik, barqarorlik, ijobiy hayot muhiti hisoblanadi. O‘zbek tiliga xos jihatlar jamoaviy totuvlik, oilaviy birlik, ijtimoiy muvozanat, mahalla va jamiyat qadriyatlari hisoblanadi. Ingliz tiliga xos jihatlar esa individual xotirjamlik (inner peace), shaxsiy erkinlik, psixologik balans kabilarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilida “tinchlik” ko‘pincha *quvonch, minnatdorchilik, osoyishtalik* emotsiyalari bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan: **“Tinchlik bo‘lsa, hamma narsa bor.”** Ingliz tilidagi “peace” konsepti *calmness, relief, spiritual satisfaction* his-tuyg‘ulari bilan ifodalanadi.[1] Masalan: **“Peace of mind is everything.” (Fikr tinchligi bu hamma narsadir.)**

O‘zbek madaniyatida “tinchlik” konseptiga eng oliy qadriyat sifatida qaraladi va bu tushuncha ko‘pincha jamiyat va oila bilan bog‘liq holda talqin qilinib, mustaqillik, barqarorlik va totuvlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ingliz madaniyatida esa “peace” ko‘proq individual darajada muhim hisoblanib, shaxsning ichki holati sifatida keng qo‘llaniladi. Bu esa g‘arb madaniyatidagi individualizm bilan izohlanadi. Har ikki tilda ham tinchlik urushning yo‘qligi sifatida talqin qilinadi va ijobiy qadriyat sifatida baholanadi.

“Tinchlik” konsepti uch asosiy qatlamdan tashkil topadi.[2] Bular quyidagilar:

1) yadro (yadroviy komponent) – urushning yo‘qligi, xavfsizlik, barqarorlik;

2) yaqin periferik qatlam – osoyishtalik, totuvlik, xotirjamlik;

3) uzoq periferik qatlam – madaniy, diniy va individual talqinlar.[3]

Mazkur model konseptning universal va milliy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Tinchlik” konseptining lingvokognitiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha inson ongida murakkab mental struktura sifatida shakllanadi. Bu struktura nafaqat til birliklari orqali, balki insonning hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlari asosida shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, “tinchlik” konsepti inson tafakkurining muhim komponentlaridan biri bo‘lib, u orqali borliqni idrok etish va baholash jarayoni amalga oshadi.

Konseptual tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “tinchlik” tushunchasi har ikki til vakillari ongida o‘ziga xos semantik assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. O‘zbek tilida bu konsept ko‘proq ijtimoiy barqarorlik, jamoaviy totuvlik va oilaviy muhit bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida esa u individual psixologik holat, ichki xotirjamlik va shaxsiy muvozanat bilan chambarchas aloqador tarzda namoyon bo‘ladi. Bu farq til egalarining dunyoqarashi va mentalitetidagi o‘ziga xoslik

[1] Oxford English Dictionary. (2023). Peace. Oxford: Oxford University Press, p 1023

[2] Galtung, J. (1969). Violence, Peace, and Peace Research. Journal of Peace Research, Vol. 6, No. 3, pp. 167–191.

[3] “Lay theories of peace and their influence on policy preference during violent conflict”. PMC (PubMed Central), 2020.

bilan izohlanadi.

Shuningdek, “tinchlik” konsepti aksiologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U har ikki madaniyatda ijobiy qadriyat sifatida baholanadi va inson hayotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Biroq ushbu qadriyatning talqini madaniy kontekstga qarab turlicha ifodalanadi. O‘zbek madaniyatida tinchlik jamiyatning barqarorligi va farovon hayotining asosi sifatida qaralsa, ingliz madaniyatida u ko‘proq shaxsiy erkinlik va ichki uyg‘unlik bilan bog‘lanadi.

Lingvistik jihatdan “tinchlik” konsepti turli frazeologik birliklar va iboralar orqali ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilida “tinchlik bo‘lsa – hayot bor”, “yurt tinch bo‘lsa – el farovon” kabi iboralar mavjud bo‘lib, ular konseptning ijtimoiy xarakterini aks ettirib beradi.[1] Ingliz tilida esa “peace of mind”, “live in peace”, “inner peace” kabi birikmalar keng qo‘llanilib, konseptning individual-psixologik jihatini yoritib beradi.[2]

Mazkur konseptning diskursiv xususiyatlari ham e’tiborga loyiq hisoblanib, turli nutq vaziyatlarida “tinchlik” konsepti turlicha kommunikativ maqsadlarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, siyosiy nutqda u barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash g‘oyasini ifodalasa, diniy matnlarda ruhiy poklik va ilohiy in’om sifatida talqin qilinadi. Kundalik nutqda esa u insonning oddiy osoyishta hayotga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiradi.

Umuman olganda, “tinchlik” konsepti ko‘p qatlamli, ko‘p ma’noli va dinamik xarakterga ega bo‘lib, uning mazmuni vaqt, makon va madaniy muhitga qarab o‘zgarib boradi. Shu sababli mazkur konseptni o‘rganish tilshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishmasida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Lingvomadaniy jihatdan “tinchlik” konsepti har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek xalqining tarixiy hayot tarzida jamoaviylik, qo‘shnichilik va mahalla tizimi muhim o‘rin egallaganligi sababli, “tinchlik” ko‘proq ijtimoiy uyg‘unlik va hamjihatlik bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ingliz tilida esa g‘arbona tafakkur ta’sirida “peace” tushunchasi ko‘proq individga yo‘naltirilgan deb hisoblanadi va insonning ichki ruhiy muvozanati va psixologik barqarorligi bilan izohlab beriladi. Bu esa madaniyatlararo tafovutni yaqqol namoyon etishi mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini chuqurlashtirish shuni ko‘rsatadiki, “tinchlik” konsepti turli diskurslarda turlicha semantik yuklama oladi. Xususan:

a) siyosiy diskursda — barqarorlik va xavfsizlik ramzi;

b) diniy diskursda — ruhiy poklik va ilohiy ne’mat;

c) psixologik diskursda — stressdan xoli holat;

d) kundalik nutqda — oddiy osoyishtalik.[3]

Bu konseptning ko‘p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligini isbotlab beradi.

Xulosa. Tahlillar natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki, “tinchlik” konsepti har ikki tilda umumiy universal xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, uning talqini va semantik kengayishi milliy-madaniy omillar bilan belgilanadi. O‘zbek tilida bu konsept ko‘proq ijtimoiy uyg‘unlik va jamoaviy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida individual psixologik holat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rezyume. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “tinchlik” konsepti lingvokognitiv hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida konseptning semantik maydoni, kognitiv modeli va emotsional-ekspressiv xususiyatlari qiyosiy asosda o‘rganildi. Shuningdek, “tinchlik” va “peace” birliklarining milliy-madaniy talqini hamda ularning konseptual tuzilishi aniqlashtirildi.

Tahlillar natijasida mazkur konsept har ikki til vakillari ongida universal ijobiy qadriyat sifatida shakllangani, biroq uning mazmuni va talqini milliy-madaniy omillar bilan belgilanib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekani aniqlandi. O‘zbek tilida “tinchlik” ko‘proq ijtimoiy uyg‘unlik, jamoaviylik va oilaviy barqarorlik bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida “peace” konsepti individual psixologik holat va ichki xotirjamlik bilan chambarchas aloqadorligi kuzatildi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokognitiv va lingvomadaniy yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Resume. This article analyzes the concept of “peace” in English and Uzbek from a linguistic-cognitive and linguo-cultural perspective. The study examines the semantic field, cognitive model, emotional-expressive features, and national-cultural differences of the concept. The results show that while the concept of “peace” is perceived as a universal positive value in both languages, its semantic expansion and interpretation are

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 112–115.

[2] McCarthy M., O’Dell F. English Idioms in Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – P. 118–120.

[3] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 109–115.

influenced by cultural specifics. In Uzbek, the concept is mainly associated with social harmony, collective values, and family stability, whereas in English it emphasizes individual psychological state and inner calm. The findings provide a theoretical basis for linguistic-cognitive and linguo-cultural research.

Резюме. В данной статье анализируется концепт «мир» в английском и узбекском языках с лингвокогнитивной и лингвокультурной точек зрения. Исследуются семантическое поле, когнитивная модель, эмоционально-экспрессивные особенности и национально-культурные различия концепта. Результаты показывают, что, хотя концепт «мир» воспринимается в обоих языках как универсальная позитивная ценность, его семантическое расширение и интерпретация зависят от культурных особенностей. В узбекском языке концепт преимущественно связан с социальной гармонией, коллективными ценностями и семейной стабильностью, тогда как в английском с индивидуальным психологическим состоянием и внутренним спокойствием. Полученные данные представляют собой теоретическую основу для лингвокогнитивных и лингвокультурных исследований.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QARDOSH XALQLAR DOSTONLARIDA FARZANDSIZLIK MOTIVI

Muhiddinova Badia Muslihiddinovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Axmedova Baxtigul Xaitmurot qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Sam Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti magistranti

Motiv, kengroq ma'noda, madaniy hodisa sifatida folklorga tegishlidir. Folklor olami motivlar bilan ifoda etiladigan cheksiz, motivlar to'plamidan iborat. Motivni folklor syujetining muhim elementi sifatida ajratib ko'rsatgan va motiv nazariyasining asoslarini yaratib bergan A.N.Vaselovskiy davridan buyon folklorshunoslik fani motiv bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirdi. A.N.Vaselovskiy allaqachon motivni syujetni tashkil qiluvchi asosiy unsur sifatida tushungan. Folklorshunos B.N.Putiov esa «Motiv *syujetni vujudga keltiradi, u syujetlar sistemasining elementidir*»[1], - deya ta`rif bergan. Xalq og'zaki ijodi turli xil motivlarga boy bo'lib, shulardan biri farzandsizlik motividir. Turkiy xalqlar mentalitetida farzand avlod davomchisi, oilaning barqarorligi va jamiyatning mustahkamligi ramzi hisoblanadi. Shu sabab farzandsizlik holati ko'p hollarda fojea, sinov yoki ilohiy imtihon sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, xalq dostonlarida farzandsizlik motivi syujetning boshlanish nuqtasi bo'lib, qahramonning tug'ilishi kelajakdagi qahramonliklarga asos vazifasini bajaradi. Quyida turkiy xalqlar dostonlaridagi farzandsizlik motivini qiyoslashga harakat qilamiz.

1. Ota-onaning farzandsizlik holati:

1) O'zbek xalq dostonining gultoji bo'lmish «Alpomish» dostoni Bo'ybo'ri bilan Boysarining to'yda farzandsizligi sabab hurmatsizlikka uchrashi bilan boshlanadi:

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi; osh tortdi, suzgan tovoqni choshlamadi; osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Biylar buning sababini so'rashganda, o'n olti urug' Qo'ng'irot elida payga betdan turib bir chapanitab boyvachchasi aytdi: − Ey, Boybo'ri bilan Boysari! Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?![2]

2) O'zbek qahramonlik dostonlaridan yana biri bo'lmish «Rustamxon» dostonida Oqtosh yurtining hukmdori Sultonxonning uch xotini bo'lsa-da farzandi bo'lmaydi. Bir kuni Sultonxon o'lganidan keyin bu podshohlikning beega qolishini o'ylab, amaldorlarini yig'ib shunday deydi:

Amaldorlar, quloq soling dodima,
Men kuyib yonaman o'z o'tima,
Menda endi biror farzand bo'lmadi,
Endi ega bo'nglar Oqtosh yurtima.
Befarzandman, o'z holimni bilaman,
Podshohlik, davlatni nima qilaman.
Tarki dunyo qilib qalandar bo'lib,
G'arib bo'p qolgan umrim o'tkaraman.[3]

Qirg'iz xalqining qahramonlik eposi «Manas» dostonida Jaqip saltanati ortib, hisobsiz boyib, yoshi ellikga kelsa hamki ikki ayolidan bitta ham farzandi yo'qligi aytiladi. U farzandlilarni ko'rganda o'zidan orlanib, xudoga zorlanib, bo'yniga hurjun ortib, mozorlarga sig'inib otam deb yo'qlaydigan farzand tilashi bayon qilinadi:

Жараткандан көп тилейм,
Менин бала күтөр чамам жок.
Кудайдын кылган ишине
Муну көтөрбөскө чара жок.[4]
Tarjimasi:
Yaratgandan ko'p tiladim,
Farzand ko'rish imkonim yo'q.
Xudoning qilgan bu ishini,
Ko'tarmaslikdan o'zga chora yo'q.

Bu satrlar Jaqibning moddiy boylik va ijtimoiy mavqey farzandning o'rnini to'la qoplay olmasligini

[1] Solijonov Y. Qo'chqarov O'. Adabiyotda motivning o'rganilish tarixi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – № 3. – B. 1018.
[2] Fozil Yo'ldosh o'g'li (aytuvchi). Alpomish: Xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2023. – B. 6 -7.
[3] Fozil Yo'ldosh o'g'li (aytuvchi). Rustamxon: Xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – B. 5.
[4] Саякбай Каралаев варианти. Манас. − Бишкек: Турар, 2010. – Б. 7- 9.

ko‘rsatadi. Shunay kunlarning birida ovuliga yaqin yerdan unga Akimbek deganning Mengdiboy ismli o‘g‘li uchrab, Jaqipdan xafaligining sababini so‘raydi. Unga ham javob qilmay, Jaqip qattiq yig‘lagan holda otini ham bog‘lamay uyiga kiradi. Nima bo‘ldi degan boybichchasi Chiyirdiga xotini tug‘mas, o‘zi quvbosh ekanligidan orlanganini aytib, noroziligini bildirib, uyning to‘riga yotib oladi. Farzandi yo‘qligi sabab u doimiy ruhiy azob, qayg‘u va ichki iztiroblarni boshdan kechiradi: Farzandsizlik − nafaqat shaxsiy muammo, balki ularning jamiyatdagi o‘rni va merosi masalasiga ham ta’sir qiladi.

3) O‘g‘uz turk dostoni «Kitobi Dede Korkut»da Xonlar xoni Bayindirxon yilda bir marta to‘y qilib, O‘g‘uz beklarini mehmon qilardi. Yana to‘y qilib, bir joyga oq o‘tov, boshqa joyga qizil o‘tov, yana bir joyga qora o‘tov tiktirdi. «Kimning o‘g‘il-qizi bo‘lmasa, qora o‘tovga kiriting, ostiga qora kigiz to‘shang, oldiga qora qo‘y yaxnasini qo‘ying, yesa yesin, yemasa, tursin, ketsin»,− dedi. «O‘g‘li borni oq o‘tovga, qizi borni qizil o‘tovga o‘tqazing, o‘g‘il-qizi bo‘lmaganni Alloh Taolo qarg‘agan, biz ham qarg‘aymiz; bilsin»,− dedi. O‘g‘uz beklari birin-ketin kelib, jam bo‘la boshladilar. Dirsaxon degan bekning o‘g‘il-qizi yo‘q edi. U ham qirq yigitini yoniga olib, Bayindirxonning ziyofatiga keladi. Bayindirxonning yigitlari Dirsaxonni qarshiladilar, olib kelib, qora o‘tovga joylashdi. Ostiga qora kigiz to‘shab, oldiga qora qo‘yning yaxnasini qo‘ydi.[1]

4) Bir kuni Ich O‘g‘uz, Dish O‘g‘uz beklari Bayindirxonning suhbatiga taklif etildi. Boybo‘rabek ham Bayindirxoning suhbatiga kelgan edi. Bayindirxonning qarshisida qoragina o‘g‘li Qorabudoqbek suyanib o‘tirgandi. O‘ng tomonidan Qozon o‘g‘li Uruz joy olgan edi. So‘l tomonida Qaziliq Bahodir o‘g‘li bek Yaganak o‘tirdi. Boybo‘rabek bularni ko‘rib, farzandsizligi uchun oh urdi. Aqli boshidan uchib, ho‘ngho‘ng yig‘ladi. Buni ko‘rgan Ulug‘ O‘g‘uzning orqasi, Bayindirxonning kuyovi Salur Qozon yo‘g‘on tizzasi ustiga cho‘kdi. Boybo‘rabekning yuziga boqib, nega yig‘layotganligini so‘radi. Boybo‘rabek aytur: «Xon Qozon, nega yig‘lamay, nega bo‘zlamay? Suyanadigan o‘g‘lim yo‘q, tayanadigan qardoshim yo‘q. Alloh Taolo meni qarg‘agan ko‘rinadi. Beklar, toj-u taxtim uchun yig‘layman. Bir kuni o‘lsam, elimda, yurtimda kimsam qolmaydi».

5) Qirg‘iz dostonlaridan «Eshimkul menen Zuura» dostonida Karmish ismli boyning ikki o‘g‘li bor edi: Eshimkul va Ko‘cho‘rbay. Katta o‘g‘il Eshimkulga Karmish o‘zi xohlab xotin topib berdi va mulkni ularga ajratdi. Kichik o‘g‘il Ko‘cho‘rbay esa boylik va mol-mulkka ega bo‘ldi. Karmishning qariligi yetib, u vafot etdi. Shundan so‘ng, Ko‘cho‘rbay xalq orasida hurmatli boyga aylandi. U uch xotin oldi va ulardan olti farzand ko‘rdi. Katta aka Eshimkul esa turmushdan norozilikda yashardi,Chunku uning farzandi yo‘q edi. Bir kuni Eshimkul va uning xotini Zuura Ko‘cho‘rbayning bir farzandini farzandlikka olib, mehr bilan parvarish qilishga qaror qilishadi, ammo Ko‘cho‘rbay uyidan Eshimkul va Zuurani quvib chiqarib, farzandini bermasligini aytib ularni qattiq xafa qiladi. Bunga chidolmay, Eshimkul va Zuura farzand ko‘rish umidi bilan uzoq safarga otlanadilar.

Балалуу эл той кылат,
Менин баладан багым байланган.
Эл ичинде барбы экен,
Мен сыяктуу зарланган.[2]
Tarjimasi:
Farzandli xalq to‘y qiladi,
Men esa farzand umididaman.
Xalq orasida bormi ekan,
Men kabi azob chekkanlar.
2. Ilohiy tug‘ilish:

1) «Alpomish»da Biylar to‘yda xafa bo‘lishadi va farzand so‘rab Shohimardon pirning ravzasiga borishadi. Olib borgan narz-niyozini shayxlarga berib, ravzada tunab yotishadi. Oradan bir kam qirq kun o‘tganda, ravzadan ularga farzand berilmasligi haqida xabar keladi, ammo biylar yana umid qilib ravzada yotaverishadi. Qirq kundan so‘ng yana ravzadan ovoz kelib, xudo ularga farzand berganligining xabarini beradi. Shunday qilib, ular farzandli bo‘lishadi.

2) Amaldorlar Sultonxonning gaplarini eshitib, o‘zaro maslahat qilib, juma namozidan so‘ng sallasini bo‘yniga solib so‘fi-yu darveshlardan duo tilab tursa olloh farzand berishi mumkinligini aytishadi. Sultonxon shunday qiladi va tez orada o‘rtancha xotini Xuroyim homlador bo‘ladi.

3) Ollohdan farzand tilab ko‘p duo qilingach, bir kuni Jaqip, Chiyirdi va uning ikkinchi ayoli Bakdoolot bir-biriga o‘xshash, hosiyatli tushlar ko‘rishadi. Shu payt Jaqipning bog‘lanmay qolgan otini quvib ketgan Mengdiboy uyiga qaytmaydi. Uning onasi Kanimjan xavotirlanib, uxlab yotgan Jaqipni uyg‘otishni Chiyirdidan talab qiladi. U jahli chiqib: «O‘g‘limni topib ber, agar unga biror narsa bo‘lsa, dunyo molingni ham mensimayman», deya keskin gapiradi. Shundan so‘ng Chiyirdi, Bakdoolot va Jaqip ko‘rgan tushlari haqida gaplashishadi. Chiyirdi yaxshi tushlar alomati sifatida qirq-ellik mol so‘yib, to‘y qilishni taklif etadi. Bakdoolot esa bundan ham ko‘proq – sakson mol so‘yib, katta to‘y berishni aytadi. Jaqip yo‘lda yana Kanimjanga duch keladi. U Jaqipni qattiq koyib, yo‘qolgan bolasini topishni talab qiladi. Shundan

[1] Boboxon Muhammad Sharif (Tarj). Kitobi Dada Qo‘rqut. − Boku: Nusxa, 2022, − B. 49.
[2] Акматалиев А. Эшимкул менен Зуура. – Бишкек: Шам, 2002. − Б. 6.

keyin Jaqip Mengdiboyni izlab yo‘lga tushadi. U Ak-Otok degan joyga yetib borganda, ustiga oq yo‘lbars terisi yopilgan o‘z otini ko‘radi va bolani yirtqich yeb qo‘ygan bo‘lishi mumkin deb qo‘rqadi. Ammo shu payt o‘rmondan Mengdiboy sog‘-salomat chiqib kelib, salom beradi. Mengdiboyning aytishicha, u otning izidan borib, qirq nafar bola bilan uchrashgan va tun bo‘yi ular bilan o‘ynagan. Bolalar o‘zlarini Jaqipning farzandlari deb tanishtirishgan. Ulardan biri yo‘lbarsni o‘ldirib, terisini otning ustiga yopib qo‘yganini ham aytadi. Bu gaplarni eshitganlar hayratda qolishadi. Shu voqealar ketma-ketligi bejiz emasligini anglagan Jaqip katta to‘y uyushtiradi. Oradan ko‘p o‘tmay, Chiyirdi homilador bo‘ladi.

4) «Dede Korkut»da Xafa bo‘lib uyiga qaytgan Dirsaxon xotiniga bo‘lgan voqeani aytadi. Rafiqasi unga shunday maslahat beradi:

Hoy Dirsaxon, menga g‘azab aylama!
Injib, achchiq so‘zlar so‘ylama!
Shartta o‘rningdan turgil!
Ola chodiring yer yuziga tiktirgil!
Otdan ayg‘ir, tuyadan bug‘ro, qo‘ydan qo‘chqor so‘ydirgil!
Ich O‘g‘uz-u, Dish O‘g‘uz beklarini darhol uyga chaqirgil!
Och ko‘rsang, to‘ydir, yalang‘och ko‘rsang, kiydirgil!
Qarzi borni qarzidan qutqargil!
Tepa kabi go‘sht yig‘, ko‘l kabi qimiz sog‘dir!
Katta to‘y qilib, hojat tilagil!
Bo‘lurkim, bir duolining olqishi-la,
Tangri bizga bir botir o‘g‘il berar, − dedi.[1]

Dirsaxon xotinining so‘ziga kirib, katta to‘y berdi, hojat tiladi. Otdan – ayg‘ir, tuyadan – bug‘ro, qo‘ydan – qo‘chqor so‘ydiradi. Ich O‘g‘uz, Dish O‘g‘uz beklarini mehmonga chaqiradi. Och ko‘rsa, to‘ydiradi, yalang‘och ko‘rsa, kiydiradi. Qarzi borni qarzidan qutqaradi. Tog‘day go‘sht yig‘adi, ko‘l kabi qimiz sog‘diradi. Xaloyiq qo‘l ko‘tarib, duo qiladi, hojat tilaydi. Bir duolining duosi ijobat bo‘lib, Alloh Taolo unga zurriyot beradi, xotini homilador bo‘ladi, bir necha vaqtdan keyin bir o‘g‘lon tug‘adi.

5) Ulug‘ O‘g‘uz beklari ko‘kka yuzlangan holda, qo‘l ko‘tarib, ollohdan Boybo‘raga farzand so‘rab duo qiladilar. U zamonlarda beklarning olqishi olqish, qarg‘ishi qarg‘ish edi. Duolari mustajob bo‘lguvchi edi. Beklar duo qilishadi. O‘shandan keyin ancha zamon o‘tib, alloh taolo Boybo‘rabekka bir o‘g‘il beradi.

6) Eshimqul bilan Zuura yurtdagi barcha shayxlar va avliyolarga uzoq yillar davomida xizmat qilishadi. Oxir-oqibat bir tabib bilan uchrashib qolishadi. Tabib ularni davolaydi va natijada Zuura homlador bo‘ladi.

Mazkur maqolada, farzandsizlik motivi avvalo, epik syujetning boshlanish nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Ko‘rib chiqilgan «Alpomish», «Rustamxon», «Manas», «Dede Korkut» hamda «Eshimkul menen Zuura» dostonlarida voqealar aynan ota-onaning farzandsizligi bilan boshlanib, keyingi rivoj uchun asos yaratadi. Bu esa motivning syujetni harakatga keltiruvchi kuch ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, farzandsizlik motivi nafaqat individual fojiaviy holat, balki jamiyatning muhim ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Turkiy xalqlar tafakkurida farzand –avlod davomchisi, oilaning mustahkamligi va ijtimoiy mavqening asosiy belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli farzandsizlik qahramonlar uchun nafaqat ichki iztirob, balki jamiyat oldidagi «kamchilik» sifatida baholanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur motiv ko‘pincha ilohiy sinov sifatida talqin etiladi. Qahramonlar yoki ularning ota-onalari uzoq vaqt sabr qiladi, duo qiladi, sadaqa beradi, xalqqa yaxshilik qiladi yoki muqaddas joylarga borib iltijo qiladi. Natijada farzandning tug‘ilishi mo‘jizaviy tarzda yuz beradi. Bu esa xalq og‘zaki ijodida inson taqdiri ilohiy kuch bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, farzandsizlik motivi orqali epik qahramonning kelajakdagi buyukligi ham oldindan asoslab qo‘yiladi. Ya’ni, qahramon oddiy emas, balki uzoq kutilgan, ilohiy inoyat bilan tug‘ilgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa uning keyingi qahramonliklari va alohida maqomini badiiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Umuman olganda, qardosh xalqlar dostonlaridagi farzandsizlik motivi:

a) sujetni boshlab beruvchi asosiy kompozitsion unsur;
b) ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarning ifodachisi;
c) insoniy iztiroblar va ruhiy kechinmalar tasviri;
d) ilohiy sinov va e’tiqod ramzi:
e) qahramon obrazini ulug‘lash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Mazkur tadqiqot turkiy xalqlar dostonlarida uchraydigan farzandsizlik motivining o‘rni va ahamiyatini qiyosiy asosda tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu motiv ko‘pincha voqealarning boshlanishiga sabab bo‘lib, syujet rivojiga turtki beradi. Farzandsizlik orqali jamiyatdagi qadriyatlar, avlod davomiyligi haqidagi qarashlar va insonning ichki kechinmalari ifodalanadi. Ko‘p hollarda u ilohiy sinov sifatida talqin qilinib, farzand tug‘ilishi duo va mo‘jiza bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan ushbu motiv qahramon obrazini yoritish va asarning umumiy mazmunini ochishda muhim o‘rin tutadi.

[1] Ruzimboyev S.R. Kitobi Dadam Qo‘rqut. – Urganch, 2019. – B. 10-11 b.

Resume. This study examines the role of the childlessness motif in Turkic epics through a comparative approach. The results show that this motif often marks the beginning of the narrative and influences the development of events. It reflects social values, ideas about lineage continuity, and human emotional experiences. In many cases, childlessness is seen as a divine test, and the birth of a child is associated with prayer and miracle. Therefore, this motif plays an important role in shaping the hero's image and conveying the overall meaning of the work.

Резюме. Данное исследование посвящено сравнительному анализу мотива бездетности в тюркских эпосах и его роли в развитии сюжета. Результаты показывают, что этот мотив часто служит началом повествования и определяет дальнейшее развитие событий. Через него раскрываются общественные ценности, представления о продолжении рода и внутренние переживания человека. Бездетность нередко рассматривается как божественное испытание, а рождение ребенка связывается с молитвой и чудом. Таким образом, данный мотив играет важную роль в раскрытии образа героя и общего содержания произведения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PASTISH, PARODIYA, TRAVESTIYA, NAZIRA VA TATABBU'DA INTERTEKSTUAL BIRLIKLARNING IFODALANISH MEXANIZMLARI VA TIPOLOGIK FARQLARI

Raximova Nodira,
Navoiy davlat universiteti
ingliz tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Adabiy matnlarni chuqur tahlil qilishda intertekstuallik nazariyasi muhim o'rin tutadi. Bu nazariya matnlarni mustaqil obyekt sifatida emas, balki boshqa matnlar bilan doimiy muloqotda bo'lgan tizim sifatida tushunishga imkon beradi. Intertekstuallik orqali matn ichidagi boshqa matnlarga ishoralar, alluziyalar, stilistik o'xshashliklar va iqtiboslar aniqlanadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari, avvalo, M.M. Baxtinning dialogizm konsepsiyasiga borib taqaladi. M.M. Baxtin har qanday nutq birligining boshqa nutq va matnlar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab, matnlar o'rtasidagi doimo dialog mavjudligini ilgari suradi.[1] Uning fikriga ko'ra, hech bir matn yakka holda mavjud bo'la olmaydi, balki u oldingi va keyingi matnlar bilan o'zaro aloqada shakllanadi.

Keyinchalik Y. Kristeva ushbu g'oyalarni rivojlantirib, «intertekstuallik» terminini ilmiy muomalaga kiritdi. Y. Kristevaga ko'ra, har bir matn «iqtiboslar mozaikasi» bo'lib, u boshqa matnlarning o'zlashtirilishi va transformatsiyasi natijasida yuzaga keladi.[2] Shu bois, matnni anglash jarayonida uning ichki tuzilishidan tashqari, boshqa matnlar bilan bog'liqligini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Demak, intertekstuallik nazariyasi badiiy matnni ko'p qatlamli, murakkab va o'zaro aloqador tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.[3]

[1] Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1972. – 504 с.
[2] Kristeva Y. Word, Dialogue and Novel // The Kristeva Reader. – New York: Columbia University Press, 1986. – P. 34–61.
[3] Kristeva Y. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – 305 p.

Pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu' esa intertekstuallikning eng muhim va keng qo'llanadigan shakllaridir. Ular orqali adabiyotda mavjud matnlar yangicha kontekstlarda qayta ishlanadi, o'zgartiriladi yoki ma'lum ijtimoiy-siyosiy va madaniy maqsadlar uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, ular bir-biriga o'xshash bo'lishiga qaramay, funskiyasi, maqsadi va uslubiy mexanizmlari jihatdan farq qiladi.

Ushbu maqolada pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu'ning intertekstual birliklarni ifodalash mexanizmlari keng yoritilib, ularning o'ziga xos intertekstual xususiyatlari hamda tipologik farqlari batafsil tahlil qilinadi.

Intertekstuallik nazariyasi birinchi bo'lib Y. Kristeva tomonidan ilgari surilgan bo'lib (1966), u matnlarni boshqa matnlar bilan uzviy bog'liq holda doimiy muloqotda bo'lgan birliklar sifatida ko'radi va ularni «intertekstuallik zanjiri» orqali tahlilga tortadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir yangi matn o'z ichida ilgari mavjud bo'lgan boshqa matnlarning izlarini, iqtiboslarini yoki allyuziyalarini saqlaydi va ular bilan o'zaro muloqotda bo'ladi. Olima intertekstuallikning ochiq semantik maydon hosil qilishiga alohida e'tibor beradi. Shu nuqtai nazardan, matn yaratish jarayoni aslida yangi ma'no ishlab chiqish yoki hosil qilish emas, aksincha mavjud diskurslarni qayta tashkil etish jarayoni sifatida qaraladi.

Y. Kristeva nazariyasining ildizlari M. Baxtinning dialoglik nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Negaki M. Baxtin har bir nutqiy birlikni boshqa nutqlar bilan dialogik munosabatda mavjud bo'ladigan hodisa sifatida izohlaydi. Shu bois intertekstuallik nafaqat stilistik yoki formal o'xshashlik, balki mazmun va ideologik muloqot shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat keyinchalik intertekstual birliklarning funksional va pragmatik tahliliga asos bo'lib xizmat qildi.

Intertekstuallik nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichi G. Genette nomi bilan bog'liq. Olim (1997) intertekstual munosabatlarni kengroq «transtekstual» tushunchasi doirasida ko'rib chiqib, uni bir nechta asosiy turlarga ajratdi: intertekstuallik (iqtibos va ishoralar singari bevosita birliklar), paratekstuallik (sarlavha, izohlar), metatekstuallik (tanqidiy sharh), gipertekstuallik (bir matnning boshqasiga asoslangan holda yaratilishi) va arxitekstuallik (janrga oid munosabatlar).[1] Shu o'rinda gipertekstuallik kategoriyasi doirasida pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu' alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tish lozim, chunki ular manba matnni qayta yozish, transformatsiya qilish va yangi kontekstda talqin etish orqali yuzaga keladi.

Postmodern adabiyotshunoslikda pastish (fransuzcha *pastiche*) tushunchasi alohida tadqiq etilgan hodisalardan biridir. L. Hutcheon (1985) pastishni «tanqidiy masofadan xoli bo'lgan imitatsiya» sifatida talqin qiladi.[2] Uning fikricha, pastishda muallif manba matnni ironiyadan yoki kulgidan foydalanmasdan qayta yaratadi, ya'ni bu jarayon ko'proq estetik hurmat va stilistik o'zlashtirishga asoslanadi. F. Jameson esa pastishni postmodern madaniyatining asosiy belgilaridan biri sifatida ko'rib, uni «quruq imitatsiya» (blank parody) deb ataydi. Uning keltirgan dalillariga qaraganda, pastishda parodiyaga xos tanqidiy keskinlik mavjud emas.[3]

Rus adabiyotshunos olimasi N.T. Paxsaryan «Пародия, травестия, пастиш в жанровой эволюции романа от барокко к рококо» nomli maqolasida pastish hodisasini roman janrining tarixiy evolyutsiyasi – ayniqsa barokko va rokoko davrlari kesimida – muhim estetik va poetik vosita sifatida talqin qiladi. Olima pastishni parodiya va travestiya bilan bir qatorda «ikkilamchi matn» shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqadi, biroq ularning funksional va semantik xususiyatlarini aniq farqlaydi. N.T. Paxsaryanning ta'kidlashicha, pastish – bu muayyan muallif, uslub yoki janrning taqlid asosida qayta yaratilishidir, ammo bu jarayon satirik yoki tanqidiy maqsadni ko'zlamaydi. Shu jihati bilan u parodiyadan farq qiladi: parodiya asl matnni kulgili yoki tanqidiy ruhda qayta ishlasa, pastishda bunday baholovchi munosabat deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, pastish ko'proq stilistik neytrallik yoki hatto estetik hurmat asosida quriladi.[4] Shu bilan birga N.T. Paxsaryan pastishning asosiy belgilaridan biri – bu uslubiy identifikatsiya yoki rekonstruksiya ekanligiga alohida urg'u beradi. Ya'ni matn muallifi boshqa bir adabiy uslubni, nutq ohangini yoki kompozitsion qurilmani imkon qadar aniq takrorlashga intiladi, natijada pastish intertekstual o'yin shakliga aylanadi, bunda kitobxon asl uslubni tanib olish orqali estetik zavq oladi.

Parodiya (yunoncha *parodia* – teskari qo'shiq) esa intertekstuallikning eng faol va dinamik shakllaridan biri sifatida qaraladi. S. Dentith (2000) parodiyani «tanib bo'ladigan stilistik elementlar orqali boshqa matnga tanqidiy yoki kulgili munosabat bildirish shakli» deb ta'riflaydi.[5] Parodiya jarayonida manba matnning asosiy strukturasi saqlanadi, biroq u ma'lum darajada o'zgarishga uchraydi va yangi se-

[1] Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – 491 p.

[2] Hutcheon L. A Theory of Parody. – London: Methuen, 1985. – 143 p.

[3] Jameson F. Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism. – Durham: Duke University Press, 1991. – 438 p.

[4] Пахсарьян Н.Т. Пародия, травестия, пастиш в жанровой эволюции романа от барокко к рококо // https://17v-euro-lit.niv.ru/17v-euro-lit/articles/pahsaryan-parodiya.htm

[5] Dentith S. Parody. – London: Routledge, 2000. – 184 p.

mantik yuklama bilan boyitiladi. L. Hutcheon ham parodiyani ikki qirrali hodisa sifatida izohlaydi: u bir tomondan imitatsiya, ikkinchi tomondan esa ironik masofa orqali tanqid hisoblanadi.[1] N.T. Paxsaryan esa parodiya – bu muayyan adabiy matn, uslub yoki janrning ongli ravishda qayta ishlanish shakli bo‘lib, unda asl manbaga nisbatan tanqidiy, ironik yoki kulgili munosabat ifoda etilishiga alohida urg‘u beradi. Uning nazarida, parodiya oddiy taqlid emas, balki baholovchi (evalutiv) xarakterga ega intertekstual transformatsiyadir.[2] Olima parodiyaning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

ikki qatlamlilik: matnda bir vaqtning o‘zida asl matn va uni o‘zgartirgan yangi matn mavjud bo‘ladi;

semantik siljish: asl matnning mazmuni yoki uslubi yangi kontekstda o‘zgartirilib, ko‘pincha kulgili yoki tanqidiy ta’sir hosil qiladi;

ironiya va masofa: muallif asl matndan ma’lum darajada uzoqlashadi va unga nisbatan istehzoli pozitsiyani egallaydi;

janr va uslubni buzish (deformatsiya): parodiya jarayonida original matnning shakl va mazmun xususiyatlari ataylab o‘zgartiriladi.

V.I. Novikov ham o‘zining «Литературная пародия» maqolasida N.T. Paxsaryanning fikriga o‘xshash mulohazalarni keltiradi. Uning talqiniga ko‘ra, parodiya muayyan adabiy asar, uslub yoki janrni ongli ravishda qayta ishlab chiqishga asoslangan badiiy hodisa bo‘lib, unda asl matnning muhim va tanib olinadigan xususiyatlari saqlab qolingan holda, ular ironik, tanqidiy yoki kulgili yo‘sinda transformatsiyaga uchraydi. Shu bois parodiya oddiy taqlid shakli sifatida emas, aksincha semantik va uslubiy jihatdan qayta kodlashga asoslangan murakkab intertekstual jarayon sifatida talqin etiladi.[3]

I.S. Belyayev o‘z ilmiy ishida parodiyani intertekstual birlik sifatida baholaydi hamda uning asosiy vazifasi asl matnga nisbatan baholovchi, tanqidiy va estetik munosabatni ifodalashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u M.V. Verbitskaya hamda J. Jenett tipologiyalariga tayangan holda, parodiyaning ikki asosiy yondashuvini ajratadi: birinchisi – lingvistik yondashuv bo‘lib, unda parodiya til birliklari va uslubiy vositalar orqali tahlil qilinadi; ikkinchisi – poetik (yoki transtekstual) yondashuv bo‘lib, unda parodiya mantlararo aloqalar tizimida, xususan, gipotekst va gipertekst o‘rtasidagi munosabat sifatida ko‘riladi.[4]

Travestiya (italyancha *travestire* – kiyimini almashtirish) parodiyaga yaqin bo‘lsa-da, undan o‘zining keskinligi va grotesk xarakteri bilan farqlanadi. M.B. Landers (1998) travestiyani manba matnning stilistik darajasini keskin o‘zgartirish, ya’ni yuqori, jiddiy ohangni past, kulgili yoki hatto absurd shaklga keltirish orqali amalga oshiriladigan intertekstual transformatsiya sifatida izohlaydi.[5] Bu jarayonda nafaqat matnning shakli, balki uning ideologik asoslari ham qayta talqin qilinadi. Travestiya ko‘pincha ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlatiladi va mavjud qadriyatlarning nisbiyligini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan u destabilizatsion xarakterga ega bo‘lib, an’anaviy janr chegaralarini va ijtimoiy me’yorlarni izdan chiqaradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida pastish, parodiya va travestiya kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa-da, ular termin sifatida har doim aynan shu nomlar bilan qo‘llanmaydi. Ular ko‘proq milliy poetika doirasida uslubiy taqlid, ijodiy taqlid, aralash uslub yoki uslubiy qayta ishlash singari boshqa atamalar orqali ifodalanadi. Pastish, parodiya va travestiya alohida nazariy kategoriya sifatida unchalik shakllanmagan bo‘lsa ham, ular an’ana, izdoshlik, tatabbu’, taxmis va badiiy merosni davom ettirish kabi tushunchalar orqali keng yoritiladi. Jumladan, Z. Haydarova o‘z maqolasida parodiya satiraning ilk va sodda ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etadi.[6] Muallif satiraning genezisini tahlil qilar ekan, uning dastlabki shakllari xalq og‘zaki ijodida yuzaga kelganini ta’kidlaydi va aynan shu jarayonda parodiya muhim o‘rin egallaganini qayd etadi. Xususan, parodiya boshqa janrlar qatori satirik ifoda vositasi sifatida shakllanib, keyinchalik yozma adabiyotga ko‘chgan. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida «ijodiy taqlid» odatda ikki xil ko‘rinishda talqin qilinadi: muallif yondashuvisiz, ko‘r-ko‘rona takrorlashga asoslangan mexanik taqlid hamda mavjud an’anani davom ettirgan holda uni yangi mazmun bilan boyitishga asoslangan ijodiy taqliddir (izdoshlik). Shu nuqtai nazardan ijodiy taqlidni salbiy hodisa sifatida emas, aksincha badiiy ijod jarayonining rivojlantiruvchi elementi sifatida ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pastish, parodiya va travestiya intertekstuallikning muhim shakllari bo‘lib, ular turli darajadagi stilistik transformatsiya, semantik qayta talqin va pragmatik

[1] Hutcheon L. A Theory of Parody. – London: Methuen, 1985. – 143 p.

[2] Пахсарьян Н.Т. Пародия, травестия, пастиш в жанровой эволюции романа от барокко к рококо // https://17v-euro-lit.niv.ru/17v-euro-lit/articles/pahsaryan-parodiya.htm

[3] Новиков В.И. Литературная пародия: учебно-методическое пособие. – Москва: МГУ, 2009. – 39 с. – URL: http://www.novikov.poet-premium.ru/parody/212/

[4] Беляева И.С. Пародия в ряду вторичных текстов: две типологии (М.В. Вербицкая и Ж. Женетт) // Вестник ТвГУ. Серия «Филология». – 2012. – №1. – С. 109–114.

[5] Landers M.B. Parody in the Modern Novel. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 210 p.

[6] Haydarova Z. Satira nazariyasi haqida mulohazalar // https://jdpu.uz/satira-nazariyasi-haqida-mulohazalar/

maqsadlar orqali farqlanadi. Ushbu nazariy asoslar tadqiqotning keyingi bosqichlarida intertekstual birliklarning ifodalanish mexanizmlarini aniqlash uchun muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Mazkur tadqiqot intertekstuallik hodisasini pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu' shakllari doirasida o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat yondashuviga oid tahlil usullari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy adabiyotshunoslikda keng qo'llaniladigan intertekstual tahlil, gipertekstual tahlil hamda qiyosiy-tipologik yondashuv tashkil etadi. Ushbu metodlar matnlararo munosabatlarni aniqlash, ularning funksional-semantik yuklamasini ochib berish hamda turli adabiy shakllar o'rtasidagi tipologik farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot uchun ingliz va o'zbek adabiyotidan intertekstual jihatdan boy bo'lgan badiiy matnlar tanlab olinadi. Ilmiy manbalarning tanlovi jarayonida adabiy matnda aniq yoki yashirin intertekstual ishoralarning mavjudligi, pastish, parodiya, travestiya, nazira yoki tatabbu' elementlarining ifodalanganligi, shuningdek asarning adabiyot tarixida muhim o'rin tutishi va ilmiy tahlilga yaroqliligi kabi mezonlar asos qilib olindi. Ilmiy ish jarayonida intertekstual, gipertekstual, qiyosiy-tipologik, stilistik va diskursiv singari tahlil metodlari kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida intertekstual birliklarni aniqlash va tasniflash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

1. Stilistik imitatsiya darajasi – manba matn uslubining qay darajada takrorlanganligi
2. Tanqidiy masofa – matnning manba matnga nisbatan tanqidiy yoki neytral munosabati
3. Grotesk va absurd elementlar – travestiyaga oid transformatsiyaning mavjudligi va darajasi
4. Ijtimoiy va madaniy sharh – matnning ijtimoiy kontekstga munosabati
5. Transformatsiya darajasi – manba matnning qay darajada o'zgartirilgani yoki qayta talqin qilingani.

Mazkur tadqiqot bir necha bosqichda, jumladan nazariy manbalarni tahlil qilish va metodologik asoslarni belgilash, tanlangan badiiy manbalarni saralash va tasniflash, har bir matnda intertekstual birliklarni aniqlash, ularning funksional va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek natijalarni umumlashtirish va tipologik xulosalar chiqarish etaplari asosida amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqot ishida intertekstual nazariyalar asosida bir nechta manba asarlardan olingan misollar tahlilga tortildi. Xususan, J. Sviftning «Gulliverning sayohatlari» asari XVIII asr adabiyotida yuzaga kelgan ijtimoiy va siyosiy muammolarni tanqid qilishga qaratilgan parodik asar sifatida e'tirof etiladi. Parodiya, adabiyotshunos olimlar ta'kidlashicha, bu asarda mavjud ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisalarni ironik va kulgili shaklda qayta ishlash orqali ifodalanadi.[1]

Svift o'z qahramoni Lemuel Gulliver orqali insoniyatning aqlli va madaniy sifatlariga, shuningdek, inson tabiatidagi xato va kamchiliklarga e'tibor qaratadi. Asarda Lilliputliklar va Brobdingnegliklar kabi fantastik mavjudotlar va ularning jamiyatlari orqali haqiqiy dunyo hodisalari karikatura tarzda tasvirlanadi. Masalan, Lilliputliklarning siyosiy nizolari va qahramonning ularga bo'lgan munosabati orqali yozuvchi ingliz jamiyatidagi siyosiy absurdlikni tanqid ostiga oladi. Masalan, Brobdingnegliklar bilan bo'lgan sarguzashtlarda Gulliver insoniyatning ahamiyatsiz va zaif tomonlarini tushunadi: «*But by what I have gathered from your own relation, and the answers I have with much pains wringed and extorted from you, I cannot but conclude the bulk of your natives to be the most pernicious race of little odious vermin that nature ever suffered to crawl upon the surface of the earth.*»[2] S. Yo'ldoshev qalamiga mansub tarjimada ushbu parcha quyidagicha tarjima qilingan: «Har holda, bizning mamlakatimizda odamlarning nimjon va kasalmandligi, rangi zahilligi ularning aslzodaligiga yorqin ishoradir. Salomatlik va adl qaddi-qomat aslzodalar uchun sharmandali ko'rinish hisoblanadi. Ularning ma'naviy qashshoqliklari jismoniy nuqsonlariga mos tushadi va xafaqonlik, befahmlik, nodonlik, haddan oshish, dimog'dorlik bilan birikib ketadi.»[3] Birinchidan, bu parcha muallif nuqtai nazarining o'zgarishi bilan ahamiyatga ega. Gulliver avval Lilliputda gigant bo'lgan bo'lsa, Brobdingnegda u nihoyatda kichik mavjudotga aylanadi. Natijada, insoniyat ham ramziy jihatdan «kichraytiriladi». Qirolning insonlarni *little odious vermin* (jirkanch mayda zararkunandalar) deb atashi aynan shu o'lchamlar nisbatining almashinuvi orqali parodik ta'sirni hosil qiladi. Ikkinchidan, ushbu parcha ma'rifatparvarlik davri optimizmiga qarshi satira sifatida talqin qilinadi. XVIII asrda inson aqli va taraqqiyoti yuksak qadrlangan bo'lsa, Svift aksincha, insoniyatni urushlar, siyosiy fitnalar va axloqiy tubanlik bilan bog'laydi. Gulliver Angliya siyosiy tizimini faxr bilan tasvirlab bergan bo'lsa-da, qirol bu tizimni mutlaqo rad etadi va uni axloqan past deb baholaydi. Shunday qilib, Gulliverning o'zi ham bilmagan holda parodiya obyektiga aylanadi. Uchinchidan, ushbu parcha parodiyaning muhim belgilaridan biri – insoniy dikursni dekonstruk-

[1] Bloom H. Jonathan Swift's "Gulliver's Travels". – New York: Chelsea House Publishers, 2003. – 120 p.

[2] Swift J. Gulliver's Travels: A Voyage to Lilliput; A Voyage to Brobdingnag. – Philadelphia; London: J.B. Lippincott Company, 1918. – 192 p.

[3] Svift J. Gulliverning sayohatlari: Lilliputiyaga sayohat; Brobdingnegga sayohat / tarj. S. Yo'ldoshev. – Toshkent, 2009. – 192 b.

siya qilish bilan bog‘liq. Ya’ni, odatda ulug‘vor, jiddiy va mantiqli deb qaraladigan siyosiy nutq va ijtimoiy tizimlar bu yerda kulgili va jirkanch darajaga tushiriladi. Svift bu orqali rasmiy diskurni parodiya qiladi va uning sun’iyligini yaqqol namoyish etadi.

J. Sviftning «Gulliver sayohatlari» asarida siyosiy allegoriya grotesk elementlar orqali ifodalanadi. Grotesk elementlar, xususan, haddan tashqari kattalashtirish, absurd vaziyatlar va g‘ayritabiiy obrazlar yordamida, real voqelikning tuzulmaviy va axloqiy xatolarini kulgi bilan yoritadi. Shu tariqa, Svift siyosiy va ijtimoiy me’yorlarni o‘zining parodik mantiqi orqali buzadi: janr qoidalari va adabiy konvensiyalar keskin ravishda buzib tashlaydi, natijada kitobxon tanqidiy masofa bilan voqelikni baholashga majbur bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan, asar travestiyaning tipik xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Yozuvchi yuqori janrli siyosiy allegoriyani fantastik va grotesk elementlar orqali travestiyani ifodalaydi, ya’ni jiddiy siyosiy mavzular absurd, masxara va grotesk kontekstga joylashtiriladi. Natijada, kitobxon haqiqiy siyosiy tizimni kulgi va kinoya orqali qabul qilishga majbur bo‘ladi, bu esa travestiyaning asosiy funksiyasi – jiddiy mavzuni tanqidiy kayfiyat bilan aks ettirishni – yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, J. Sviftning asari nafaqat grotesk va parodik qatlamlar orqali siyosiy tanqidni amalga oshiradi, balki travestiyaning janr mexanizmi yordamida kitobxonda tanqidiy tafakkur va ijtimoiy refleksiya shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham parodiya badiiy matnning tanqidiy va kinoyaviy qatlamini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalaridan biri sifatida talqin etiladi. Ana shu jihatdan qaralganda, A. Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidagi qo‘g‘irchoq teatr sahnasi parodik xarakter kasb etadi. Bu sahna orqali muallif hukmron siyosiy tuzumni tanqid ostiga oladi. Mazkur sahnada qo‘g‘irchoqbozlar tomonidan Xudoyorxon hamda Musulmonqul obrazlari kulgili va kinoyaviy shaklda gavdalantirilib, ularning zulmga asoslangan boshqaruv tizimi keskin fosh etiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sahnada parodiya bir necha mexanizmlar orqali yuzaga chiqariladi. Birinchidan, voqelikni takrorlash orqali real hayotdagi siyosiy vaziyat sahna ko‘rinishida qayta ifodalanadi, biroq bu jarayon oddiy reproduksiya emas, balki kulgi va kinoya elementlari bilan boyitilgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek ijtimoiy rollarning inversiyasi, ya’ni karnavalesk (adabiyotshunoslikda kulgi, erkinlik va ijtimoiy tartiblarning vaqtincha «teskari aylanishi»ga asoslangan estetik va madaniy hodisa) ag‘darilishi kuzatilib, bunda hokimiyat vakillari kulgi va masxara obyektiga aylantiriladi va ularning ijtimoiy mavqei ramziy tarzda «pasaytiriladi». Mazkur yondashuv M. Baxtin tomonidan ilgari surilgan karnavalesk konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, unda kulgi orqali hukmron tuzumni taxtdan tushurish, ya’ni uning muqaddas va daxlsiz ko‘rinishini buzish asosiy tamoyil sifatida talqin etiladi.[1] Nihoyat, pastish unsurlari yordamida nutq va xatti-harakatlar stilistik jihatdan takrorlanadi, ammo bu takrorlash tanqidiy masofa saqlagan holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, asardan olingan mazkur parchada ham parodik ta’sir aynan L. Hutcheon ta’riflagan mexanizm asosida yuzaga keladi: unda real siyosiy voqelik va obrazlar bevosita takrorlanadi, biroq ular o‘zining asl jiddiy maqomini yo‘qotib, kulgi va kinoya orqali qayta talqin etiladi.[2] Bu esa o‘quvchini nafaqat kuldiradi, balki tasvirlanayotgan hokimiyat tizimiga nisbatan tanqidiy munosabat shakllanishiga ham xizmat qiladi. Asardagi quyida berilgan iqtibos bu fikrlarni yanada ravshanlashtiradi: «Otig‘ag‘ina xon bo‘lib o‘lturg‘uvchi Xudoyor ham osdirish, kesdirish va yorlaqash o‘z ixtiyorida bo‘lg‘an Musulmonqul maydondan olinmagan fursatda o‘zining qo‘g‘irchoq sifat yuraberishini tushundi».[3] Ushbu parchada Musulmonqul obrazining haqiqiy siyosiy subyekt emasligi, aksincha hukmdor irodasiga bo‘ysunuvchi vosita ekanligi ochib beriladi. Ya’ni u mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs emas, balki yuqori hokimiyat tomonidan boshqarilayotgan «qo‘g‘irchoq» sifatida talqin etiladi. Bu esa parodiyaning bosh maqsadi – hokimiyatning soxta va sun’iy tabiatini fosh etish – bilan bevosita uyg‘unlashadi. Umuman olganda, mazkur sahna orqali muallif siyosiy tuzumda mavjud adolatsizlikni, mahalliy boshqaruvdagi nuqsonlarni va hokimiyatning ikkiyuzlamachiligini kulgi vositasida tanqid qiladi. Natijada esa kitobxonda nafaqat estetik zavq, balki tanqidiy tafakkur ham shakllantiriladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ijodiy taqlid – tatabbu’ va nazira shakllarida namoyon bo‘lgan bo‘lib, u asosan mumtoz an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan badiiy usul hisoblanadi. Mazkur hodisa ustoz matniga murojaat qilish, uning janr, stilistik va obrazlar tizimini saqlagan holda yangi mazmun bilan boyitish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, ijodiy taqlidga intertekstual munosabatlarning an’anaviy shakli sifatida qaraladi.

«Nazira» – (arabcha *o‘xshash narsa*) o‘tgan yoki zamondosh shoirlar asarlariga o‘xshatma, javob tariqasida yaratilgan asar hisoblanadi. Shoir nazira yaratar ekan, biror asarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaydi, unga ijodiy yondashadi, asar mazmunini rivojlan-

[1] Bakhtin M. Rabelais and His World / tarj. H. Iswolsky. – Bloomington: Indiana University Press, 1984. – 484 p.
[2] Hutcheon L. A Theory of Parody: The Teachings of Twentieth-Century Art Forms. – New York: Methuen, 1985. – 143 p.
[3] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Ziyouz.com kutubxonasi. – 147 b.

tiradi, g‘oyaviy motivlari, obrazlarini boyitadi, badiiy qimmatini oshiradi. Shu bilan u asarga o‘z davri, tarixiy sharoiti va adabiy muhiti ruhini kiritadi.[1]

O‘zbek mumtoz she’riyatida Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mashrab va Furqat kabi buyuk ijodkorlar bu sohada o‘zlarining yuksak mahoratlarini ko‘rsatganlar. Xususan, A. Navoiyning fors tilida yaratgan «Devoni Foniy» asari naziralar majmuasi sifatida alohida ahamiyat kasb etib, u o‘zbek adabiyoti fors-tojik tilidagi nazira an’anasiga asos solgan muhim manba hisoblanadi.[2] Shuningdek, H.H. Niyoziyning 1927-yilda yozilgan «O‘zbek xotini tilidan» she’ri mumtoz adabiyotimizning mashhur vakili Mashrabning «Dastingdan» radifli muxammasiga nazira tarzida yozilgan asar hisoblanadi.

Tatabbu’ atamasi esa asosan Qo‘qon adabiy muhitida keng qo‘llanilgan. Mazkur tushuncha nazira bilan yaqin bo‘lsa-da, ma’lum jihatlari bilan farqlanadi. Tatabbu’ (arabcha *ergashmoq*) – ijodkorning muayyan shoirga ehtirom bildirish yoki u bilan badiiy bellashish maqsadida yozgan javob asari bo‘lib, u asl matnning mavzusi, vazni va qofiya tizimiga amal qilgan holda yaratiladi. Tatabbu’ turli she’riy janr va shakllarda yozilishi mumkin, o‘zbek adabiyotida esa u asosan g‘azal va doston ko‘rinishida keng tarqalgan.[3]

Nazira va tatabbu’ o‘zaro yaqin bo‘lsa ham, ular mazmunan farqlanuvchi adabiy hodisalar hisoblanadi. Nazirada muayyan tarixiy sharoit va adabiy muhit ruhi aks etib, muallif mavzu, mazmun hamda shaklga ijodiy yondashadi. Natijada, nafaqat g‘oyaviy, balki badiiy tuzilishda ham yangilanish yuzaga keladi. Tatabbu’da esa muallif mashhur shoir asariga javoban ijod qilib, uning mavzusi, vazni va qofiya tizimini qat’iy saqlagan holda badiiy asar namunasini yaratadi. Shu sababdan tatabbu’ ko‘proq an’anaga sodiq qolgan holda yoziladigan javob xarakteridagi badiiy shakl sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘arb adabiyotshunosligida keng qo‘llaniladigan pastish tushunchasi ham ma’lum darajada shu jarayonga yaqin turadi. Pastish – bu muayyan muallif yoki uslubni takrorlash, stilistik xususiyatlarini qayta yaratish orqali amalga oshiriladigan badiiy strategiya bo‘lib, u ko‘pincha neytral yoki estetik maqsadga xizmat qiladi. Parodiyadan farqli ravishda, pastishda tanqidiy kinoya majburiy komponent hisoblanmaydi, aksincha, u ko‘proq hurmat, stilistik o‘yin yoki estetik rekonstruksiya xarakteriga ega. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi nazira va tatabbu’ an’analari bilan pastish o‘rtasida muayyan o‘xshashlik kuzatiladi. Xususan, har ikki holatda ham avvalgi matn yoki uslubga murojaat qilinadi, uning rasmiy va stilistik xususiyatlari saqlanadi, shuningdek yangi muallif tomonidan mazmun yangiligi ta’minlanadi.

Ammo bu uchala fenomenni to‘liq tenglashtirish to‘g‘ri emas. Ularni qiyosiy-tipologik jihatdan aloqador hodisalar sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘rirooq bo‘ladi. Ijodiy taqlid, ayniqsa mumtoz adabiyot doirasida, ko‘proq an’anaga sodiqlik va ustoz-shogirdlik munosabatlarini ifodalashga xizmat qilsa, pastish esa asosan postmodern estetikada intertekstual o‘yin va stilistik kollaj sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, pastish ijodiy taqlidning zamonaviy, nazariy jihatdan umumlashtirilgan ko‘rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin, biroq u o‘zining madaniy-funksional konteksti bilan farqlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek adabiyotshunosligidagi ijodiy taqlid an’analari va g‘arbiy nazariyada mavjud pastish o‘rtasida tipologik yaqinlik mavjud bo‘lib, ularni intertekstual aloqadorlik doirasida qiyosiy o‘rganish adabiy jarayonning uzviyligi va rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intertekstuallik badiiy matnning ichki tuzilishini belgilovchi muhim nazariy tamoyil sifatida turli adabiy shakllarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, pastish, parodiya va travestiya G‘arb adabiyotshunosligida intertekstual aloqalarning faol va ko‘p qatlamli ko‘rinishlari sifatida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek mumtoz adabiyotida nazira va tatabbu’ an’analari ushbu hodisaning tarixiy va an’anaviy shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, mazkur shakllar o‘zaro o‘xshash intertekstual asosga ega bo‘lishiga qaramay, ularning funksional yo‘nalishi va badiiy maqsadi sezilarli darajada farqlanadi. Parodiya va travestiya ko‘proq tanqidiy va ironik munosabatni ifodalashga xizmat qilib, ijtimoiy va siyosiy voqelikni kulgi hamda grotesk vositalar orqali qayta talqin etadi. Pastish esa asosan stilistik imitatsiyaga asoslanib, tanqidiy masofadan xoli holda estetik o‘zlashtirishni amalga oshiradi. Nazira va tatabbu’ esa intertekstual munosabatlar an’anaviylik, izdoshlik va ustoz-shogirdlik tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularda badiiy merosni davom ettirish va yangi mazmun bilan boyitish ustuvor hisoblanadi.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalari intertekstual birliklarning ifodalanish mexanizmlari – stilistik imitatsiya, semantik transformatsiya, tanqidiy masofa va janr deformatsiyasi kabi omillar orqali yuzaga kelishi-

[1] Салиев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 65 б.
[2] Jo‘rayev B. Mumtoz adabiyotda nazira va tatabbu’ // Journal of IQRO. – 2025. – Vol. 14, No. 2. – ISSN 2181-4341.
[3] Ф Салиев Ф., Қурбониёзов Г. Ўша манба. – 253 б.

ni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, har bir shaklda ushbu mexanizmlarning ustuvorligi turlicha namoyon bo‘lishi aniqlanib, bu holat ularning tipologik farqlarini belgilovchi asosiy mezon sifatida baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot intertekstuallikning universal hodisa ekanini, uning turli adabiy-madaniy makonlarda o‘ziga xos shakllarda rivojlanishini tasdiqlaydi. Pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu’ni o‘zaro qiyosiy o‘rganish esa adabiy jarayonning uzviyligi, badiiy tafakkur evolyutsiyasi hamda matnlararo munosabatlarning murakkab mexanizmlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Rezyume. Intertekstuallik zamonaviy adabiyotshunoslikda matn tuzilishining muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. U matnlararo aloqadorlikni ta’minlab, ma’no shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

G‘arb adabiyotshunosligida intertekstuallikning turli ko‘rinishlari ichida pastish, parodiya va travestiya alohida o‘rin egallaydi, chunki ular stilistik taqlid, madaniy ishoralar va boshqa matnlarga murojaat orqali shakllanadi. Sharq mumtoz adabiyotida esa nazira va tatabbu’ singari shakllar intertekstuallikning unsurlari sifatida keng qo‘llanilgan. Ushbu maqola pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu’ kontekstida intertekstual birliklarning ifodalanish mexanizmlari va ularning tipologik farqlarini tizimli tahlil qiladi. Mazkur tadqiqot intertekstuallik nazariyasi asosida olib borilgan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek adabiyotining klassik va zamonaviy matnlari sifatida tanlangan namunalar chuqur tahlilga tortildi. Qiyosiy metod orqali pastish, parodiya, travestiya, nazira va tatabbu’ shakllarida intertekstual unsurlarning stilistik, semantik va pragmatik xususiyatlari aniqlandi.

Resume. Intertextuality is considered one of the important principles of text structure in modern literary studies. It plays an important role in the formation of meaning, ensuring intertextuality.

In Western literary studies, pastiche, parody, and travesty occupy a special place among various forms of intertextuality, since they are formed through stylistic imitation, cultural allusions, and references to other texts. In classical Eastern literature, forms such as nazira and tatabbu’ are widely used as elements of intertextuality. This article systematically analyzes the mechanisms of expression of intertextual units and their typological differences in the context of pastiche, parody, travesty, nazira, and tatabbu’. This study was conducted on the basis of the theory of intertextuality, in which samples selected as classical and modern texts of English and Uzbek literature were subjected to in-depth analysis. The comparative method revealed the stylistic, semantic, and pragmatic features of intertextual elements in the forms of pastiche, parody, travesty, nazira, and tatabbu’.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NASRIY ASARDA RAMZIYLIK
(Olim Toshboyevning "Kiprik soyasi" va "Karbalo" hikoyalari misolida)

Mamirova Mamlakatxon Ilhomjon qizi,
Termiz davlat universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Yuldashev Normat Temirovich**

XX asrning so'nggi choragida o'zbek nasrida badiiy tafakkurning yangilanish jarayoni kuzatilib, an'anaviy realizm tamoyillari modernistik yondashuvlar bilan uyg'unlashdi. Bu davr adabiyotida voqelikni bevosita tasvirlashdan ko'ra, uni ramziy-metaforik talqin etish, ichki ruhiy kechinmalar va jamiyat hayotini to'la ravishda tasvirlashga intilish kuchaydi. Xususan, Murod Muhammad Do'st, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Nodir Normat, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilar ijodida ramziylik va metaforik tafakkur yetakchi badiiy tamoyilga aylandi. Adabiyot maydoniga kirib kelgan yangi avlod ijodkorlarining dastlabki nasriy asarlarida ham jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy muammolarni ramziy obrazlar orqali umumlashtirish tendensiyasi kuzatiladi. Natijada, mazkur davr nasri o'zining estetik yangiligi, ifoda vositalarining rang-barangligi bilan adabiy jarayonda muhim bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkorni qo'liga qalam olib, yozishga majbur qiladigan "dard" – ijtimoiy muammolar orqali yetilib boriladi. "Jamiyatning ko'zi ochiq a'zolarini iztirobga solgan bu ijtimoiy dard chinakamiga ijodkorning shaxsiy dardiga aylanadi, chinakamiga shaxsiylanish uchun ijtimoiy dard qalb qozonida obdon qaynashi kerakki, olovining taftidan ijodkorning yuragi bag'ri jizg'anak bo'lishi tayin. Faqat buning uchun ulkan haroratli qalb, beqiyos ijodiy matonat, bir so'z bilan aytganda, chinakam SAN'ATKORLIK iste'dodi taqozo etiladi"[1]. Ana shunday iste'dodli san'atkorlardan biri bo'lgan yozuvchi Olim Toshboyevning asarlarida ham jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan masalalar yoritiladi. Ma'lumki, jurnalistlik faoliyati bilan bir qatorda yozuvchi dastlab kichik mazmundagi hikoyalari, keyinchalik "Ultontoz", "Kishan", "Botindagi bo'ron" va "Abadiy zamondosh" kabi asarlari bilan xalqimiz e'tiboriga tushdi. Xususan, uning "Karbalo" va "Kiprik soyasi" kabi dastlabki hikoyalarida ramziylik asosida inson hayotining turli manzaralari aks ettiriladi. Ulardagi ramziy obrazlar ijodkor badiiy g'oyasini yoritishga xizmat qiladi.

Yozuvchining ilk hikoyasi "Kiprik soyasi", "Sharq yulduzi" jurnalining 1992- yilgi 7-sonida e'lon qilinadi. Ushbu nasriy asar yozuvchining ilk matbuotdagi ko'rinishi bo'lgan. Hikoyadagi ramziy birliklar talaygina. Shuningdek, unda insonga xos hamdardlik, aybdorlik kabi hislar juda ta'sirli ifodalanadi. Hikoya janrida "Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi"[2]. Ushbu hikoyada uyidan ketma-ket janoza chiqqan bosh qahramon Sattorning voqealar ta'siridagi holati va jamiyatning bu judoliklarni to'xtatish uchun topgan mantiqsiz qilmishi aks etadi. Sattor tavqi la'natdek oilasiga yopishib, bir bir kishini olib ketayotgan o'limni to'xtatish uchun qabrdagi otasining jasadini bo'laklab yoqishga majbur bo'ladi. Hikoyadagi ramzlardan birinchisi – O'lim. O'lim kishilar ongida buyuk qo'rquv, ayriliq, abadiy yolg'izlikni anglatadi. O'lim xuddi yakun, yo'lning oxiri kabi ko'rinsa-da, Islomda o'lim bu jarayon: foniy dunyodan boqiy dunyoga o'tishdir. Aynan shu nuqtada qo'rquv sababi ochiqlanadi. O'limdan qo'rqqan odam foniy dunyodagi qilmishlarining jazosidan, o'limdan so'ng o'z gunohlari bilan yuzlashishdan qo'rqqan odamdir. Unda o'lim kimgadir qiynoq va musibatli, kimgadir sharafli keladi. Asarda uchta o'lim tasviri mavjud: otaning, onaning, ukaning. "*Sattor otasining qirqi kunlari onasini ham xudoga topshirdi. Azroil omonatni marhumning zavjai ojizalaridan ham qaytarib oldi. Dunyo zulmatga do'ndi. U shunday xilqat libosiga o'randiki, bunda oy ham porlamas, quyosh ham nur sochmas edi. Yulduzlar sitilib ketgan munchoqlar kabi yerda dumalab yotibdi... Toshlar bilan hamsoya*"[3].

Bu parchada o'limning boshqa manzarasi ko'rinadi, o'lgan kishining emas, yaqini o'lgan kishining holati

[1] Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, – 2018. – B. 46-47.
[2] Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 402.
[3] Toshboyev O. Kiprik soyasi. "Sharq yulduzi" jurnali. 1992-yil. 7-son. 25-26-betlar.

mohirona yoziladi. Onasiz qolgan kishiga endi kecha-kunduzning farqi yo‘q, osmonga boqib yulduzni ham ko‘rmaydi, boshiga osmon qulagandek tuyuladi. Odamning o‘ziga o‘zining rahmi keladi. Onasidan keyin ukasi ham og’irlashib qoladi va odamlar ikki oy ichida bu xonadondan uchinchi marta tobut ko‘taradilar. Bu ham Sattorga qattiq zarba bo‘ladi. Xalqimizning *“Ota-ona o‘limi meros, yondan otadi; jigar o‘limi tosh, jigaringni shilib o‘tadi”* maqoli hikoya qahramon ruhiy kechinmalaridagi iztirobni chuqur tasvirlaydi. *“Kajraftor falakning dilo‘rtar kunlarida uning qalbi bilmaydi. Ukasining so‘nggi nafasdagi gaplarini esga oldi.*

– Aka, men otamning oldiga ketyapman. Har kech chaqirib qoladi. Elas-elas onamni ham ko‘rgandek bo‘ldim. Aka, shu ekan... meni otam chaqiryapti.

Sattor bu so‘zlarni unuta olmadi... “Aka-ukaning joni bir-u, moli bo‘lak” deganlari rost ekan”[1].

O‘limning ta’siri o‘lgan kishidan ko‘ra uning ortida qolgan odamga kattaroq va kuchliroq bo‘lishining bundan aniq isboti bo‘lmas kerak. Hikoyada yana bir ramz – qabriston. Qabristonda hamma teng, u ham xuddi olim kabi qo‘rquv uyg‘otadi. Hikoya syujeti qabriston manzarasi bilan boshlanadi. *“Qabristonda ikki jon, tun qarorida tentiraydi. Birining qo‘lida fonus. Izma-iz, qorama-qora, go‘rlarni aylanib borishmoqda”*[2].

Hikoyadagi boshqa ramzlardan biri – qabriston. Qabriston ham xuddi olim kabi qo‘rquv uyg‘otadi Va ayrim muhiyatlari o‘lim bilan uyg‘unlashadi. Qabristonda ham hamma teng. Hikoya syujeti qabriston manzarasi bilan boshlanadi. “Qabristonda ikki jon, tun qarorida tentiraydi. Birining qolida fonus. Izma-iz, qorama-qora, go‘rlarni aylanib borishmoqda”.

“Indamaslar olami” qabristonda ikki tiriklik tunda nima qidiryapti degan savol o‘quvchida tug‘iladi. Ukaning o‘limidan so‘ng, *“G‘am bu o‘tovga yana qushxona soldi. Uning sira ketgisi yo‘q, Azroil kabi tag‘in jon so‘rar edi. Dard bu safar bir gulg‘unchani, yaxshi-yomon neligin anglab yetmagan bir qorako‘zni nishonga oldi. Taqdirning har maqomidan yuragi bezillab qolgan Sattor, dunyoga kelganidan nolidi. Hayitdan qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urdi. O‘rinda yotib qolgan jondan aziz singlisi Oyxon bosinqiraydi.*

– Ketaman... Otajon. Quvmang... Aka!..

Xonadonda yana o‘lim sharpasi keza boshladi. Hol sorab kelib ketuvchilar, har hil maslahatu davo usullarini aytuvchilar bo‘ldi. Chorasi ota qabrini ochib uning murdasini chavaqlab yoqish ekan. O‘shanda bu o‘lim zanjiri uzilar ekan. Bu o‘rinda yozuvchining hikoya avvalida “Foniy dunyo bandalari nimani unutishadi?! Hamma narsani. Hatto tangrini ham”, degani esga tushadi. Ular o‘lim haq, qadar Allohdan ekaniga ishonib, o‘ziga tavakkal qilmadilar. Hatto biron odamdan xasta singilni shifokorga olib borish fikri chiqmadi. Aynan shu nuqtada jamiyatning johilligi, ilmsizlik ortidagi kulfatlari o‘rtaga chiqadi. Ming afsuski, bunday bid’atlar hozirgi zamonaviy hayotimizda ham uchraydi. Yillab o‘qigan shifokorlarga emas, mahalladagi kinnachilarga hanuz ishoniladi. Bu ko‘r-ko‘rona ergashish qachongacha davom etadi? Yozuvchi qahramonlari hayoti misolida o‘quvchi oldiga shu savolni qo‘yadi.

Ramzlar asosidagi “Karbalo” hikoyasi “O‘zbekiston adabiyot va san’ati” gazetasining 1994-yil 22-aprel 13-sonida e’lon qilingan. Hikoyaga O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev “oq yo‘l” tilab so‘zboshi yozgan. Unda adabiyot olamiga kirib kelayogan yosh nosirning mahorati e’tirof etilgan. *“...Olimni bilaman: o‘zim o‘qigan dorilfununni tugatayotir... Olimjon, biz yurolmagan so‘qmoqlardan biridasan. Shu so‘qmog‘ing ilohi, yo‘l bo‘lsin va sen adashmay bizni hayot vodiysiga chorlaguchilardan bo‘l”*[3].

“Karbalo” hikoyasi mo‘jaz bo‘lishiga qaramay, unda zulmga qarshi buyuk isyon mavjud. Avvalo, tarixga nazar solsak. Karbalo fojiasi yoki Karbalo janggi – Islom tarixida eng mashhur va fojiali hodisalardan biri bo‘lib, hijriy 61-yil 10-muharramda (milodiy 680-yil 10-oktabr) Iroqdagi Karbalo dashtida sodir bo‘lgan. Bu voqea Payg‘ambar Muhammad s.a.v.ning nabirasi Imom Husayn ibn Ali va uning oila a’zolarini hamda sodiq hamrohlarinining shahid bo‘lishi bilan bog‘liq. Payg‘ambar s.a.v. vafoti, birinchi to‘rt xalifa davridan so‘ng, Muoviya ibn Abu Sufyon hokiyatni qo‘lga olgan. U vafot etgach, o‘g‘li Yazid I otasi vasiyatiga ko‘ra, xalifa bolgan. Yazidning boshqaruv uslubi va shaxsiy hayoti Hijoz va Iroqda qarshilikka uchragan, tanqid qilingan. Imom Husayn (Ali ibn Abu Tolib va Fotima az-Zahroning o‘g‘li, Payg‘ambar s.a.v.ning nabirasi) adolat, islomiy qadriyatlar tarafdori va xalifalikning haqiqiy vorisi sifatida tanilgan. Kufa aholisining ko‘pchiligi Husaynga maktublar yozib, uni xalifa deb e’lon qilishga va o‘zlarini himoya qilishga chaqirgan. Husayn bu chaqiriqqa javoban oilasi va hamrohlari bilan Madinadan Makka orqali Kufaga yo‘l olgan. Husayn yo‘lida paytida vakili Musulmon ibn Aqlning Kufada qatl etilganining xabarini olganida ham yo‘lini davom ettiradi. U 72 nafar jangchisi va oila a’zolari bilan Karbalo dashtida yetib kelganida, Yazidning 4000dan ziyod askarlari va qo‘mondoni Umar ibn Sa’d tomonidan qurshab olinadi. Hafta davomida suvdan mahrum qiladilar, ayollar va bolalar

[1] Toshboyev O. Kiprik soyasi. “Sharq yulduzi” jurnali. 1992-yil. 7-son. 25-26-betlar.
[2] Toshboyev O. Kiprik soyasi. “Sharq yulduzi” jurnali. 1992-yil. 7-son. 26-bet.
[3] Toshboyev O. Kiprik soyasi. “Sharq yulduzi” jurnali. 1992-yil. 7-son. 25-26-betlar.

og'ir ahvolda qoladilar. 10-muharram kuni tongda Husayn o'z hamrohlariga xohlasalar ketishlari mumkinligini aytadi, ammo ular sodiq qolgan. Jang davomida Husayn va tarafdoralari birma-bir shahid bo'lgan"[1]. Yozuvchi hikoyani "Karbalo" deb nomlash bilan tarixiy fojiani to'g'ridan-to'g'ri hikoya qilmaydi, balki uning ramziy mohiyatini zamonaviy kontekstga ko'chiradi. Tarixiy voqea va hikoya syujeti ramziy jihatdan parallellik qiladi. Hikoya sahroyi bosqinchilarning tinch yurtga bosqini manzarasi bilan boshlanadi. *"Ko'kalamzor hadsiz dasht bag'rida chumolilardek o'rmalab kelayotgan ushbu jamoat, katta oshuv-dovonga yetib to'xtadi:*

- Bir biringizdan yiroq ketmang! - Buyurdi novcha qirraburun bir erkak, biz bunda yetdik.

Tarki dunyo qalandarlar yanglig' yo'l tortgan bu o'ttiz-o'ttiz besh ozurda jon sardor amri bilan oyoq oldi. Ustlarida oq matodan to'qima libos kiygan sahroyilar, bir qarashda xuddi kafan kiygan murdalarga o'xshab ketardi"[2].

Bosqinchilarni murdaga o'xshatish bilan yozuvchi ularni jon olish-u jon berishga rozi bolib turgan ruhsiz va irodasiz manqurtlarga mengzaydi, chunki tiyiqsiz hirslari qaynaydigan sardorlariga ilohday itoat etadilar.

"Sardor amr etti:

– Mana shu, dovon, – dedi qo'lini oldiga cho'zayin, – Biz bundan oshmog'imiz kerak!

Hamma o'rnidan turdi. "Dovon" so'zini ilg'agan badaviylar, bir-biriga xushvaqt tikilib, yer tepindilar:

– Yazdon! Parvardigor! Amr et! Biz tayyormiz!

Sardor jamoaga razm solib mamnun iljaydi. Dedi:

– Men sizlarga ishonaman. Bu zaminning hatto shu maysasiga ham shafqat yo'q. Olg'a"[3].

Yazdon forscha ism bo'lib, "Iloh, yaratuvchi" degan ma'nolarni beradi. Yazdon hikoyada zulm manbasi ramzi sifatida tasvirlangan. U o'zini iloh deb bilishi xudbinligi, hech zarar ko'rmay turib yo'q qilishga urunishi undagi zulmni ifodalaydi. Ismi yaratuvchi manosini bersa-da, uning ichidagi buzgunchilikka, hukmronlikka bo'lgan ishtiyoq zolimga aylantirdi. Zolim va hudbin kishilar ortidan qancha yostiqlarni qurishi esa tarixiy isbotlar bilan hammaga ayon: Fir'avn, Gitler, Yazid.

Yazdon va uning qullari vodiy ahlini ogohlantirishsiz, o'qqa tutib qiradi. Masjidlarini yoqib, masjid ahlini ibodat qilayotganida o'ldiradilar. Va o'zlari ega chiqqan bu yurtni Tiriklik vodiysi deb e'lon etadilar. Qonlar irmoqdek oqqan, begunolar jasadi to'lgan "Tiriklik" vodiysidan ruhsifat biri qolida ko'za bilan vayronalar orasidan chiqib keldi. U qavmdan tirik qolgan yagona vakil edi. Uning ko'zagarligini bilgan Yazdon, uni omon qoldirish evaziga o'zining haykalini yasashini talab qiladi. Shunda ko'zagar shunday aqlli hiyla qiladiki, bir o'zi butun bosqinchilarni mahv etadi: " *– Ulug' Yazdon zuratingni yasamog'im kerak shundaymi?!*

– Shunday! – tug'yon urdi olomon.

– Roziman!

Ko'zlari kulib, Ulug' Yazdonga nigohini qaratdi. Dedi: – Tuproqni men suv bilan emas qon bilan qorilgan. Rozimisiz?!

Qo'llari qaltirab, tizzalari bukila-bukila ko'zani maysa ustiga qo'ydi. Oluvchini qopqoq qilib:

– Ey, Ulug Yazdon qullari – deya hayqirdi.

– Qonga tashna shu ko'zani to'ldir!.. – Bunga faqat, – dedi ko'zani boshi barobar ko'tarib. – Ayol qoni qalqsin.

...Yazdon so'zsiz tikilgan. Bunda zalolat tariqiga qo'yilgan johil kimsalar, o'z ahli ayolini qurbonlik etar,.. har bir erkak o'z ayolining ustiga bo'yra yopib go'yo vidolashgan bo'ldi"[4].

Bu manzara zulmning bor bo'yi edi. "Karbalo" ramziy ma'noda insoniyatning abadiy muammolarini zulm va haqsizlikni ifodalaydi. Jonsiz haykal uchun jon olish, mantiqsiz ko'r-ko'rona itoat qilish – bular orasida eng achinarlisi ayollarni o'ldirishdir. Buning zamirida ming yillardan buyon davom etib kelayotgan ayollarni kamsitish, xo'rlash, ularga bo'lgan turli taajavuz va zo'ravonlik yotadi. Tarix ayollarga qilingan bunday shafqatsiz munosabatlarga ko'p bora guvoh bo'lgan. Hikoyada xuddi Yazdon qullari qanday kiprik qoqmay ayollarni o'ldirgan bo'lsalar, tarixda ham ana shunday jinoyatlar sodir etiladi. Hikoya yakunida yozuvchi shu qadar mahorat bilan bunday zulmga nafrat va hayot davom etishi uchun ayollar naqadar yaratuvchi kuch sohibiligini anglatdi. *"Haykalchaga avval o'zining sajda qilishini buyurgan Yazdonga Ko'zagar, - Adashding, Yazdon, - dedi zo'r bir g'urur bilan. - Sen allaqachon o'lib bo'lgansan! Ko'zagar ortga tislandi, o'girildi. Bir bir qadam tashlab haykalchadan uzoqlashdi. Nur ko'rindimi yo yashin chatnadimi?! Nima bo'lgandayam, Masjid ichi bir daqiqaga yorug' bo'ldi. Arosatdagi bandilardan badaviylar sarosimada qoldi. Ko'zagar yo'q edi. Uning*

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Karbalo jangi

[2] Toshboyev O. Karbalo. O'zbekiston adabiyot va san'ati gazetasi, 1994, 22-aprel, № 13. 4-sahifa.

[3] Toshboyev O. Karbalo. O'zbekiston adabiyot va san'ati gazetasi, 1994, 22-aprel, № 13. 4-sahifa

[4] Toshboyev O. Karbalo. O'zbekiston adabiyot va san'ati gazetasi, 1994, 22-aprel, № 13. 4-sahifa.

qanday g‘oyib bo‘lganini hech kim bilmadi. Bilganlari shuki, bu qavm endi yo‘q bo‘ldi”[1]. Demak, ayol bo‘lmasa, hayot bo‘lmaydi. Yazdonning xudbinligi evaziga butun qavm yo‘q bo‘ldi. Zero, zulm har qachon o‘zini-o‘zi yo‘q qiladi. Ko‘zagar – yaratuvchi. U hikoyadagi haqiqat ramzidir. Ko‘zagar Yazdon va uning qullarini ularni mahv etib, chorasiz qoldirib, g‘oyib bo‘ladi, haqiqat ham shunday bir bor, bir yo‘q bo‘lsa-da, oxirida o‘z so‘zini aytadi va natija abadiy qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Olim Toshboyevning har ikki hikoyasida ramziylik asosiy badiiy vosita bo‘lib, ijtimoiy muammolarni umumlashtirib, badiiy g‘oya va mazmunni to‘la qonli ifodalashiga xizmat qilgan.

Rezyume. Mazkur maqolada Olim Toshboyevning “Kiprik soyasi” va “Karbalo” hikoyalarini ramziy jihatdan tahlil qilindi. Tahlilga hikoyalarga singdirilgan g‘oyalarga e’tibor qaratildi. Hikoyalarda keltirilgan o‘lim, qabriston, Yazdon, ko‘zagar rasmlari va jamiyat muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishga harakat qilindi.

Resume. In this article, Olim Toshboyev’s stories “Kiprik soyasi” (The Shadow of the Eyelash) and “Karbalo” are analyzed from a symbolic perspective. The analysis focuses on the ideas embedded in the stories. An attempt was made to analyze the causes of the emergence of societal problems through the images of death, cemetery, Yazdon (God), and the mirror presented in the stories.

Резюме. В данной статье проведён символический анализ рассказов Олима Тошбоева «Киприк сояси» («Тень ресниц») и «Карбало». Анализ сосредоточен на идеях, заложенных в рассказах. Была предпринята попытка проанализировать причины возникновения социальных проблем через образы смерти, кладбища, Яздона (Бога) и зеркала, представленные в рассказах.

[1] Toshboyev O. Karbalo. O‘zbekiston adabiyot va san’ati gazetasi, 1994, 22-aprel, № 13. 4-sahifa.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ОБРАЗ МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА В ПОВЕСТИ Л.УЛИЦКОЙ «СОНЕЧКА»

Кузимуродова Лобар Муротовна,
магистрант Термезского государственного университета

Все хотят быть богатыми, здоровыми и красивыми. Но мир состоит почему-то главным образом из бедных и больных. Но чудесные дары - сострадания, милости, верности - чаще всего являются именно там, в тени жизни, на ее обочине. Открытие это невелико, но когда оно происходит, немного изменяется картина мира, возникает новая точка отсчета и другая система координат: две лепты евангельской вдовы превращаются в великий дар, а бедное угощение полусумасшедшей старухи - в жизненный подвиг, почти всегда - незамеченный...[1]

Образ «маленького человека» является одним из устойчивых и значимых мотивов русской литературы, начиная с произведений А. С. Пушкина и Н. В. Гоголя и заканчивая прозой XX–XXI веков.[2] В классической традиции данный образ, как правило, связан с социальной незащищённостью героя, его бесправием и трагическим конфликтом с окружающей действительностью. Однако в современной литературе происходит переосмысление этого художественного типа, что обусловлено изменением культурно-исторического контекста и смещением акцента с социального на экзистенциально-нравственный уровень.[3]

Творчество Людмилы Улицкой занимает особое место в современной русской прозе, поскольку отличается вниманием к внутреннему миру личности, её духовному опыту и повседневному существованию «незаметных» людей. Повесть «Сонечка» представляет собой показательный пример авторского осмысления образа «маленького человека», в котором традиционные признаки данного типа трансформируются. Главная героиня не вступает в открытый конфликт с миром и не стремится к социальному протесту, однако её судьба раскрывает глубину внутренней драмы и нравственного выбора.[4]

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью изучения современных модификаций образа «маленького человека» в постсоветской литературе и выявления особенностей его художественной репрезентации в прозе Л. Улицкой. Несмотря на наличие исследований, посвящённых творчеству писательницы, образ «маленького человека» в повести «Сонечка» требует более детального анализа с точки зрения преемственности и новаторства литературной традиции.

Героиня повести Л. Улицкой «Сонечка» типологически восходит к традиционному образу «маленького человека», однако в авторской интерпретации данный образ претерпевает существенные изменения. Сонечка не занимает заметного положения в обществе, не обладает социальным влиянием и не стремится к самореализации в привычном для современной культуры понимании. Её существование протекает в сфере повседневности, тихого труда и чтения, что подчёркивает её внешнюю «незначительность» и социальную неприметность.

Одной из ключевых черт Сонечки является её отстранённость от активной социальной жизни. Она не борется за признание, не пытается изменить окружающую действительность и не вступает с ней в конфликт. В этом проявляется сходство героини с классическими «маленькими людьми», для которых характерны смирение и подчинённость обстоятельствам. Однако в отличие от Акакия Акакиевича или Самсона Вырина, Сонечка не переживает унижения как трагедию и не осознаёт себя жертвой. **Спорны и другие обнаруживаемые критиками параллели с русской классикой, а угадываемое сходство часто оборачивается зеркальным отражением.** Так, временная цепь в прозе Улицкой (взгляд на прошлое, настоящее и будущее) явно отличается от той прогрессивной, то есть устремленной

[1] Л.Улицкая

[2] Русская проза конца XX века: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. завед. / В.В. Агеносов, Т.М. Колядич, Л.А. Трубина и др.; под ред. Т.М. Колядич. – М.: Издательский центр «Академия», 2005. – 424 с.

[3] Современная русская литература конца xx – начала xxi века: учебное пособие. – москва: академия, 2010. – 320 с.

[4] Быков, Л. Сонечка и другие / Л. Быков. // Урал. – 1994. – №2 – 3. – С. 287 – 288.

в будущее связи времен, которую мы находим у Толстого и Чехова.

Особое значение в формировании образа героини имеет мотив чтения. Книги становятся для Сонечки формой духовного существования и способом ухода от внешнего мира. Чтение заменяет ей активное участие в социальной жизни и формирует её внутреннюю устойчивость. Таким образом, внутренняя насыщенность жизни героини контрастирует с её внешней незаметностью, что является принципиально важным для понимания авторской концепции образа «маленького человека». Героиня Л. Улицкой умеет быть смиренной и «благодарной жизни» (И. Пруссакова), способна на самоотречение, что роднит ее с традиционными образами Софии в русской литературе и, конечно, с Соней Достоевского.[1] Близость к Соне Мармеладовой прослеживается и в религиозном подтексте, подсвечивающем образ современной Сонечки. Но она – иудейка. Тем самым автор подчеркивает мысль: в XX в. не имеет значения, к какой конфессии принадлежит человек, лишь бы в его сознании присутствовала память о высоких нравственных ценностях. **Да и не делает Улицкая свою героиню идеальной:** вера её носит явно приниженный характер. Это первый звоночек в сохранении традиционного мотива «вечной Сонечки» и непохожесть современной Сонечки на классическую. Авторская ирония по отношению к Сонечке, наличие в заглавии повести «этически двусмысленного» (П. Бицилли) уменьшительно-ласкательного суффикса - ечк - позволяют провести параллель с рассказом А. П. Чехова «Душечка».

Семейная жизнь Сонечки также строится по принципу самоустранения и жертвенности. Она принимает измену мужа без открытого протеста, что может быть истолковано как проявление слабости. Однако в контексте художественной логики повести данное поведение приобретает иной смысл: смирение героини оказывается формой нравственной силы, а отказ от борьбы – осознанным выбором. В этом проявляется принципиальное отличие Сонечки от классического «маленького человека», чья судьба чаще всего завершается трагически.

Образ Сонечки представляет собой особый тип «маленького человека», в котором социальная пассивность компенсируется духовной целостностью. Улицкая отказывается от традиционного конфликта личности и общества, предлагая модель существования, основанную на внутреннем принятии мира и ответственности за другого человека.[2]

В повести Л. Улицкой «Сонечка» данный типологический образ сохраняет отдельные традиционные черты, такие как социальная незаметность, скромность и отсутствие стремления к карьерному или общественному успеху. Однако принципиально меняется характер конфликта. Если классический «маленький человек» страдает от внешнего угнетения, то Сонечка не воспринимает окружающий мир как враждебную силу. Её внутреннее состояние определяется не протестом, а принятием.

Существенным отличием образа Сонечки от классических предшественников является отсутствие трагической развязки. В произведениях XIX века судьба «маленького человека» нередко завершается гибелью, безумием или нравственным крахом. Улицкая же предлагает иной художественный исход: Сонечка сохраняет духовную устойчивость даже в ситуации личного унижения, что позволяет говорить о смещении акцента с социальной трагедии на нравственное испытание.[3]

Важно отметить и гендерный аспект образа. В классической литературе «маленький человек» преимущественно представлен мужскими персонажами, чьё бессилие подчеркивается социальной иерархией. В повести Улицкой образ «маленького человека» получает женское воплощение, что позволяет расширить границы традиционного типа и наполнить его новыми смысловыми оттенками, связанными с темами жертвенности, терпения и любви.

Сопоставление образа Сонечки с классическим типом «маленького человека» позволяет сделать вывод о глубокой трансформации данного образа в современной литературе. Улицкая сохраняет преемственность традиции, но переосмысливает её, отказываясь от трагического финала и социальной заострённости в пользу внутренней нравственной силы личности.

В современной русской литературе образ «маленького человека» претерпевает существенные изменения, обусловленные трансформацией общественных и культурных ориентиров. Социальная проблематика, определявшая данный тип героя в классической литературе, уступает место вниманию к внутреннему миру личности, её нравственному выбору и индивидуальному способу существования в мире. В этом контексте «ма-

[1] Пруссакова, И.Л. Улицкая. Сонечка, (рецензия) / И.Л. Пруссакова. // Нева. – 1993. – №1. – С. 236.
[2] Огрызко, В. Улицкая: Вопль о семье / В. Огрызко. // Литературная Россия. – 2005. – №37. – С. 1 – 3.
[3] Быков, Л. Сонечка и другие / Л. Быков. // Урал. – 1994. – №2 – 3. – С. 251-253

ленький человек» перестаёт быть исключительно жертвой социального устройства и становится носителем особого духовного опыта.

Повесть Л. Улицкой «Сонечка» наглядно демонстрирует данную тенденцию. Героиня не противопоставляет себя обществу и не стремится к самоутверждению через социальную активность. Её «малость» не связана с унижением или бесправием, а осмысляется как форма добровольной скромности и внутренней сосредоточенности. Таким образом, образ «маленького человека» приобретает экзистенциальное измерение, в котором центральным становится вопрос личной ответственности и принятия судьбы.[1]

Для постклассической эстетики, в рамках которой можно рассматривать творчество Улицкой, характерен отказ от жёстких бинарных оппозиций «герой – общество», «жертва – палач». Конфликт в повести «Сонечка» носит преимущественно внутренний характер и связан с нравственным выбором героини. Отсутствие открытого протеста и внешнего драматизма не означает художественной пассивности, напротив, внимание сосредотачивается на тонких процессах внутренней жизни персонажа.

Следует подчеркнуть, что образ Сонечки соотносится с общим направлением современной прозы, в которой особую ценность приобретает «тихий» герой, не совершающий громких поступков, но обладающий устойчивыми нравственными ориентирами. В этом смысле «маленький человек» у Улицкой становится носителем гуманистических ценностей, противопоставленных агрессивной и прагматичной реальности. Л. Улицкая настаивает на том, что даже материнская любовь не должна быть настолько всепоглощающей, чтобы женщина забывала о себе, превращалась в добровольную рабу, ей необходимо сохранять в себе живую душу.

Образ «маленького человека» в повести Л. Улицкой «Сонечка» отражает тенденцию к переосмыслению классической литературной традиции. «Малость» героя перестаёт быть признаком слабости и социального поражения и превращается в категорию нравственного выбора и духовной силы, что свидетельствует о развитии и обновлении данного художественного типа в современной русской литературе.

В ходе проведённого исследования был рассмотрен образ «маленького человека» в повести Л. Улицкой «Сонечка» в контексте развития одноимённой литературной традиции. Анализ показал, что в современной русской прозе данный художественный тип претерпевает значительную трансформацию, утрачивая прежнюю социальную заострённость и приобретая экзистенциально-нравственное содержание.

Образ Сонечки сохраняет отдельные типологические черты классического «маленького человека», такие как социальная незаметность, скромность, отсутствие стремления к внешнему успеху. Однако в отличие от героев классической литературы XIX века, Сонечка не переживает свою «малость» как трагедию. Напротив, её жизненная позиция основана на внутреннем принятии судьбы, смирении и способности к самопожертвованию.[2]

Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что Л. Улицкая предлагает новую интерпретацию образа «маленького человека», в которой ключевыми становятся категории духовной целостности и нравственной ответственности. Отказ от открытого социального конфликта и трагического финала свидетельствует о смещении акцента с внешних обстоятельств на внутренний мир личности.

И образ «маленького человека» в повести «Сонечка» представляет собой важный этап в развитии данной литературной традиции и отражает тенденции современной русской прозы, ориентированной на гуманистические ценности и внимание к «тихому» герою.

В ходе проведённого исследования был рассмотрен образ «маленького человека» в повести Л. Улицкой «Сонечка» в контексте развития одноимённой литературной традиции. Анализ показал, что в современной русской прозе данный художественный тип претерпевает значительную трансформацию, утрачивая прежнюю социальную заострённость и приобретая экзистенциально-нравственное содержание.

Образ Сонечки сохраняет отдельные типологические черты классического «маленького человека», такие как социальная незаметность, скромность, отсутствие стремления к внешнему успеху. Однако в отличие от героев классической литературы XIX века, Сонечка не переживает свою «малость» как трагедию. Напротив, её жизненная позиция основана на внутреннем принятии судьбы, смирении и способности к самопожертвованию.

Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что Л. Улицкая предлагает новую интерпретацию образа «маленького человека», в

[1] Черняк, М.А. Современна русская литература: Учебное пособие / М.А. Черняк. – СПб., М.: САГА: ФОРУМ, 2004. – 336 с.
[2] Виссарион белинский. Статьи о русской литературе. – москва: художественная литература, 1986. – 512 с.

которой ключевыми становятся категории духовной целостности и нравственной ответственности. Отказ от открытого социального конфликта и трагического финала свидетельствует о смещении акцента с внешних обстоятельств на внутренний мир личности.

Таким образом, образ «маленького человека» в повести «Сонечка» представляет собой важный этап в развитии данной литературной традиции и отражает тенденции современной русской прозы, ориентированной на гуманистические ценности и внимание к «тихому» герою.

Резюме. В статье рассматривается образ «маленького человека» в повести Л. Улицкой «Сонечка» в контексте развития данной литературной традиции в русской прозе XX века.

Resume. The article examines the image of the «little man» in L. Ulitskaya's novel «Sonya» in the context of the development of this literary tradition in Russian prose of the 20th century.

Rezyume. Maqolada L. Ulitskayaning «Sonechka» qissasidagi «kichkina odam» obrazi XX asr rus nasrida ushbu adabiy an`ananing rivojlanishi kontekstida ko`rib chiqilgan.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

YURAKLARDA YASHAYOTGAN INSON

Marhum tilshunos olim Ro‘ziqul Normurodovning 65-yillik porloq xotirasiga bag‘ishlanadi

Haqiqiy yaxshilarni insonlar his etishi lozim bo‘lgan musaffo tuyg‘ularning turfa xilligi kishini hayratga soladi. Bir olam hissiyotlar girdobidagi sog‘inch tuyg‘usi beixtiyor sizni mulohazalar ummoniga tashlamaydimi? Albatta, tashlaydi! Nahotki, insonlar bisotidagi “yaxshilarni”, avvalo, tiriklikda avaylab asrashga befarq bo‘lishsa?...

Olimlar, ya’ni ilm-fan yo‘lida ozmi-ko‘pmi zahmat chekkan fidoiy insonlarning hayot yo‘llarini o‘rganish, har birining o‘ziga xos tarixini yaratish ko‘p savob ishdir. Ular haqidagi havaslanarli ma’lumotlarni targ‘ib qilish, ayniqsa, olimlarning mazmunli umrini yoxud ilmiy-ijodiy fa’oliyatini o‘sib kelayotgan yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish filolog-pedagoglar uchun juda qimmatli ishlar sirasiga kiradi. Binobarin, Surxondaryo tilshunosligi tarixida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yozuvchi Shukur Xolmirzayev asarlariga qo‘l urgan tadqiqotchi Ro‘ziqul Normurodovdir. U 1961-yilda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tug‘ilgan, bilimga chanqoqligi maktab davridanoq ko‘zga tashlanardi. Ushbu niyat uni Toshkent davlat pedagogika institutiga yo‘l boshlagan, talabalik yillaridayoq u ilmiy-amaliy anjumanlarda o‘zining ma’ruzalari bilan ilm ahli nigohiga tushib ulgurgan edi. Shuningdek, jamoat ishlarida faolligi bilan dur-u gavhar kabi talabalardan ajralib turardi. Shu tariqa u Termiz davlat universitetida faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlarini ham jadal sur’atlarda olib bordi. U 2000-yilda “Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari” nomi nomzodlik ishini Toshkentda O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida muvoffaqqiyatli himoya qildi.

Ro‘ziqul Normurodov barcha olimlar qatori hayotning baland-past pillapoyalarining achchiq-chuchugini totgan, adolatsizlikni xiyonatni ko‘rgan, biroq bu illatlar qarshisida ojiz qolmay, ezgulikka ishongan, sadoqat va haqiqatga tayangan kurashchan do‘stim edi.

Ro‘ziqul Normurodov olimlar sulolasida bo‘lish bilan bir qatorda oilada ham dilbar oila boshlig‘i, mehribon ota, xushchahchah ustoz samimiy do‘st edi. Olim hayotining so‘ngi lahzalarigacha sadoqatli rafiqasi Zamiraxonga cheksiz hurmat, sevikli farzandlari Zarifa, Azizaxonlarga va Jaloliddinjonga beqiyos mehrini ulashib, qalbining tub-tubida asrab avaylab o‘tdi.

Men bugungi kunda Ro‘ziqul Normurodvning nodir insoniy fazilatlari, unga xos bo‘lgan xislatlar va ilmiy faoliyati haqida qisqa bo‘lsa-da, yozishga, aytishga haqli va burchliman.

Ro‘ziqul Normuradovning ilmiy merosi va ikkilamchi nominatsiya nazariyasining o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni tuxtar ekanmiz, zamonaviy tilshunoslikda badiiy matn tahlili, nominatsiya jarayonlari va tilning obrazli imkoniyatlarini o‘rganish muhim nazariy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ayniqsa, ikkilamchi nominatsiya predmet va hodisalarni qayta nomlash, ularni tasviriy ifoda orqali atash mexanizmi sifatida tilning kognitiv va uslubiy qirralarini namoyon etadi. O‘zbek tilshunosligida mazkur masalalarni izchil tadqiq etgan olimlardan biri Ro‘ziqul Normurodov bo‘lib, uning ilmiy izlanishlari badiiy matn lingvistikasi va perifraza nazariyasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Uning nomzodlik dissertatsiyasida yozuvchi uslubini lingvistik jihatdan tadqiq etish usuli, doktorlik ishida esa perifrazaning semantik, uslubiy va kognitiv tabiati asoslangan. Olimning nazariy xulosalari o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi va nominatsiya nazariyasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

U oliy ta’limni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida olgan. Mazkur ta’lim muassasasi o‘zbek filologiyasi bo‘yicha ilmiy maktab sifatida tanilgan bo‘lib, olimning nazariy dunyoqarashi aynan shu muhitda shakllangan.

Uning mehnat faoliyati Termiz davlat universiteti bilan bog‘liq bo‘lib, u yerda o‘zbek tilshunosligi kafedrasida faoliyat yuritgan. Pedagog sifatida u nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan ta’lim tamoyilini ilgari surgan.

Olimning ilmiy shakllanishi klassik filologik maktab an’analari asosida kechgan bo‘lib, uning keyingi tadqiqotlarida nazariy izchillik va metodik aniqlik ustuvorlik kasb etgan. 2000 yilda u “Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy rahbar Yormat Tojiyev. Himoya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida bo‘lib o‘tgan. U o‘z tadqiqotda Shukur Xolmirzayev asarlarining leksik tarkibi, frazeologik qatlamlari, individual-uslubiy belgilar, ekspres-

siv vositalari tizimli ravishda tahlil qilgan. Olim badiiy matnni tahlil qilishda quyidagi bosqichli yondashuvni taklif etgan.

1. Leksik-semantik tahlil;
2. Uslubiy vositalarni aniqlash;
3. Muallif nutqining individual belgilarini belgilash;
4. Milliy-madaniy komponentlarni ochish.

Doktorlik tadqiqotida ikkilamchi nominatsiya nazariyasining nazariy asoslari "Ikkilamchi nominatsiya (perifraza)ning lingvistik tabiati" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur ish asosida monografiya nashr etilgan. Afsuski, mash'um o'lim sababli dissertatsiya rasmiy himoya qilinmagan. Tadqiqotda perifraza o'rganilgan bo'lib unda **semantik jihat** ya'ni perifraza predmet yoki hodisaning belgilaridan biri asosida qayta nomlanishi sifatida talqin qilingan. **Uslubiy jihat**dan esa perifraza badiiy matnda obrazlilik va ekspressivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida izohlangan. Kognitiv jihatdan esa ikkilamchi nominatsiya inson tafakkuridagi konseptual modellashtirish jarayoni bilan bog'langan. **Perifrazalarni tasniflash masalasida:** leksik perifraza, frazeologik perifraza, individual-avtorlik perifrazasi kabi turlarga ajratgan. Perifrazani mustaqil lingvistik kategoriya sifatida asoslab, uning nazariy modelini ishlab chiqqan.

Olimning ilmiy merosi quyidagi yo'nalishlarda ahamiyatlidir:

1. Badiiy matn tahlilida kompleks yondashuvni mustahkamladi;
2. Ikkilamchi nominatsiyani kognitiv nuqtai nazardan talqin qildi;
3. O'zbek tilining obrazli imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi;
4. Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy dalillar bilan ko'rsatdi.

Uning tadqiqotlari zamonaviy kognitiv lingvistika va pragmalingvistika yo'nalishlari bilan uyg'unlikda rivojlanishi mumkin bo'lgan ilmiy asosni yaratdi.

Ro'ziqul Normurodov o'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili va ikkilamchi nominatsiya nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan olim sifatida e'tirof etiladi. Uning nomzodlik tadqiqoti yozuvchi uslubini kompleks tahlil qilish usulini shakllantirgan bo'lsa, doktorlik ishi perifrazani mustaqil lingvistik kategoriya sifatida nazariy jihatdan asoslagan. Garchi doktorlik dissertatsiyasi rasmiy himoya qilinmagan bo'lsa-da, uning monografiyasi va ilmiy xulosalari o'zbek tilshunosligida muhim nazariy manba sifatida qimmatga egadir. Olimning ilmiy merosi tilning obrazli imkoniyatlarini anglash, nominatsiya jarayonlarini chuqur tadqiq etish va badiiy matnni lingvo-uslubi yondashuv asosida tahlil qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

Ro'ziqul Normurodovning ilmiy qarashlari va metodologik yondashuvlari ko'plab yosh tadqiqotchilar uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda esa ushbu ilmiy an'ana uning avlodlari tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Xususan, olimning qizi Zarifa Normurodova ham ota izidan borib, filologiya sohasida olima hamda pedagog sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. U 2025-yilda "O'zbek tilidagi epitetlarning lingvopoetik tadqiqi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgani bilan ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Zarifa Normurodova o'z ishida epitetlarning nafaqat lingvistik, balki poetik xususiyatlarini ham atroflicha tahlil qilib berdi. Bu esa uning ilmiy izlanishlari faqat nazariy doira bilan cheklanib qolmay, amaliy va badiiy tafakkur bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, o'zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yondashuvlar yosh olimaning salohiyatini namoyon etdi. Zarifaning ushbu muvaffaqiyati, shubhasiz, oiladagi ilmiy muhit, tarbiya va an'analarning samarasi sifatida qaraladi. Chunki ilmiy sulolalarda bilim va tajriba faqat kitoblar orqali emas, balki kundalik muloqot, muhit va fikr almashinuvi orqali ham avloddan avlodga o'tadi.

Mazkur sulola faoliyati shuni ko'rsatadiki, ilmiy meros uzluksizlikni talab qiladi. Agar bir avlod boshlab bergan ish keyingi avlod tomonidan davom ettirilsa, bu nafaqat oila, balki butun jamiyat uchun katta yutuqdir. Zarifa Normurodovaning ilmiy yutuqlarini ham aynan shu uzluksizlikning samarasi sifatida baholash mumkin.

Marhum olimning ilmiy-ijodiy, hayotiy faoliyati haqida qancha fikr yuritsak, xuddi chashma kabi uning fazilatli qirralari balqib chiqaveradi. Bugun R.Normurodov oramizda yo'q, ammo uning so'zi, xotirasi va izlari safdoshlari, do'stlari, shogirdlari, qarindoshlari xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolaveradi.

Shukurov Abdulahad Ahmadovich,
Termiz davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori